

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**J.Sh.Tuxtabaev**

**Davlatning iqtisodiy xavfsizligi**

fanidan o'quv qo'llanma

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlarining 5A232401 - “Iqtisodiy xavfsizlik” ta'lim mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

**Bilim sohasi:** 200000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq

**Ta'lim sohasi:** 230000 – Iqtisod

**Ta'lim yo'nalishi:** 5A232401 – Iqtisodiy xavfsizlik

**Toshkent – 2021**

**UO'K:**  
**KBK**

**J.Sh.Tuxtabaev.** Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. O'quv qo'llanma. Toshkent. TDIU, 2021. - 241 b.

**Ж.Ш.Тухтабаев.** Экономическая безопасность государства. Учебное пособие. Ташкент. ТГЭУ, 2021. – с. 241.

**J.Sh.Tukhtabaev.** Economic security of the state. Textbook. Tashkent. TSUE, 2021. – p. 241.

**Taqrizchilar:**

**T.Bekmurodov** - i.f.n., O'zbekiston Milliy Universiteti dotsenti;

**A.Yadgarov** – i.f.n., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Iqtisodiy xavfsizlik” kafedrasida dotsent

O'quv qo'llanmada davlatning iqtisodiy xavfsizligi va ularni bartaraf etishning nazariy asoslari va ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan mavzular yoritilgan. Ushbu mavzularda davlatning iqtisodiy xavfsizligiga oid tushunchalarning mohiyati, ularning o'ziga xos xususiyatlari va namoyon bo'lish shakllari, mamlakat xavfsizligini ta'minlashda huquqiy-me'yoriy asoslar, iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar, davlatning iqtisodiy xavfsizligi holatini baholovchi kursatkichlar, favqulotda holatlarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash yo'llari pul-kredit va fiskal siyosat, tashqi iqtisodiy siyosati va kiber xavfsizlikning asoslari tahlil qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 5A232401 - “Iqtisodiy xavfsizlik” mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan, shuningdek, davlatning iqtisodiy xavfsizligi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, professor-o'qituvchilar, izlanuvchilar va shu sohaga qiziquvchi ko'p sonli kitobxonlarga mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021 yil \_\_\_\_\_-sonli qarori bilan nashr etishga ruxsat berildi.

**ISBN 978–9943–**

© « \_\_\_\_\_ » nashriyoti, 2021.  
© J.Sh.Tuxtabaev. 2021.

## МУНДАРИЖА

<b>КИРИШ</b>		<b>9</b>
<b>1- БОБ</b>	<b>“Давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги” фанининг предмети ва вазифалари</b>	<b>12</b>
1.1.	“Давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги” ва унинг таркиби.	12
1.2.	Фаннинг тузилиши ва унинг иқтисодий фанлар тизимида тутган ўрни ҳамда бошқа ўқув фанлар билан боғлиқлиги.	14
1.3.	Давлатнинг иқтисодий хавфсизлигининг моҳияти ва таркибий элементлари.	18
1.4.	Фаннинг иқтисодий ислохотлар давридаги мақсади ва асосий вазифалари.	20
<b>2-БОБ</b>	<b>Давлатнинг иқтисодий хавфсизлигини тартибга солишнинг ҳуқуқий-меъёрий асослари</b>	<b>24</b>
2.1.	Давлатнинг иқтисодий хавфсизлигини тартибга солувчи асосий ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатларнинг таркиби.	24
2.2.	Давлатнинг иқтисодий хавфсизлигини тартибга солувчи асосий ҳуқуқий ҳужжатларнинг тузилиши.	28
2.3.	Давлатнинг иқтисодий хавфсизлигига оид ҳуқуқий ҳужжатларнинг мақсад ва вазифалари.	33
<b>3- БОБ</b>	<b>Давлатнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминловчи органлар фаолияти</b>	<b>40</b>
3.1.	Давлатнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминловчи органлар фаолияти тизими.	40
3.2.	Давлатнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминловчи органлар фаолиятининг мақсад ва вазифалари.	42
3.3.	Давлатнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашдаги концепцияси ва унинг асосий йўналишлари.	60
<b>4- БОБ</b>	<b>Давлатнинг иқтисодий хавфсизликка таҳдидлар</b>	<b>71</b>
4.1.	Давлатнинг иқтисодий хавфсизлигига ички таҳдидлар.	71
4.2.	Давлатнинг иқтисодий хавфсизлигига ташқи таҳдидлар.	77
4.3.	Хуфёна иқтисодиётнинг мазмуни, вужудга келиш сабаблари ва унга қарши кураш усуллари.	81
4.4.	Коррупция ва унга қарши кураш.	84
<b>5- БОБ</b>	<b>Давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги ҳолатини баҳолашнинг асосий мезон ва кўрсаткичлари</b>	<b>88</b>
5.1.	Давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги ҳолатини баҳоловчи кўрсаткичлар таснифи.	88
5.2.	Давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги кўрсаткичларини ҳисоблашнинг асосий усуллари.	91
5.3.	Давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги кўрсаткичларининг чегаравий қийматлари.	97
5.4.	Давлатнинг иқтисодий хавфсизлигининг асосий кўрсаткичлари таҳлили.	100

<b>6- БОБ</b>	<b>Фавқулотда ҳолатларда давлатнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш йўллари</b>	<b>105</b>
6.1.	Фавқулотда ҳолатлар ва уларнинг таснифи.	105
6.2.	Пандемиянинг давлатнинг иқтисодий хавфсизлигига таъсири.	111
6.3.	Пандемия шароитида давлатнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашдаги чоралари.	115
6.4.	Фавқулотда ҳолатлар содир бўлган давлатнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашдаги устувор вазифалари.	121
<b>7- БОБ</b>	<b>Давлатнинг иқтисодий хавфсизликни таъминлашнинг хориж тажрибаси</b>	<b>128</b>
7.1.	Хорижий мамлакатларда давлатнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш мақсадлари.	128
7.2.	Давлатнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг Шимолий Америка (АҚШ, Канада) тажрибаси.	129
7.3.	Давлатнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг Европа иттифоқига аъзо давлатлар (Германия, Франция, Испания, Италия) тажрибаси.	133
7.4.	Давлатнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг Россия, Хитой, Япония тажрибаси.	142
<b>8- БОБ</b>	<b>Давлатнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашда пул-кредит сиёсатининг ўрни</b>	<b>152</b>
8.1.	Давлатнинг пул-кредит сиёсати моҳияти ва вазифалари.	152
8.2.	Давлатнинг пул-кредит сиёсатини тартибга солишдаги чоралари.	154
8.3.	Давлатнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг пул-кредит сиёсати механизми.	159
<b>9- БОБ</b>	<b>Давлатнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашда фискал сиёсат</b>	<b>168</b>
9.1.	Давлат фискал сиёсатининг мақсад ва вазифалари.	168
9.2.	Фискал сиёсатни амалга оширишнинг самарали дастаклари.	170
9.3.	Давлатнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашда фискал сиёсатнинг устуворйуналишлари.	173
<b>10- БОБ</b>	<b>Давлатнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашда ташқи иқтисодий фаолият сиёсати</b>	<b>179</b>
10.1.	Ташқи иқтисодий фаолият ва миллий манфаатлар.	179
10.2.	Ўзбекистоннинг жаҳон иқтисодий тизимидаги тутган ўрни ва унинг манфаатларига таҳдидлар.	181
10.3.	Божхона сиёсатининг давлатнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашдаги вазифалари.	186
10.4.	Ўзбекистоннинг халқаро ташкилотларда иштироки ва миллий манфаатларни ҳимоя қилиши.	200

<b>11- БОБ</b>	<b>Давлатнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашда кибер хавфсизлик</b>	<b>211</b>
11.1.	Ахборот технологияларнинг иқтисодий хавфсизликни таъминлашдаги ўрни.	211
11.2.	Ахборот технологияларда хавфсизлик тизимлари.	213
11.3.	Кибер хавфларнинг иқтисодий хавфсизликни таъминлашдаги таҳдидлар.	217
11.4.	Кибер хавфсизликни таъминлаш йўллари.	223
<b>ГЛОССАРИЙЛАР</b>		<b>226</b>
<b>Фойдаланилган адабиётлар рўйхати</b>		<b>233</b>

## СОДЕРЖАНИЕ

<b>ВВЕДЕНИЕ</b>		<b>9</b>
<b>Глава 1</b>	<b>Предмет и задачи темы «Экономическая безопасность государства».</b>	<b>12</b>
1.1.	«Экономическая безопасность государства» и ее структура.	12
1.2.	Структура науки и ее роль в системе экономических наук, а также ее взаимосвязь с другими дисциплинами.	14
1.3.	Сущность и составляющие экономической безопасности государства.	18
1.4.	Цель и основные задачи науки в период экономических реформ.	20
<b>Глава 2</b>	<b>Нормативно-правовая база регулирования экономической безопасности государства</b>	<b>24</b>
2.1.	Состав основных нормативно-правовых документов, регулирующих экономическую безопасность государства.	24
2.2.	Состав основных правовых документов, регулирующих экономическую безопасность государства.	28
2.3.	Цели и задачи правовых документов, связанных с экономической безопасностью государства.	33
<b>Глава 3</b>	<b>Деятельность органов обеспечения экономической безопасности государства</b>	<b>40</b>
3.1.	Система деятельности органов обеспечения экономической безопасности государства.	40
3.2.	Цели и задачи органов государственной безопасности.	42
3.3.	Понятие экономической безопасности государства и ее основные направления.	60
<b>Глава 4</b>	<b>Угрозы экономической безопасности государства</b>	<b>71</b>
4.1.	Внутренние угрозы экономической безопасности государства.	71
4.2.	Внешние угрозы экономической безопасности государства.	77
4.3.	Содержание теневой экономики, причины ее возникновения и методы борьбы с ней.	81
4.4.	Коррупция и борьба с ней.	84
<b>Глава 5</b>	<b>Основные критерии и показатели оценки состояния экономической безопасности государства</b>	<b>88</b>
5.1.	Классификация показателей, оценивающих состояние экономической безопасности государства.	88
5.2.	Основные методы расчета показателей экономической безопасности государства.	91
5.3.	Пороговые значения показателей экономической безопасности государства.	97

5.4.	Анализ ключевых показателей экономической безопасности государства.	100
<b>Глава 6</b>	<b>Способы обеспечения экономической безопасности государства в чрезвычайных ситуациях</b>	<b>105</b>
6.1.	Чрезвычайные ситуации и их классификация.	105
6.2.	Влияние пандемии на экономическую безопасность государства.	111
6.3.	Меры по обеспечению экономической безопасности государства в случае пандемии.	115
6.4.	Приоритеты в обеспечении экономической безопасности государства, в котором возникла чрезвычайная ситуация.	121
<b>Глава 7</b>	<b>Зарубежный опыт обеспечения экономической безопасности государства</b>	<b>128</b>
7.1.	Задачи экономической безопасности государства в зарубежных странах.	128
7.2.	Опыт Северной Америки (США, Канада) в обеспечении экономической безопасности государства.	129
7.3.	Опыт стран-членов ЕС (Германия, Франция, Испания, Италия) в обеспечении экономической безопасности страны.	133
7.4.	Опыт России, Китая, Японии в обеспечении экономической безопасности страны.	142
<b>Глава 8</b>	<b>Роль денежно-кредитной политики в обеспечении экономической безопасности государства</b>	<b>152</b>
8.1.	Сущность и цели денежно-кредитной политики государства.	152
8.2.	Меры государства в регулировании денежно-кредитной политики.	154
8.3.	Механизм денежно-кредитной политики для обеспечения экономической безопасности государства.	159
<b>Глава 9</b>	<b>Фискальная политика в обеспечении экономической безопасности государства</b>	<b>168</b>
9.1.	Цели и задачи государственной фискальной политики.	168
9.2.	Эффективная поддержка реализации фискальной политики.	170
9.3.	Приоритеты фискальной политики в обеспечении экономической безопасности государства.	173
<b>Глава 10</b>	<b>Политика внешнеэкономической деятельности в обеспечении экономической безопасности государства</b>	<b>179</b>
10.1.	Внеэкономическая деятельность и национальные интересы.	179
10.2.	Роль Узбекистана в мировой экономической системе и угрозы его интересам.	181
10.3.	Роль таможенной политики в обеспечении экономической безопасности государства.	186

	безопасности государства.	
10.4.	Участие Узбекистана в международных организациях и защита национальных интересов.	200
<b>Глава 11</b>	<b>Кибербезопасность в обеспечении экономической безопасности государства</b>	<b>211</b>
11.1.	Роль информационных технологий в обеспечении экономической безопасности.	211
11.2.	Системы безопасности в информационных технологиях.	213
11.3.	Кибер угрозы - угроза экономической безопасности.	217
11.4.	Способы обеспечения кибер безопасности.	223
<b>ГЛОССАРИИ</b>		<b>226</b>
<b>СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ</b>		<b>233</b>



## KIRISH

Milliy va xalqaro rivojlanishda xavfsizlik masalasi alohida o'ringa ega bo'lib, uning holati turli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy qarorlarni qabul qilishda muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, xavfsizlikni ta'minlash har bir davlat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Xavfsizlikni ta'minlashning dolzarbligi uning milliy va mintaqaviy xavfsizligi, barqarorlikni ta'minlash masalalari, jahon hamjamiyatining zamonaviy sharoitlarida asosiy tahdid va xavfsizlik tizimidagi har qanday o'zgarishlar turli xavf-xatar va tahdidlarning namoyon bo'lishi bilan birga kechadi. Shuning uchun xavfsizlikni ta'minlash, unda bo'ladigan zamonaviy tahdidlarni oldini olish masalasi yuzaga keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yil 7 fevralda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi”dagi PF-4947-sonli Farmoniga muvofiq tasdiqlangan dasturning “Iqtisodiyotni yanada rivojlanirish va liberallashtirish” deb nomli uchinchi yo'nalish 3.2-bandida “Tarkibiy o'zlashtirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish” vazifalari belgilangan. Dasturning 5-bo'limi “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar” nomli yo'nalishning 5.1-bandida “O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suverentiteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish; axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga qarshi o'z vaqtida va munosib harakatlarni tashkil etish; davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O'zbekiston qurolli kuchlarining jangovor qudrati va salohiyatini oshirish; atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genefondiga zarar yetkazadigan ekologik muammolarning oldini olish; favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish; favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish” kabi vazifalar belgilangan. Shundan kelib chiqib qayd etish lozimki, mamlakatimizda zamonaviy xavfsizlikni ta'minlashning ilmiy va amaliy asoslarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, mazkur o'quv

qo'llanmada zamonaviy xavfsizlikni ta'minlashning institutsional yo'nalishlari bo'yicha maqsad va vazifalar bayon etilgan<sup>1</sup>.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi fanining maqsadi talabalarga ichki va xalqaro xavfsizlikka tahdidlarning murakkab tabiati va davlatlar ularga qanday munosabatda bo'lishini o'rganadi. Xavfsizlik tadqiqotlarining an'anaviy yo'nalishi urush fenomeniga aylangan bo'lsa-da, so'nggi yigirma yil ichida ushbu sohaning ulkan o'sishi va kengayishi kuzatildi. Ba'zi olimlar harbiy kuchning tahdidini, ishlatilishini va uni boshqarishni o'rgangan bo'lsa, boshqalari terrorizm, uyushgan jinoyatchilik va isyon yoki qurolli isyon kabi siyosiy zo'ravonlikning turli shakllarini o'rganganlar. Ushbu sohadagi tadqiqotlar, shuningdek, mudofaa va tashqi siyosati, xalqaro munosabatlarning an'anaviy nazariyalari, milliy va mintaqaviy ishlarning qiyosiy tahlili, etika va axloqiy munosabatlar bo'yicha tadqiqotlarni o'z ichiga oladi.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi fanida xavfsizlik siyosati va qurol savdosi, qaroqchilik, ommaviy qirg'in qurollari uchun materiallar va texnologiyalar tarqalishi kabi transmilliy muammolar o'rganadi. “Davlatning iqtisodiy xavfsizligi” fani o'z ichiga quyidagi vazifalarni oladi:

- birinchidan, zamonaviy xavfsizlik bo'yicha tadqiqotlar va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
- ikkinchidan, sanoat korxonalarini shaharlarni ekologik holatga salbiy ta'sir etuvchi ichki va tashqi tahdidlarni aniqlash;
- uchinchidan, respublika iqtisodiyoti taraqqiyotining xarakterli xususiyatlarini o'rganish va rivojlanish istiqbollari belgilash;
- to'rtinchidan, xavfsizlikni taminlashda mamlakatni energiya ta'minoti bilan ta'minlash yo'llari yo'llarini belgilash;
- beshinchidan, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning xorij tajribasini o'rganish va mamlakatimiz axborot xavfsizligini ta'minlash yo'llari sharoitiga mos keladigan jihatlarini qo'llash. Shuningdek, “Davlatning iqtisodiy xavfsizligi” fan kursi maxsus mutaxassislik fanlardan biri bo'lib, boshqa mutaxassislik kurslarni chuqur o'rganishda

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu o'quv qo'llanma xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun va mohiyatini hamda uni qo'llashda xalqaro konventsiya va normativ hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunlarga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlariga, farmon va qarorlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asoslanadi.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi talablari va Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning qarori bilan tasdiqlangan hamda kredit modul tizimi asosida ta'lim olayotgan 5A232401 - “Iqtisodiy xavfsizlik” ta'lim mutaxassisligining “Davlatning iqtisodiy xavfsizligi” fanining o'quv fan dasturi asosida yozilgan bo'lib, ushbu o'quv qo'llanmada o'qitishning yangi ta'lim texnologiyasidan foydalanilgan holda har bir mavzu bo'yicha maqsad, mazmuni, mohiyati va ahamiyati yoritilgan hamda mavzu bo'yicha nazorat va muhokama uchun savollar, tayanch iboralar, glossariylar va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

“Davlatning iqtisodiy xavfsizligi” fanining o'quv qo'llanmasi asosan oliy o'quv yurtlarining magistratura ta'lim mutaxassisligining 5A232401 – Iqtisodiy xavfsizlik talabalari uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari, zamonaviy xavfsizlik muammolari bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, talabalar, tadqiqotchilar, ilmiy izlanuvchilar hamda xavfsizlikni ta'minlovchi soha xodimlari ham foydalanishlari mumkin. Ushbu o'quv qo'llanma zamonaviy xavfsizlik bilan bog'liq muammolar, masalalar va ularni echish uchun imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi degan fikrdamiz.

Muallif “Davlatning iqtisodiy xavfsizligi” fanining o'quv qo'llanmasi sifatida unga bildirilgan fikr, mulohazalar hamda takliflarni minnatdorlik bilan qabul qiladi va samimiy tashakkur bildiradi

## **I-BOB. “DAVLATNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI” FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI**

### **1.1. “Davlatning iqtisodiy xavfsizligi” va uning tarkibi**

“Davlatning iqtisodiy xavfsizligi” tushunchasi mamlakatimiz iqtisodiy boshqaruv va huquq tartibot organlari faoliyatida nisbatan yangi tushuncha hisoblanadi. Bu tushuncha ko‘proq G‘arb mamlakatlari tuzilmasida keng tarqalgan hisoblanadi. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi - bu iqtisodiy mustaqillik va qaramlik, barqarorlik va zaiflik, iqtisodiy bosim, shantaj, majburlash va tajovuz va boshqa kategoriyalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy va siyosatshunoslikning sintetik toifasidagi tushunchasi hisoblanadi.

“Davlatning iqtisodiy xavfsizlik” toifasining ma'nosini tushunish uchun avvalo “xavfsizlik” atamasini tavsiflash va uning mohiyati nima ekanligini aniqlash lozim bo‘ladi. Innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi sharoitida xavfsiz mavjudlik sohasi shu qadar torayib boradiki, bu ehtiyojni doimiy va ommaviy qondirmaslik shaxslarning, oilalarning, korxonalarining, davlatning va umuman jamiyatning faoliyati rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda hamda hayotining barcha sohalaridagi inqiroz holatini vujudga keltirmoqda.

XIX asrning oxirlariga kelib, “xavfsizlik” va “milliy xavfsizlik” tushunchalarining dolzarbligi oshishiga: insoniyat rivojlanishining murakkablashuvi; yadro, atom va boshqa ommaviy qirg‘in qurollarining keng tarqalishi; ekologik vaziyatning yomonlashuvi; yangi xavfli kasalliklarning vujudga kelishi (koronavirus); terrorizm xavfining kuchayishi; totalitar tuzum emirilganidan keyin dunyoning qarama-qarshi qutblarga bo‘linishi barham topgandan keyingi davlatlar o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi; yangi mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishi; bozor islohotlarining amalga oshirilishi sabab bo‘ldi.

“Xavf” va “xavfsizlik” tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, iqtisodiy va iqtisodiy bo‘lmagan tahdidlarni o‘rganmasdan iqtisodiy xavfsizlikni to‘liq o‘rganish mumkin emas. Buni, masalan, resurslardan foydalanishdan mahrum qilish,

ochlikka olib keladigan yoki pul muomalasining buzilishi, mamlakatning iqtisodiy tizimining izdan chiqishi yoki hukumatning iqtisodiyotni boshqarish qobiliyatini yo'qotishi kabi tushuniladi. Xavfsizlik muammosining muhim jihati bu mamlakatning xalqaro iqtisodiy tizimda institutsional qismi bilan aloqalaridir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalasi doimo ustivor vazifa hisoblanadi, chunki xalqaro iqtisodiy tartiblarga amalga qilgan holda choralarni ko'rish lozim bo'linadi. Xavf-xatarning namoyon bo'lish shakllari: tabiiy kataklizmalar (tabiiy ofatlar), ijtimoiy kataklizmalar (ocharchilik, kambag'allik, qashshoqlik, ijtimoiy larzalar), urushlar (qo'roli to'qnashuvlar, terrorizm, ijtimoiy revolyusiyalar), inqirozlar (siyosiy, iqtisodiy, energetik, ma'naviy, g'oyaviy, mafkuraviy)dan iboratdir. Xavf-xatar davlat va jamiyat rivojlanishiga tahdid soluvchi kuch hisoblanib, har bir mamlakat iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun iqtisodiyotda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashi zarurdir.

Barcha tahdidlar xalqaro, davlatning iqtisodiy xavfsizligi tahdidlariga, shuningdek korxonalar va jismoniy shaxslarning iqtisodiy xavfsizlik tahdidlariga bo'linadi. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ikkita tahdid vujudga keltiradi, bu ichki va tashqi tahdidlardir. Ichki tahdidlar umumiylik davlat iqtisodiyotining hozirgi holati ta'siri ostida yuzaga keladi. Shunday qilib, agar mamlakatda ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarni samarali rivojlantirishga e'tibor qaratilmasa, iqtisodiy, siyosiy va ekologik vaziyat keskinlashgan taqdirda mamlakat iqtisodiy mustaqilligiga putur etkazadigan omillar bo'lishi mumkin. Tashqi tahdidlar esa mamlakat tashqarisidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlarni anglatadi.

“Davlatning iqtisodiy xavfsizligi” fanining mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi tutgan o'rnini tasniflasak, har bir davlat o'z mamlakat iqtisodiyotini turli xildagi xavf va xatarlardan saqlash borasida jamiyatda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy qonuniyatni yaratib xavfsizlikni ta'minlashga erishadi. Xavfsizlik muammosi mustaqil davlatchilikning shakllanishi va jamiyatda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy manfaatlarning qaror topishi bilan bir paytda vujudga keladi. Chunki shu vaqtdan boshlab, barqarorlik, rivojlanish bilan bir qatorda xavf-xatar, turli-tuman tahdidlar ham paydo bo'lib, ularni hisobga olish, ularga asoslanib, davlat strategiyasi

va siyosatini ishlab chiqish hamda amalga oshirish davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Milliy xavfsizlik bu davlat va jamiyatni ichki va tashqi tahdidlardan, fuqarolarni shaxsiy holatini himoya qilish, ularning konstitutsiyaviy huquqini, erkinligini, turmush darajasini yuqori sifatli tashkil qilishni, hududiy yaxlitlikni va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkonini ifodalaydi.

“Davlatning iqtisodiy xavfsizligi” fanining predmeti milliy iqtisodiy xavfsizlik nuqtai-nazaridan davlat, jamiyat va shaxslarning hayotiy qiziqishlarini, jami ehtiyojlarini progressiv rivojlanishining imkoniyatlarini ta'minlash, mamlakat hududining iqtisodiy xavfsizligi jihatidan mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining aniq bir funksional yo'nalishi bo'yicha uning manfaatlarini farqlanishi, ularning faoliyatini amalga oshirishda differensial tizimdan foydalanish, ularni himoya qilish uchun ustuvor yo'nalishlarini ta'minlash imkonini yaratishdan iborat.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi fanining tuzilishi o'z ichiga xavfsizlik tizimini shakllanishining huquqiy-me'yoriy asoslarini, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlovchi organlar faoliyati, xavfsizlikka tahdidlar, xavfsizlik holatini baholashning asosiy mezon va ko'rsatkichlari, favqulotda xolatlarda xavfsizlikni ta'minlash yo'llari, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning xorij tajribasi, pul-kredit va fiskal siyosat, tashqi iqtisodiy faoliyat siyosati, kiber xavfsizlikni o'rganishdan tashkil topgan.

## **1.2. Fanning tuzilishi va uning iqtisodiy fanlar tizimida tutgan o'rni hamda boshqa o'quv fanlar bilan bog'liqligi**

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari XVII-XVIII asrlarda jadal rivojlandi, bu davrda kapitalizm shakllangan va etakchi iqtisodiy tizim barpo etila boshlagan edi. Bu davrda xavfsizlikning kafolati sifatida davlatning roli to'g'risida nuqtai-nazar shakllandi. Masalan, xavfsizlik holatini ta'minlashi kerak bo'lgan davlat uchun xavfsizlik maqsadlarining ahamiyatini J.J.Russo o'zining “Ijtimoiy shartnoma to'g'risida”gi asarida keng bayon qilib o'tgan. Faqat 1930 yillarda yuzaga kelgan AQSH iqtisodiy inqirozi bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy

jarayonlarga davlat aralashuvi zarurligi to'g'risida tushunchalar paydo bo'ldi. Bularning barchasidan kelib chiqadiki, iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarga qarshi Mkurashish siyosatining asosi iqtisodiy kontseptsiyaga bog'liqdir.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi muammolari haqidagi qarashlarni quyida kurib tasniflaymiz (1-jadval):

1) davlatning hal qiluvchi rolini oshirish (XVI-XVII asrlar) merkantilizm tarafdorlari;

2) klassik kontseptsiya (XVIII - XIX asrlar), bunda davlatning roli faqat bozorning ishlashi uchun shart-sharoitlar yaratish bilan cheklanishi lozim;

3) mahalliy tovarlar savdosi bilan bog'liq proteksionizmni anglatuvchi kameralistik tushuncha (XIX-asrning o'rtalaridan);

4) Keynsning kontseptsiyasi (XX asrning ikkinchi yarmidan) mamlakatda yuzaga keladigan tahdidlarga qarshi kurashish choralarini shakllantirishda davlatning roli;

5) byurokratik funktsiyalarni ratsionalizatsiya qilish bo'yicha institutsional kontseptsiya (XX asr oxiridan).

Merkantilizm ishlab chiqaruvchilar va savdogarlarning strategiyalarini belgilashda davlat ustuvorligini anglatadi. Merkantilistik g'oyalar bugungi kunda rivojlangan mamlakat darajasida muhim rol o'ynaydi. Bir tomondan, ularning mavjudligi bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga byurokratik to'siqlar yaratsa, boshqa tomondan esa, merkantilizm g'oyalaridan samarali foydalanish mumkin, masalan, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalasini ko'rib chiqishda.

Klassik yondashuv namoyondasi bo'lgan A.Smit tomonidan ijtimoiy rivojlanish manbai shaxsning manfaatlarini amalga oshirish, davlat ishtirokisiz avtonom ravishda amalga oshiriladi deb ta'kidlagan.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligigaturlicha yondashuvlar<sup>2</sup>

Xarakteristikalar tushunchalar	Merkantilizm yo'nalishi	Klassik yo'nalish	Kameralist yo'nalish	Keyns yo'nalishi	Institutsional yo'nalish
Tushunchaning vujudga kelgan davri	XVI-XII asrlar	XVIII-XIX asrlar A.Smit	1840 yil Fridrix ro'yxati	1930 yillar Jon M.Keyns	1980-yillar, Hernando de Soto
Davlatning iqtisodiy xavfsizligiga asosiy tahdidlarni tushunish	Davlatning asosiy roli	Xususiy mulchilikni davlat himoya qiladi	Raqobat yoki xorijiy davlatlarning boshqa harakatlari	Iqtisodiy inqirozlar, bandlikning pasayishi, inflyatsiya jarayonlari	Davlat tuzilmalari tomonidan haddan tashqari ma'muriyatchilik, ushbu tuzilmalarning jamiyatdagi mavqeidan ustunliklarni izlash
Davlatning iqtisodiy xavfsizligi uchun kurashning maqsadi	Davlat maqsadlariga muvofiqligi	Davlatning minimal aralashuvi bilan milliy iqtisodiyotning normal ishlashi uchun sharoit yaratish	Iqtisodiy mustaqillik	Iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik	Mulkchilik huquqini himoya qilish
Davlatning iqtisodiy xavfsizligi uchun kurashish usullari	Davlat tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish choralarini ko'radi	Davlatning ta'siri minimaldir	Proteksionistik savdo siyosati	Ishlab chiqarish jarayonlariga, ishsizlikka, pul muomalasiga ta'sir ko'rsatishda davlat tomonidan turli vositadan foydalanish	Davlat tomonidan tartibga solish darajasining pasayishi, korruptsiyaga qarshi kurash

<sup>2</sup> Нуреев Р.М. Экономика развития: модели становления рыночной экономики: учебное пособие. М.: ИНФРА-М, 2001. См. также: Лист Ф. Национальная система политической экономии. - М.: Европа, 2005; Витте С.Ю. По поводу национализма. Национальная экономия и Фридрих Лист. - СПб.: Тип. Брокгауз-Ефрон, 1912; Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. - М.: Экономика, 1993; Сочинения де Сото Э. Иной путь. Невидимая революция в третьем мире. - М.: Catallaxy, 1995.



Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yondashuvlarning ayrimlarini ko'rib chiqamiz. 1930-yillarda Buyuk depressiya davrida rivojlangan davlatlar iqtisodchilari iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash muammolariga e'tibor qaratdilar. Ular iqtisodiy inqirozlar ichki sabablarga ko'ra ham bo'lishi mumkinligini aniqladilar. Shuni aniqlagan olimlardan biri bu J.M.Keyns hisoblanadi, u mamlakat iqtisodiyotidagi asosiy tahdidlar ishsizlik darajasi va iqtisodiy tushkunlik bilan bog'liqligini asoslagan<sup>3</sup>. Keyns konsepsiyasiga muvofiq, ushbu salbiy omillarga qarshi kurashish davlat idoralari tomonidan nafaqat bilvosita chora-tadbirlar (davlat buyurtmalari, subsidiyalar va boshqalar) amalga oshirilishi orqali, balki raqobat muhitining holatiga bevosita ta'sir ko'rsatish orqali ham ta'sir ko'rsatish lozimligini qayd etishgan.

XX-asrning oxirlariga kelib Keynsning davlat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashdagi nazariyasi o'zining mashhurligini biroz yo'qotdi. uning o'rnini iqtisodiy rivojlanish haqidagi neoklassik g'oyalar o'z o'rnini egalladi. Ammo, neoklassik nazariyasida ular iqtisodiy shaxsning rolini tasdiqlasalar, iqtisodiy sohada amaliy qadamlarni belgilashda ular umuman davlat bilan bog'liq tizimli muammolar mavjudligini ilgari so'rishadi. Ular bunday muammolar, masalan, asosiy muammo sifatida inflyatsiya, ishsizlik, iqtisodiy rivojlanishning past dinamikasi haqidagi qarashlari shular jumlasidan.

XX-asrning oxirida paydo bo'lgan institutsional yondashuv xufyona iqtisodiyotning mavjudligi va o'sishi uchun asosiy sabab - bu raqobatning haddan tashqari cheklanganligi deb e'tirof etuvchi institutsional yondashuv vakillari paydo bo'ldi. Ya'ni, institutsionalistlarning fikriga ko'ra, jinoiy bo'lmagan iqtisodiyotda merkantilizm ustunlik qiladi.

Hozirgi vaqtda iqtisodiy xavfsizlik muammolarini tahlil qilishda bir-birini to'ldiradigan turli yondashuvlar mavjud, chunki iqtisodiyotning holatiga ta'sir etuvchi salbiy omillar ham xorijiy kompaniyalarning raqobati, ham ichki bozor sabablari yoki davlat institutlari faoliyatining samarasizligi tufayli yuzaga kelishi mumkin.

---

<sup>3</sup>Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. - М.: Экономика, 1993.

Davlatning iqtisodiy sohasidagi xavfsizlikni ta'minlashga muayyan yondashuvlardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi, asosan, mamlakatning jahon hamjamiyatidagi mavqeiga bog'liq. Keyns paradigmasi iqtisodiyoti rivojlanayotgan va eng rivojlangan mamlakatlarda ko'proq qo'llaniladi. Institutsional muammolar birinchi navbatda rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan hal qilinishi kerak. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarga nisbatan proteksionizm barcha mamlakatlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan yordamchi chora hisoblanadi.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi muammosiga ushbu umumiy iqtisodiy yondashuvlar va mamlakatlarning milliy manfaatlarini shakllantirish va amalga oshirishda xavfsizlik masalalarini o'rganish vazifalarining vujudga kelishi bilan davlatning iqtisodiy xavfsizligi fani vujudga kelgan.

### **1.3. Davlatning iqtisodiy xavfsizligining mohiyati va tarkibiy elementlari**

XX-asrning oxirlariga kelib, "xavfsizlik" va "milliy xavfsizlik" tushunchalari bizning leksikonimizda tez-tez qo'llanila boshladi. Bu insoniyat rivojlanishining murakkablashuvi, yadro, atom va boshqa ommaviy qirg'in quollarining keng tarqalishi, ekologik vaziyatning og'irligi, yangi xavfli kasalliklarning vujudga kelishi, terrorizm xavfining kuchayishi, totalitar tuzum emirilganidan keyin dunyoning qarama-qarshi qutblarga bo'linishi barham topgandan keyingi davlatlar o'rtasidagi muvozanatning buzilishi, yangi mustaqil davlatlarning paydobo'lishi, ularda bozor islohotlarining amalga oshirilishi bilan izohlanadi. Dunyodagi bunday o'zgarishlar xavfsizlik, umumiy va milliy xavfsizlik muammolariga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirdi.

"Davlatning iqtisodiy xavfsizligi" tushunchasi davlat milliy xavfsizligini ta'min etuvchi asosiy bug'inlardan biri, mamlakat iqtisodiy ehtiyojlarini kafolatli ta'minlash yullari, vositalari va usullariga asoslanuvchi qarashlar yig'indisidir. Konseptual kurinishda u davlat iqtisodiy potentsiali holatidan kelib chiqadigan iqtisodiy xavfning asosiy omillari tahliliga asoslanadi. Kuchsiz va samarasiz iqtisodiyot orqalidavlatningiqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mumkin emas.

“Xavfsizlik” tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, turli ma’nolarda talqin etiladi. Shunga qaramasdan ularda umumiy g‘oya ham mavjud bo‘lib, bunga ko‘ra xavfsizlik insoniyat hayotining turli sohalarida vujudga keladigan xavf-xatardan himoyalani sh, kafolatlanish ma’nosini anglatadi.

Xavfsizlik qanday sohada, qanday shakl va qiyofada namoyon bo‘lmasin ularning barchasi umumiylik xususiyatiga egadir. Umuman, xavfsizlik xavf-xatardan himoyalani sh sharti va strategiyasi sifatida ijtimoiy tizim, shaxs, jamiyat va davlat faoliyatining normal amal qilishini ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

“Davlatning iqtisodiy xavfsizligi” tushunchasiga ko‘plab olimlar o‘zlarining qarashlarini berishgan. Ularni umumlashtirgan xolda, davlatning iqtisodiy xavfsizligi - bu, davlatning iqtisodiy tizimiga ta’sir qiluvchi va uning eng kam sarflar bilan barkaror rivojlanishi, shu asosida jamiyatning potensial imkoniyatlarini har tomonlama amalga oshirish uchun, milliy manfaatlar eng kup ifodalanishiga imkon beruvchi shart va omillar yig‘indisi, shuningdek, davlatning turli xil xavflar va yuqotishlarga qarshi turish qobiliyatidir.

Milliy xavfsizlik jamiyatning barcha bo‘g‘in va darajalaridagi xavfsizlikni ifodalaganidek, davlatning iqtisodiy xavfsizligi mamlakat hamda uning mintaqalari iqtisodiy xavfsizligini ham o‘z ichiga oladi. Milliy xavfsizlik davlat manfaatlarini himoya qilishning umumiy shakli hisoblanadi. Shuningdek, u mamlakat milliy manfaatidagi ehtiyojlarni o‘zida namoyon etish shakli hamdir. Boshqacha qilib aytganda, manfaat ehtiyojlarini qondirish va moddiy, ma’naviy, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo‘lish va farovonlikka intilish to‘g‘risidagi tasavvurlarning jamini o‘zi ifoda etadi.

Milliy xavfsizlik shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shaxs, fuqaro manfaatlari o‘z ichiga ularning konstitutsion huquq va erkinliklarini, yashash xavfsizligini ta’minlash, turmush darajasi va sifatini oshirish, jismoniy, ma’naviy, intellektual rivojlanishini ifoda etadi.

Mamlakatning milliy xavfsizligi uning milliy manfaatini turli siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ekologik, g‘oyaviy, informatsion va boshqa omillar hamda tahdidlardan himoya qilishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shu boisdan milliy xavfsizlik tarkibi

murakkab tuzilishga ega bo'lib, siyosiy, harbiy-mudofaa, g'oyaviy, iqtisodiy, ekologik, informatsion xavfsizliklarni o'z ichiga oladi.

Milliy xavfsizlik tushunchasi jamiyatning barcha bo'g'in va darajalaridagi xavfsizlikni ifodalaganidek, iqtisodiy xavfsizlik mamlakat hamda uning mintaqalari iqtisodiy xavfsizligini ham o'z ichiga oladi.

#### **1.4. Fanning iqtisodiy islohotlar davridagi maqsadi va vazifalari**

Davlatning iqtisodiy xavfsizligining muhim tarkibiy qismi, uni ta'minlashning eng muhim sharti yoki omili, ko'rsatkichi iqtisodiy xavfsizlikdir. Taniqli rus iqtisodchisi L.I.Abalkin ushbu tushuncha mohiyatini ochib beruvchi uch elementni ko'rsatib bergan<sup>4</sup>:

- iqtisodiy mustaqillik. Hozirgi jahon xo'jaligi sharoitida iqtisodiy mustaqillik absolyut xarakterga ega emas, chunki xalqaro mehnat taqsimoti milliy iqtisodiyotlarni bir-biriga o'zaro bog'liq qilib qo'yadi. Bunday jarayonda iqtisodiy mustaqillik davlatning iqtisodiy resurslar ustidan nazorat o'rnatish olish imkoniyatini, jahon savdosi, kooperatsiya aloqalari, ilmiy-texnika yutuqlarini ayirboshlashda teng ishtirok etish va raqobatbardoshlikni ta'minlaydigan ishlab chiqarish, samaradorlik va sifat darajasiga erishishni anglatadi;

- milliy iqtisodiyotning barqarorligi. Bu shaklidan qat'iy-nazar mulkchilikning himoya qilinishi, tadbirkorlik faolligi uchun ishonchli sharoit va kafolatlarning yaratilishi, mamlakatdagi holatning yomonlashuviga, beqarorlikka olib keluvchi omillarning jilovlanishini (ya'ni iqtisodiyotdagi kriminal tuzilmalarga qarshi kurash, daromadlar taqsimlanishida jiddiy farqlar, tabaqalanishning kelib chiqishi, ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashib ketishiga yo'l qo'yimaslik) taqozoetadi;

- o'z-o'zidan rivojlanish va taraqqiy etishga qodirlik. Bu esa investitsiyalar va innovatsiya uchun qulay muhitning yaratilishi, ishlab chiqarishning muntazam modernizatsiyalashuvi, yangilanishi va takomillashib borishi hamda xodimlarning bilim, kasb-malaka, umumiy madaniy darajalarining o'sib borishi milliy iqtisodiy

---

<sup>4</sup> Спанов М. Экономическая безопасность: сущность, критерии, формы // Транзитная экономика, 1998. – с. 3.

barqarorlik mavjudligining zaruriy shartiga aylanishini ifodalaydi(1-rasm).

**1-rasm**

### **Iqtisodiy xavfsizlik mazmuni**



Ushbu fikrlarga asoslangan holda “iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasini milliy iqtisodiyot mustaqilligi, uning barqarorligi, mustahkamligi, doimo yangilanishga va oʻz-oʻzidan takomillashib borishga qodirligini taʼminlovchi shart-sharoitlar va omillar yigʻindisi, deb taʼriflash mumkin.

Ichki iqtisodiy sohalarda xavfsizlik tabiiy, texnikaviy-iqtisodiy, infratuzilmaviy, ijtimoiy, mikro va makroiqtisodiy rivojlanishning boshqa omillari, shuningdek, beqarorlik, tanglikni keltirib chiqaruvchi ichki va tashqi tahdidlar taʼsiridan himoya qiluvchi ichki immunitetlar bilan bogʻliqdir. Tashqi iqtisodiy sohadagi xavfsizlik mamlakatning jahon bozoridagi raqobatbardoshligi, milliy valyutasi barqarorligi, davlatning moliyaviy ahvoli bilan tavsiflanadi.

Turli iqtisodiy tahdidlar, noxush holatlar oqibatida koʻrilgan zararlarning oʻrnini qoplash uchun zarur boʻlgan xarajatlarni prognoz qilish ham muhim ahamiyatga ega. Buning natijasida favquloddagi holatlar oqibatida koʻriladigan zararlarni qoplash, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni taʼminlashga yoʻnaltirilgan resurslarni baholash va oʻz vaqtida shakllantirish uchun imkoniyat yaratiladi.

Kompensatsion resurslar oʻz mazmuniga koʻra sugʻurta, zaxira resurslarini anglatadi. Kompensatsion salohiyat (potensial) mamlakat iqtisodiyotining tanglik, noxush holatlarga qayishqoqligini, uning oldini olish va uni engib oʻta olish, xoʻjalik jarayonlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barqarorligi va mustahkamligini tiklay olish qobiliyatini anglatadi. Kompensatsion salohiyat milliy iqtisodiyot, xalq

xo'jaligining biron-bir sektori yoki biron-bir yirik hududda noxushliklar vujudga kelganida ularni tiklay olishga qodirligini ifodalaydi.

Mamlakat iqtisodiy tizimining turli darajalaridagi iqtisodiy munosabatlar davlatning iqtisodiy xavfsizligi ob'ektlari bo'lib:

- makroiqtisodiy darajadagi mamlakatiqtisodiyoti;
- hududiy va tarmoq darajasidagi hudud va tarmoqiqtisodiyoti;
- oila va shaxs darajasidagi mamlakat fuqarolarining har birining iqtisodiy

manfaatlari. Yuqorida bildirilgan fikrlarga asosan xulosa qilib, keng ma'noda iqtisodiy xavfsizlikni milliy iqtisodiyotning samarali, dinamik o'sishiga, uning jamiyat, davlat, shaxs ehtiyojlarini qondirishning, tashqi bozorda raqobatga bardoshlilikini ta'minlovchi, turli tahdid va yo'qotishlardan kafolatlovchi ichki va tashqi sharoitlar yig'indisi deb ta'riflash mumkin bo'ladi.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi fanining asosiy vazifalari davlat va jamiyatni ichki va tashqi tahdidlardan, fuqarolarni shaxsiy holatini himoya qilish, ularning konstitutsiyaviy huquqini, erkinligini, yashash turmush darajasini yuqori sifatli tashkil qilishni, hududiy yaxlitlikni va mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlanishi, iqtisodiyot bilan mintaqaning davlat hokimiyati va boshqaruvi muassasalari o'rtasidagi muvozanatli holatda milliy manfaatlarning himoyalanganligi hamda siyosatning ijtimoiy yo'naltirilganligini ta'minlashdan iborat.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Xavf-xatar, xavfsizlik, iqtisodiy xavfsizlik, iqtisodiy mustaqillik, barqarorlik, mintaqaviy xavfsizlik, mintaqa iqtisodiyoti.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. "Davlatning iqtisodiy xavfsizligi" tushunchasining mohiyatini tushuntirib bering?
2. "Davlatning iqtisodiy xavfsizligi" fanining mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi tutgan o'rnini tavsiflab bering?
3. "Xavfsizlik" va "milliy xavfsizlik" tushunchalarining dolzarbligi oshishiga sabablarni tushuntirib bering?

4. “Xavf” va “xavfsizlik” tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'ligi tomonlarini tushuntiring?

5. “Davlatning iqtisodiy xavfsizligi” fanining predmeti nimalardan iborat?

6. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi fanining ob'ektini tavsiflang?

7. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi fanining tuzilishi o‘z ichiga qanday tizimni qamrab olgan?

8. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash masalalari nechanchi asrlarda jadal rivojlandi va buning sababi nimada edi?

9. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi muammolari haqidagi qarashlarni tavsiflang?

10. Davlatning iqtisodiy xavfsizligining mohiyatini ochib beruvchi uch elementni tavsiflab bering?

## **II-BOB. DAVLATNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TARTIBGA SOLISHNING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI**

### **2.1. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini tartibga soluvchi asosiy huquqiy -me'yoriy hujjatlarning tarkibi**

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini tartibga soluvchi asosiy me'yoriy-huquqiy bazasini ishlab chiqish quyidagi asosiy qoidalarga asoslanadi:

-“Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasini iqtisodiy sohaning holati va institutsional muhit sifatida aniqlash, har qanday mumkin bo'lgan salbiy omillarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi, millat manfaatlarini himoya qiladigan, yuqori turmush darajasi va mamlakatning zarur himoya darajasini ta'minlaydigan;

-tegishli huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish orqali amalga oshirilishi mumkin bo'lgan tahdidlarni aniqlash va ularga qarshi kurashish choralarini ishlab chiqish orqali tovarlarni ishlab chiqarish, tarqatish sohalarida, almashinish va iste'mol qilish sohalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlaydigan jamoat munosabatlarining shakllanishi;

- iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga yondoshuvlar ustuvorligi;

- ilmiy-tadqiqot, iqtisodiy jarayonlar;

- iqtisodiy sohada xavflarni amalga oshirishni kutishga qaratilgan chora-tadbirlarni shakllantirish;

- innovatsion texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqishni tashkil etish;

- iqtisodiyot sohasida xalqaro faoliyatda maqsadlarni shakllantirish va ularga erishish;

- iqtisodiy sohada xavfsizlikni ta'minlashning strategik maqsadlariga erishish uchun xavfsizlik tuzilmalarining kelishilgan harakatlarini tashkil etish;

- investitsiyalarni samarali boshqarishning oqilona siyosatini shakllantirish;

- O'zbekiston Respublikasi Xavfsizlik Kengashining iqtisodiy sohada xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar tizimini tashkil etuvchi Idoralararo komissiyasining faoliyati samaradorligini ta'minlash;



-tegishli huquqiy choralar, jamiyatdagi munosabatlar, iqtisodiyotga tahdidlar sabablarini o'rganish, qonun ijodkorligi va huquqni qo'llashga asoslangan iqtisodiy sohada xavfsizlikni ta'minlash tizimini yaratish.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi tizimining faoliyati zamonaviy kontseptsiyalarga javob beradigan ilmiy tushunchalar va huquqiy normalarni, huquq sub'ektlarining o'zaro muvofiq ishlashini rivojlantirishning muhimligini belgilaydigan huquqiy sohada amalga oshiriladi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash millatning rivojlanishi uchun muhim sharoitlarni yaratadi.

Agar "iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasini huquqiy tomondan ko'rib chiqsak, unda: birinchidan, bu huquqiy sohada tartibga solinadigan tovarlarni ishlab chiqarish, ayriboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarning holati; ikkinchidan, bu iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash vazifalari bilan belgilanadigan me'yoriy-huquqiy sohaning holatini ifoda etadi. Shunday qilib, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi qonun hujjatlarini tartibga solish predmeti bu sohada amalga oshiriladigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Davlat va jamiyat institutlarini o'z ichiga olgan huquq sub'yektlari, shuningdek, shaxslar iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadlariga erishish uchun huquqiy sohada birgalikda harakat qilishlari kerak. Iqtisodiyot sohasidagi milliy manfaatlarga tahdidlarni aniqlash bu harakat emas, balki jarayon, chunki vaqt o'tishi bilan ko'plab tahdidlar o'zgaradi. Shu sababli, huquq sohasidagi tartibga solish tahdidlarni faol aniqlashga, ularni tahlil qilishga va tegishli mezon va ko'rsatkichlardan foydalangan holda oqilona qarshi choralarni ishlab chiqishga yo'naltirilishi kerak.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi sohasidagi strategik qarorlarni tayyorlash Milliy xavfsizlik kontseptsiyasiga asoslanishi kerak. Strategiya hokimiyat tomonidan tegishli qonuniy hujjatlarni qabul qilish orqali amalga oshirilishi kerak. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash muammolari byudjetni rejalashtirish, pul-kredit sohalarida qarorlar qabul qilishda hisobga olinishi kerak.

Iqtisodiy xavfsizlik ta'minlanadigan huquqiy bazani shakllantirish ma'lum tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi, unga ko'ra, quyi darajadagi normativ-huquqiy hujjatlar ba'zi turdagi ijtimoiy munosabatlarga nisbatan yuqori darajadagi

aktlarga zid bo'lmasligi kerak, bu esa o'z navbatida ushbu munosabatlarni tartibga solmasligi kerak.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash yo'nalishida huquqiy tizimni rivojlantirish quyidagi vazifalarni hal qilishni talab qiladi:

- amaldagi huquqiy normalar va yangi qonun hujjatlariga muvofiqligini ta'minlash;

- iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash talablariga javob beradigan yangi qonunchilik bazasini shakllantirishdan iborat.

Tegishli huquqiy bazani shakllantirish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning zaruriy sharti bo'lsa ham, qonunlarning amalda bajarilishi muhimdir. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashni tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar tizimining uslubiy tarkibi quyidagicha. Xavfsizlik sohasidagi (xususan, iqtisodiy) shaxs, jamiyat va davlatning ob'ektiv ehtiyojlari to'g'risida sub'ektiv xabardorlik milliy manfaatlarni belgilashdan iborat. Ya'ni, milliy manfaatlar inson, jamiyat va davlatning iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi ob'ektiv ehtiyojlarini ifoda etishning sub'ektiv shaklidir. Bundan tashqari, iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni aniqlash orqali normativ huquqiy xavfsizlikning tuzilishi shakllantiriladi. Keyingi qadam milliy manfaatlarga tahdidlarga qarshi kurashish siyosatini aniqlash, ya'ni tegishli qarshi choralarini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi.

Mamlakatimizning xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizlik konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 1997-yil 29-avgustdagi 467-I-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan printsiplari va normalari, xalqaro shartnomalar va boshqa hujjatlardir. xavfsizlik sohasida o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari.

Davlatning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha davlat tomonidan ko'rilayotgan choralar milliy xavfsizlik sub'ektlarining birgalikdagi harakatlari natijasida amalga oshiriladi. Xavfsizlik choralarini shakllantirish va ularni amalga oshirishga rahbarlik qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan amalga oshiriladi. Bunday

harakatlarning muvofiqlashtirilishini O‘zbekiston Respublikasi Xavfsizlik Kengashi amalga oshiradi, u mamlakat ichkarisida va xalqaro miqyosda mamlakat Prezidenti tomonidan belgilanadigan masalalarni ko‘rib chiqadi.

Davlatning xavfsizlik strategiyasini aks ettiradigan hujjatlar tizimining eng muhim elementlari orasida:

- O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida rivojlanishining kontseptual qoidalari;

- rivojlantirish dasturlari;

- sanoatni rivojlanish strategiyasi;

- mintaqalarni rivojlanish strategiyasi;

- Xalqaro hamkorlik doirasidagi dasturlar;

- davlat darajasidagi maqsadli dasturlar;

- davlat mudofaasini saqlash tartibi;

- Milliy xavfsizlikning kontseptual qoidalari, asosiy yo‘nalishlari va strategiyalarini aks ettiruvchi boshqa hujjatlar.

Millat xavfsizligi bilan bog‘liq va keng qamrovli xususiyatga ega bo‘lgan ba‘zi masalalar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining kafolati sifatida davlat rahbarining vakolatlari bajarilishini ta‘minlaydigan tegishli vazifalar Xavfsizlik Kengashi, yuqori va qo‘yi palatalarning qo‘shma majlislarida muhokamasiga kiritilishi mumkin.

O‘z faoliyatida milliy xavfsizlikni ta‘minlash tizimi xalqaro va mahalliy huquq normalariga asoslanadi. O‘zbekiston Respublikasining eng muhim normativ hujjatlariga quyidagilar kiradi: Konstitutsiya, qonunlar, mamlakat Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining farmon va qarorlari hamda boshqa normativ hujjatlar.

Mintaqa miqyosida xavfsizlikni ta‘minlashning huquqiy asoslari bu mintaqa darajada qabul qilingan qaror va farmonlar hamda boshqa me‘yoriy hujjatlar hisoblanadi. Shuningdek, mintaqadagi davlat organlarining huquqiy hujjatlari, mahalliy hokimiyatlar faoliyatidagi qabul qilingan qarorlar va boshqa huquqiy hujjatlardan iborat.

## **2.2. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjatlarning tuzilishi**

Milliy va minaqaviy tuzilmalarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, inson huquqlari va erkinliklariga og'ishmay rioya etish, jamiyatdagi millatlararo totuvlik, tinchlik va osoyishtalik, mamlakatni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish huquqiy hujjatlarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Xavfsizlik mamlakatning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi, iqtisodiy va mudofaa salohiyatini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish tizimidan iboratdir.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy hujjatlar tizimi qonuniylik, tenglik, insonparvarlik va baynalmilallik tamoyillariga asoslangan holda qurilgandir. Mazkur huquqiy hujjatlar o'z oldiga quyidagi vazifalarni belgilaydi:

- davlat xavfsizligi manfaatlariga daxldor bo'lgan terrorizm va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish;

- O'zbekiston Konstitutsiyasi va mustaqilligini g'ayriqonuniy tajovuzlardan himoya qilish;

- respublika davlat chegarasining daxlsizligini ta'minlash yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko'rish;

- ijtimoiy-iqtisodiy, mudofaa qurilishi va fan-texnika taraqqiyoti, tashqi siyosat va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq xavfsizlik choralarni ta'minlash;

- maxfiy axborotlarni muhofaza qilish, kriptografik va texnik jihatdan muhofaza qilish;

- xalq xo'jaligining barcha tarmoq va sohalarida xavfsizlikni ta'minlash;

- davlat, jamiyat va shaxs xavfsizligini himoya qilish, shuningdek, transport va aloqa, aholi hayotini ta'minlash ob'ektlarini, muhim xalq xo'jaligi va harbiy ob'ektlarda xavfsizlikni ta'minlash;

- xavfsizlik bo'yicha qonunchilik va huquqiy tartibotni tiklash, ommaviy tartibsizliklar, millatlararo nizolarni oldini olishga;

- atom energetikasi ob'ektlari, neft va gaz mahsulotlari quvurlari, sanoatning mudofaa tarmoqlari ob'ektlarida, tabiiy ofatlar, epidemiyalar, epizootik kasalliklar, ekologik halokatlar va boshqa favqulodda hodisalarni olidini olish bo'yicha xavfsizlik choralarini ta'minlash;

- maxsus yuklarni tashishning xavfsizligini ta'minlash;

- bojxona, qurol va o'q-dorilar masalasida xavfsizlikni ta'minlash;

- makroiqtisodiy indikatorlarni tahlil qilish va prognozlash asosida iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmlarini joriy etish;

- iqtisodiyotning real sektori holati, ichki va tashqi bozorlar kon'yunkturasi hamda global va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari bilan bog'liq holda iqtisodiyotning asosiy sohalarini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish;

- iqtisodiyotning real sektoridagi holatni oldindan baholashning zamonaviy indikatorlarini ishlab chiqish va samarali foydalanish tizimini joriy etish;

- inson kapitalini yaxshilash va mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash;

- zarur infratuzilmani shakllantirishga asoslangan iqtisodiy rivojlanishning konseptual yo'nalish va vazifalarini ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini ta'minlash;

- makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, shu jumladan inflyasiya darajasini pasaytirish va qo'yilgan maqsadlarga erishish borasida muvofiqlashtirilgan siyosatni amalga oshirish;

- eksportni qo'llab-quvvatlash, eksport va importda tarif va notarif tartibga solish siyosatlarini shakllantirish;

- qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasida ko'zda tutilgan tadbirlar va islohotlar amalga oshirilish;

- xalq xo'jaligining ishlab chiqarish tarmoqlarida mehnat unumdorligi, mahsulot etishtirish va qayta ishlash hajmlarining o'sishiga, ish o'rinlarining yaratilish;

- iqtisodiy o'sishning inklyuzivligini tahlil qilish va ta'minlash, davlat boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari, xalqaro

moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan kambag'allikni qisqartirish bo'yicha strategiya va dasturlarni ishlab chiqish;

- milliy barqaror rivojlanishning maqsad va vazifalariga erishish chora-tadbirlarini amalga oshirish, yashash minimumi va minimal iste'mol savatchasini hisoblash metodologiyasini ishlab chiqish hamda aholi daromadlari tabaqalashuvini o'rganish bo'yicha tizimli ishlarni olib borish hamda ularning davlat maqsadli dasturlari bilan o'zaro muvofiqligini ta'minlash;

- mehnat bozori va uning tarkibini sifat jihatdan rivojlantirish, ishchi kuchi migratsiyasi jarayonlarini tahlil qilish, takomillashtirish hamda mehnat resurslarini taqsimlash;

- hududlarning tabiiy xom ashyo va mehnat resurslarini hamda nisbiy ustunliklari»ni inobatga olgan holda ularni rivojlantirishga turtki beradigan omillar va yo'nalishlarni belgilab olish hamda amalga oshirish;

- hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari doirasidagi loyihalarni o'z muddatida va sifatli bajarishga to'sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash va bartaraf etish, hududlararo rivojlanishning tabaqalashuvini qisqartirish choralari ko'rish;

- hududlarda sanoat zonalarini tashkil etish, ularni joylashtirish yuzasidan uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqish, ularni rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

- ilg'or xorijiy tajribani o'rgangan holda hududlarni rivojlantirishning milliy metodologik asoslari va yondashuvlarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish;

- mamlakatda kichik va o'rta biznesni hamda tadbirkorlikning barcha shakllarini rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini yuritish;

- iqtisodiy o'sishni ta'minlashda kichik va o'rta biznesni muhim drayverga aylantirishning konseptual va strategik yondashuvlarini hamda sohani rivojlantirish borasida fundamental to'siq va muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy choralari - yangi vositalar va axborot tizimlarini yaratish, kreditlashning mavjud

mexanizmlari va qo‘llab-quvvatlash vositalari orqali ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuqori samara beruvchi yo‘nalish va loyihalarni amalga oshirish;

- milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va diversifikatsiya qilishni, shuningdek, hududlar va tarmoqlarni rivojlantirish uyg‘unligini ta’minlash maqsadida ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirish, hududlarning mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslaridan samarali foydalanish asosida mamlakat sanoatini rivojlantirish strategiyalarini (modellarini) ishlab chiqish;

- asosiy sanoat tarmoqlari va yirik korxonalarini isloh qilish bo‘yicha strategiya va dasturlarni ishlab chiqishda ishtirok etish;

- sanoat tarmoqlarining rivojlanish darajasini monitoring qilib borishda xalqaro tajribada keng qo‘llaniladigan asosiy indikatorlarni aniqlash, «yashil iqtisodiyot» hamda energiya samaradorlikning asosiy prinsiplari va usullarini amaliyotga joriy etish va monitoring qilish uslubiyotini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- respublika sanoat korxonalarining mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish, hajmlari, ichki bozor talabining qondirilish darajasi bo‘yicha hamda ichki va tashqi bozorlarda muhim sanoat mahsulotlari narxlarining o‘zgarish tendensiyalari bo‘yicha tahlillar tayyorlash va ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borilishini tashkil etish;

- iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish maqsadlaridan kelib chiqib, hamda iqtisodiy o‘shishga ta’siri nuqtai nazaridan samaradorligi past bo‘lgan yo‘nalishlarni aniqlash asosida davlat ishtiroki mavjud tarmoq va korxonalarini isloh qilish bo‘yicha takliflarni kiritish orqali yaxlit davlat siyosati amalga oshirilishida ishtirok etish;

- davlat ishtirokidagi korxonalarini xususiylashtirish jarayonlarini samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni yaratish, xususan ular tomonidan ishlab chiqariladigan xizmat va mahsulotlarning erkin va raqobatbardosh bozorini shakllantirish bilan bog‘liq tarkibiy islohotlar bo‘yicha asosiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta’minlash;

- davlat ulushi mavjud strategik tarmoq va korxonalarda mehnat unumdorligini, energiya va boshqa ishlab chiqarish resurslari tejamkorligini oshirish

hamda mahsulot tannarxini kamaytirishda zamonaviy mexanizm va yondashuvlarning qo‘llanilishi bo‘yicha chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish;

- barqaror iqtisodiy o‘rtni ta‘minlash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, sanoat salohiyatini mustahkamlash va hududlarni kompleks rivojlantirish maqsadida investitsiyalarni jalb qilish sohalari va tarmoqlarini aniqlash orqali mamlakatning faol investitsiya siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi, tarmoqlar va hududlarni rivojlantirish strategiyalari va dasturlarini ishlab chiqish;

- davlat investitsiya dasturlarini makroiqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilish hamda bu borada shakllantirilgan xulosalardan kelib chiqib, investitsiya yo‘nalishlarini belgilash;

- davlat investitsiya siyosatining umumiy investitsiyaviy faollikka, shu jumladan xususiy va xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimiga ta‘sirini tahlil qilish, prognozlash;

- shaharlarni rivojlantirish bo‘yicha yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish, turar joylarni muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilma bilan birgalikda qurishni inobatga olgan holda urbanizatsiya jarayonlarining davlat tomonidan samarali tartibga solinishini ta‘minlash, shuningdek, er uchastkalariga oid zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish;

- jahon amaliyotini hisobga olgan holda shahar aholisini joylashtirish tizimini kompleks rivojlantirishni tartibga solish, kichik, o‘rta, katta va yirik shaharlarning samarali nisbatini shakllantirish;

- uy-joy qurilish bozorini ipoteka kreditlari orqali rivojlantirish hamda mavjud uy-joylar fondini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rgangan holda renovatsiya tizimini takomillashtirish va dasturlar ishlab chiqish;

- iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida boshqarish bo‘yicha institutsional islohotlarni amalga oshirish orqali biznes faoliyati sohasidagi asossiz majburiyatlar,



taqiqlar va cheklovlarni olib tashlash, joriy tartibga solish jarayonlarini takomillashtirish hamda sohada amaldagi va qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlarning biznes muhitiga ta'sirini baholash;

- xalqaro iqtisodiy reytinglar bilan ishlashda ilg'or xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda reytinglarni har bir tarkibiy indikatori kesimida mutasaddi vazirlik va idoralarning malakali mutaxassislaridan iborat maxsus ishchi guruhlarini tuzish hamda ular faoliyatini muvofiqlashtirish;

- mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish strategiyasidan, shu jumladan o'rta va uzoq muddatli tashqi iqtisodiy muvozanatni ta'minlash maqsadlaridan kelib chiqib, xalqaro iqtisodiy hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish;

- iqtisodiy sohada turli integratsiya birlashmalari bilan, respublika hududlari xorijiy davlatlar hududlari bilan, shu jumladan chegaraoldi hamkorlikning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari ta'sirini keng qamrovli tahlil qilish va kengaytirish;

- xavfsizlikni ta'minlovchi organlarining moddiy-texnika bazalarini rivojlantirish choralarini amalga oshirish.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligiga oid huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar huquqiy tizimining metodik mazmunini o'zida ifoda etadi.

### **2.3. Davlatning iqtisodiy xavfsizligiga oid huquqiy hujjatlarning maqsad va vazifalari**

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy hujjatlarda quyidagi maqsad va vazifalar belgilangan:

#### **Byudjet-soliq siyosati bo'yicha:**

- moliya tizimining, soliq va narx-navo siyosatining O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga faol ta'sir ko'rsatish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, milliy daromadning, korxonalar va tashkilotlar daromadlarining va boshqa moliyaviy resurslarning o'sishini ta'minlash, moliya-

kredit vositalarining xo‘jalik mexanizmining boshqa elementlari bilan aloqalarini mustahkamlash;

- respublikaning moliyaviy resurslarini ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirish va fan-texnika taraqqiyotining ustivor yo‘nalishlariga jamlash, ijtimoiy rivojlanishni jadallashtirish, ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan yaxlit xalq xo‘jaligi dasturlarini mablag‘ bilan ta’minlash, zarur moliya, valyuta rezervlarini tashkil etish;

- ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanish, moliyaviy resurslarni rejalashtirish va ulardan foydalanish masalalarini hal etishda markazlashtirilgan asoslarni mintaqalarning o‘zini-o‘zi boshqaruvi, korxonalar, birlashmalar, tashkilotlarning mustaqilligi bilan qo‘shib olib borish asosida moliya, sug‘urta, narx belgilashning davlat tomonidan boshqarilishini takomillashtirish;

- moliya va narx mexanizmining aksil xarajat yo‘nalishini oshirish, uni resurslarning barcha turlaridan oqilona foydalanishni rag‘batlantirish tomon yo‘naltirish, nobudgarchiliklarni bartaraf etish, ishlab chiqarish va muomala chiqimlarini kamaytirish, foyda (daromad)ni ko‘paytirish;

- moliya, byudjet, valyuta va soliqni rejalashtirish va mablag‘ bilan ta’minlash usullarini takomillashtirish;

- sug‘urta munosabatlari barcha qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi hududidagi sug‘urta tashkilotlari faoliyatini nazorat qilish;

- iqtisodiyotga soliq yukining darajasini kamaytirish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimi bo‘yicha soliqlarni to‘laydigan xo‘jalik yurituvchi sub'yektlar o‘rtasidagi soliq yuki darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish;

- soliqlarni unifikatsiya qilish orqali ularning sonini optimallashtirish, shuningdek, o‘xshash soliq solish bazasiga ega bo‘lgan soliqlarni birlashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, operatsion xarajatlarni minimallashtirish;

- makroiqtisodiy vaziyatning barqarorligini, O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va uning daromadlarini shakllantirishning mustahkamligini ta’minlash;

- soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq munosabatlari sohasida normativ-huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish, insofli soliq to'lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyasini kuchaytirish;

- soliq solish masalalarini tartibga soladigan havolaki normalar va qonun osti hujjatlarini maksimal darajada cheklagan holda, soliq qonunchiligining barqarorligini hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi normalarining to'g'ridan-to'g'ri amal qilishini ta'minlash, shu jumladan kodeksda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar stavkalarining miqdorlarini belgilash;

- xorijiy investorlar va investitsiyalar uchun qulay rejimni saqlab qolish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ishonchli huquqiy himoyalash;

- soliq nazoratining shakl va mexanizmlarini, shu jumladan soliq solish ob'ektlari hamda soliq to'lovchilarni yanada to'liq qamrab olish va hisobini ta'minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga takomillashtirish, transfer narxlarini shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalarga soliq solish tartibini joriy etish.

#### **Umum xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha:**

- O'zbekistonning davlat xavfsizligi va manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishni ta'minlash, mazkur sohada qonuniylik va qonun ustuvorligini mustahkamlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berish;

- O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti va hududiy yaxlitligiga tajovuzlarning oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga barham berish bo'yicha razvedka va kontrrazvedka faoliyatini amalga oshirish;

- Davlat chegaralarini qo'riqlash va himoya qilish;

- Qurolli Kuchlar va mudofaa-sanoat majmuasini davlat xavfsizligiga xavf-xatarlar hamda tahdidlardan himoya qilish, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash bo'yicha strategik tashabbuslarni amalga oshirishda ishtirok etish;

- terrorizm, ekstremizm, uyushgan jinoyatchilikka, qurol-yarog', giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish;

- davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib etishga qaratilgan buzg'unchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash va unga barham berish;

- iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy va axborot sohalarida davlat xavfsizligini ta'minlash, xalqimizning tarixiy-madaniy va boy ma'naviy merosini himoya qilish;

- davlat organlari va boshqa tashkilotlarda davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi korrupsiya holatlariga qarshi kurashish;

- telekommunikatsiya va transport sohasida davlat xavfsizligini ta'minlash, favqulodda holatlarni yuzaga keltiruvchi omillarning oldini olish, aniqlash va ularga barham berish;

- uning tergov qilish vakolatiga kiruvchi jinoyat ishlari bo'yicha tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergov olib borish va tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish;

- davlat organlari va boshqa tashkilotlarda davlat sirlari saqlanishi, maxsus aloqa xavfsizligining ta'minlanishi hamda axborotlarni kriptografik himoya qilishni tashkil etish ustidan nazoratni amalga oshirish;

- davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon beradigan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

- Davlat xavfsizlik xizmatining jangovar va safarbarlik tayyorgarligi holatini takomillashtirish va saqlab turish, kuch va vositalarni favqulodda holatlar yuzaga kelgan hamda harbiy holat joriy qilingandagi harakatlarga tayyorlash.

### **Pul-kredit siyositi bo'yicha:**

- pul-kredit siyosatini, shu jumladan valyuta siyosatini ishlab chiqish va samarli amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasida doimiy inflyatsiya darajasini monitoring, tahlil va prognoz qilish, tegishli axborot materiallarini hamda statistik ma'lumotlarni e'lon qilib borish;

- O'zbekiston Respublikasining to'lov balansini, xalqaro investitsiyaviy mavqeyini, tashqi qarzini va zaxira aktivlarini o'z ichiga olgan bank, pul-kredit

statistikasini, tashqi sektor statistikasini shakllantirishni hamda e'lon qilishni amalga oshirish;

- valyutani tartibga solish va valyutani nazorat qilishni amalga oshirish;

- valyuta operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobi, statistik hisobotlar va boshqa hisobotlar maqsadlari uchun, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida bojxona hamda boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish uchun valyuta kursini muntazam ravishda belgilab borish;

- banklarni va kredit byurolarini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshirish;

- banklarning, mikrokredit tashkilotlarining, lombardlarning, to'lov tashkilotlarining, to'lov tizimlari operatorlarining, valyuta birjalarining, kredit byurolarining faoliyatini va qimmatli qog'ozlar blankalarini ishlab chiqarishni litsenziyalash, shuningdek kredit tashkilotlarining, to'lov tashkilotlarining, to'lov tizimlari operatorlarining, valyuta birjalarining, kredit byurolarining va banklar guruhlarining faoliyatini tartibga solish hamda ushbu faoliyat ustidan nazoratni amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasida to'lov tizimlari barqaror ishlashini ta'minlash choralarini ko'rish;

- ichki nazorat qoidalariga hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq axborotni maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etish tartibiga Markaziy bank tomonidan litsenziyalanadigan tashkilotlarning rioya etishi yuzasidan monitoring hamda nazoratni amalga oshirish;

- Xalqaro valyuta fondining O'zbekiston Respublikasi valyutasidagi mablag'lari depozitariysi hisoblanadi, operatsiyalarni va bitimlarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan operatsiyalar va bitimlarni amalga oshirish;

- kredit tashkilotlari xizmatlari iste'molchilari huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash, moliyaviy xizmatlarning ochiqligini hamda aholi va

tadbirkorlik sub'yektlarining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish choralarini ko'rish;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro zaxiralarini, shu jumladan kelishuvga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Hukumatining zaxiralarini boshqarishni, hisobga olish va saqlashni amalga oshirish.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan boshqa huquqiy hujjatlarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash yullari belgilangan.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi tizimi, me'yoriy-huquqiy baza, xavfsizlik sohasi, xalqaro va mahalliy huquq normalari, davlat va nodavlat tuzilmalarning huquqiy asoslari.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini tartibga soluvchi asosiy me'yoriy-huquqiy bazasini ishlab chiqish qaysi qoidalarga asoslanadi?

2. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi tizimining faoliyati qanday huquqiy sohada amalga oshiriladi?

3. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi sohasidagi strategik qarorlarni tayyorlashda nimalarga asoslanadi?

4. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash yo'nalishida huquqiy tizimni rivojlantirish qaysi vazifalarni hal qilishni talab qiladi?

5. Mamlakatimizning xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari nimalardan iborat?

6. Davlatning xavfsizlik strategiyasini aks ettiradigan hujjatlar tizimining eng muhim elementlari nimalardan iborat?

7. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlovchi huquqiy hujjatlar o'z oldiga qanday vazifalarni belgilagan?

8. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan sohalar kesimidagi huquqiy hujjatlarda qanday maqsad va vazifalar belgilangan?

9. Xavfsizlik choralarini shakllantirish va ularni amalga oshirishga rahbarlik qilish kim tomonidan amalga oshiriladi?

10. O‘zbekiston Respublikasining eng muhim normativ hujjatlariga qanday xujjatlar kiradi?

### **III-BOB. DAVLATNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLOVCHI ORGANLAR FAOLIYATI**

#### **3.1. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlovchi organlar faoliyati tizimi**

Davlat organi - davlat funksiyalarini ijro etishda qatnashuvchi va buning uchun hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan davlat mexanizmining bug'ini (unsuri)dir. Ushbu organ hususiyatlarini o'rganish umuman davlat mexanizmini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

1. Davlat organi muayyan mustakillikka, avtonomlikka ega bo'lsada, u yaxlit davlat mexanizmining bir qismidir, davlat tarkibida o'z o'rniga ega bo'lib, uning boshqa qismlari bilan mustahkam aloqada bo'ladi.

2. Davlat organi o'zaro va organ bilan alohida huquqiy munosabatlarda bo'lgan davlat xizmatchilaridan iborat. Ular rasmiy xodimlar bo'lib, o'zaro oilaviy, fuqaroviy va boshqa munosabatlarga kirishmaydi. Davlat xizmatchilarining mavqei, huquqi va burchlari qonunchilik tomonidan belgilanib, ularning huquqiy maqomini ta'minlaydi. Ular tomonidan hokimiyat vakolatlaridan foydalanish hajmi va tartibi qonunchilik tomonidan belgilanib, lavozim yuriknomalari, shtat jadvallari va shu kabilarda izohlanadi. Hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan, huquqiy hujjatlar chiqarib, ularni mustaqil ravishda hayotga joriy etuvchi mansabdor shaxslar davlat xizmatchilari qatoriga kiradi. Davlat xizmatchilari bevosita moddiy boyliklar yaratmaydi, shu sababdan ularni jamiyat boqadi. Ular egallab turgan lavozimiga hamda bajargan ishiga muvofiq tarzda davlat tomonidan ish haqi oladi.

3. Davlat organlari ichki tuzilishga (tarkibga) ega. Ular yagona maqsad atrofida uyushgan bo'linmalardan iborat bo'lib, hamma uchun bir xil bo'lgan tartib-intizomga rioya etadi.

4. Davlat organining eng muhim belgilaridan biri vazifa muayyan moxiyatga va xajmga ega bo'lgan hokimiyat vakolatlari (huquq va majburiyatlar yaxlitligi)ning mavjudligida. Uning vakolat davlat organi tomonidan ular bo'yicha qabul qiladigan va bajaradigan) aniq masalalar va vazifalar bilan belgilanadi.



5. O‘z vakolatiga muvofiq ravishda davlat organi quyidagi hokimiyat vakolatlariga ega:

a) ijro etilishi majburiy bo‘lgan huquqiy hujjatlar.


Bu hujjatlar me‘yoriy yoki individual (huquq me‘yorlarini qo‘llashga doir hujjat) bo‘lishi mumkin.

b) davlat organlari huquqiy hujjatlarining ijrosi turli usullar shu jumladan majburlash va ishontirish tarzida ijro etilishini ta‘minlash.

6. O‘z vakolatini amalga oshirish uchun davlat organi zarur moddiy baza bilan ta‘minlanadi moliyaviy mablag‘lar, bankdagi hisobraqami moliyalash manbaiga (byudjet hisobidan) ega bo‘ladi.

7. Davlat organi davlat vazifalarini bajarishda faol qatnashadi buning uchun tegishli shakl va usullardan foylanadi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar – ishchi ishlar, prokuratura, adliya organlari, davlat xavfsizlik, soliq, bojxona xizmatlari, shuningdek, advokatura, Oliy majlisning inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman), Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining milliy markazi, Interpolning Milliy markaziy byurosi hisoblanadi (2-rasm). Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tuzilishini belgilab beruvchi konstitutsiyaviy, ma‘muriy, moliya, jinoyat protsesual va boshqa bir qator qonunchilik sohalarining normalari kiradi. Masalan, konstitutsiyaviy huquq normalarida O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va davlat tuzilishi, butun davlatning huquqni muhofaza qilish mexanizmini, jumladan, uning muhim organlari bo‘lgan sud va prokuratura organlarini tashkil etish belgilab berilgan.



**2-rasm. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlovchi organlar**

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlovchi organlarning davlat organlari tizimidagi o'rni shu bilan belgilanadiki, ular davlatning huquqni muhofaza qilish funksiyasini bajarish uchun maxsus yaratilgan. Bu esa ularning asosiy va bosh ishidir. Shu bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati boshqa davlat va boshqaruv organlarining funksiyasidan ajratib turiladi. Bu ularning davlat organlari bilan aloqasini istisno qilmaydi, lekin huquqni muhofaza qiluvchi organlarning mustaqilligini talab qiladi.

### **3.2. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlovchi organlar**

Davlat tuzilmasi va davlat chegaralari daxlsizligini ishonchli himoya qilish, inson huquqlari va erkinliklariga og'ishmay rioya etish, jamiyatdagi millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, tinchlik va osoyishtalik - demokratik huquqiy davlat qurishning hamda mamlakatni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim shartlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish borasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish maqsadida, shuningdek, 2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi vazifalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2018 yil 14 martdagi "O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5379-son Farmoni qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qiluvchi maxsus vakolatli organ etib belgilangan. Ushbu farmonga muvofiq Davlat xavfsizlik xizmati faoliyatini tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

- xizmatning maxsus vakolatli davlat xavfsizlik organi sifatidagi huquqiy maqomi, vakolatlari va faoliyat yo‘nalishlarini aniq belgilab beruvchi mustahkam qonunchilik bazasini yaratish;

- bugungi kundagi xavf-xatarlar va tahdidlarga qarshi kurashishning ta’sirchan shakl hamda uslublarini joriy etish;

- yuzaga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy vaziyatni inobatga olgan holda davlat xavfsizligini ta’minlash borasidagi vazifalarni bajarishda mavjud kuch hamda vositalardan samarali foydalanish imkonini beruvchi tashkiliy tuzilmani shakllantirish;

- xizmat faoliyatini davlat xavfsizligini ta’minlash ishlarining shakl va uslublari, shuningdek, xizmat harbiy xizmatchilarining idoraviy mansubligi haqidagi ma’lumotlar oshkor bo‘lishini istisno etuvchi konspiratsiya tamoyili asosida tashkil etish;

- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga og‘ishmay rioya etilishini kafolatlaydigan ta’sirchan mexanizmlarni joriy qilish;

- O‘zbekiston Respublikasining manfaatlarini munosib himoya qilishga qodir, har tomonlama etuk va vatanparvar yoshlarni xizmatga jalb etishga qaratilgan kadrlarni tanlash va tayyorlashning mutlaqo yangi tizimini yaratish;

- mehnatga munosib haq to‘lash, uy-joy va maishiy shart-sharoitlarni yaxshilash, sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish orqali xizmat harbiy xizmatchilarining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish.

Davlat xavfsizlik xizmatining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

- O‘zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi va manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishni ta’minlash, mazkur sohada qonuniylik va qonun ustuvorligini mustahkamlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berish;

- O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti va hududiy yaxlitligiga tajovuzlarning oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga barham berish bo‘yicha razvedka va kontrrazvedka faoliyatini amalga oshirish;

- O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegaralarini qo‘riqlash va himoya qilish;

- O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari va mudofaa-sanoat majmuasini davlat xavfsizligiga xavf-xatarlar hamda tahdidlardan himoya qilish, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash bo‘yicha strategik tashabbuslarni amalga oshirishda ishtirok etish;

- terrorizm, ekstremizm, uyushgan jinoyatchilikka, qurol-yarog‘, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish;

- davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib etishga qaratilgan buzg‘unchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash va unga barham berish;

- iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy va axborot sohaslarida davlat xavfsizligini ta‘minlash, O‘zbekiston Respublikasi xalqining tarixiy-madaniy va boy ma‘naviy merosini himoya qilish;

- davlat organlari va boshqa tashkilotlarda davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi korrupsiya holatlariga qarshi kurashish; telekommunikatsiya va transport sohasida davlat xavfsizligini ta‘minlash, favqulodda holatlarni yuzaga keltiruvchi omillarning oldini olish, aniqlash va ularga barham berish;

- xizmat tergov qilish vakolatiga kiruvchi jinoyat ishlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergov olib borish va tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish;

- davlat organlari va boshqa tashkilotlarda davlat sirlari saqlanishi, maxsus aloqa xavfsizligining ta‘minlanishi hamda axborotlarni kriptografik himoya qilishni tashkil etish ustidan nazoratni amalga oshirish;

- davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon beradigan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

- xizmatning jangovar va safarbarlik tayyorgarligi holatini takomillashtirish va saqlab turish, kuch va vositalarni favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan hamda harbiy holat joriy qilingandagi harakatlarga tayyorlash.

O‘zbekiston Respublikasi davlat organlari tizimida Prokuratura alohida o‘rin tutadi. U mamlakatimizning butun hududida qonunlarnig fuqarolar, mansabdor va yuridik shaxslar tomonidan bir xilda tushunilishi va qullanilishi nazorat qiladi. 2001 yil 29 avgustda “Prokuratura to‘g‘risida”gi 257-II-sonli qonuni qabul qilingan. Prokuratura organlari qonuniylik, markazlashganlik, birlik, mahalliy va boshqa davlat organlaridan mustaqil prinsiplari asosida faoliyat ko‘rsatadilar. Barcha prokurorlar faqat O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokuroriga bo‘ysunadilar.

O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta‘minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat.

Prokurorlar qonunlar va Oliy Majlis qabul qilgan qarorlarning hamda quyi turuvchi hokimiyat va boshqaruv organlarining qonun osti hujjatlarining bajarilishini qat‘iy nazorat qiladilar, qonuniylik va huquq tartibotning ta‘minlanishi bo‘yicha faoliyatni muvofiqlashtiradilar.

Prokuratura organlari o‘z faoliyatini quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiradi:

- vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

- fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta‘minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish;

- O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining harbiy tuzilmalarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

- tezkor-qidiruv faoliyatni, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

- jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov olib borish;

- sudlarda jinoyat ishlari ko‘rib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni hamda iqtisodiy nizolarni ko‘rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo‘lgan sud hujjatlariga protest keltirish;

- soliq intizomini mustahkamlashga, soliq, valyuta sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashga, shuningdek davlatga etkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

- ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta‘sirning boshqa choralarini ijro etish chog‘ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

- qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish.

Prokuratura organlarining tizimi quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokuraturasi;

- viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari;

- tumanlar va shaharlar prokuraturalari;

- viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi, O‘zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi;

- tuman prokuraturalariga tenglashtirilgan, hududiy harbiy, transport va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar;

- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va Majburiy ijro byurosi, shuningdek ularning joylardagi bo‘linmalari faoliyat ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori prokuratura organlariga rahbarlik qiladi va ular faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori:

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga qonunchilik tashabbusi bilan murojaat etishi mumkin;

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining majlislarida ishtirok etishi, uning ko‘rib chiqishi uchun masalalar kiritishi va ko‘rilayotgan masala yuzasidan fikr bildirishi mumkin;

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi majlislarida ishtirok etadi, muhokama qilinayotgan masalalar yuzasidan fikr bildiradi, qonun hujjatlarini qo‘llash bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha Plenum tushuntirishlar berishi xususida takliflar kiritadi;

- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi hay‘atining tarkibini tasdiqlash to‘g‘risidagi takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga kiritadi;

- prokuratura organlari xodimlariga darajali unvonlar beradi va oliy darajali unvonlar berish to‘g‘risidagi taqdimnoma bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaat etadi;

- prokuratura organlari xodimlarini O‘zbekiston Respublikasi davlat mukofotlariga taqdim etadi;

- prokuratura organlari xodimlarini «O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasining faxriy xodimi» ko‘krak nishoni bilan taqdirlaydi;

- buyruqlar chiqaradi hamda prokuratura organlarining tarkibiy bo‘linmalari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

- chet el davlatlarining tegishli organlari bilan hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlar tuzadi;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Mamlakatimizda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tarkibidagi Adliya organini huquqni qo‘llash amaliyoti va norma ijodkorligi faoliyatida qonuniylikka qat’iy rioya etilishini ta’minlash bo‘yicha faoliyati samaradorligini oshirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida uning rolini kuchaytirish, Mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish Konsepsiyasining qoidalarini izchil amalga oshirish maqsadida faoliyat ko‘rsatadi.

Adliya organining asosiy vazifalari va faoliyati yo‘nalishlari quyidagilardan iboratdir:

- norma ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohasida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishni, qonun ustuvorligini, davlat va jamiyat qurilishi sohasida qonuniylikni ta'minlashga qaratilgan yagona davlat siyosatini izchil amalga oshirish;

- demokratik, sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlarning qonunchilik bazasini izchillik bilan takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish; amaldagi qonun hujjatlaridagi «oq dog'lar»ni, shuningdek davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimida korrupsiyaning kelib chiqishiga, boshqa huquqbuzarliklar sodir etilishiga sharoit yaratayotgan qoidalar va normalarni aniqlash;

- markazda va joylardagi davlat boshqaruvi organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat tuzilmalari faoliyatida inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi ustidan samarali nazoratni ta'minlash;

- sud hokimiyati mustaqilligini yanada mustahkamlashga, sud hujjatlarining so'zsis ijro qilinishiga, sudlar faoliyatini har tomonlama moddiy-texnik va moliyaviy ta'minlashga yo'naltirilgan davlat siyosatini izchil amalga oshirish bo'yicha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- nodavlat notijorat tashkilotlar, boshqa fuqarolik jamiyati institutlari faoliyat ko'rsatishining qonuniyligini, tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishni, ularning aholining turli qatlamlari manfaatlarini himoya qilishda, ijtimoiy-iqtisodiy, gumanitar rivojlanish dasturlarini amalga oshirishda, mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiyalashda faol ishtirokini ta'minlash; mamlakatda ro'yxatdan o'tgan xalqaro va xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatida qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan tizimli monitoring o'tkazish;

- kichik biznes, xususiy tadbirkorlik sub'ektlari, xorijiy investorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlash; shartnomaviy-huquqiy intizomni mustahkamlash, shartnomalarni tuzish va bajarishda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga amaliy huquqiy yordam ko'rsatish, ularning moliya-xo'jalik faoliyatiga noqonuniy aralashishlarga, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik sub'ektlari, fermer xo'jaliklarini rivojlantirish sohasida ma'muriy to'siq va g'ovlarni yaratishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;



- notariat, advokatura, FHDYO organlari hamda fuqarolar va yuridik shaxslarga huquqiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa tuzilmalar faoliyatining samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan davlat tomonidan tartibga solish tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash;

- tegishli davlat organlari bilan birgalikda xalqaro-huquqiy munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi manfaatlarining ishonchli huquqiy himoya qilinishini ta'minlash;

- jamiyatda aholining huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni oshirishga va qonuniylikni mustahkamlashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalarining huquqiy targ'ibot va ma'rifat sohasidagi faoliyatini samarali muvofiqlashtirishni amalga oshirish;

- davlat va jamiyat qurilishi sohasini demokratlashtirishning zamonaviy talablari va jarayonlarini hisobga olgan holda huquqshunos kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish bo'yicha faoliyatni nazorat qilish va muvofiqlashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Adliya tizimining tashkiliy tuzilmasi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi markaziy apparatining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligining tuzilmalari, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalaridan iboratdir.

Adliya organinig asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishni, qonun ustuvorligini ta'minlashga yo'naltirilgan jamiyat va davlat qurilishi sohasida norma ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohasida yagona davlat siyosatini izchil amalga oshirish;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat tuzilmalarining norma ijodkorligi faoliyatini tizimli tahlil qilishni tashkillashtirish, ular tomonidan kiritiladigan yoki qabul qilinadigan qonun hujjatlari va boshqa hujjatlar loyihalarining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonun hujjatlariga, mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning maqsad va vazifalariga, shuningdek qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiqligini aniqlash

yuzasidan har tomonlama ekspertizani amalga oshirish; amaldagi qonun hujjatlarida «oq dog‘lar»ni, shuningdek davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimida korrupsiyaning kelib chiqishiga, boshqa huquqbuzarliklar sodir etilishiga sharoit yaratayotgan qoidalar va normalarni aniqlash;

- fuqarolik jamiyati institutlarining har tomonlama rivojlanishini, ularning aholining turli qatlamlari huquqlari va manfaatlarini himoya qilishda, mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiyalashda faol ishtirokini huquqiy ta‘minlashga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish; O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalarida mustahkamlangan inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni ta‘minlash;

- nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat ko‘rsatishining qonuniyligini, tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishni ta‘minlash; mamlakatda ro‘yxatdan o‘tgan xalqaro va xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatida qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan tizimli monitoring o‘tkazish;

- jamiyatda aholining huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni oshirishga va qonuniylilikni mustahkamlashga yo‘naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalarining huquqiy targ‘ibot va ma‘rifat sohasidagi ishlarini samarali muvofiqlashtirishni amalga oshirish;

- sudlar faoliyatini har tomonlama moddiy-texnikaviy va moliyaviy ta‘minlash, sud hujjatlarining so‘zsiz ijro etilishiga, sud hokimiyatining mustaqilligini yanada mustahkamlashga yo‘naltirilgan davlat siyosatini, tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- notariat, advokatura, FHDYO organlari hamda fuqarolar va yuridik shaxslarga huquqiy xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tuzilmalar faoliyatining samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan davlat tomonidan tartibga solish tizimini izchil takomillashtirib borish;

- bozor islohotlarini chuqurlashtirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik sub‘ektlarining, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi

korxonalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilinishini ta'minlash, bu sohada byurokratik to'siq va g'ovlarni yaratishga yo'l qo'ymaslik;

- shartnomaviy-huquqiy intizomni mustahkamlash, shartnomalarni, eng avvalo qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasida shartnomalarni tuzish va bajarishda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga amaliy huquqiy yordam ko'rsatish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- tegishli davlat organlari bilan birgalikda xalqaro-huquqiy munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi manfaatlarining samarali huquqiy himoya qilinishini ta'minlash;

- davlat va jamiyat qurilishi sohasini demokratlashtirishning zamonaviy talablari va jarayonlarini hisobga olgan holda huquqshunos kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish bo'yicha faoliyatni nazorat qilish va muvofiqlashtirish.

O'zbekiston Respublikasida sud O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda e'lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud yo'li bilan himoya qilishga da'vat etilgan. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi qonun 2000 yil 14 dekabr kuni 162-II-son bilan qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasida: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi; O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi; harbiy sudlar; Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari; Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha sudi, jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari; Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiy sudlari; Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari; fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari; jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari; tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudlari; tuman (shahar) ma'muriy sudlari faoliyat ko'rsatadi.

Sudlar - hokimiyatning butun tarmog'ini tashkil etuvchi maxsus ogandir. Fuqarolarning huqularini qonunga zid ravishda buzuvchi mansabdor shaxslarning xatti harakati ustidan belgilangan tartibda sudga murojaat qilish mumkin. Ma'muriy va jinoiy ishlab bo'yicha odil sudlovni amalga oshirish ham qat'iy sudlarning vaklatidir. Shuning uchun ular ma'lum ma'noda jamiyatdagi ahloqiy ruhiy muhitni shakllantiradilar.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning organlari katta murakkab tuzilishga ega. Bu huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatidan kelib chiqadi. Ichki ishlar vazirligi va organlarining muhim vazifasi qonuniylik va huquq tartibotini muntazam mustahkamlab borish, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashishdir.

Ichki ishlar vazirligi va uning organlari tezkor qidiruv faoliyatini tashkil qiladilar va ta'minlaydilar, o'z vakolatlaridagi ishlar bo'yicha surishtiruv va dastlabki tergovni ta'minlaydilar, tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar, O'zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar hamda milliy xavfsizlikni saqlash bo'yicha boshqa tadbirlarning o'tkazilishiga ko'maklashadilar.

Ichki ishlar organlari ishining muhimligi huquqiy davlatni shakllantirish, O'zbekiston Respublikasida huquq tartibotni mustahkamlash, jinoyatchilikka qarshi kurashishni kuchaytirish zaruriyati, korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha qat'iy tadbirlar ko'rish munosabati bilan oshib bormoqda.

Advokatura - fuqarolar va tashkilotlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, odil sudlovni amalga oshirish, qonuniylikni saqlash va mustahkamlash, fuqarolarni qonunlarini aniq va so'zsiz bajarish ruhida tarbiyalash, boshqa shaxslarning huquqlari, sha'ni va qadr qimmatiga hurmatda bo'lishga ko'maklashadi.

Interpol - xalqaro politsiya tashkilotidir. U jinoyatchilikka qarshi kurashni muvofiqlashtiradi. Milliy politsiya (militsiya) muassasalariga jinoyatchilikka qarshi kurash, ayniqsa, bir mamlakat hududida jinoyat qilgan jinoyatchini boshqa mamlakatda yashiriningan yoki xalqaro jinoyatchilar guruhi jinoyat sodir etgan hollarda yordam beradi.

Interpol ma'lumotlar va eng yaxshi kriminalistik vositalar, yangi texnikalar, jumladan, turli mamlakatlarning poliyasiyachilari foydalanadigan kompyuterlarning namunalari tuplangan. Interpol orqali uning a'zosi bo'lgan har qanday mamlakat u yoki bu texnika turini sotib olishda maslahat va yordam olishi mumkin.

Interpol jinoyatlarning yaxshi yulga quyilgan hisobtlariga ega. Uning ishida kontrabanda, narkobiznes, qurol sotish, qalbaki pul yasash, suratlar, ikonalar va boshqa milliy madaniy buyumlarni o'g'irlashga qarshi kurash alohida o'rin tutadi. Oxirgi 10-15 yil ichida Interpol xalqaro terrorizmga ham qarshi kurasha boshladi. Interpol siyosatdan tashqari turishga harakat qiladi va BMT bilan xamkorlik qilayotgan nohukumat tashkilotlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq tizimi - Davlat soliq qo'mitasi, uning joylardagi organlaridan iborat. Soliq organlari yagona davlat soliq siyosati o'tkazish, mamlakatimiz iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuzilgan. Davlat soliq qo'mitasining o'z vakolati doirasidagi qabul qilingan qarorlari mahalliy hokimiyat organlari, vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar, fuqarolar tomonidan bajarilishi shart. Davlat soliq qo'mitasi soliq qonunlarini ta'minlash borasidagi yagona davlat organi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasini asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- davlat soliq siyosatini amalga oshirish hamda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi yuzasidan nazoratni ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq o'z vaqtida va bir xildagi tushumini ta'minlash hisobiga Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining daromad qismini barqaror shakllantirish;

- soliq to'lovchilar va soliq solish ob'ektlarining o'z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta'minlash, ularning to'liq qamrab olinish mexanizmlarini soliq ma'muriyatchiligi jarayoniga ma'lumotlarni to'liq yig'ish va qayta ishlashni

ta'minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish orqali takomillashtirish;

- soliq solinadigan bazani kengaytirish bo'yicha tahlil qilish va ta'sirchan choralar ishlab chiqish, shu jumladan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali ta'sirchan choralar ishlab chiqish, soliqlar yig'ilishini oshirish bo'yicha choralarni amalga oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish;

- pul mablag'larining g'ayriqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumining to'liq va o'z vaqtida topshirilishi yuzasidan muntazam nazoratni ta'minlash;

- bozorlar va savdo komplekslarining moliya-xo'jalik faoliyati, ular tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish hamda ularning hududida aniqlangan huquqbuzarliklar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv o'tkazib, jinoyat ishlarini tergovga tegishliligiga ko'ra huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirish;

- soliq to'lovchilar o'z soliq majburiyatlarini ixtiyoriy bajarishi uchun maqbul shart-sharoitlar yaratish, har bir xodim tomonidan "Soliq xizmati -insofli soliq to'lovchilarning ishonchli hamkori" degan maqsadli vazifani so'zsiz bajarish;

- soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish, soliqqa oid huquqbuzarliklarning profilaktikasi, ularni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha kompleks tadbirlarni bajarish;

- soliq to'lovchilarga muloqotsiz elektron xizmat ko'rsatishga to'liq o'tish yo'li orqali soliq to'lovchilar bilan ishlashni takomillashtirish;

- qonun hujjatlarini takomillashtirish va soliq to'lovchilarning faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha takliflar kiritish;

- kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, davlat soliq xizmati organlarini yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan malakali xodimlar bilan to'ldirish, shuningdek, kadrlarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish;

- davlat soliq xizmati organlari xodimlariga korporativ etikani singdirish, korrupsiya faktlariga keskin barham berish bo'yicha ta'sirchan choralarni, shu jumladan xodimlar manfaatlarining to'qnashuvini hal qilish yo'li bilan amalga oshirish, ishga rasmiyatchilik bilan yondashishga barham berish, shuningdek, xodimlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash, o'z xizmat faoliyati samaradorligini oshirish motivatsiyasi tizimini joriy etish va ular uchun xizmatni o'tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish;

- hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha davlat soliq xizmati organlariga birlashtirilgan sektorlarda soliq solish sohasidagi tizimli muammolarni o'rganish va aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Bojxona organlari - O'zbekiston respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, uning markaziy apparati, Davlat bojxona qo'mitasining xududiy boshqarmalari, maxsus bojxona komplekslari va bojxona postlaridan tashkil topgan. Shundan kelib chiqib, ushbu bo'linmalar Davlat bojxona ko'mitasining organlari tizimini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi 472-I-sonli qonuni 1997 yil 29 avgust kuni qabul qilingan. Davlat bojxona organlari asosiy vazifasi quyidalardan iborat:

- yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari hamda qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlarini himoya qilish;

- O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va o'z vakolati doirasida uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash;

- bojxona siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;

- bojxona haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish;

- bojxona to'lovlarini undirish;

- bojxona nazoratidan o'tkazilishi kerak bo'lgan tovarlar va transport vositalari shunday nazoratdan o'tkazilishini ta'minlash;

- bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishining, shu jumladan kontrabandaning oldini olish, uni aniqlash va ularga chek qo'yish;

- tashqi iqtisodiy faoliyatga doir bojxona statistikasini hamda tovar nomenklaturasini yuritish;

- O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining bojxona ishiga oid qismidan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining maqsad va vazifalari sifatida quyidagilar hisoblanadi:

- pul-kredit siyosatini, shu jumladan valyuta siyosatini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

- O'zbekiston Respublikasida inflyatsiya darajasini monitoring, tahlil va prognoz qiladi, tegishli axborot materiallarini hamda statistik ma'lumotlarni e'lon qiladi;

- O'zbekiston Respublikasining to'lov balansini, xalqaro investitsiyaviy mavqeyini, tashqi qarzini va zaxira aktivlarini o'z ichiga olgan bank, pul-kredit statistikasini, tashqi sektor statistikasini shakllantirishni hamda e'lon qilishni amalga oshiradi;

- har yili O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga Davlat byudjeti loyihasini tayyorlashga doir tavsiyalarni o'z ichiga olgan iqtisodiy va moliyaviy masalalar bo'yicha axborotni taqdim etadi;

- naqd pul muomalasini tashkil etadi;

- valyutani tartibga solishni va valyutani nazorat qilishni amalga oshiradi;

- valyuta operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobi, statistik hisobotlar va boshqa hisobotlar maqsadlari uchun, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida bojxona hamda boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish uchun valyuta kursini muntazam ravishda belgilab boradi;

- banklarni va kredit byurolarini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiradi;

- banklarning, mikrokredit tashkilotlarining, lombardlarning, to'lov tashkilotlarining, to'lov tizimlari operatorlarining, valyuta birjalarining, kredit byurolarining faoliyatini va qimmatli qog'ozlar blankalarini ishlab chiqarishni litsenziyalaydi, shuningdek kredit tashkilotlarining, to'lov tashkilotlarining, to'lov



tizimlari operatorlarining, valyuta birjalarining, kredit byurolarining va banklar guruhlarining faoliyatini tartibga soladi hamda ushbu faoliyat ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- hukumatning fiskal agenti vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan bank operatsiyalarini va boshqa bitimlarni mustaqil ravishda yoki O'zbekiston Respublikasi Hukumatining topshirig'iga binoan amalga oshiradi;

- O'zbekiston Respublikasida to'lov tizimlari barqaror ishlashini ta'minlash choralarini ko'radi;

- ichki nazorat qoidalariga hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq axborotni maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etish tartibiga Markaziy bank tomonidan litsenziyalanadigan tashkilotlarning rioya etishi yuzasidan monitoring hamda nazoratni amalga oshiradi;

- Xalqaro valyuta fondining O'zbekiston Respublikasi valyutasidagi mablag'lari depozitariysi hisoblanadi, operatsiyalarni va bitimlarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan operatsiyalar va bitimlarni amalga oshiradi;

- kredit tashkilotlari xizmatlari iste'molchilari huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash, moliyaviy xizmatlarning ochiqligini hamda aholi va tadbirkorlik sub'yektlarining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish choralarini ko'radi;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro zaxiralarini, shu jumladan kelishuvga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Hukumatining zaxiralarini boshqarishni, hisobga olishni va saqlashni amalga oshiradi.

Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi respublikaning markaziy moliya-iqtisodiy organi sifatida O'zbekiston Respublikasining moliyaviy narx siyosatini hayotga tatbiq etadi va uning butun hududida moliya, narx-navoni tashkil etish faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi.

Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasining vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy negiz yaratishni, respublika byudjetini ishlab chiqish va ijro etishni, uning daromad qismi barqarorligini ta'minlashni, valyuta rejasini tuzish va ijro etishni, pul resurslaridan oqilona va tejab sarflashni ta'minlaydi.

Moliya vazirligi respublika byudjeti ham daromadlar, ham xarajatlar bo'yicha ijro etilishi uchun, moliyaviy resurslarni umumrespublika ehtiyojlariga safarbar etish ishlarini tashkil etish uchun javob beradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va tumanlar hokimliklari boshqarmalari va bo'limlari, davlat sug'urta idoralari, shuningdek, ularga qarashli davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yagona tizimini tashkil etadi.

Moliya vazirligi o'z tizimiga kiruvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar faoliyatini to'g'ridan-to'g'ri yoki o'zi tashkil etadigan organlar orqali muvofiqlashtiradi va yo'naltiradi. Vazirlik tizimiga kiruvchi organlarni boshqarish jarayonida Vazirlik O'zbekiston Respublikasining moliyaviy va narx-navo siyosatini amalga oshirishning birligini ta'minlaydi.

Moliya vazirligi davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashdagi asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- moliya tizimining, soliq va narx-navo siyosatining O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga faol ta'sir ko'rsatishini, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishini, milliy daromadning, korxonalar va tashkilotlar daromadlarining va boshqa moliyaviy resurslarning o'sishini ta'minlash, moliya-kredit vositalarining xo'jalik mexanizmining boshqa elementlari bilan aloqalarini mustahkamlash;

- respublikaning moliyaviy resurslarini ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirish va fan-texnika taraqqiyotining ustivor yo'nalishlariga jamlash, ijtimoiy rivojlanishni jadallashtirish, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan yaxlit xalq xo'jaligi dasturlarini mablag' bilan ta'minlash, zarur moliya, valyuta rezervlarini tashkil etish;

- rahbarlikning iqtisodiy usullari, uzoq muddatli me'yorlar va normativlardan keng foydalanish, ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanish, moliyaviy resurslarni rejalashtirish va ulardan foydalanish masalalarini hal etishda markazlashtirilgan asoslarni mintaqalarning o'zini o'zi boshqaruvi, korxonalar, birlashmalar, tashkilotlarning mustaqilligi bilan qo'shib olib borish asosida moliya, sug'urta, narx belgilashning davlat tomonidan boshqarilishini takomillashtirish;

- moliya va narx mexanizmining aksilxarajat yo'nalishini oshirish, uni resurslarning barcha turlaridan oqilona foydalanishni rag'batlantirish tomon yo'naltirish, nobudgarchiliklarni bartaraf etish, ishlab chiqarish va muomala chiqimlarini kamaytirish, foyda (daromad)ni ko'paytirish;

- moliya, byudjet, valyuta va soliqni rejalashtirish va mablag' bilan ta'minlash usullarini takomillashtirish;

- sug'urta munosabatlari barcha qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududidagi sug'urta tashkilotlari faoliyatini nazorat qilish;

- auditorlik tashkilotlari tomonidan litsenziya bitimlarida nazarda tutilgan litsenziya talablari va shartlariga rioya qilinishini nazorat qilish;

- korxonalar, vazirliklar, idoralar, banklar va davlat sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish va takomillashtirish ishlarini muvofiqlashtirish, xo'jalik yuritishning yangi shakllarini joriy etish sohasida mahalliy moliya organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish;

- soliq solish, narx belgilash, sug'urta, valyuta-moliya auditorlik va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida shuningdek soliq maslahati bo'yicha faoliyatni qonunchilik va me'yoriy aktlarni ishlab chiqishda qatnashish;

- moliya, soliq, narx belgilash, sug'urta, valyuta auditorlik va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida shuningdek soliq maslahati bo'yicha faoliyatni ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

- fuqarolarning pensiya ta'minoti sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish;

- byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlarning mutanosibligini ta'minlash;

- byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tomonidan unga yuklangan vazifalar va funksiyalarning, ayniqsa pensiyalarni va boshqa tegishli to'lovlarni tayinlash va to'lashning belgilangan qoidalarini qo'llash yuzasidan bajarilishini muvofiqlashtirish va nazorat qilishdan iborat.

Jamiyat hayotining barcha tomonlarini erkinlashtirish va isloh qilishning hozirgi bosqichi talablariga muvofiq iqtisodiyotni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, davlat tuzilmalarining hokimiyat vakolatlarini qisqartirish, davlat va xo'jalik boshqaruvi vazifalarini aniq chegaralab qo'yish, shuningdek respublika davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini oshirishdan iborat.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari, qo'mitalar, agentliklar, shuningdek ular huzurida va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etiladigan davlat boshqaruvi tuzilmalari respublika davlat boshqaruvi organlari jumlasiga kiradi.

### **3.3. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashdagi konsepsiyasi va uning asosiy yo`nalishlari**

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani rivojlantirish va liberallashtirish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish davlat va jamiyatni modernizatsiya qilishning muhim maqsadlari etib belgilandi. Ushbu maqsadlarga erishishning muhim sharti amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar va davlat dasturlarining to'liq ro'yobga chiqarilishini ta'minlay oladigan, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarini o'z vaqtida aniqlaydigan va

samarali hal qiladigan davlat boshqaruvi tizimining aniq faoliyat ko'rsatishi hisoblanadi. Shu bilan birga, Harakatlar strategiyasini amalga oshirish jarayonining tizimli tahlili va aholi bilan muloqot natijalari davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyatini tashkil etishda islohotlarni to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiluvchi jiddiy kamchiliklarning saqlanib qolayotganligidan dalolat bermoqda.

Davlat boshqaruvi tizimidagi mavjud kamchiliklar jamiyatning o'sib borayotgan talablariga lozim darajada munosabat bildirish, joylarda to'planib qolgan muammolarni hal qilish, iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, oqibatda esa odamlarning hayotida kutilayotgan ijobiy o'zgarishlarga erishishni ta'minlash imkonini bermaydi.

Shu munosabat bilan quyidagi asosiy yo'nalishlarni nazarda tutuvchi Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali davlat boshqaruvining konseptual yangi modelini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi:

### **I. Ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.**

1. Ijro etuvchi hokimiyat organlari, shu jumladan, ularning tarkibiy va hududiy bo'linmalarini tashkil etish va tugatishning ma'muriy apparat, byudjet yuklamasi asossiz oshishi va davlat boshqaruvini byurokratlashtirishning oldini olishga qaratilgan aniq mezonlari hamda tartib-taomillarini joriy etish.

2. Real ehtiyoj, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga salbiy ta'sirga yo'l qo'ymaslik, respublika va hududiy ijro etuvchi hokimiyat organlari o'rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etish, shuningdek, kadrlar va moddiy resurslarning to'g'ri taqsimlanishini ta'minlashni hisobga olgan holda, ijro etuvchi hokimiyat organlari, ularning tuzilmalari va bo'linmalarini optimallashtirish.

3. Ijro etuvchi hokimiyat organlari va ular rahbarlarining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tegishli departamentlari bilan o'zaro hamkorligi mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish hisobiga birlashtirilgan sohada davlat siyosati amalga oshirilishi uchun ularning mustaqilligi hamda javobgarligini oshirish.

4. Ma'muriy tartib-taomillarni optimallashtirish, boshqaruv jarayonini avtomatlashtirish, hududlar va butun mamlakatda yuzaga kelayotgan tahdid va muammolarga o'z vaqtida hamda munosib ta'sir ko'rsatish uchun axborot almashishning samarali tizimini shakllantirish maqsadida barcha darajadagi ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatida «Elektron hukumat» tizimi va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada keng joriy etish.

5. Quyidagilar orqali davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish:

- “yagona darcha”, shu jumladan, idoraviy markazlar negizida jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlari ko'rsatish yagona markazlarini tashkil etish;

- barcha davlat xizmatlarini tartibga solish, ularni yagona reyestrda kiritish;

- davlat xizmatlari ko'rsatishda ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan idoralararo hamkorlik orqali olish lozim bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarning ro'yxatini belgilash va bosqichma-bosqich kengaytirish.

6. Ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning mansabdor shaxslarining qarorlari va harakatlari (harakatsizligi) ustidan yuqori turuvchi organlarga shikoyat qilish tartibini takomillashtirish, nizolarni sudgacha hal qilish usuli sifatida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini kollegial eshitish mexanizmlarini joriy etish orqali ma'muriy adliya tizimini rivojlantirish.

**II. Ijro etuvchi hokimiyat organlarining vazifalari (funktsiyalari, vakolatlari)ni, ularni amalga oshirish mexanizmlari va javobgarlik sohasini aniqlashtirish, muvofiqlashtirish va o'zaro hamkorlik jarayonlarini takomillashtirish.**

1. Ijro etuvchi hokimiyat organlari va ular rahbarlarining aniq vazifalari (funktsiyalari, vakolatlari) va javobgarlik sohasini belgilash, har bir vazifa va funktsiyani amalga oshirish mexanizmlarini belgilaydigan, shu jumladan, axborot-tahliliy qo'llab-quvvatlash, strategik rejalashtirish, loyiha boshqaruvi, tartibga solish funktsiyalarini amalga oshirish, davlat xizmatlari ko'rsatish masalalari bo'yicha ma'muriy tartib-taomillar hamda reglamentlarni joriy etish.

2. Hududlarni rivojlantirish bo'yicha vazifalarni hal qilishda barcha darajadagi ijro etuvchi hokimiyat organlarining samarali ishini tashkil etish va kuchlarini safarbar etish, shuningdek, tor idoraviy yondashuv holatlarining oldini olish imkonini beruvchi ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilishning «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni - Vazirlar Mahkamasi - respublika davlat boshqaruvi organlari - tarkibiy va hududiy bo'linmalar - mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari» ta'sirchan tizimini joriy etish.

3. Tegishli vakolatlarni aniq davlat organlariga o'tkazish va ularga qabul qilinayotgan qarorlarning natijasi uchun javobgarlikni yuklash orqali davlat-hokimiyat vakolatlari berilgan idoralararo kollegial organlarni (komissiyalar, kengashlar, ishchi guruhlar va boshqalar) tubdan qisqartirish.

4. Hududlarning o'ziga xos xususiyatlari va joylardagi dolzarb muammolarni kompleks hal etish zaruratini hisobga olgan holda, davlat va hududiy rivojlantirish dasturlarini shakllantirishda hududiy ijro etuvchi hokimiyat organlarining tashabbuskorligini oshirish hamda rolini kuchaytirish.

5. Maqsadli indikatorlarga erishishga va strategik rivojlanish dasturlarini amalga oshirish samaradorligiga asoslangan barcha darajadagi ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning rahbarlari faoliyatini, shu jumladan, dasturiy byudjetlashtirish va vakillik hokimiyati organlari tomonidan ular hisobotlarini eshitish yo'li bilan baholashning prinsipial yangi tizimini joriy etish.

6. Normativ-huquqiy hujjatlarni ularning ta'sirini lozim darajada baholamasdan qabul qilishga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, kollizion normalar, ikki xil sharhlash, korrupsiya ko'rinishlari va davlat tomonidan ortiqcha tartibga solish holatlariga olib keluvchi idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish amaliyotini bosqichma-bosqich bartaraf etishni nazarda tutuvchi «aqli tartibga solish» modellarini va qabul qilinayotgan qarorlarning tartibga solish ta'sirini tahlil qilishning standartlashtirilgan uslubiyotini joriy etish.

7. Ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini mavjud muammolarning oqibatlariga qarshi kurashishga emas, uning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga yo'naltirish maqsadida ayrim davlat funksiyalarini jamoatchilik nazorati

sub'yektlariga o'tkazish va ortiqcha ma'muriy tartibga solishni kamaytirish orqali tartibga solish vositalarini takomillashtirish.

8. Ishni tashkil etishning aniq natijalarga erishishga qaratilgan zamonaviy uslublarini (sifat menejmenti, indikativ rejalashtirish, autsorsing, kraudsorsing) joriy etish.

9. Rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini monitoring qilish jarayoniga fuqarolar va tadbirkorlik sub'yektlari bilan ochiq muloqotni ta'minlaydigan jamoatchilik bilan hamkorlikning zamonaviy shakllarini (virtual qabulxonalar, «ishonch telefonlari») keng joriy etish.

III. Iqtisodiyot tarmoqlariga ma'muriy ta'sir ko'rsatishni yanada qisqartirish va boshqaruvning bozor mexanizmlarini kengaytirish.

1. Eng zarur iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarda (sanoat, transport, energetika va boshqalar) sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish, davlat va tijorat manfaatlari to'qnashuvini bartaraf etishga qaratgan holda, boshqaruv tizimini takomillashtirish.

2. Xususiy sektor samarali faoliyat ko'rsatayotgan sohalarda davlat ishtirokidagi tijorat tashkilotlarini tuzishga cheklov choralari belgilash va amaldagi korxonalarini qayta tashkil etish, shuningdek, sog'lom raqobat muhitining rivojlanishini cheklayotgan alohida xo'jalik yurituvchi sub'yektlarga eksklyuziv huquqlar, individual imtiyozlar hamda preferensiyalar berish amaliyotidan voz kechish.

3. Iqtisodiy faoliyatda, eng avvalo, davlat unitar korxonalarini tashkil etish va faoliyatini boshqarish, ishonchli boshqaruvchilar va davlatning ishonchli vakillari vakolatlarini, ularning iqtisodiy va boshqaruv samaradorligini oshirish, birinchi navbatda, davlat aktivlarini boshqarish tizimining moliyaviy shaffofligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat ishtirokidagi xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni boshqarishning korporativ mexanizmlarini rivojlantirish sohalarida davlat ishtirokining aniq bozor mexanizmlarini ishlab chiqish.

4. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning dolzarb masalalarini (ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm, kommunal xo'jaligi, yo'l-transport infratuzilmasi) hal qilishda



nodavlat notijorat tashkilotlari va tadbirkorlik sub'yektlarining keng ishtirokini ta'minlashga hamda byudjet xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan ijtimoiy va davlat-xususiy sheriklikning huquqiy va institutsional bazasini takomillashtirish.

5. Litsenziyalash, sertifikatlashtirish, akkreditatsiyadan o'tkazish va ruxsat berish tartib-taomillari orqali davlat funksiyalarining lozim darajada bajarilishi ustidan davlat nazorati mexanizmlarini joriy etgan holda ularning ayrimlarini xususiy sektorga o'tkazish. Ayni vaqtda davlat nazoratining ortiqcha ma'muriy choralarini (litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillari), shu jumladan, ularni muqobil tartibga solish turlariga (javobgarlikni majburiy sug'urtalash, muvofiqlikni deklaratsiyalash va boshqalar) almashtirish orqali qisqartirish.

#### **IV. Vertikal boshqaruv tizimi va ijro etuvchi hokimiyat organlari hamkorligining mexanizmlarini takomillashtirish.**

1. Respublika davlat boshqaruvi organlari vakolatlarini mahalliy davlat hokimiyati organlariga, viloyatdan tuman (shahar) davlat hokimiyati organlariga o'tkazishni nazarda tutgan holda, davlat boshqaruvini bosqichma-bosqich nomarkazlashtirish. Davlat boshqaruvining turli darajadagi o'zaro funksiya va vakolatlarini, xususan, umumdavlat miqyosidagi strategik masalalarni respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarida qoldirish, shuningdek, ular tomonidan mahalliy davlat hokimiyati organlariga berilgan vakolatlardan lozim darajada foydalanayotganligi ustidan nazorat qilishni aniq chegaralash.

2. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy imkoniyatlarini, shu jumladan, mahalliy byudjetga soliq ajratmalarini ko'paytirish hamda hududlarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadida mahalliy davlat hokimiyati organlarining soliq solish bazasini kengaytirishdan manfaatdorligini kuchaytirish orqali kengaytirish.

3. Hokimning mahalliy hokimiyat vakillik organining rahbari sifatidagi maqomini unda ijro etuvchi hokimiyat rahbari maqomini saqlagan va xalq deputatlari Kengashlarining kotibiyatini tuzgan holda qayta ko'rib chiqish orqali mahalliy davlat hokimiyati tizimini tashkil etishda hokimiyatlar bo'linishi tamoyilining amaliy ro'yobga chiqarilishini ta'minlash.

4. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining, ayniqsa, xalq deputatlari Kengashlarining ijro etuvchi hokimiyat organlari hududiy bo‘linmalari faoliyatini nazorat qilish bo‘yicha roli va mas’uliyatini oshirish.

5. Tegishli vakolatlarni hokimga bosqichma-bosqich o‘tkazish orqali hududiy ijro etuvchi hokimiyat organlarining rahbar kadrlarini tanlash va joy-joyiga qo‘yish masalalarida mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kuchaytirish.

6. Kelgusida mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va hokimlar faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini ta'minlashga qaratilgan hokimlarni saylash tartibini joriy etish.

7. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning dolzarb masalalarini hal etishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining rolini va faoliyat samaradorligini oshirish.

#### **V. Davlat boshqaruvi tizimiga strategik rejalashtirishning zamonaviy shakllari, innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish.**

1. Mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini oshirishning uzoq muddatli ssenariylari asosida ustuvor soha va tarmoqlarni innovatsion rivojlantirishning kelajakdagi modellarini shakllantirish imkonini beradigan strategik rejalashtirish tizimini yaratish.

2. Davlat xizmatlari ko‘rsatishning tartib-taomillarini optimallashtirish va soddalashtirishni, davlat organlari faoliyatining samaradorligini oshirishni ta'minlaydigan davlat boshqaruvining innovatsion shakllarini joriy etish.

3. Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish sohasini, shu jumladan, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqish bo‘yicha har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda unga investitsiyalarni keng jalb qilish, ularni yanada rivojlantirishni ta'minlaydigan normativ-huquqiy bazani shakllantirish.

4. Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatning zamonaviy yutuqlarini joriy etishning samarali mexanizmlarini, shu jumladan, ilmiy-eksperimental ixtisoslashtirilgan laboratoriyalar, yuqori texnologiyalar markazlari va texnoparklarni tashkil etish orqali yaratish.

5. Tabiatni muhofaza qilish, resurs va energiya tejaydigan texnologiyalarni, shu jumladan, muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qo'llashni rivojlantirish, suvni tozalash hamda chuchuklashtirishning zamonaviy shakllarini kengaytirish, undan oqilona foydalanish orqali keng joriy etish.

**VI. Professional davlat xizmatining samarali tizimini shakllantirish, ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish.**

1. Davlat xizmatchilarining professional korpusini yaratish maqsadida davlat xizmatini tashkil etish, shu jumladan, huquqiy maqomi, davlat xizmatchilarining klassifikatsiyasi, xizmatga qabul qilishning shaffof mexanizmlari (tanlov asosida), kadrlar zaxirasini shakllantirish, xizmatni o'tash, axloq normalariga rioya etilishini ta'minlash masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida yagona davlat kadrlar siyosatini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan ixtisoslashtirilgan organni tashkil etish.

3. Davlat boshqaruvi sohasida mutaxassislar tayyorlashning va davlat xizmatchilari malakasini oshirishning maxsus ta'lim yo'nalishlarini ishlab chiqish, shaxsiy yutuq, bilim va kasb mahorati asosida ularning faoliyati samaradorligini baholashning zamonaviy uslublarini joriy etish.

4. Davlat xizmatining jozibadorligini oshirish, korrupsiyaning yuzaga kelish xavfi va mansab suiiste'molchiligini kamaytirish imkonini beradigan davlat xizmatchilari mehnatiga haq to'lash va ijtimoiy ta'minotining zamonaviy tizimini yaratish.

5. Ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining shaffofligi va ochiqligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarga axborot taqdim etishning zamonaviy shakllarini joriy qilish, jamiyat va biznes bilan o'zaro hamkorlik qilishda ortiqcha ma'muriy sarf-xarajatlarga barham berish.

6. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish, aholi bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yishning yangi, samarali mexanizm va uslublarini joriy etish.

7. Ish vaqti va moddiy-ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish hisobiga ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining mehnat unumdorligini oshirish.

## **VII. Ma'muriy islohotlarning amalga oshirilishidan kutilayotgan natijalar.**

1. Kutilayotgan islohotlarning to'liq amalga oshirilishini ta'minlashga, ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muammolarini o'z vaqtida aniqlash va samarali hal etishga qodir bo'lgan, innovatsion rivojlanishning umumjahon tendensiyalariga javob beradigan davlat boshqaruvi tizimini yaratish, shu jumladan, quyidagilar orqali:

ortiqcha va o'ziga xos bo'lmagan vazifa, funktsiya va vakolatlarni bartaraf etish, takrorlash va parallelizmni tugatish hisobiga davlat boshqaruvi tizimini optimallashtirish hamda nomarkazlashtirish;

davlat boshqaruvini byurokratiyadan xoli qilish va uning sarf-xarajatlarini pasaytirish, boshqaruv qarorlari qabul qilish tizimining faoliyat samaradorligini va shaffofligini oshirish;

strategik rejalashtirish, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar tizimini joriy etish;

iqtisodiyot tarmoqlariga ma'muriy ta'sir ko'rsatishni yanada qisqartirish hamda boshqaruvning sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va aholining ishchanlik faolligini oshirishga qaratilgan bozor mexanizmlarini kengaytirish;

jamoatchilik va parlament nazoratining, eng avvalo, korrupsiya ko'rinishlarining oldini olishga qaratilgan samarali shakllarini joriy etish.

2. Fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, ularning farovonligini va ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatidan qanoatlanish darajasini yanada oshirish, shu jumladan, quyidagilar orqali:

davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslar bilan huquqiy munosabatlarini aniq tartibga solishga qaratilgan ma'muriy tartib-taomillarni takomillashtirish;

ijro etuvchi hokimiyat organlarining qarorlari va harakatlari ustidan shikoyat qilish tartibini takomillashtirishni, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini kollegial eshitish mexanizmlarini joriy etishni nazarda tutuvchi ma'muriy adliya tizimini rivojlantirish;

«Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish orqali davlat xizmatlari ko'rsatishning samaradorligini oshirish;

jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash.

Ma'muriy islohotlarni samarali amalga oshirishning pirovard natijasida davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi tizimi, me'yoriy-huquqiy baza, xavfsizlik sohasi, xalqaro va mahalliy huquq normalari, davlat va nodavlat tuzilmalarning huquqiy asoslari.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Davlat organi tushunchasini tavsiflang?
2. O'z vakolatiga muvofiq ravishda davlat organi qanday hokimiyat vakolatlariga ega?
3. Xuquqni muhofaza qiluvchi organlar tushunchasini tavsiflang?
4. Xuquqni muhofaza qiluvchi organlarga qaysi organlar tashkil etadi?
5. Davlat xavfsizlik xizmati faoliyatini tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari etib nimalar belgilangan?
6. Davlat xavfsizlik xizmatining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib nimalar belgilangan?
7. Prokuratura organlari o'z faoliyatini qanday asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiradi?
8. Prokuratura organlarining tizimi nimalardan iborat?

9. Adliya organining asosiy vazifalarini tavsiflang?

10. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qanday vazifalar belgilangan?

## IV-BOB. DAVLATNING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TAHIDDLAR

### 4.1. Davlatning iqtisodiy xavfsizligiga ichki tahdidlar

Tahdid jamiyat, davlat va ularning sub'ektlari, alohida shaxsning normal hayot faoliyatiga, ular manfaatlarini ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiluvchi, ziyon-zahmat keltiruvchi, xavf-xatar tug'duruvchi omillar, shart-sharoitlar va voqealikalarni ifodalaydi. Rossiyalik olim L.P.Goncharenko boshchiligidagi bir guruh olimlarning fikrlariga ko'ra tahdid-xavf-xatarning aniq va bevosita shakli yoki davlat, jamiyat, korxonalar, shaxs, shuningdek, milliy qadriyatlar va milliy turmush tarziga xavf soluvchi sharoitlar va omillardir<sup>5</sup>.

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarga tahdidlar ularning ta'sirida vujudga keladigan noxush va salbiy oqibatlar bilan bog'liq ravishda qaralib, xavf-xatar manbai sifatida izohlanadi. Ularni quyidagi belgilar bo'yicha xilma-xil turkumlarga ajratish mumkin:

- tahdidlarning manbalari, kelib chiqishiga ko'ra: ichki va tashqi guruhlarga ajratiladi;

- inson faoliyati sohalari bo'yicha: siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, harbiy, millatlararo munosabatlardagi, ekologik, demografik, ilmiy-texnikaviy, texnologik, intellektual, informatsion, xom ashyoviy tahdidlarga bo'linadi;

- amalga oshish ehtimoli bo'yicha, ya'ni ma'lum shart-sharoitlar toqazosini bilan vujudga keladigan tahdidlarga: inqiroz, qayta qurish, isloh etish, qarama qarshilik, sherikchilik tufayli vujudga keladigan tahdidlar kiradi;

- oqibatiga ko'ra umumiy, ya'ni mamlakat miqyosida ta'sir ko'rsatuvchi, lokal, ya'ni ma'lum hududga ta'sir ko'rsatuvchi, xususiy, ya'ni ayrim xo'jalik sub'ektlariga ta'sir ko'rsatuvchi tahdidlar turkumlanadi<sup>6</sup>.

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tahdidlarni eng umumiy tarzda ichki va tashqi guruhlarga ajratib o'rganish mumkin. Tashqi tahdidlar geosiyosiy, tashqi-iqtisodiy,

---

<sup>5</sup> Экономическая безопасность: учебник для вузов / под общ. ред. Л.П.Гончаренко. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Изд-во Юрайт, 2018. – с. 9.

<sup>6</sup> Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник. – М.: Изд-во РАСС. 2002. – с. 63.; Экономическая безопасность как основа обеспечения национальной безопасности России // Вопросы экономики, № 8, 2001. – с. 71-73.

shuningdek, global ekologik omillar bilan, ichki omillar esa mamlakat ichida vujudga keladigan omillar bilan tasniflanadi.

Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishiga va jamiyat, davlat, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, fuqarolarning iqtisodiy manfaatlariga ijtimoiy-iqtisodiy tahdidlar bevosita xavf tug‘diradi. Bu tahdidlar ijtimoiy takror ishlab chiqarishni izdan chiqarib, jamiyat hayotida tanglik holatlarining keltirib chiqaradi. Ijtimoiy-iqtisodiy tahdidlarning ichki va tashqi omillarini inobatga olgan holda davlatning iqtisodiy xavfsizlikka tahdid qiluvchi ko‘rsatkichlarni quyida ko‘rib chiqamiz.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid soladigan quyidagi jarayonlar va hodisalar ta'siri ostida shakllanishi mumkin:

- mamlakatdagi mavjud korxonalarining past raqobatbardoshligi, xom ashyolardan samarasiz foydalanish, yuqori energiya va material iste'mol sarfi, yoqilg'i-energetika mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlarining yuqoriligi;

- ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish va aholi ko'payishining normal jarayonlari buzilishi;

- ayrim tarmoqlarning monopollashganligi, ularning boshqa hududlarda konsentratsiya darajasi, hududiy monopoliyaning yuzaga kelishi;

- ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlarining, ayniqsa uy-joy-kommunal xo'jaligining yuqori darajadagi eskirishi va kommunikatsiya tizimining yomonlashishi;

- samarali talabni qondirish uchun ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning etarli darajada rivojlanmaganligi;

- mamlakatda institutsional infratuzilma, tovarlar, ishchi kuchi va kapital bozorlarining shakllanishidagi qoloqlik;

- tabiiy resurslardan foydalanish darajasi, tabiatni muhofaza qilish faoliyati va ekologik xavfsizlikning pastligi;

- yuqori ishsizlik darajasi, turmush darajasining pastligi;

- ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarining rivojlanmaganligi;

- iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajalarining hududiy tabaqalanish tafovutida farqning kattaligi;



- samarasiz soliq va moliyaviy tizimlarning amal qilishi;
- mamlakat boshqaruvning iqtisodiy, ijtimoiy va mintaqaviy siyosatini olib borishidagi qarorlari va harakatlarining samarasizligi;
- jinoyatchilikni oshib borishi va jinoiy vaziyatning yomonlashishi;
- eksportga nisbatan import darajasining yuqoriligi;
- chegara hududlarida xavfsizlik choralarining sustligi.

Har qanday iqtisodiy xavfsizlikka tahdid qiluvchi jarayonlar davlatda iqtisodiy xavfni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Davlatning ichki iqtisodiy sohadagi xavfsizligi tabiiy, texnik-texnologik, infratuzilmaviy, ijtimoiy hamda boshqa makro va mikroiqtisodiy rivojlanish omillari, ichki immunitet va beqarorlik, tangliklar ta'siridan himoyalaniş orqali ta'minlanadi.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid soluvchi ichki omillarga quyidagilar kiradi<sup>7</sup>:

- ilgorigi tizimdan biryoqlama, tarkibi deformatsiyalashgan iqtisodiyotning meros qolganligi;
- ko'pchilik tarmoqlarning qoloq texnologik bazaga, yuqori energiya va resurs sig'imiga egaligi sababli milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining pastligi;
- iqtisodiyotning yuqori darajada monopollashuvi;
- yuqori darajadagi inflyatsiya;
- infratuzilma ob'ektlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi va mustahkam emasligi;
- mineral xom ashyo bazalarining kam o'rganilganligi va xo'jalik oborotiga tortilish imkoniyatlarining yetarli emasligi;
- mamlakat ilmiy-texnika salohiyatining yomonlashuvi, fan-texnika rivojlanishining ayrim yo'nalishlarida ilg'or o'rinlarning boy berilishi, boshka faoliyat sohalarida intellektual mehnat obro'sining tushib ketishi;
- ichki bozorlarda chet el firmalari tomonidan mahalliy tovar ishlab chikaruvchilar mahsulotlarining, shu jumladan, iste'mol tovarlarining siqib chiqarilishi;

---

<sup>7</sup>Abulqosimov H.P. Iqtisodiy xavfsizlik. - T.: Akademiya, 2006. – 57 b.

- hududiy separatizm tendentsiyasi va boshqarish qarorlarish qabul qilishda tarmoq lobbizmining yuqori darajadali;

- investitsion faollikning pastligi;

- kapital xarajatlar o'rniga joriy xarajatlarni afzal ko'rish;

- ijtimoiy ziddiyatlarning kelib chiqish xavfining mavjudligi. Bunday ijtimoiy ziddiyatlar mehnatga haq to'lash mexanizmining takomillashmaganligi, ishsizlik darajasining yuqoriligi, aholi o'rtasidagi tabaqalanishning keskinlashib ketishi, aholi bilim darajasi va sifatining pasayishi tufayli vujudga keladi;

- qonunchilikning rivojlanmaganligi, bir qancha iqtisodiy sub'ektlarning ichki va tashqi bozorda monopol holatda ekanligi uayriqonuniy faoliyat ko'rsatishi hamda huquqiy intizomining pastligi;

- iqtisodiyot sub'ektlarining moliyaviy va shartnomaviy intizomining pastligi;

- iqtisodiyotning kriminallasuvi va uni boshqarishda korruptsiyaning kuchayishi;

- daromadlarni yashirish va soliq to'lashdan qochish holatlarining ko'payishi;

- moliyaviy mablag'larni chet ellarga noqonuniy tarzda o'tkazish (3-rasm).

Tahdidning ichki omillarini, o'z navbatida, ikki guruhga ajratish mumkin:

1) iqtisodiy tizimning siklik rivojlanish qonuniyatlariga bog'liq tahdid omillari;

2) siklik rivojlanish qonuniyatlariga bog'liq bo'lmagan omillar.


Birinchi guruh omillari harakati oqibatida ma'lum vaziyatda makroiqtisodiyot darajasida salbiy holatlar yuzaga kelib, davlatning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid solishi mumkin. Ikkinchi guruh omillari harakati esa uzoq muddatli davrda xo'jalik tizimi muhim elementlarining takror ishlab chiqarilishi natijasida to'plangan noxush tendentsiyalar tufayli yuzaga keladi. Bu noxush tendentsiyalar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- mamlakatning ishlab chiqarish, innovatsion va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan foydalanish darajasi va samaradorligi;

- xo'jalik yuritish va boshqarishning iqtisodiy munosabatlari;

- ijtimoiy soha;

- atrof muhit holati;
- mamlakat hududlaridagi ahvol.



**3-rasm. Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi ichki omillar**

Iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichida tanglik holati chuqurlashib, ishlab chiqarish keskin qisqarib ketdi. Bunday holatning o'ziyoq iqtisodiy xavf tug'dirar edi. Chunki ishlab chiqarishning qisqarishi, ichki bozorda tovar va xizmatlar miqtsorining kamayib ketishi oqibatida ularning o'rniga xorij tovarlari, ayniqsa, arzon, sifatsiz tovarlar kirib keddi. Ichki bozordan siqib chiqarilgan mahalliy tovarlarning o'rnini tiklash nihoyatda og'ir bo'ladi. Shuningdek, boy berilgan G'arbiy va Markaziy Rossiya, boshqa MDX mamlakatlari bozorlariga qaytadan kirib borish ham qiyin bo'ladi. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi uchun fundamental tadqiqot ishlarining to'xtatilib qo'yilishi, jahon talablariga javob beradigan ilmiy-tadqiqot jamoalari va konstruktorlik byurolarining tarqalib ketishi, yuqori texnologik va raqobatbardosh mahsulotlarga buyurtmalarning keskin kamayib ketishi, mamlakatdan sohaning kuchli mutaxassislarining chiqib ketishi jiddiy tahdidni yuzaga keltiradi. Yuqori malakali mutaxassis va ishchilarning o'z sohasidan chiqib ketishi, nufuzli sohalardan boshqa bunday bilim, malaka talab qilmaydigan, ayniqsa, tijorat-vositachilik sohaslariga o'tib ketishi ham jiddiy tahdid bo'lib, xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishida xom ashyo mahsulotlari ishlab chiqaruvchi, yoqilg'i-energetika, metallurgiya tarmoqlari ulushining o'sib, mashinasozlik, kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoati ulushining kamayib ketishi ham jiddiy xavf tug'diradi.

Mavjud xo'jalik tuzilishi va aloqalarni shoshilinch buzish, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlari o'rtasidagi disproportsiyani kuchaytirib yuborish, vatanimizdagi ishlab chiqaruvchilarga nisbatan aqlga muvofiq paternalizmdan butunlay voz kechish, amalda ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari importiga to'liq ochib qo'yish mamlakatning o'zini o'ei oziq-ovqat bilan ta'minlash bazasining barbod bo'lishi va zaiflashib qolishiga olib keladi. Davlat mustaqilligi, suvereniteti xavf ostida qoladi. Shuning uchun mamlakat oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlash uchun mamlakat tovar ishlab chiqaruvchilarini samarali himoya qilish, import mahsulotlari bilan mahalliy tovarlar nisbatini tartiblash muhim ahamiyatga ega.

Ishsizlikning o'sishi, ayniqsa, uning ommaviy va turg'un tus olishi mamlakatga jiddiy ijtimoiy xavf tug'dirishi mumkin. Ishsizlik turli-tuman jinoyatlar, xususan,

ekstremizmning kuchayishi uchun baza hisoblanadi. Ishbilarmonlik, investitsiya faolligiga to'siqlarning mavjudligi davlatning moliyaviy qiyinchiliklarni chet el kreditlari hisobiga "yashashga" bo'lgan intilishini kuchaytiradi. Chet el kreditlaridan foydalanish o'zicha xavfli emas, balki iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashuvchi vosita bo'ladi. Ammo chet el kreditlaridan samarasiz foydalanish, uni haddan tashqari ko'p miqdorda olish, uni to'lash imkoniyatlaridan ortiqcha bo'lib ketishi xavflidir.

Mamlakatdagi mavjud xufyona iqtisodiyot va korrupsiya holatlari mamlakat xavfsizligiga jiddiy tahdid hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida "xufyona iqtisodiyot"ning mavjud bo'lishi iqtisodiyotda kriminal jarayonlarning kuchayishi iqtisodiyotning vujudga kelishi bilan bog'liqdir. Ichki taxdidlar ichida xufyona iqtisodiyot o'ta xavfliligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun unga qarshi kurash iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

#### **4.2. Davlatning iqtisodiy xavfsizligiga tashqi tahdidlar**

Mamlakatimizning ochiq iqtisodiyot siyosatini olib borishi sharoitida tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun quyidagilar taqozo etiladi: birinchidan, jaxon xo'jalik aloqalarida ishtirok etish bilan milliy ishlab chiqarish uchun qulay sharoit yaratish; ikkinchidan, jahonda sodir bo'layotgan iqtisodiy, siyosiy noxush hodisalar salbiy oqibatlarining milliy iqtisodiyotga ta'sirini kamaytirishga erishish. Alohida ta'kidlash joizki, ochiq iqtisodiyot sharoitida tashqi tahdidlar ta'sirini butunlay yo'q qilish, unga barham berish mumkin emas.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligiga tasir ko'rsatuvchi tashqi iqtisodiy tahdid omillariga quyidagilar kiradi:

- eksport tarkibida xom ashyo tovarlarining ustuvorligi, an'anaviy mashinasozlik va harbiy sanoat tovarlari bozorlarining yo'qotilishi;


- mamlakatning ko'p turdagi mahsulotlar, shu jumladan, strategik ahamiyatdagi va oziq-ovqat mahsulotlari importiga qaramligi;

- tashqi qarzlarning o'sib borishi;

- eksport va valyuta nazoratining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, bojxona chegaralarining ochiqligi;

- raqobatga bardoshli eksportni qo‘llab-quvvatlovchi moliyaviy, tashkiliy va axborot infratuzilmalarning rivojlanmaganligi va import tarkibining ratsional emasligi;

- eksport-import operatsiyalariga xizmat ko‘rsatuvchi transport infratuzilmalarining rivoj topmaganligi (4-chizma).



#### 4–rasm. Iqtisodiy xavfsizlikka taxdid soluvchi tashqi omillar tarkibi

Ekspot tovarlariga narxlarning keskin pasayib ketishi yoki aksincha, import tovarlariga narxlarning keskin ko‘tarilib ketishi tashqi bozorga nihoyatda bog‘liq bo‘lgan iqtisodiyot uchun o‘ta xavfli hisoblanadi.

Iqtisodiyot uchun muhim sotish boeorlari yoki mahsulot yetkazib beruvchi mamlakat yoki mamlakatlar guruhi bilan savdoga embargo kiritilishi ham xavf tutdiradi. Shuningdek, bir mamlakatdan yoki mamlakatlar guruhidan ayrim turdagi mahsulotlarni keltirishda yuqori darajadagi qaramlikka, bog‘liqlikka yo‘l qo‘yib

bo'lmaydi. Chunki bu iqtisodiy qaramlikdan siesiy jihatdan ta'sir ko'rsatishda foydalanishlari mumkin Xorijiy mamlakatga moliyaviy jihatdan o'ta yuqori darajada bog'liqlikka ham yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bu holdan qarzdor mamlakat iqtisodiy siyosatiga va tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish sharoitlariga ta'sir o'tkazishda foydalanmshlari shubhasizdir.

Milliy iqtisodiyot uchun uning eksporti tarkibida ikki-uch xil tovarning ustuvor o'rinni egallashi, hatto eksport hajmining yarmidan ko'pini tashkil etishi o'ta xavfli holatlarni tug'dirishi mumkin. Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, eksportning bunday tarkibi jahon bozori kon'yunkturasining yomonlashgan sharoitida, ularga bo'lgan talabning kamayishi oqibatida iqtisodiyot halokat yoqasiga kelib qolishi mumkin.

Mamlakat aksport qilayotgan xom ashyo resurslarining jahon bozoridagi narxlarining tushib ketishi oqibatida uning tashqi savdo aylanmasi pasayib ketadi. Natijada, valyuta tushumi kamayadi. Bu hol mamlakat uchun zarur investitsiya loyihalariking bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, hatto milliy valyutasi qadrining tushib ketishiga ham olib kelishi mumkin. Shuningdek, xom ashyo ishlab chiqaruvchi milliy korxonalarining iqtisodiy moliyaviy ahvoli yomonlashadi. Ularning bir qanchasi xonavayrok bo'ladi, ko'pchiligi esa ishlab chiqarish hajmini kamaytirishga majbur bo'ladi. Oqibatda, ish bilan band xodimlar soni qis-qarib, ishsizlik ko'payadi. Davlat byudjetidan axolini ijtimoiy himoyalashga ajratiladigan mablag' ko'payip, ijtimoiy muammolar ham birmuncha keskinlashadi, milliy iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlari sekinlashadi yoki turg'unlikka, tanglikka yuz tutadi.

Ochiq iqtisodiyotga o'tish kuchli darajadagi protekcionizmdan voz kechishni taqozo etadi. Ammo mamlakatni jaxon xo'jaligiga kirib borishi nuqtai nazari- dan istiqbolli bo'lgan tarmoqlar va ishlab chiqarishlarni himoya qilish, ya'ni selektiv proteksionizm zarurdir. Iqtisodiy xavfsizlik nuqtai naearidan vatanimizda ishlab chiqarilgan tovarlar sotish bozorlarini, import xom ashyo va sanoat mahsulotlari manbalarini diversifikatsiyalash, ko'plab mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqa qilish, bir mamlakat bilan yomon lashgan munosabatlar o'rniga boshqa mamlakatlar bilan bo'ladigan iliq munosabatlar rivojlantiriladi.

Iqtisodiyot chuqur inqirozga uchragan va kapital mablag'larni unga jalb qilish keskin kamayib ketayotgan sharoitda xorijiy investitsiyalar ba'zi bir sohalarda iqtisodiy o'sish katalizatori bo'lishi mumkin. Bu esa iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga imkon beradi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmi xorijlik xdmkorlarning moliyaviy va moddiy resurslarini milliy iqtisodiyotga real kiritishga zshdashi lozim. Ular tomonidan moddiy boyliklarni arzon-garovga ko'plab sptib olinishiga yo'l qo'yish mumkin emas. Shunday qilib, xorijiy invegtitsiyalarni iktisodiyotga keng jalb qilish chorala- rini ko'rish bilan bir qatorda, bu jarayonlarni tartibga solish ham darkor. Bunda milliy manfaatlariga rioya qil- gan holda, xorijiy kompaniyalarning minimal mablag'la- ri evaziga bzpun bir tarmoqpar ustidan o'z nazoratini o'rnatishlariga yo'l qo'ymaslik lozim bo'ladi.

Butun dunyoda milliy valyuta qadri mamlakat iqtisodiy ahvolining indikatom hisoblanadi. Mamlakatdan moliyaviy mablag'larning katta mikdorda chiqib ketishi, ya'ni "kapitalning qochishi" milliy iqtisodiy xavfsizlikka bo'lgan jiddiy tahdidlardan biridir. Mablag'larning chetga chiqib ketishining legal, ya'ni ochiqdan ochiq yo'li tijorat banklari tomonidan xorijiy banklar hisob schetlariga katta miqdordagi mablag'larnint o'tkaeilishi hisoblanadi. Noqonuniy, ya'ni yashirin yo'llarga esa quyidagilar kiradi:

- eksport qilinayotgan mahsulot narxini pasaytirib, importda oshirib ko'rsatish. Bunda fiktiv va haqiqiy narx o'rtasidagi farq xorijiy kompaniyalar tomonidan vatanimizdagi ishbilarmonning xorijdagi bankdagi schetiga o'tkaziladi;

- import uchun "avans" o'tkaziladi, ammo import sodir bo'lmaydi va h.k.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda har yili nolegal yo'l, xufyona faoliyat orqali topilgan 300 milliard dollar ziyod pullar legallashtiriladi. 1990 yili Yevropa kengashi tomonidan jinoyatkorona yo'l bilan topilgan daromadlarni konfiskatsiya qilish to'g'risida Konventsiya qabul qilingan, ammo uni faqat kam sonli davlatlar ratifikatsiya qilgan xolos.

Mamlakatning nafaqat iqtisodiy, shuningdek, siesiy aqvoliga ham jiddiy xavf tug'diruvchi tahdidlardan biri tashqi qarz muammosidir. Tashqi qarzning yuqori darajadaligining o'ziyoq milliy manfaatlariga mos keladigan tashqi siyosat yuritishni



shubha ostiga qo'yadi. Mamlakat qarz bergan yirik kreditor mamlakatlarga qaram bo'lib qoladi. Tashqi qarzlarni to'lash uchun mamlakat qarzlardan kreditlarni belgilangan muddatlarda to'lashni kafolatlaydigan ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirishda foydalanish hamda yangi ob'ektlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksportini kengaytirish hisobiga tashqi qarzlarni to'lash mumkin.

Davlat iqtisodiy manfaat va xavfsizlikka tahdidlarni aniqlab, ularning oldini olish maqsadida iqtisodiy siyosat maqsadlari va strategiyalarini ishlab chiqadi. Bu bilan iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmini yaratadi.

### **4.3. Xufyona iqtisodiyotning mazmuni, vujudga kelish sabablari va unga qarshi kurash usullari**

Xufyona iqtisodiyot hamma mamlakatlarda va hamma davrlarda bo'lgan. Iqtisodiy adabiyotlarda xufyona iqtisodiyotga turli xil ta'riflar berilgan:

- 1.Xufyona iqtisodiyot – qonun asosida man qilingan faoliyat turlari.
- 2.Xufyona iqtisodiyot – iqtisodiy faoliyatning kuzatilmagan va yashirin faoliyat turi.
- 3.Xufyona iqtisodiyot rasmiy statistikada u yoki bu sabablarga ko'ra hisobga olinmagan har qanday iqtisodiy faoliyat bo'lib, unda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar yalpi ichki mahsulot tarkibiga kiritilmaydi hamda soliqqa tortishdan chetda qoladi.

Iqtisodiyot fanida iqtisodiyotning qaysi sektorga, ya'ni norasmiy, kiriminal, faktiv, xufyona yoki ochiq, rasmiy iqtisodiyotga tegishli ekanligini aniqlashda quyidagi mezonlar asos qilib olinadi:

- davlatning fiskal (soliq) manfaatlari;
- YaIMning real hajmi;
- huquqiy parametrlar;
- xo'jalik sub'ektlari o'zaro harakati tavsifi.

Xufyona iqtisodiyot daromadlarni soliqqa tortishdan yashirishda namoyon bo'ladi.

Soliq to'lashdan bo'yin tovlash usullari quyidagilardan iborat:

- turli banklarda bir necha hisob raqamlarini ochib, ular orqali buxgalteriya hisobida to'liq ko'rsatilmagan holda pul operatsiyalarini amalga oshirish;

- trast, veksel va boshqa hisoblardan foydalanish;

- "ikkiyoqlama buxgalteriya" yuritish, naqd pullar bilan muomala qilish, shu orqali daromad va pul tushumlarini soliqdan yashirish;

- korxonani bir shahar, tumanda ro'yxatdan o'tkazish, ammo hisob raqamini boshqa shahar, tumandagi banklarda ochish orqali soliq to'lashdan korxonani ro'yxatga olingan joyda va faoliyat yuritgan joyida ham qochadi, ya'ni bo'yin tovlaydi;

- hisobga olinmagan xarajatlar hisobiga sotilayotgan mahsulot (xizmat, ishlar)ning tannarxini oshirib ko'rsatish;

- rasmiy hisob va to'lov xujjatlarida tomonlarning kelishuviga asosan bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmatlar) qiymati past narxlarda ko'rsatiladi, uning qolgan qismi naqd pul shaklida o'zaro taqsimlab olinadi. Naqd pullardagi daromad soliqqa tortishdan yashiriladi.

Kriminal, jinoiy xufiyona iqtisodiyotni noqonuniy ishlab chiqarish, yashirin ishlab chiqarish va ongli ravishda oldindan rejalashtirib, g'arazli maqsadlarni ko'zlab qilingan jinoyatlar tashkil etadi.

Noqonuniy ishlab chiqarishga biznes vatad birkorlik shaklida tashkilotilgan, qonunchilikda qat'iyan manqilingan faoliyatlari kiradi.

Bunday faoliyat turlariga quyidagilar kiradi:

- qurol-yarog'lar ishlab chiqarish va sotish;

- narkobiznes;

- kontrabanda;

- qimorxonalar, qimor o'yinlarini tashkil etish;

- odim savdosi;

- fohishabozlik va h.k.

Xufiyona iqtisodiyot ijtimoiy ishlab chiqarish bosqichlariga ko'ra xufiyona ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash, iste'mol shakllarida namoyon bo'ladi. Xufiyona ishlab chiqarish noqonuniy, hisobga olinmagan, yashirin, mayda ishlab

chiqarish, sifatsiz mahsulotlar chiqarish, ishlab chiqarish resurslaridan noratsional foydalanishda namoyon bo‘ladi.

Xufyona iqtisodiyotga qarshi kurash usullari hamda vositalarini belgilash uchun, avvalombor, uning ko‘lami va dinamikasini aniqlash lozim bo‘ladi.

Rivojlangan mamlakatlarda xufyona iqtisodiyot ko‘lamlarini aniqlashda quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Indikatorlar uslubi. Ularning tarkibida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita (egri) uslublar mavjud. To‘g‘ridan-to‘g‘ri uslublar maxsus kuzatuv, so‘rovlar o‘tkazish, ayrim soliq to‘lovchilar daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi nomuvofiqliklarni aniqlash maqsadida tekshirishlar, tahlillar o‘tkazishni o‘z ichiga oladi. Bilvosita (egri) uslublar bandlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha pul-kredit uslublarni o‘z ichiga oladi.

2. Engil modellashtirish uslubi, ya’ni determinantlarni baholash. Ushbu uslubda xufyona iqtisodiyotni aniqlashtiruvchi jami ko‘rsatkichlar tanlab olinib, uning nisbiy hajmlari hisoblanadi.

3. Strukturaviy tarkibiy uslublarda turli ishlab chiqarish tarmoqlarida xufyona iqtisodiyot hajmlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, axborotlardan foydalaniladi.

4. Aralash uslublarda xufyona iqtisodiyot hajmlariga bog‘liq o‘lchovlardan, ya’ni determinant va indikatorlarni hisobga olgan holda modellar yaratiladi.

5. Xufyona iqtisodiyotni baholashda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni integral baholash uslubi.

6. Rasmiy statistik ko‘rsatkichlarini, turliqaytavaqo‘shimcha hisoblashlarasosidaxufyonaiqtisodiyotvauning alohida elementlari ni baholash<sup>8</sup>.

Xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- radikal-liberal, ya’ni dastlabki jamg‘arilgan kapital eng yuqori sur‘atlariga maqsadli cheklovlar belgilash yo‘li;

- repressiv usullar xufyona iqtisodiy faoliyatga qarshi huquq-tartibot, xavfsizlik organlari faoliyatini kengaytirish va kuchaytirishni taqozoetadi;

- biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni

---

<sup>8</sup> Кочергина Т.Е. Экономическая безопасность: Ростов на Дону: Феникс, 2007. – с. 171.

ta'minlash bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish bilan huquqiy chora-tadbirlar majmui.

Xufyona iqtisodiy faoliyatga qarshi kurashning eng muhim yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Noqonuniy biznes va tadbirkorlikning oldini olish hamda barhamberish.
2. YOlg'on tadbirkorlikka qarshikurash.
3. Tijorat maqsadida sotib olish - davlat va xo'jalik boshqaruvida faoliyat ko'rsatayotgan mansabdor shaxslarga noqonuniy tarzda pul, qimmatli qog'ozlar, bosh mulkiy qiymatlarni o'z xizmat mavqeidan kelib chiqqan holda ko'rsatgan xizmati, ya'ni tijorat yoki bank sirini oshkor qilgani, pora beruvchiga noqonuniy hatti-xarakati uchun sharoit yaratib berishi, hisoblanadi.
4. Jinoiy yo'llar bilan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi ta'sir mexanizmini yaratish.
5. YOlg'on bankrotlikka qarshi qonunchilikda belgilangan javobgarlikni yanada oshirish.
6. Jismoniy va yuridik shaxslarning bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovlashlariga qarshi chora-tadbirlarni, jazo choralariniqo'llash.
7. Kontrabanda, mamlakatga tovarlarni noqonuniy tarzda olib kirish va tashqariga noqonuniy tarzda tovarlarni olib chiqib ketishga qarshi kuchli tizimni qaror toptirish<sup>9</sup>.

#### **4.4. Korrupsiya va unga qarshi kurash**

Korrupsiya va jinoyatchilik o'zaro bog'liq bo'lib, bir-birini taqozo etadi. Korrupsiya iqtisodiyot sohasida davlat hokimiyati tuzilmalari va jahon jinoyatchilik tuzilmalari bilan birikib, qo'shilib ketishi, siyosiy hamda jamoat arboblarning xoinligi va sotqinligidir. SHuningdek, korrupsiya jinoyatchilikning bir turi bo'lib, mansabdor shaxslar, siyosiy va jamoat arboblari, ayrim shaxslarning o'z xizmat, mansab huquqlari, vakolatlaridan davlat va jamiyatga zarar keltirgan holda boyish,

---

<sup>9</sup> Ланд П. Организованная преступность тайная история самого прибыльного бизнеса в мире: пер с англ. – М.: АСТ: Астрель, 2005 – с. 11-43; Qobilov Sh.R. Globallashuv va xavfsizlik. –Т.: O'zR IIB Akademiyasi, 2006. 27-38-betlar.

o 'z shaxsiy boyligini orttirish maqsadida foydalanish hisoblanadi.

Korrupsiyaning vujudga kelishiga sabab bo 'ladigan omil va sharoitlar quyidagilarda namoyon bo 'ladi:

- amaldagi qonunchilikning takomillashmaganligi, undagi ziddiyatlar, qonun va qonunosti me'yoriy xujjatlarining bir-biriga zidligi, qonunlarni amaliyotga joriy qilish mexanizmining ishlamasligi;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi, xo'jalik boshqaruvida byurokratiya, ma'muriyatchilikning rivojlanganligi, boshqaruv tizimida mansabdor shaxslarning haddan tashqari ko'payib ketishi, boshqaruv tizimida bir-birining funksiyalari takrorining ko'pligi;

- biznes va tadbirkorlikni ro'yxatga olish, ruxsat berish, ularni tugatish jarayonining haddan tashqari chigalligi, ko'p bosqichli ekanligi, murakkabligi;

- ishbiarmon va tadbirkorlarning huquqiy bilim, huquqiy madaniyatining yo'qligi yoki sayozligi;

- davlat xizmatchilari, mansabdor shaxslar, ishbiarmon, tadbirkorlarning axloqi, ma'naviyatining sayozligi va boshqalar.

O'tish iqtisodiyoti sharoitida xufyona iqtisodiyot vujudga kelishining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- totalitar, ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan tizimdan unga raqobatchi sifatida vujudga kelgan jinoiy xufyona iqtisodning meros bo'lib qolganligi;

- iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda mulkni qayta taqsimlash jarayonida aholining asosiy ko'pchiligi bozor sharoitida yashashni endigina o'rganayotganligi, hali bu borada tajribasi yo'qligidan foydalanib qolishga intilish;

- yangi xo'jalik munosabatlari tizimini shakllantirish jarayonida faol va xufyona ishtirok etish;

- bozor infrastrukturasi, bank-moliya, soliqqa tortish tizimining endigina qaror topayotganligi, unda jinoiy hatti-xarakatlarga qarshi mexanizmning etarli darajada rivojlanmaganligi;

- nazorat organlari, shu jumladan, boshxona, moliyaviy nazorat organlari tizimining endigina rivojlanayotganligi;

- iqtisodiy noqonuniy hatti-xarakatlardan himoyalash huquqiy mexanizmining shakllanish va qaror topish bosqichida ekanligi;

- biznes va xususiy tadbirkorlikni ro'yxatga olish, qo'llash tizimining etarli darajada takomillashmaganligi;

- biznes va xususiy tadbirkorlik, xo'jalik faoliyatiga turli davlat va nazorat organlari tomonidan noo'rin aralashuvining saqlanib qolganligi, ularning rivojlanishiga ma'muriy to'siqlarning mavjudligi vah.k.

O'zbekistonda jinoiy xufyona iqtisodiyotga, korrupsiyaga qarshi kurashning uzoq muddatli strategiyasi ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda. Bu strategiya doirasidagi jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurash yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish yo'lidan yanada izchilborish.

2. Halol tadbirkorlik uchun chinakam erkinliknita'minlash.

3. O'zbekistonda huquq va sud tizimini takomillashtirish hamda isloh qilish.

4. Fuqarolarning turli, shu jumladan, iqtisodiy huquqbuzarlikka qarshi ichki imkoniyatlari va yuksak darajadagi ahloqi jinoyatchilik va korrupsiya jamiyatga olib kiradigan emirilishdan eng yaxshi himoyahisoblanadi.

5. Jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi murosasizlik muhitini vujudgakeltirish.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Iqtisodiy manfaat, tahdid, ichki tahdid, tashqi tahdid, xufyona iqtisodiyot, korrupsiya, soliqdan qochish, xufyona iqtisodiyotning namoyon bo'lish shakllari, korrupsiyaga qarshi kurash.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Tahdid tushunchasini tavsiflang?

2. Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarga tahdidlar qanday belgilar bo'yicha turkumlanadi?

3. Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tahdidlarni eng umumiy tarzda nechta guruhlarga ajratib o'rganish mumkin?
4. Tashqi tahdidlarga qanday omillar tashkil etadi?
5. Ichki tahdidlarga qanday omillar tashkil etadi?
6. Davlatning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid soladigan qanday jarayonlar va hodisalar ta'siri ostida shakllanishi mumkin?
7. Tahdidning ichki omillarini, o'z navbatida nechta guruhga ajratish mumkin?
8. Ochiq iqtisodiyotga o'tish kuchli darajadagi nimani voz kechishni taqozo etadi?
9. Mablag'larning chetga chiqib ketishining noqonuniy, ya'ni yashirin yo'llarga nimalar kiradi?
10. Iqtisodiy adabiyotlarda xufyona iqtisodiyotga berilgan ta'riflarni tavsiflang?

## V-BOB. DAVLATNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI HOLATINI BAHOLASHNING ASOSIY MEZON VA KO‘RSATKICHLARI

### 5.1. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi holatini baholovchi ko‘rsatkichlar tasnifi

Bugungi kunda davlat iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlarining bir nechta tasnifi mavjud. Davlatning iqtisodiy xavfsizligining eng muhim tasnifini va har qanday ko‘rsatkichlar tizimining asosini tashkil etadigan asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimidan boshlab tasnifini kurib chiqamiz. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi ko‘rsatkichlarining tasnifini milliy xavfsizlikni tartibga solishi mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlarga asosiy talablari aniqlanadi. Ushbu ko‘rsatkichlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy tizimning quyidagi xususiyatlarini baholashni ta’minlaydi:

- Davlatning iqtisodiy mustaqilligi, milliy resurslarni davlat tomonidan boshqarilishi;
- milliy iqtisodiyotning barqarorligi, mulkni himoya qilish, tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish;
- o‘z-o‘zini rivojlantirish, qulay investitsion muhit, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilinishi;
- sanoat va texnologik xavfsizligi;
- moliyaviy xavfsizlik;
- valyuta xavfsizligi;
- eksport va import sohasidagi xavfsizlik.

Ushbu xavfsizlik elementlarini mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish bosqichlari (omillar, sharoitlar, rag‘batlantirish) nuqtai-nazaridan izohlash mumkin, bu esa iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini tushunishni anglatadi. Katta ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning xavfsizligini tavsiflovchi eng muhim ko‘rsatkichlarga makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni aniqlashga asoslangan ko‘rsatkichlar kiradi.

Ushbu ko‘rsatkichlarni quyida kurib chiqamiz:



1. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi baholashning asosiy ko'rsatkichlari, birinchi navbatda, yalpi ichki mahsulotdir. Ular vaqt o'tishi bilan yakuniy ishlab chiqarish qiymatini aks ettiradi. Ularni ko'rib chiqilayotgan davr narxlarida va asos sifatida olingan yil narxlarida aniqlash mumkin. Shunga ko'ra, mintaqaviy darajada YaHM – yalpi hududiy mahsulotdir.

2. Aholi turmush darajasi va farovonligi darajasi ko'rsatkichlari. Turmush darajasi bu aholining zarur moddiy tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlanishini, ulardan foydalanish darajasi va ehtiyojlarni oqilona qondirish darajasini aks ettiradigan ob'ektiv ko'rsatkichdir. Keng ma'noda hayot sifati deganda aholining turli ehtiyojlar va manfaatlar nuqtai-nazaridan ularning hayotidan qoniqishi tushuniladi. Hayot sifati odamlarning turmush darajasiga munosabatini aks ettiradi, ya'ni mehnat bilan band bo'lishi, dam olishi, uy-joy sifati, huquqiy himoyalanganligi, toza ekologik muhit va hokazo. Aholining turmush darajasi va farovonligi quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha baholanishi mumkin:

- aholi jon boshiga YaIM yoki yalpi ichki mahsulotning qiymati;
- shaxsiy foydalanish mumkin bo'lgan daromadlar;
- iste'mol xarajatlari;
- shaxsiy omonatlar;
- iste'mol narxlari indeksi;
- o'rtacha ish haqi;
- yashashning ijtimoiy va fiziologik qiymati;
- daromadlarni tabaqalashtirish indeksi;
- ishsizlik darajasi;
- aholining kambag'allik darajasi;
- aholi jon boshiga asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish darajasi;
- uy-joy bilan ta'minlash;

- sog'liqni saqlash holati;
- ta'lim darajasi;
- umr ko'rish davomiyligi;
- sof iqtisodiy farovonlik ko'rsatkichi;
- inson rivojlanishining umumiy ko'rsatkichi va boshqalar.

3. Iqtisodiy dinamikaning xususiyatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar va u quyidagilardan iborat:

- sanoat rivojlanishi dinamikasini baholash;
- sanoat ishlab chiqarishining o'sishi indeksi, shu jumladan tarmoq bo'yicha va uning YaIMdagi ulushi;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'sish sur'atlari;
- iqtisodiyotning tarmoq tarkibi va ayrim tarmoqlarning dinamikasi;
- investitsiya;
- YaIMning tarkibi va boshqalar.

4. Mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlarining xususiyatlarini ifoda etuvchi ko'rsatkichlar va ular quyidagilardan iborat:

- resurslardan samarali foydalanish;
- reproduktiv iqtisodiy jarayonlar;
- innovatsiyalar samaradorligi.

5. Iqtisodiyotning moslashish qobiliyatining xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- tovarlarning qiymati va sifatini qiyosiy baholash;
- turli xil tovarlarga talab va taklifni qiyosiy baholash;
- inflyatsiyani baholash;

- byudjetni baholash;
- iqtisodiy xususiyatlarning tashqi ta'sirlarini baholash;
- valyuta kursining o'zgaruvchanligi;
- davlatning qarz olishini baholash va boshqalar.

6. Jinoiy biznesining tavsifiga quyidagilar kiradi:

- jinoiy ishlab chiqarish hajmini baholash;
- jinoiy biznesining hajmini baholash.

7. Ichki va jahon iqtisodiyotlarining o'zaro ta'sirining xususiyatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ular quyidagilardan iborat.

- tashqi savdo balansini baholash;
- innovatsion mahsulotlar eksportiga qo'shilgan hissani baholash;
- importga bog'liqlikni baholash va boshqalar.

Ushbu ko'rsatkichlar tizimi davlatning iqtisodiy xavfsizligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini umumlashtiradi.

## **5.2. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi ko'rsatkichlarini hisoblashning asosiy usullari**

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi mikro va mezodarajasini quyidagi ko'rsatkichlardan foydalangan holda sifat jihatidan tavsiflash mumkin:

- iqtisodiyot va siyosatdagi jamiyat barqarorligi;
- davlat yaxlitligi;
- ichki va tashqi tahdidlarga qarshi turish qobiliyati;
- ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida mamlakat barqarorligi va boshqalar.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi darajasini baholash uchun quyidagi jihatlarni aks ettiruvchi mezonlar qo'llaniladi.

1. Davlatning resurslardan foydalanish imkoniyatlari:

- moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish;
- strategik ahamiyatga ega resurslar ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;
- xom ashyo eksporti hajmi.

2. Iqtisodiyotning takror ishlab chiqarish rejimida ishlash qobiliyati, birinchi navbatda:

- oddiy sharoitlarda ham, qurolli qarama-qarshilikda ham strategik muhim ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish;

- tashqi ta'sirga qarab ko'payish imkoniyatlari.

3. Ilmiy-texnik sohada davlatning potentsial imkoniyatlari.

4. Moliya tizimining barqarorligi, muvozanatli davlat byudjeti, iqtisodiyotni samarali moliyalashtirish, kafolatlangan bank omonatlari, milliy valyuta barqarorligi va oltin strategik zaxiralari bilan belgilanadi.

5. Tashqi iqtisodiy siyosat balansi:

- ichki tovarlarning tashqi bozorga chiqishini ta'minlovchi tashqi savdoning oqilona tuzilmasi;

- import orqali ichki talabni yaratish va boshqalar.

6. Makro va mezo darajada iqtisodiy boshqaruvning adekvatligi, uning tinch sharoitda ham, harbiy qarama-qarshilik davrida ham uning maqbul ishlashini ta'minlash.

7. Aholining turmush darajasi, shu jumladan qashshoqlik, ishsizlik va mulkiy tabaqalanish darajasi.

8. Iqtisodiyotning raqobatbardoshligi.

9. Jamiyat va iqtisodiyotning kriminallasuvini pasaytirish uchun shart-sharoit yaratadigan huquqiy va iqtisodiy muhitning mavjudligi.

Ushbu parametrlardan foydalangan holda davlatning iqtisodiy xavfsizligini mikro va mezodarajadagi ko'rsatkichlarni hisoblash imkoniyatlarini oshiradi.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi ko'rsatkichlari tizimiga quyidagilar kiradi:

- mamlakat va hududlar iqtisodiyotining asosiy tavsiflari: yalpi ichki mahsulot (YaIM), yalpi hududiy mahsulot (YaHM), mamlakatning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi yoki mamlakat YaIMdagi mintaqa YaHM, aholi jon boshiga YaIM yoki YaHM, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, ularning o'sish sur'atlari, jahon sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlaridagi mamlakatning ulushi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi va eksporti, aholining daromadlari va boshqalar;

- asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, sanoatning texnologik rivojlanishi, ijtimoiy muammolarni hal etishda muvaffaqiyatga erishish va boshqalar kabi iqtisodiy rivojlanish jarayonining muhim elementlarini tavsiflovchi qo'shimcha ko'rsatkichlar;

- davlat va mintaqaviy darajadagi iqtisodiy quyi tizimlar holatining ko'rsatkichlari (qurolli kuchlar va harbiy-sanoat majmuasi xarajatlari, davlat qarzi hajmi, monetizatsiya darajasi, byudjet balansi, tashqi savdo operatsiyalarining samaradorligi, oziq-ovqat xavfsizligi holati va boshqalar).

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini baholashda turli xil yondashuvlar mavjud bo'lib, bunda birinchi yondashuv A.N.Illarionov tomonidan ilgari surilgan. Uning fikriga ko'ra, mamlakat iqtisodiyotining asosiy xususiyati iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog'liq bo'lib, bu aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM hajmi va uning o'zgarishi dinamikasida aks etadi. Bir kishiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmi odamlarning turmush darajasi va sifatini, qurolli kuchlar, harbiy sanoat va boshqalarning samaradorligini belgilaydi. A.N.Illarionovning fikricha, davlatning iqtisodiy xavfsizligini baholash ko'rsatkichlari YaIM dinamikasini aks ettiradigan tarzda tanlanishi kerak deb e'tirof etgan.

Boshqa bir yondashuv ijtimoiy-iqtisodiy tizim faoliyatining turli tomonlarini aks ettiradigan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishni o'z ichiga oladi. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmi milliy manfaatlarga tahdidlarga javob beradigan, iqtisodiyot va ijtimoiy sohadagi o'zgarishlarga sezgir bo'lgan va eng muhimi, bir-biri bilan kuchli bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlardan foydalanish lozim deb qayd etiladi.

Xavfsizlikni ta'minlashning strategik yo'nalishlarini belgilaydigan huquqiy asos mamlakatimizda qabul qilingan va unga muvofiq tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu harakat yo'nalishidagi ko'rsatkichlar to'plamidan iqtisodiy sohada xavfsizlikni baholash uchun maxsus ko'rsatkichlarni tanlash kerak, ular tahlilini soddalashtirish uchun ko'p bo'lmasligi kerak, lekin ayni paytda millat manfaatlarining amalga oshirilishini baholash uchun etarli bo'lishi kerak, bundan tashqari, ishonchli ma'lumotlarni taqdim etishligi kerak.

Iqtisodiy sohada xavfsizlikni baholash uchun ko'rsatkichlarni tanlash uchun odatda baholash amalga oshiriladigan yo'nalish turlari aniqlanadi. Masalan, baholashning quyidagi sohalarini ajratish mumkin. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalangan holda iqtisodiyotning holatini umumiy baholash. Bu yalpi ichki mahsulot bo'lib, inflyatsiya jarayonlari, qarzlar, byudjet balansi, bandlik, oltin-valyuta zaxiralari, monetizatsiya va boshqalarni o'lchaydi, baholashning ushbu yo'nalishi turli mamlakat va mintaqalarni taqqoslash imkonini beradi. Makroiqtisodiy baholash jarayonlari yuqori darajada ko'rsatkichlar tizimidan keng foydalangan holda baholanadi.

Iqtisodiy xavfsizlikni baholashning yana bir boshqa yo'nalishi - bu byudjet xarajatlari tarkibini baholash. Bu yerda, shuningdek, mamlakatning mudofaa qobiliyatini ta'minlash, harbiy bo'lmagan tadqiqotlar, tibbiyot va davlat qarzlarini bo'yicha majburiyatlarni ta'minlash uchun sarflanadigan xarajatlar kabi alohida bandlar qayd etilgan. Bunday baholarni olish ham katta uslubiy jihatdan murakkab emas hisoblanadi.

Baholashning yana bir yo'nalishi - iqtisodiyotning quyi tizimlarining tavsiflanishidir, bunda sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohasi. Bu yerda investitsiya jarayonlari, ularning innovatsion darajasi, sanoatdagi yuqori texnologiyali tarmoqlarning roli, eksportning sifati, uning texnologik murakkabligi darajasi, hosildorlik, oziq-ovqat sohasidagi importga bog'liqlik, ichki ehtiyojlarni qondirish va eksport uchun taqdim etiladigan xizmatlar hajmini baholashdir.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, avvalambor, aholi manfaatlarini himoya qilishdir, shuning uchun baholashning navbatdagi yo'nalishi fuqarolarning

turmush darajasini tavsiflashga qaratilgan. Odatda, ushbu yo'nalishda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotning hajmi baholanadi, yuqori va past daromadga ega fuqarolarning daromadlari taqqoslanadi, aholi daromadlari minimal qabul qilingan qiymatga, umr ko'rish davomiyligiga, demografik bahoga, sodi retilgan jinoyatlarning hajmi va tuzilishiga qarab baholanadi.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini baholashda agar barcha ko'rsatkichlardan foydalangan holda baholanadigan bo'lsa 150 ta ko'rsatkichni o'z ichiga oladi, biroq ko'rsatkichlar tizimi o'zaro bir birini takrorlashi va tuldirishi mumkinligini inobatga olgan holda 50 ta baholash ko'rsatkichini ajratib olib ta'sir ko'lami bo'yicha guruhlariga ajratish mumkin. Ushbu ko'rsatkichlar guruhi quyida tasniflangan:

1. Iqtisodiyotning barqaror rivojlanish imkoniyatlarini baholash. Bunday hisob-kitoblar yalpi ichki mahsulot, sanoat va uning tarkibi, innovatsion ishlab chiqarish, investitsiya jarayonlari, mudofaa, resurslardan foydalanish tahlili asosida amalga oshiriladi.

2. Moliyaviy tizimning barqarorligini baholash, ya'ni byudjet balansi, pul muomalasi parametrlari, davlat qarzi, soliq tizimi.

3. Ijtimoiy sohaning holatini baholash, ya'ni aholining daromad darajasi, bandlik darajasi, ushbu sohani moliyalashtirish darajasi.

4. Tashqi iqtisodiy aloqalarni baholash, masalan, iste'mol hajmidagi importning ulushi, eksport hajmida tayyor mahsulotning ulushi.

Shu bilan birga, indikativ yondashuvdan foydalangan holda iqtisodiy xavfsizlik holatini baholash uchun tahlikalivaziyatni keltirib chiqaradigan ko'rsatkichlarning chegaralarini ajratish kerak. Taxminan 20 ga yaqin bunday ko'rsatkichlar tizimi mavjud. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar:

- YaIM hajmi: o'rtacha jon boshiga to'g'ri kelishi;
- Sanoat ishlab chiqarishning umumiy ishlab chiqarishidagi ulushi;
- Mashinasozlikning sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi;
- Sarflanadigan xarajatlar, YaIMga nisbatan%;
- Investitsiyalar hajmi, YaIMga nisbatan foizda;
- Tadqiqotlarga sarflanadigan xarajatlar, YaIMga nisbatan%;

- Mahsulotlar hajmida yangi mahsulotlar ulushi;
- Daromadlari tirikchilik darajasidan past bo'lgan odamlar ulushi;
- Aholining umr ko'rish davomiyligi;
- Eng daromadli 10% va eng past daromadli guruhlarning 10% daromadlari o'rtasidagi farq;
- 100 ming aholiga to'g'ri keladigan jinoyatlar soni bo'yicha jinoyatchilik darajasi;
- XMT metodologiyasi bo'yicha ishsizlik darajasi,%;
- Yillik inflyatsiya darajasi,%;
- Taqqoslanadigan davr uchun ichki qarzning hajmi, YaIMga nisbatan foizda;
- Xizmat ko'rsatish va ichki qarzni to'lashga bo'lgan hozirgi ehtiyoj, byudjetga tushumga nisbatan%;
- Tashqi qarzlar hajmi, YaIMga nisbatan foizda;
- Byudjet taqchilligini qoplashda tashqi qarzlarning ulushi,%;
- Byudjet taqchilligi, YaIMga nisbatan%;
- Milliy valyutadagi so'm massasiga nisbatan chet el valyutasining hajmi,%.

Davlatning iqtisodiy tizimini har tomonlama tavsiflovchi ko'rsatkichlar ro'yxatidan foydalanish tizimining ishlashi va rivojlanish ibilan bog'liq muammolarni har tomonlama ko'rib chiqish imkoniyatini beradi. Xozirgi vaqtda, davlatning iqtisodiy xavfsizligini baholashda 18-20 ko'rsatkichlar ro'yxatini ko'rib chiqishga ustunlik beriladi.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi sub'ektlari davlat boshqaruv organlaribo'lib, rivojlanish jarayonlarini strategik boshqarish davlatning o'z xavfsizligi kontseptsiyasiga ega bo'lishining ob'ektiv ehtiyojini belgilaydi. Umuman olganda, davlat xavfsizligi bu davlatning hayoti, aniqrog'i uning suverenitetligini ta'minlashdir. Davlat xavfsizligining asosiy vazifasi resurs imkoniyatlarini oqilona baholash, kutilgan natijalarni aniqlash va oqibatlarini bashorat qilishga intilishdir. Har bir davlato'zining yaxlit va to'liq hayotiy tizimiga ega bo'lishi kerak, xususan, mustaqil rivojlanish maqsadini belgilash qobiliyati, avtonom resurslarning to'planishi va iste'mol qilinish tizimlaridir.



Davlatning iqtisodiy xavfsizligi bunday namoyon bo'lishi mumkinligi bilan ifodalanadi:

- mamlakat ichida o'z iqtisodiy siyosatini yuritish;
- mamlakatdagi keskin geosiyosiy o'zgarishlarga muvozanatli javob berish;
- mahalliy iqtisodiy tarmoqlarni rivojlantirish orqali ijtimoiy ziddiyatlarga muhim iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- mintaqalarda jahon tajribalarini qo'llanilishini qo'llab-quvvatlash, hayotning yuqori sifatini ta'minlash.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini baholash bo'lgani kabi, mezo iqtisodiy tizimlarni baholashda quyidagi baholash yo'nalishlari ajratilgan.

1. Davlat boshqaruv organlarining mavjud resurslarni boshqarish qobiliyati va mavjud salohiyatdan mahalliy va global miqyosda raqobatdosh bo'lishi uchun ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini baholash;

2. Davlatni rivojlantirish faoliyat yuritadigan va ijtimoiy sohani rivojlantiradigan muhit, shu jumladan mulk huquqlarining daxlsizligi, qonun buzilishlariga qarshi kurash jarayoni, jamiyatdagi munosabatlarning holati va bu munosabatlardagi keskinlik darajasi tavsifi;

3. Davlatning avtonom rivojlanishi, investitsiyalarni jalb qilish, mehnat resurslari sifatini rivojlantirish imkoniyatlarini baholash.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi tizimini tashkil etuvchi tadbirlar majmuasida paydo bo'layotgan tahdidlarning oldini olish tizimi katta ahamiyatga ega. Buning uchun tahdidlarni yaqin va uzoq muddatda kutish mumkin bo'lgan tahlikalarni baholash kerak bo'ladi, bunda davlatning iqtisodiy xavfsizligining asosiy ko'rsatkichlari tahlilini amalga oshirish lozimdir.

### **5.3. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi ko'rsatkichlarining chegaraviy qiymatlari**

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini baholovchi ko'rsatkichlar tasnifi va tahlilini inobatga olgan holda, ushbu ko'rsatkichlar miqdorining tahlikali quyi chegara qiymatlarini ko'rsatish va aniq belgilash lozim bo'ladi. Bu ko'rsatkich miqdori

belgilangan quyi chegara qiymatidan pastga tushganda davlatning iqtisodiy xavfsizligigatahdid vujudga keladi. Ushbu tahlikali quyi chegara qiymati – iqtisodiy manfaatlar nuqtai-nazaridan davlat faoliyati proporsiyalarining eng quyi maqbul nisbatlarini ifodalovchi miqdoriy indikatorlar bo‘lib, ularga rioya qilmaslik takror ishlab chiqarish turli elementlarining iqtisodiy rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi va iqtisodiy xavfsizligigatahdidlarni keltirib chiqaradi.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi asosiy ko‘rsatkichlarining tahlikali quyi chegara qiymatlarini aniqlash uchun quyidagilarga asoslanish lozim bo‘ladi:

- milliy iqtisodiyot holati va undagi mutanosibliklar hamda takror ishlab chiqarish elementlari va omillari holatining birlamchi, muhim xususiyatlarini tavsiflash;

- iqtisodiyot sohasidagi milliy manfaatlarni to‘liq va keng qamrovdi ifodalash;

- iqtisodiyot sohasidagi milliy manfaatlarga xavf soluvchi tahdidlarni to‘liq va har tomonlama hisobga olish;

- iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegara qiymatini ifodalovchi indikatorlardan davlat boshqaruv organlari mamlakat iqtisodiyoti holatini aniq baholashda va boshqa mamlakatlar bilan qiyoslashda foydalanish imkoniyatining mavjudligi.

Ushbu indikatorlarning mamlakat hisob, statistika va prognozlashtirish tizimi bilan muvofiq kelishi lozim. Davlatning iqtisodiy xavfsizligining quyi tahlikali chegarasi indikatorlari milliy iqtisodiyot sohalari va ularning har bir tarkibidagi milliy manfaatlar nuqtai-nazaridan turkumlanadi (2-jadval), shuningdek ushbu tahlikali qiymatlar Davlatning iqtisodiy xavfsizligi chegara qiymatlarini ham aniqlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

**2-jadval**

**Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ifodalovchi quyi va yuqori tahlikali chegara qiymatlari**

<b>Ko‘rsatkichlar nomi</b>	<b>Quyi va yuqori tahlikali chegara qiymatlari mazmuni</b>	<b>Darajasi %</b>
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (quyi chegara)	16

Ishsizlik darajasi	Iqtisodiy faol aholiga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	8
Monetizatsiya darajasi	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (quyi chegara)	25
Tashqi qarz	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	40
Ichki qarz	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	30
Tashqi qarzlarni bo'yicha to'lovlar	To'lovlarning yillik eksport hajmiga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	25
Mudofaaga xarajatlar	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	3
Fuqarolik fanlariga xarajatlar	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (quyi chegara)	1,5
Innovatsion mahsulotlar	Sanoat mahsulotlari umumiy hajmiga nisbatan, foiz (quyi chegara)	15
Sanoat ishlab chiqarishda mashinasozlik va metallni qayta ishlash	Sanoat ishlab chiqarish hajdagi ulushi, foiz (quyi chegara)	25
Davlat byudjeti defitsiti	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	3,0
Davlat qarzini qoplash xarajatlari	Davlat byudjeti xarajatlari xajmiga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	20
Yashash minimumidan pastdarajada daromad oluvchi aholi	Aholi umumiy sonidagi ulushi, foiz (yuqori chegara)	7,0
Aholi daromadlari bo'yicha taqabalanishi	Detsil koeffitsienti (yuqori chegara)	8,0

Turli iqtisodiy xavfsizlikka oid adabiyotlarda davlatning iqtisodiy xavfsizligi quyi tahlil chegarasi indikatorlari o'z ichiga 50 ta ko'rsatkichni olgan holda quyidagicha turkumlangan:

- iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga qodirligini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Ushbu guruhga yalpi ichki mahsulot hajmi, sanoat ishlab chiqarish va uning tarkibi, mashinasozlik mahsulotlari hajmida yangi turdagi mahsulotlar ulushi, mudofaa va fan uchun xarajatlar ulushi, investitsiyalar, foydali qazilma boyliklarining zaxiralari bo'yicha quyi tahlil chegarani ifodalovchi indikatorlar kiradi;

- moliyaviy tizim barqarorligi ko'rsatkichlariga davlat byudjeti kamomadi,

davlat qarzi, pul muomalasi, o‘zaro hisob-kitob va soliq intizomini ifodalovchi ko‘rsatkichlar kiradi;

- ijtimoiy soha ko‘rsatkichlari aholi daromadlari darajasi va uning mulkiy jihatdan tabaqalanishi, ishsizlik va ijtimoiy soha xarajatlari bo‘yicha quyi tahlikali chegaralarni o‘z ichiga oladi;

- tashqi savdo va iqtisodiy faoliyat ko‘rsatkichlari guruhiga mamlakat ichki iste‘molida importning ulushi va milliy ishlab chiqarish hajmida eksportning ulushi bo‘yicha quyi tahlikali chegaralarni ifodalovchi indikatorlar kiradi.

Shuni aytish lozimki, davlatning iqtisodiy xavfsizligi ko‘rsatkichlarining rasmiy belgilangan quyi tahlikali chegara qiymatlari indikatorlariga taqqoslash orqali milliy iqtisodiyotning real holatini aniqlash mumkin bo‘ladi. Buning natijasida hukumat mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan iqtisodiy siyosatning maqsadlari va ularni amalga oshirish yo‘llarini belgilaydi.

#### **5.4. Davlatning iqtisodiy xavfsizligining asosiy ko‘rsatkichlar tahlili**

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblash uchun milliy hisoblar tizimi qo‘llaniladi. Milliy hisoblar tizimi daromadlar, iste‘mol, jamg‘arma va kapital xarajatlarning qiymatlarini aks ettiradi. Milliy darajadagi ko‘rsatkichlarni hisoblashning asosiy usullari mamlakat darajasidagi ko‘rsatkichlar bilan o‘zaro bog‘lagan holda hisoblab chiqiladi.

Milliy iqtisodiyotda mamlakat rivojini tavsiflovchi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar toifasiga yalpi ichki mahsulot, sof milliy mahsulot, milliy daromad, shaxsiy daromad kiradi.

Yalpi ichki mahsulot mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko‘rsatilgan xizmatlarning bozor qiymatidir. Bu ko‘rsatkich mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulot va ko‘rsatilgan xizmatlarning xajmini to‘g‘ri va anik ko‘rsatib beradi.

YaIMda faqat yakuniy ne‘matlar hisobga olinadi, oraliq mahsulotlar va xizmatlar esa e‘tiborga olinmaydi.

YaIM uch usul bilan aniqlanadi:

1. xarajatlar usulida;
2. daromadlar usulida;
3. qushilgan qiymat usulida hisoblanadi.

YaIMni xarajatlar va daromadlar usuli bo'yicha xisoblanganda bir xil natija chiqadi, chunki iste'molchi mahsulotni sotib olish uchun qancha mablag' sarflasa, ishlab chiqaruvchiga daromad sifatida shuncha pul tushadi.

1-usul bo'yicha YaIMni hisoblash:

$$Y = C + I + G + X_n \quad (1)$$

Bunda: Y - tovarlarni sotib olish uchun ketgan xarajatlar; S - shaxsiy iste'mol xarajatlari; I - biznesning investitsiya xarajatlari; G - tovar va xizmatlarni davlat tomonidan sotib olinishi;  $X_n$  - sof eksport. Shaxsiy iste'mol xarajatlari uy xo'jaliklarining uzoq muddat davomida foydalanadigan iste'mol buyumlari xarajatlari kiradi; tovar va xizmatlarning davlat tomonidan sotib olinishiga davlat xarajatlari inobatga olinadi byudjet tashkilotlariga oylik maoshlarni berish, mudofaani mustahkamlash va boshqalar kiradi. Investitsiyalarga stanoklar, asbob-uskunalarini sotib olish, bino-inshootlar kurish bilan bogliq xarajatlar; sof eksport esa eksport va importning ayirmasi bo'lib, u goh musbat, goh manfiy saldo bilan bo'lishi mumkin.

2-usul bo'yicha hisoblash.

$$Y = CCA + W + I_t + R + I_k + P \quad (2)$$

Bunda: CCA - iste'mol qilingan kapital hajmi; W - yollanma ishchilarning ish haqi;  $I_t$  - biznesga bevosita soliqlar; R - ijara to'lovi;  $I_k$  - % stavkasi - xususiy biznes bo'yicha, bundan davlat mustasno; R - rejalashtirilayotgan-korporatsiyalar daromadi. Bu erda korporatsiyalar daromadi 2 ga bo'linib ko'shiladi, ya'ni  $R_1$  - korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasi va  $R_2$  - korporatsiyalar foydasiga soliq.

Sof milliy maxsulot YaIMdan amortizatsiya xarajatlarini ayirib tashlash bilan aniklanadi:

SMM = YaIM – amortizatsiya;

MD = SMM – bevosita soliklar asosida hisoblab topiladi.

Aholi turmush darajasi va farovonligini ifodalovchi ko'rsatkichlar bu aholining zarur moddiy tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlanishini, ulardan foydalanish darajasi va ehtiyojlarni oqilona qondirish darajasini aks ettiradigan ob'ektiv xayot sifatini ifodalovchi parametrdir. Keng ma'noda hayot sifati deganda aholining turli ehtiyojlar va manfaatlar nuqtai nazaridan ularning hayotidan qoniqishi tushuniladi. Hayot sifati odamlarning turmush darajasiga munosabatini aks ettiradi, ya'ni mehnat bilan band bo'lishi, dam olishi, uy-joy sifati, huquqiy himoyalanganligi, toza ekologik muhitda yashashini umumlashtiradi.

Mamlakatning iqtisodiy dinamikasiga baho berishda sanoatning o'rni beqiyosdir. Sanoat majmuining muhim hususiyati shundaki, uning barcha tarmoqlarida mehnat vositalari va iste'mol tovarlari yaratiladi, ilmiy-texnika taraqqiyoti hamda milliy daromadning katta qismi ishlab chiqariladi va yaratiladi. Ayni paytda O'zbekistondagi mehnatga yarakli aholining asosiy qismi ham sanoat ishlab chiqarishida band. Sanoat ishlab chiqarishi jamiyatning ob'ektiv iqtisodiy qonunlari hamda respublikamizda so'nggi yillarda qabul qilingan qonun va qarorlar asosida rivojlanmokda. O'zbekiston sanoati ayni vaqtda o'z tarmoqlari va boshqa ijtimoiy tarmoqlar uchun moddiy-texnik vositalar hamda halq ehtiyojiga kerak bo'ladigan mahsulotlarni ham uzluksiz ishlab chiqarmoqda. Shu boisdan ham sanoat ishlab chiqarishi darajasi va samaradorligining o'sishini ta'minlashi muhimdir. Chunki sanoat ishlab chiqarish darajasi kanchalik yukori bo'lsa, respublikamizning iqtisodiy xavfsizligi shuncha mustahkam hamda aholining turmush sharoiti yaxshi bo'ladi.

Shuni ham aytish lozimki, sanoat majmui har qanday tarmog'ning ichki tuzilmasidagi o'zgarishlar amalda boshqa tarmoqlar - qishloq xo'jaligi, agrosanoat majmuining boshqa sohalari, qazib oluvchi tarmoqlar bilan uzviy bog'liqdir. Endilikda sanoatning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Iste'mol bozoridagi tanqislik tufayli sanoat tarmoqlari ilgarigiga nisbatan keng ko'lamda halq iste'moli mollarini ishlab chiqarishga yo'naltirilmogda hamda yangi sanoat korxonalarini barpo etilmogda. Iste'mol mollarini ko'plab ishlab chiqarish, ayniqsa, chetga xom ashyo emas, balki tayyor mahsulot chiqarish hamda qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish nafaqat

sanoat ishlab chiqarishining ahamiyatini oshiradi, balki jahon bozorida O‘zbekiston iqtisodiyotiga bo‘lgan ishonchni ham mustahkamlaydi. Xozirgi kunga kelib sanoat tarmog‘ida yalpi ichki maxsulotning 34 foizdan ziyodini yaratiladi. Bu shuni ko‘rsatadiki, innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida mamlakat iqtisodiyoti sanoatlashgan iqtisodiyot sari rivojlanmoqda.

O‘zbekistonning dunyo mamlakatlari bilan halqaro savdo-iqtisodiy munosabatlari tarixi o‘rta asrlardan boshlanadi. G‘arb va Sharq o‘rtasidagi savdo, katta bozor uchun kurash va mehnat resurslari hamma vaqt O‘zbekistonning hozirgi hududiga daxldor bo‘lib kelgan, chunki uning geografik jihatdan savdo-iqtisodiy potensiali ko‘plab mamlakatlarni qiziqtirgan.

Mamlakatimizning ichki va jahon iqtisodiyotlarining o'zaro ta'sirining xususiyatlarini inobatga olgan holda yagona iqtisodiy siyosatni shakllantirish, taraqqiyot strategiyasini belgilash, ichki va tashqi bozorlarda umumdavlat manfaatlarin ta'minlash, iktisodiy, fan-texnikaviy, savdo, madaniy va sport sohalarida xamkorlik o‘rnatish, turizmni rivojlantirish va boshqa aloqalarni samarali yordam berib maqsadida tashqi iqtisodiy aloqalarda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatdagi samarali natijalar davlatning iqtisodiy xavfsizligini baholovchi ko‘rsatkichlar tizimida muhim o‘ringa egadir.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy tizimi, yalpi ichki mahsulot, aholi turmush darajasi, aholi farovonligi darajasi, iqtisodiy dinamika xususiyatlari, iqtisodiyotning moslashish qobiliyati, jinoiy biznes tavsifi.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi ko‘rsatkichlarining tasnifi nimalardan iborat?
2. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi ko‘rsatkichlari mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy tizimning qanday xususiyatlarini baholashni ta‘minlaydi?
3. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning xavfsizligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarga qanday makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar aniqlanadi?

4. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi mikro va mezo darajasini qanday ko'rsatkichlar sifat jihatidan tavsiflaydi?
5. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi darajasini baholash uchun qanday mezonlar qo'llaniladi?
6. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi ko'rsatkichlari tizimini qanday ko'rsatkichlar tashkil etadi?
7. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini baholashdagi yondashuvlarni tavsiflang?
8. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini mezoiqtisodiy tizimlarni baholashda qanday baholash yo'nalishlari ajratilgan?
9. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi asosiy ko'rsatkichlarining tahlikali quyi chegara qiymatlarini aniqlashda nimalarga asoslanish lozim bo'ladi?
10. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash uchun qanday tizimdan foydalaniladi?



## **VI-BOB. FAVQULODDA XOLATLARDA DAVLATNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI**

### **6.1. Favqulodda holatlar va ularning tasnifi**

Favqulodda holatlar ularning vujudga kelish sabablariga (manbalariga) ko'ra tasnif qilinadi va ular ushbu holatlarda zarar ko'rgan odamlar soniga, moddiy zararlar miqdoriga va ko'lamlariga (hududlar chegaralariga) qarab lokal, mahalliy, respublika va transchegara turlariga bo'linadi.

Favqulodda holat - bu muayyan hududda o'zidan so'ng odamlarning qurbon bo'lishi, odamlar sog'lig'i yoki atrof-muhitga ziyon yetkazishi, kishilarning hayot faoliyatiga kattagina moddiy zarar hamda uning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, stixiyali ofat, epidemiyalar, epizootiyalar natijasida yuzaga kelgan holatdir.

Favqulodda holatlar - hududlar chegaralari, ularni bartaraf etish ishlari, rahbarlari tomonidan favqulodda holatlar oqibatlarini (shikastlovchi omillar) tarqalishiga qarab belgilanadi.

1. Texnogen tuzdagi favqulodda holatlar.

1. Transport avariylari va halokatlari:

- ekipaj a'zolari va yo'lovchilarning o'limiga, havo kemalarining to'liq parchalanishiga yoki qattiq shikastlanishiga hamda qidiruv va avariya-qidiruv ishlarini talab qiladigan aviahalokatlar;

- yong'inga, portlashga, harakatlanuvchi tarkibning buzilishiga sabab bo'lgan va temiryo'l xodimlarining, halokat hududidagi temiryo'l platformalarida, vokzallar binolarida va shahar imoratlarida bo'lgan odamlar o'limiga, shuningdek tashilayotgan kuchli ta'sir ko'rsatuvchi zaharli modda (KTKZM)lar bilan halokat joyiga tutash hududning zaharlanishiga olib kelgan temiryo'l transportidagi halokatlar va avariylar (ag'darilishlar);

- portlashlarga, yong'inlarga, transport vositalarining parchalanishiga, tashilayotgan KTKZMlarning zararli xossalari namoyon bo'lishiga va odamlar o'limi

(jarohatlanishi, zaharlanishi)ga sabab bo'ladigan avtomobil transportining halokati va avariylari, shu jumladan, yo'l-transport hodisalari;

- odamlarning o'limiga, shikastlanishiga va zaharlanishiga, metropoliten poyezdlari parchalanishiga olib kelgan metropoliten bekatlaridagi va tunellaridagi halokatlar, avariylar, yong'inlar;

- gaz, neft va neft mahsulotlarining (avariya holatida) otilib chiqishiga, ochiq neft va gaz favvoralarining yonib ketishiga sabab bo'ladigan magistral quvurlardagi avariylar.

## 2. Kimyoviy xavfli ob'yektlardagi avariylar:

atrof-tabiiy muhitga kuchli ta'sir qiluvchi zaharli moddalarning (avariya holatida) otilib chiqishiga va shikastlovchi omillarning odamlar, hayvonlar va o'simliklarning ko'plab shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan darajada, yo'l qo'yiladigan chegaraviy konsentratsiyalardan ancha ortiq miqdorda sanitariya-himoya hududidan chetga chiqishiga sabab bo'ladigan kimyoviy xavfli ob'yektlardagi avariylar, yong'in va portlashlar.

## 3. Yong'in-portlash xavfi mavjud bo'lgan ob'yektlardagi avariylar:

texnologik jarayonda portlaydigan, oson yonib ketadigan hamda boshqa yong'in uchun xavfli moddalar va materiallar ishlatiladigan yoki saqlanadigan ob'yektlardagi, odamlarning mexanik va termik shikastlanishlariga, zaharlanishiga va o'limiga, asosiy ishlab chiqarish fondlarining nobud bo'lishiga, Favqulodda holatlar hududlarida ishlab chiqarish siklining va odamlar hayot faoliyatining buzilishiga olib keladigan avariylar, yong'inlar va portlashlar;

odamlarning shikastlanishiga, zaharlanishiga va o'limiga olib kelgan hamda qidirish-qutqarish ishlarini o'tkazishni, nafas olish organlarini muhofaza qilishning maxsus anjomlarini va vositalarini qo'llanishni talab qiluvchi ko'mir shaxtalaridagi va kon-ruda sanoatidagi gaz va chang portlashi bilan bog'liq avariylar, yong'inlar va jinlar qo'porilishi.

## 4. Energetika va kommunal tizimlardagi avariylar:

- sanoat va qishloq xo'jaligi mas'ul iste'molchilarining avariya tufayli energiya ta'minotisiz qolishiga hamda aholi hayot faoliyatining buzilishiga olib

kelgan GES, GRES, TETSlardagi, tuman issiqlik markazlaridagi, elektr tarmoqlaridagi, bug‘qozon qurilmalaridagi, kompressor va gaz taqsimlash shoxobchalaridagi va boshqa energiya ta‘minoti ob‘yektlaridagi avariya va yong‘inlar;

- aholi hayot faoliyatining buzilishiga va salomatligiga xavf tug‘ilishiga olib kelgan gaz quvurlaridagi, suv chiqarish inshootlaridagi, suv quvurlaridagi, kanalizatsiya va boshqa kommunal ob‘yektlardagi avariya;

- atmosfera, tuproq, yer osti va yer usti suvlarining odamlar salomatligiga xavf tug‘diruvchi darajada konsentratsiyadagi zararli moddalar bilan ifloslanishiga sabab bo‘lgan gaz tozalash qurilmalaridagi, biologik va boshqa tozalash inshootlaridagi avariya.

5. Odamlar o‘limi bilan bog‘liq bo‘lgan va zudlik bilan avariya-qutqaruv ishlari o‘tkazilishini hamda zarar ko‘rganlarga shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatilishini talab qiladigan maktablar, kasalxonalar, kinoteatrlar va boshqa ijtimoiy yo‘nalishdagi ob‘yektlar, shuningdek uy-joy sektori binolari konstruksiyalarining to‘satdan buzilishi, yong‘inlar, gaz portlashi va boshqa hodisalar.

6. Radioaktiv va boshqa xavfli hamda ekologik jihatdan zararli moddalardan foydalanish yoki ularni saqlash bilan bog‘liq avariya:

- sanitariya-himoya hududi tashqarisiga chiqarib tashlanishi natijasida paydo bo‘lgan yuqori darajadagi radioaktivlik odamlarning yo‘l qo‘yiladigandan ko‘p miqdorda nurlanishini keltirib chiqargan texnologik jarayonda radioaktiv moddalardan foydalanadigan ob‘yektlardagi avariya; radioaktiv materiallarni tashish vaqtidagi avariya;

- atrof-muhit va odamlar salomatligi uchun xavf tug‘diruvchi radioaktiv chiqindilar to‘plagichlardagi, chiqindixonalardagi, ishlab to‘plagichlardagi va zaharli moddalar ko‘miladigan joylardagi avariya (o‘pirilishlar);

- radioizotop buyumlarning yo‘qotilishi;

- biologik vositalarni va ulardan olinadigan preparatlarni tayyorlash, saqlash va tashishni amalga oshiruvchi ilmiy-tadqiqot va boshqa muassasalarda

biologik vositalarning atrof-muhitga chiqib ketishi yoki yo'qotilishi bilan bog'liq holatlar.

#### 7. Hidrotexnik halokatlar va avariyaalar:

suv omborlarida, daryo va kanallardagi buzilishlar, baland tog'lardagi ko'llardan suv urib ketishi natijasida vujudga kelgan hamda suv bosgan hududlarda odamlar o'limiga, sanoat va qishloq xo'jaligi ob'yektlari ishining, aholi hayot faoliyatining buzilishiga olib kelgan va shoshilinch ko'chirish tadbirlarini talab qiladigan halokatli suv bosishlari.

#### 2. Tabiiy tustdagi favqulodda holatlar.

##### 1. Geologik xavfli hodisalar:

- odamlar o'limiga, ma'muriy-ishlab chiqarish binolarining, texnologik asbob-uskunalarining, energiya ta'minoti, transport kommunikatsiyalari va infratuzilma tizimlarining, ijtimoiy yo'nalishdagi binolarning va uy-joylarning turlicha darajada buzilishiga, ishlab chiqarish va odamlar hayot faoliyatining izdan chiqishiga olib kelgan zilzilalar;

- odamlar o'limiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan va xavfli hududdan odamlarni vaqtincha ko'chirishni yoki xavfsiz joylarga doimiy yashash uchun ko'chirishni talab qiluvchi yer ko'chishlari, tog' o'pirilishlari va boshqa xavfli geologik hodisalar.

##### 2. Hidrometeorologik xavfli hodisalar:

- odamlar o'limiga, aholi punktlarini, ba'zi sanoat va qishloq xo'jaligi ob'yektlarini suv bosishiga, infratuzilmalar va transport kommunikatsiyalari, ishlab chiqarish va odamlar hayot faoliyati buzilishiga olib kelgan va shoshilinch ko'chirish tadbirlari o'tkazilishini talab qiladigan suv toshqinlari, suv to'planishi va sellar;

- aholi punktlaridagi, sanatoriy, dam olish uylaridagi, sog'lomlashtirish lagerlaridagi odamlarning, turistlar va sportchilarning jarohatlanishiga va o'limiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan qor ko'chkilari, kuchli shamollar (dovullar), jala va boshqa xavfli gidrometeorologik hodisalar.

##### 3. Favqulodda epidemiologik, epizootik va epifitotik holatlar:

- o‘lat, vabo, sarg‘ayma isitma kabi siyrak uchraydigan kasalliklarni keltirib chiqargan alohida xavfli infeksiyalar;
- odamlarda uchraydigan yuqumli kasalliklar rikketsiyalar - epidemik toshmalilarga, Bril kasalligi, Ku-isitma;
- zoonoz infeksiyalar - Sibir yarasi, quturish;
- virusli infeksiyalar – Covid-19, OITS;
- epidemiya - alohida xavfli infeksiyalarga tegishli bo‘lmagan, yuqish manbai bitta yoki yuqish omili bir xil bo‘lgan odamlarning guruh bo‘lib yuqumli kasallanishi, bir aholi punktida - 50 kishi va undan ortiq;
- aniqlanmagan etiologiya bilan guruh bo‘lib kasallanish - 20 kishi va undan ortiq;
- tashhisi aniqlanmagan bezgak kasalligi - 15 kishi va undan ortiq;
- o‘lim yoki kasallanish darajasi o‘rtacha statistik darajadan 3 baravar va undan ortiq bo‘lgan holat;
- zaharli moddalar bilan zaharlanish - jabrlanganlar soni - 10 kishi, vafot etganlar soni - 2 kishi va undan ortiq;
- oziq-ovqatdan ommaviy zaharlanish - jabrlanganlar soni - 10 kishi, vafot etganlar soni - 2 kishi va undan ortiq;
- epizootiya - hayvonlarning ommaviy kasallanishi yoki nobud bo‘lishi;
- epifitotiya - o‘simliklarning ommaviy nobud bo‘lishi.

### 3. Ekologik tuzdagi favqulodda holatlar.

#### 1. Quruqlik (tuproq, yer osti)ning holati o‘zgarishi bilan bog‘liq holatlar:

- halokatli ko‘chiklar - foydali qazilmalarni qazish chog‘ida yer ostiga ishlov berilishi va insonning boshqa faoliyati natijasida paydo bo‘luvchi yer yuzasining o‘pirilishi, siljishi;
- tuproq va yer ostining sanoat tufayli kelib chiqqan toksikantlar bilan ifloslanishi, og‘ir metallar, neft mahsulotlari, shuningdek qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida odamlarning sog‘lig‘i uchun xavf soluvchi konsentratsiyalarda qo‘llaniladigan pestitsidlar va boshqa zaharli ximikatlar mavjudligi.

2. Atmosfera (havo muhiti) tarkibi va xossalari o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan holatlar:

- havo muhitining quyidagi ingridiyentlar bilan ekstremal yuqori ifloslanishi:

- oltingugurt dioksid, dioksid va azotli oksid, uglerodli oksid, dioksin, qurum, chang va odamlar sog'lig'iga xavf soluvchi konsentratsiyalarda antropogen tushadigan boshqa zararli moddalar;

- katta ko'lamda kislotali zonalar hosil bo'lishi va ko'p miqdorda kislota chiqindilari yog'ilishi;

- radiatsiyaning yuqori darajasi.

3. Gidrosfera holatining o'zgarishi bilan bog'liq holatlar:

- yer yuzasi va yer osti suvlarining sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi oqovalari: neft mahsulotlari, odamlarning zaharlanishiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan tarkibida og'ir metallar, har xil zaharli ximikatlar bor bo'lgan chiqindilar va boshqa zararli moddalar bilan ekstremal yuqori darajada ifloslanishi;

- binolar, muhandislik kommunikatsiyalari va uy-joylarning yemirilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan sizot suvlar darajasining oshishi;

- suv manbalari va suv olish joylarining zararli moddalar bilan ifloslanishi oqibatida ichimlik suvning keskin yetishmasligi.

4. Lokal, mahalliy, respublika va traschegarali favqulotda holatlar.

1. Lokal favqulodda holatga favqulodda holat natijasida 10 dan ortiq bo'lmagan odam jabrlangan, yoxud 100 dan ortiq bo'lmagan odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan, yoxud moddiy zarar Favqulodda holat paydo bo'lgan kunda bazaviy hisoblash miqdorining 1 ming baravaridan ortiq bo'lmaganni tashkil etadigan hamda Favqulodda holat zonasi ishlab chiqarish ob'yekti yoki ijtimoiy maqsadli ob'yekt hududi tashqarisiga chiqmaydigan Favqulodda holat tegishli bo'ladi.

2. Mahalliy favqulodda holatga favqulodda holat natijasida 10 dan ortiq, biroq 500 dan ko'p bo'lmagan odam jabrlangan, yoxud 100 dan ortiq, biroq 500 dan ko'p

bo'lmagan odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan, yoxud moddiy zarar Favqulodda holat paydo bo'lgan kunda bazaviy hisoblash miqdorining 1 ming baravaridan ortiqni, biroq 0,5 million baravaridan ko'p emas, tashkil etadigan hamda Favqulodda holat zonasi aholi punkti, shahar, tuman, viloyat tashqarisiga chiqmaydigan favqulodda holat tegishli bo'ladi.

3. Respublika favqulodda holatiga favqulodda holat natijasida 500 dan ortiq odam jabrlangan, yoxud 500 dan ortiq odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan, yoxud moddiy zarar favqulodda holat paydo bo'lgan kunda bazaviy hisoblash miqdorining 0,5 million baravaridan ortiqni tashkil etadigan hamda favqulodda holat zonasi viloyat tashqarisiga chiqadigan favqulodda holat tegishli bo'ladi.

4. Transchegara favqulodda holatga oqibatlari mamlakat tashqarisiga chiqadigan, yoxud favqulodda holat chet elda yuz bergan va O'zbekiston hududiga daxl qiladigan favqulodda holat tegishli bo'ladi.

5. Tabiiy va ekologik tushdagi favqulodda holatlarga (jala, do'l, tuproq, yer osti va suvning neft mahsulotlari, og'ir metallar, pestitsidlar va boshqa zaharli ximikatlar bilan ifloslanishi, atmosferaning yo'l qo'yiladigan chegaraviy konsentratsiyadan ortiq zararli ingrediyentlar bilan ekstremal ifloslanishi va boshqalar) qarshi muqobil harakat qilish maqsadida favqulotda holatlarda nazarda tutilmagan miqdor ko'rsatkichlar favqulodda holatlarning odamlarning hayoti, sog'lig'iga va atrof muhitga ta'sirining aniq darajasiga qarab atrof tabiiy muhitning holatini kuzatuvchi va nazorat qiluvchi vazirliklar va idoralar hamda O'zbekiston Respublikasi favqulodda holatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining tegishli rahbar organlari tomonidan belgilanadi.

## **6.2. Pandemiyaning davlatning iqtisodiy xavfsizligiga ta'siri**

Xitoyda kelib chiqqan va bugun dunyoning yetakchi va katta-kichik davlatlarida tez yoyilayotgan koronavirus pandemiyasi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va aholisining hayot tarziga keskin ta'sir ko'rsatmoqda. Ko'pgina ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ta'lim-tarbiya va boshqa qator sohalar, korxonalar, tashkilot va muassasalar faoliyatini vaqtinchalik to'xtatishiga, aholining

kasallikga chalinish jarayonlarining tezlashuvi esa aholining vahima va sarosimaga tushishiga hamda umuman olganda ko'pgina mamlakatlarda ijtimoiy va iqtisodiy tangliklar yuzaga kelishi mumkinligiga bashorat qilishga olib kelmoqda. Bugungi kunda mazkur koronavirus pandemiyaning Xitoydan tashqari, Janubiy Koreya, Yaponiya, Yevropa ittifoqi davlatlaridan Italiya, Fransiya, Ispaniya, Germaniya kabi davlatlarini tez sur'atlarda va keng ko'lamda qamrab olganligi ushbu davlatlar iqtisodiyotining an'anaviy o'sish sur'atlari salbiy ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda.

Bloomberg xalqaro agentligi<sup>10</sup>ekspertlarining hisob-kitoblariga ko'ra koronavirus jahon iqtisodiyotining o'sish sur'atlariga ta'sir o'tkazadi va uning sekinlashuvi hamda kamayishiga olib keladi. Undan tashqari ba'zi bir ekspertlarning fikricha, o'sish sur'atlari umuman bo'lmasligi yoki u 0 ga teng bo'lishi va mazkur virus jahon iqtisodiyotiga 2,7 trln.doll. miqdorida zarar keltirishi mumkinligi aytilmoqda. Bu summa Buyuk Britaniya davlatining yillik yalpi ichki maxsulotiga teng miqdorni tashkil etadi. Agarda Xitoy ushbu epidemiyani tezda bartaraf eta olsa, Janubiy Koreya, Yaponiya, Italiya, Fransiya, Ispaniya, Germaniya kabi davlatlar iqtisodiyotining o'sish sur'atlari koronavirus paydo bo'lguncha 2020 yil uchun rejalashtirilgan 3,1 % o'sish o'rniga nisbatan 2,3 % gacha pasayishi prognoz qilinmoqda.

Virusning AQSH, Hindiston, Buyuk Britaniya, Kanada, Braziliya kabi jahon iqtisodiyotining yirik o'ntaligida tarqalishi ularning ko'proq mablag'larni virus bilan kurashishga yo'naltirishi natijasida bu jahon iqtisodiyoti o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu holda jahon iqtisodiyoti 2020 yilda 1,2 % ga tushib ketishi, Yevropa ittifoqi va Yaponiya retsessiyaga tushishi, AQSH iqtisodiyotining o'sish sur'atlari 0,5 % gacha tushib ketishi mumkinligi taxmin qilinmoqda. Virus global pandemiyaga aylanib butun dunyoni qamrab olishi yuqorida ta'kidlaganimizdek, jahon iqtisodiyoti 2,7 trln.doll.ni yo'qotishi va uning yillik o'sish sur'ati 0 ga teng bo'lishiga olib kelishi mumkin.

AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Kanada, Fransiya va Yaponiyani o'z tarkibiga oluvchi yirik yettilik .- G7 pandemiya COVID-19 ni «sog'likni

---

<sup>10</sup>www. Bloomberg delivers business and markets news, data, analysis.



saqlash tizimining global inqirozi» deb nomladi. AQSH prezidenti Donald Tramp koronavirus epidemiyasi tufayli iyun oyida o'tkazilishi rejalashtirilgan G7 sammitini har bir davlat virus tarqalishining oldini olish va unga qarshi kurash bo'yicha o'zining resurs imkoniyatlarini o'rganishi va jamlashiga sharoit yaratish maqsadida uni videokonferensiya tariqasida o'tkazadigan bo'ldi.

IHTT (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti)ning ma'lumotlariga ko'ra koronavirusning keng tarqalishi jahon iqtisodiyotining o'sish sur'atlari ikki barobarga yoki 1,4-1,5 % gacha tushib ketishi, agarda virus tarqalishi lokalizatsiya qilinsa jahon iqtisodiyotining o'sishining pasayish sur'atlari 2,4% ko'rsatkichida to'xtashi mumkinligini keltirmoqda. "Bank of America" analitiklarining fikricha, 2020 yildagi koronavirusning jahon iqtisodiyotiga salbiy ta'siri 2009 yilda yakunlangan global jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozidan keyingi katta zarba bo'lishi va o'sish sur'atlarining 2,8 % gacha tushib ketishiga olib kelishi mumkin.

Koronavirus turli mamlakatlarda turli chora-tadbirlarni amalga oshirishni, unga samarali ta'sir eta oladigan instrumentlarni qo'llash orqali iqtisodiyotda yo'qotishlarni chegaralash yo'llarini qidirishga majbur etmoqda. Shunga qaramasdan ko'pgina davlatlarda qo'llanilayotgan choralar iqtisodiyotni turg'unlik holatiga olib keluvchi quyidagi tadbirlarda namoyon bo'lmoqda. Bular:

- mehnat bozori va savdo bozorlari faoliyatini to'xtatish;
- jahonda mavjud boyliklardan foydalanish samarasini pasaytirish;
- jahon iqtisodiyoti, ishlab chiqarish taraqqiyotidagi ijobiy o'zgarishlar va yangiliklarni to'xtatish yoki cheklash;
- davlat moliya va pul tizimining barqarorligiga putur yetkazadigan, ilojisiz choralar qo'llash;
- iqtisodiyotda inson resurslari va uning tarkibiga bo'lgan talabni jahon va mahalliy darajada o'zgartirish kabilarda namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda qator davlatlarda yirik kompaniyalar, savdo tashkilotlari va uylari, magazinlar o'z faoliyatini cheklamoqda. Masalan, birgina IKEA magazinlari yoki Apple hamkorlarining AQSH, Xitoy, Avstriya, Belgiya, Kanada, Chexiya, Daniya, Germaniya, Italiya, Fransiya, Niderlandiya, Polsha, Slovakiya, Ispaniya va

Shveysariya kabi davlatlarda vaqtincha yopilishi, ko'pgina davlatlarda karantin e'lon qilinishi yoyoi xodimlarning uyda ishlash rejimiga o'tkazilishi ham davlatlar iqtisodiyotiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, virus aniqlangan kundan boshlab Rossiyada 10%dan ortiq kompaniyalar xodimlarini karatinga, 13 %dan ortiq kompaniyalar xodimlarini uyda ishlash rejimiga o'tkazganligi ta'kidlanmoqda. Rossiyada ushbu kasallikning avj olishi bu ko'rsatkichlarning bir necha barobarga oshishiga olib keldi.

Bugungi kunda dunyoning yetakchi tovar, neft, pul, investitsiya va fond bazorlarida nobarqarorlik yuzaga kelayotganligi ham jahon iqtisodiyotining o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. AQSH aviakompaniyalar birlashmasi 11 mln. xodim faoliyat ko'rsatadigan ushbu tarmoq axvoli katta zararlarga uchrayotgani, AQSH moliya vazirligi, Kongressi va boshqa hukumat tashkilotlariga tarmoqni tezkor moliyaviy jihatdan qo'llash zarurligi, koronavirus AQSH avia kompaniyalari, jumladan, American Airlines, Delta, United Southwest kabilar o'z qatnovlarini amalaga oshirish bo'yicha 50 mlrd.doll. miqdorida davlatdan yordam tariqasida mablag' ajratilishiga muhtoj ekanligi, Rossiya avivkompaniyalarining xalqaro qatnovlar bo'yicha 2020 kuzigacha 360 mlrd.rub yo'qotishlarga uchrashi mumkinligi hisob-kitob qilinmoqda.

McKinsey&Company konsalting kompaniyasi<sup>11</sup>analitiklarining tahlillari bo'yicha virus Xitoyda keng yoyilmasa uning YAIMining o'sishi 6%dan 4,7 % gacha pasayishi mumkinligi va shunday holda ham Xitoy joriy yil 2-chorakning 2-yarimida o'sish sur'atlarini tiklab olishi, dunyo miqyosida esa YAIM oldin prognozlashtirilgan 2,4-2,5 %dan 2 % gacha pasayishi mumkinligini bashorat qilishmoqda.

Qanday holat bo'lishidan qat'iy nazar jahon miqyosida global o'sishga erishish qiyin kechishi mumkin. Bu sharoitda eng ko'p zarar ko'radigan soha kichik biznes va rivojlanayotgan davlatlar hisoblanadi. Avia va turistik biznes yo'qotishlarga uchraydi, chunki ular faoliyatining mavsumi davrida koronavirus haeli to'liq bartaraf etilmasligi mumkin. Neft va neft mahsulotlari uchinchi kvartalgacha bosim ostida bo'lishi holida jahon iqtisodiyotining o'sish sur'atlari 1-1,5% gacha pasayib ketishi

---

<sup>11</sup><http://www.liga.net/>

mumkinligi e'tirof etilmoqda. Dunyo bo'yicha xavfli sanalgan koronavirusning mamlakatimiz hududida qayd etilishi boshqa davlatlardagidek bizning mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va aholimiz hayotiga salbiy jihatdan ta'sir etishi aniq jarayondir. Ijtimoiy jihatdan xatarliligi shundaki, koronavirusning oldini olish va uni boshqarishda hatto rivojlangan davlatlarda ham qiyinchiliklarga uchramoqda. U geometrik ko'payish - yuqish va og'ir kechish xususiyatiga ega. Shuning uchun aholimizni salomatligini asrash, ehtiyot bo'lish, zarur sanitariya-gigenik, karantin qoidalari, berilayotgan ko'rsatmalarga qat'iy rioya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarur hisoblanadi. Albatta, ushbu ishlarni amalga oshirish ma'lum moliyaviy resurslarni talab etadi va bu o'z navbatida davlat byudjeti xarajatlari miqdorining oshishiga olib kelishi mumkin.

### **6.3. Pandemiya sharoitida davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashdagi choralari**

Jahon miqyosida koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashishda, shu jumladan insonlarning harakatlanishiga cheklovlar kiritish va korxonalar faoliyatini to'xtatish orqali misli ko'rilmagan choralar ko'rilmogda.

Bu esa eng yirik iqtisodiyotga ega mamlakatlarda ishlab chiqarish va iste'mol hajmlarining keskin qisqarishi, global ishlab chiqarish zanjirlari va savdo aloqalarining izdan chiqishi, dunyo moliya bozorlarida xom ashyo tovarlari narxining pasayishi va kon'yunkturaning yomonlashuvini keltirib chiqardi.

Global iqtisodiyot tizimining bir qismi bo'lgan O'zbekiston iqtisodiyotiga ham mazkur omillar ta'sir qilmoqda, bu esa o'z navbatida ushbu holatning salbiy ta'sirlarini yumshatish bo'yicha samarali oldini oluvchi choralar ko'rishni talab qiladi. Bunda turizm, transport, farmatsevtika va to'qimachilik sanoati kabi respublika iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash va ularning barqarorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish zarur.

Koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish va boshqa global xavf-xatarlar davrida makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarining

uzluksiz ishlashini ta'minlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish, aholini samarali ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, mamlakat aholisi daromadlari keskin pasayib ketishining oldini olish maqsadida quyidagi choralar kurilmoqda:

Moliya vazirligi huzuridagi Inqirozga qarshi kurashish jamg'armasi mablag'lari hisobidan:

a) koronavirus infeksiyasining tarqalishiga qarshi kurashish bo'yicha quyidagi tadbirlarni moliyalashtirish, shu jumladan:

- davolash va boshqa muassasalarni koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish uchun zarur bo'ladigan dori vositalari va tibbiy buyumlar, himoya vositalari va test tizimlari bilan ta'minlash;

- xavf-xatar ostida bo'lgan yoki virus yuqtirganlar bilan muloqotda bo'lgan shaxslarni karantinda saqlash bilan bog'liq xarajatlarni qoplash;

- koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashishda ishtirok etayotgan tibbiyot xodimlarini moddiy rag'batlantirish, respublika sanitariya-epidemiologiya xizmati tomonidan himoya choralari amalga oshirish xarajatlari uchun qo'shimcha mablag'lar ajratish;

- yuqumli kasalliklarni aniqlash, profilaktika qilish va davolash bo'yicha tadbirlarga jalb etilgan davolash va boshqa muassasalarni qurish, ta'mirlash, rekonstruksiya qilish va jihozlash;

b) quyidagilar orqali tadbirkorlikni va aholi bandligini qo'llab-quvvatlash:

- Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi huzuridagi Tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan birinchi navbatda ijtimoiy ahamiyatga ega iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish, sotib olish va sotish uchun berilgan kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarini qoplashga kafillik hamda kompensatsiya taqdim etishni kengaytirish;

- respublika hududlarida iqtisodiy faollikni va bandlikni kengaytirishga qaratilgan qo'shimcha infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, shuningdek, eng avvalo, kichik sanoat zonalarida muhandislik kommunikatsiyalarini qurish;

v) aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish, shu jumladan quyidagilar uchun qo'shimcha mablag'lar ajratish:

- kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha choralarni kuchaytirish va nafaqa oluvchilar sonini oshirish, shu jumladan O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi orqali;

- O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg'armasiga jamoat ishlarini kengaytirish;

- "Ishga marhamat" monomarkazlarini va kasbga tayyorlash markazlarini tashkil qilish, shuningdek, mehnat migrantlarini kasbga va tilga o'rgatishni tashkillashtirish orqali ularni qo'llab-quvvatlash;

g) quyidagilar orqali iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash:

- O'zbekiston Respublikasining davlat kafolati ostida jalb etilgan kreditlarni so'ndirish, shuningdek, birinchi darajali xarajatlarni amalga oshirish uchun foizsiz byudjet ssudalari ajratish yo'li bilan strategik korxonalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarni ko'rish;

- tashqi savdo faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlari transport xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish;

- koronavirus infeksiyasi tarqalishining salbiy ta'siriga eng ko'p uchraydigan iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini, shuningdek, kredit portfeli sifati yomonlashgan hollarda tijorat banklarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha choralarni taqdim etish;

- uch yilgacha bo'lgan muddatga foizsiz byudjet ssudalarini ajratish orqali soliq to'lash muddatlari bo'yicha kechiktirish taqdim etilishi hamda tadbirkorlik faolligining sustlashishi munosabati bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarida olinmay qolinadigan daromadlar o'rnini to'ldirish.

Pandemiya sharoitida davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagi choralarni amalga oshirmoqda:

- yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ijtimoiy soliqning oylik eng kam summasi bazaviy hisoblash miqdorining kamaytirilgan foizlarda hisoblanashi;

-alkogol mahsulotlarining ulgurji savdosi bilan shug'ullanuvchi korxonalarining ajratmalari miqdori pasaytirildi;

- umumiy ovqatlanish korxonalari uchun alkogol mahsulotlarini chakana sotish huquqi uchun yig'imlar miqdori belgilangan miqdorlardan kamaytirildi;

- turistik (mehmonxona) yig'imini hisoblash va to'lash to'xtatildi;

- qishloq xo'jaligidagi erlarni sug'orish uchun foydalaniladigan hajmlar bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari pasaytirildi;

- jismoniy shaxslar tomonidan xayriya tashkilotlaridan moddiy naf tarzida olinadigan daromadlarni soliqqa tortishdan ozod qilindi;

- turizm sohasiga bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining qat'iy belgilangan summalarikamaytirildi;

- mahalliy davlat hokimiyati organlari xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga mol-mulk solig'i, er solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lash bo'yicha foizlar kechiktirildi;

- tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorlik uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga jarimalar qo'llash to'xtatildi;

- soliq organlari vaqtincha qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga mol-mulk solig'i, er solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha penyalari hisoblanishi to'xtatildi;

- soliq to'lovchilarning davlat soliq xizmati organlariga tashrif buyurmasdan soliq majburiyatlarini bajarishi uchun ularga masofadan xizmat ko'rsatishni kengaytirish choralari ko'rildi;

- 2021 yil 1 yanvarga qadar tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini soliq auditidan o'tkazish to'xtatildi, jinoyat ishlari doirasida va yuridik shaxsni tugatish munosabati bilan soliq auditidan o'tkazish bundan mustasno;

- hisobot yilida amalga oshirilgan tovarlarning umumiy eksportiga nisbatan 10 foizdan oshmagan muddati o'tgan debitor qarzdorligi mavjud bo'lgan taqdirda, kafolatlangan to'lovni ta'minlamasdan tovarlar eksportini amalga oshirishga ruxsat berildi;

-2020 yil davomida tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorligini so'ndirish evaziga texnologik asbob-uskunalar va xom ashyo tovarlarini import qilish bo'yicha bir martalik operatsiyalarni amalga oshirishga ruxsat berildi;

- import qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlarining tezkor tartibda, shu jumladan ruxsat beruvchi hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelgunga qadar berish orqali bojxona rasmiylashtiruv mexanizmi joriy etildi;

- eksport qiluvchilarni manzilli qo'llab-quvvatlashning ta'sirchan chora-tadbirlari asosida barcha mulkchilik shaklidagi eksport qiluvchilarning yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarini o'z vaqtida aniqlash va tezkor hal qilinmoqda;

- koronavirus infeksiyasi bilan zararlanishi yoki zararlangan deb gumon qilinishi munosabati bilan karantinga joylashtirilgan ota-onalar (ular o'rmini bosuvchi shaxslar, vasiylar, homiylar), shuningdek, ularning 14 yoshgacha bo'lgan bolasini parvarish qilayotgan shaxslarga o'rtacha oylik ish haqining 100 foizi miqdorida vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi to'lanmoqda;

- 14 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa, bola ikki yoshga to'lgunga qadar bola parvarishi bo'yicha nafaqa va moddiy yordam oluvchilar sonini 10 foizga oshirish choralari ko'rildi;

- tibbiyot, sanitariya-epidemiologik va boshqa xodimlar koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish tadbirlariga jalb qilinadigan davrda ularning oylik lavozim maoshiga 6 foiz miqdorida har kunlik qo'shimcha to'lovlar joriy qilindi;

- Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan va o'z faoliyatini to'xtatgan maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalari, sport va madaniyat muassasalari xodimlarining ish haqlarini o'z vaqtida to'lab berilishini ta'minlanmoqda;

- karantinga oid choralar amal qilishi davrida ish beruvchilar xodimlarni, ayniqsa homilador ayollar, keksalar, imkoniyati cheklangan hamda surunkali kasallikka chalingan shaxslarni, ularning roziligi bilan, masofadan turib ishlash usuliga, qulay ish grafigiga yoki uydan turib ishlashga o'tkazildi;

- pul-kredit siyosati instrumentlaridan faol foydalanish hisobiga pul bozoriga har oyda umumiy summasi 1 trln so‘mgacha likvidlik taqdim etilmoqda;

- bankomatlarning etarli miqdordagi naqd pul mablag‘lari bilan uzluksiz ta‘minlanishi, shuningdek, masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishni rag‘batlantirish;

- turistik operatorlarga, mehmonxona biznesi sub‘ektlariga, transport-logistika kompaniyalariga va turizm tarmog‘ining boshqa korxonalariga, shuningdek, tashqi savdo operatsiyalariga joriy etilgan cheklovlar tufayli moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarga ajratilgan kreditlar bo‘yicha umumiy summasi 5 trln so‘mlik qarzdorliklarni to‘lash bo‘yicha kechiktirish uzaytirildi;

- xususiy tadbirkorlik korxonalariga taqdim etilgan aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun, shu jumladan iste‘mol bozorini eng zarur tovarlar bilan to‘ldirish uchun qayta tiklanadigan revolver kreditlar ajratish;

- kredit portfelini stress-testdan o‘tkazish, shuningdek, muammoli kreditlarning ortish xavfi mavjud bo‘lgan banklarda aktivlar sifatini baholab borish natijalarini taqdim etish;

- iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan xom ashyo resurslari hajmlarini monitoring qilish, ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq foydalanish uchun ularning birjaga qo‘yish hajmini oshirish choralari ko‘rish;

- ijtimoiy ahamiyatga ega oziq-ovqat mahsulotlarining bozorlardagi narxlari ustidan kunlik monitoring o‘tkazish, ularning narxlarni sun‘iy oshirish, sun‘iy tanqislik va ajiotaj talabni vujudga keltirishga yo‘l qo‘ymaslik ustidan qat‘iy nazorat o‘rnatish;

- oziq-ovqat mahsulotlarini shartnomalar asosida yoki birja savdolari orqali erkin narxlarda, bozorni to‘ldirish va ichki bozorlardagi mahsulotlar narxlarini barqarorlashtirish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish uchun etarli hajmlarda sotishni ta‘minlash;

- koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish choralari amalga oshirilishi, sanitariya-epidemiologik va tibbiyot muassasalarining uzluksiz faoliyatini ta‘minlash ustidan shaxsiy nazorat o‘rnatish;



- tadbirkorlik sub'ektlari va aholining murojaatlarini tezkorlik bilan ko'rib chiqish, joylarda ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va bandlikni ta'minlash bo'yicha qo'shimcha zaxiralarni ishga tushirish;

- telekommunikatsiya infratuzilmasining barqaror faoliyatini ta'minlash choralari hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash;

- koronavirus infeksiyasining tarqalishiga qarshi kurashish hamda uning iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini rivojlantirishga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha ko'rilayotgan choralar haqida aholi o'rtasida tizimli ravishda axborot-ma'rifiy ishlarni tashkil etish choralari kurish;

- pandemiyaning davlat iqtisodiyotiga salbiy ta'sirini kamaytirish va bartaraf etish maqsadida yana qushimcha tizimli samarali ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

#### **6.4. Favqulodda holatlar sodir bo'lgan davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashdagi ustuvor vazifalari**

Favqulodda holatlarning oldini olish - oldindan o'tkaziladigan hamda favqulodda holatlar ro'y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday holatlar ro'y bergan taqdirda esa, odamlarning hayotini asrab qolish va sog'lig'ini saqlashga, atrof tabiiy muhitga etkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar kompleksi.

Favqulodda holatlarni bartaraf etish - favqulodda holatlar ro'y berganda o'tkaziladigan hamda odamlarning hayotini asrab qolish va sog'lig'ini saqlashga, atrof tabiiy muhitga etkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga, shuningdek favqulodda holatlar ro'y bergan zonalarining kengayishiga yo'l qo'ymaslikka hamda xavfli omillar ta'sirini tugatishga qaratilgan qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan ishlar kompleksi.

Favqulodda holatlar sodir bo'lganda muhofaza qilishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- insonparvarlik, inson hayoti va sog'lig'ining ustuvorligi;
- oshkoralik;
- axborotning o'z vaqtida berilishi va ishonchli bo'lishi;

- favqulodda holatlardan muhofaza qilish choralarning oldindan ko‘rilishi.

Favqulodda holatlarning oldini olish va bunday holatlarda harakat qilish davlat tizimi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklarining, vazirlik va idoralarning, korxonalar, muassasa va tashkilotlarning boshqaruv organlari, kuchlari hamda vositalaridan iborat.

Favqulodda holatlarning oldini olish va bunday holatlarda harakat qilish davlat tizimi tarkibi va faoliyat ko‘rsatishi tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

### **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining favqulodda holatlardan muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari:**

- favqulodda holatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar davlat rezervlari yaratilishini ta‘minlaydi hamda ulardan foydalanish tartibini belgilaydi;

- favqulodda holatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga oid kuchlar va vositalarni moliya hamda resurs jihatidan ta‘minlashni, ularni maxsus texnika va boshqa moddiy-texnika vositalari bilan jihozlashni amalga oshiradi;

- favqulodda holatlar tasnifini tasdiqlaydi hamda ularni bartaraf etishda ijro hokimiyati organlari ishtiroki darajasini belgilaydi;

- vazirliklar, idoralar, ijro hokimiyati mahalliy organlarining aholini va hududlarni favqulodda holatlardan muhofaza qilish sohasidagi faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarini amalga oshiradi.

Favqulodda holatlardan muhofaza qilish bo‘yicha maxsus vakolatli davlat boshqaruv organi O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda holatlar vazirligidir.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi:

- favqulodda holatlarning oldini olish, bunday holatlarda odamlarning hayotini asrab qolish va sog‘lig‘ini saqlash, moddiy va madaniy boyliklarni muhofaza qilish, shuningdek favqulodda holatlar oqibatlarini bartaraf etish va zararini kamaytirish yuzasidan choralar ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

- aholini va hududlarni favqulodda holatlardan muhofaza qilish sohasida maxsus dasturlar ishlab chiqilishi va ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilishini tashkil etadi;

- o'z vakolati doirasida vazirlik va idoralar, korxonalar, muassasa va tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladi;

- boshqaruv organlarining, aholini va hududlarni muhofaza qilish kuchlari va vositalarining favqulodda holatlar sharoitida harakat qilishga tayyor bo'lishini tashkil etadi;

- favqulodda holatlarni bartaraf etish kuchlari va vositalari boshqaruvini amalga oshiradi, boshqaruv punktlari, xabar berish va aloqa tizimlarini tuzadi;

- favqulodda holatlar sharoitida avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlar o'tkazilishini tashkil etadi;

- aholini va hududlarni favqulodda holatlardan muhofaza qilish tadbirlari bajarilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

- ishlab chiqarish va ijtimoiy ob'ektlar bo'yicha loyihalar va qarorlar yuzasidan davlat ekspertizasi o'tkazilishida ishtirok etadi;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

### **Vazirliklar va idoralarning favqulodda holatlardan muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlari:**

- o'z tasarrufidagi korxonalar, muassasa va tashkilotlarning favqulodda holatlar sharoitida harakat qilishga shay bo'lib turishini ta'minlashlari;

- tarmoqning va o'z tasarrufidagi ob'ektlarning favqulodda holatlar sharoitida barqaror ishlash imkoniyatini oshirish tadbirlarini ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari;

- favqulodda holatlardan muhofaza qilish bo'yicha harakatlar rejasini, nizomlar, qoidalar va yo'riqnomalarni kelishib olish uchun O'zbekiston Respublikasi Favqulodda holatlar vazirligiga taqdim etishlari;

- o'z tasarrufidagi ob'ektlar xodimlarini qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari tarkibida favqulodda holatlarda muhofazalanish usullariga va harakat qilishga o'rgatishlari;

- favqulodda holatlar to'g'risida xabar berish mahalliy tizimlarini yaratishlari va ularni doimo shay holatda saqlab turishlari;

- aholining va hududlarning muhofazalanish holati to'g'risida belgilangan tartibda axborot berishlari, shuningdek tarmoq xodimlarini favqulodda holat tahdidi borligi to'g'risida xabardor qilishlari;

- moddiy va moliyaviy resurslar rezervlarini yaratishlari;

- favqulodda holatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish rejalariga muvofiq o'z tasarrufidagi ishlab chiqarish va ijtimoiy ob'ektlarda hamda ularga tutash hududlarda avariya, qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlar tashkil etilishi, moliyalanishi va o'tkazilishini ta'minlashlari;

- o'ta muhim ob'ektlar va ularning xodimlarini favqulodda holatlar sharoitida o'z faoliyatlarini davom ettirishlari ta'minlanadigan punktlarga evakuatsiya qilish tadbirlarini amalga oshirishlari;

- favqulodda holatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish maxsus kuchlari va vositalari tashkil etilishini, tayyorgarlikdan o'tkazilishini va shay bo'lib turishini ta'minlashlari;

- o'z tasarrufidagi ob'ektlar loyihalanishi, qurilishi va rekonstruksiya qilinishi chog'ida aholini va hududlarni muhofaza qilish masalalariga oid talablar bajarilishini nazorat qilib borishlari;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirishlari shart.

Vazirliklar va idoralar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ro'yxati belgilab qo'yiladigan, potensial xavf manbai bo'lgan ob'ektlarda aholini va hududlarni favqulodda holatlardan muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislar shtat lavozimlarini joriy etadilar. Boshqa ob'ektlarda esa mas'ul shaxslar tayinlanadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari favqulodda holatlardan muhofaza qilish sohasida:

- favqulodda holatlar chog'ida aholini va hududlarni muhofaza qilish bo'yicha harakatlar rejasini ishlab chiqadilar;

- aholining va hududlarning muhofazalanishiga oid axborotlar belgilangan tartibda to'planishi va almashinilishini, shuningdek favqulodda holatlar tahdidi borligi yoki ro'y berganligi to'g'risida aholi o'z vaqtida voqif va xabardor etilishini amalga oshiradilar;

- moddiy va moliyaviy resurslar rezervlarini yaratadilar, favqulodda holatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tadbirlarini moliyalashni amalga oshiradilar;

- idoraviy mansubligidan qat'i nazar, korxonalar, muassasa va tashkilotlarning favqulodda holatlarda barqaror ishlash imkoniyatini oshirishga yordamlashadilar;

- favqulodda holatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha korxonalar, muassasa va tashkilotlar kuchlari va vositalarining shay holda turishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar;

- avariya, halokat, tabiiy ofatlar sodir bo'lgan zonalarda qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlarni amalga oshirish uchun avariya-qutqaruv kuchlari (shu jumladan tezkor harakat bo'linmalari) va maxsus tuzilmalarning doimo shay bo'lib turishini tashkil etadilar;

- avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlarni tashkil etadilar hamda amalga oshiradilar, shuningdek bunday ishlar o'tkazilishi chog'ida jamoat tartibi saqlanishiga ko'maklashadilar;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradilar.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar favqulodda holatlardan muhofaza qilish sohasida:

- xodimlar hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy ob'ektlarni favqulodda holatlardan muhofaza qilish bo'yicha zarur choralarni rejalashtirishlari, moliyalashlari va amalga oshirishlari;

- xavf manbai yuqori bo'lgan ob'ektlar xavfsizligi to'g'risida belgilangan tartibda deklaratsiya taqdim etishlari;

- xodimlarni favqulodda holatlar sharoitida qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari tarkibida muhofazalanish usullariga va harakat qilishga o'rgatishlari;

- xabar berish mahalliy tizimlarini yaratishlari va doimo shay holatda saqlab turishlari hamda favqulodda holatlar tahdidi borligi yoki ro'y berganligi to'g'risida xodimlarni o'z vaqtida xabardor qilishlari;

- favqulodda holatlar sharoitida ob'ektlar ishi hamda xodimlar hayot faoliyati barqaror kechishini ta'minlashlari;

- muhandislik-himoya inshootlari, zaruratga qarab, oldindan barpo etilishini ta'minlashlari hamda ularni doimo shay holatda saqlab turishlari;

- favqulodda holatlar ro'y berishi ehtimolini nazarda tutib, belgilangan tartibda moddiy va moliyaviy resurslar rezervlarini yaratishlari;

- favqulodda holatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish kuchlari va vositalari yaratilishini, tayyorgarlikdan o'tkazilishini hamda shay bo'lib turishini ta'minlashlari;

- favqulodda holatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish rejalariga muvofiq o'z tasarrufidagi ob'ektlarda avariya-qutqaruv ishlari o'tkazilishini ta'minlashlari;

- belgilangan tartibda ixtisoslashgan xizmatlar va tuzilmalarni yaratishlari, ularni shaxsiy tarkib, texnika va anjom bilan to'ldirishlari;

- belgilangan tartibda evakuatsiyaga oid tadbirlarni o'tkazishlari va odamlarni joylashtirish uchun oldindan bazalar tayyorlab qo'yishlari;

- belgilangan tartibda favqulodda holatlardan muhofaza qilish sohasida axborotlar taqdim etishlari shart.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari:

- tegishli hudud, suv ta'minoti manbalari, uy-joylar, ta'lim muassasalarining sanitariya va ekologik holati ustidan nazorat amalga oshirilishiga ko'maklashadilar;

- fuqarolarni favqulodda holatlar oqibatlarini bartaraf etishga jalb qiladilar;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa choralarni amalga oshiradilar.

Jamoat birlashmalari favqulodda holatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishtirok etishlari mumkin.

Jamoat birlashmalari favqulodda holatlar manbalari va ularni bartaraf etish choralarini to'g'risida davlat hokimiyat va boshqaruv organlaridan, korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan belgilangan tartibda axborot olish huquqiga ega.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy tizimi, yalpi ichki mahsulot, aholi turmush darajasi, aholi farovonligi darajasi, iqtisodiy dinamika xususiyatlari, iqtisodiyotning moslashish qobiliyati, jinoiy biznes tavsifi.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Favqulodda holatlar ularning vujudga kelish sabablariga (manbalariga) ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
2. Favqulodda holat va favqulodda holatlar tushunchasini tavsiflang?
3. Texnogen tushdagi favqulodda holatlarga nimalar kiradi?
4. Tabiiy tushdagi favqulodda holatlarga qanday xodisalar kiradi?
5. Lokal, mahalliy, respublika va traschegarali favqulotda holatlarni tavsiflang?
6. Pandemiyaning davlatning iqtisodiy xavfsizligiga ta'sirini tavsiflang?
7. Pandemiya sharoitida davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qanday choralar qullaniladi?
8. Moliya vazirligi huzuridagi Inqirozga qarshi kurashish jamg'armasi mablag'lari hisobidan nimalar amalga oshirishga qaratilgan?
9. Favqulodda holatlar sodir bo'lganda davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashdagi ustuvor vazifalari nimalardan iborat?
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining favqulodda holatlardan muhofaza qilish sohasidagi vakolatlarini tavsiflang?

## VII-BOB. DAVLATNING IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING XORIJ TAJRIBASI

### 7.1. Xorijiy mamlakatlarda davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash maqsadlari

Turli xorijiy rivojlangan mamlakatlarda davlatning iqtisodiy xavfsizligi tushunchalari turlicha talqin qilinadi va dolzarbligi ham farqlanadi. Masalan, Rossiyada davlatning iqtisodiy xavfsizligi tushunchasi “ko‘p millatli xalqlar xavfsizligini, davlatning suverenitetining asosi va yagona kuch manbai”ni anglatadi. Rossiyaning milliy manfaatlari - bu shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ichki, ijtimoiy, xalqaro, axborot, harbiy, chegara, ekologik va boshqa sohalardagi mutanosib manfaatlarining yig‘indisidir. Ushbu manfaatlar uzoq muddatli xususiyatga ega va Rossiya Federatsiyasining ichki va tashqi siyosatining strategik maqsadlari va joriy vazifalarini belgilaydi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida milliy iqtisodiy xavfsizlik deganda, davlatning iqtisodiy qudratiga dushman harakatlardan yoki boshqa iqtisodiy ta’sir ko‘rsatishga va aralashuvlardan, shu jumladan ichki tahdidlardan himoyalani holati tushuniladi. AQSH davlat iqtisodiy xavfsizligi tushunchasi "siyosiy realizm" maktabining asoschisi G.Morgentxauning ilmiy ishlariga bayon etilgan, muallifning fikriga kura AQSH o‘zining davlat manfaatlarini dunyodagi kuch va kuchning ko‘rsatkichi sifatida baholaydi. AQSHda 1947 yilda "Milliy xavfsizlik" to‘g‘risidagi qonuni qabul qilingan. Ushbu qonun mamlakatga harbiy tahdidlarga qarshi kurash, va usha davrda "dunyo kommunizmi"ga qarshi kurash va anti-sovet kuchlariga qaratilgan edi. Shu sababli, hozirgi kunda ham AQSHning tashqi siyosati AQSH gegemonligi mafkurasini jahon va G‘arb sivilizatsiyasi qadriyatlarining himoyachisi sifatida qo‘llab-quvvatlanadi.

Iqtisodiyoti tez rivojlanayotgan Xitoy davlatida davlat iqtisodiy xavfsizligi tushunchasiga “milliy manfaatlar birinchi navbatda quyidagilarga bog‘liq: suverenitet xavfsizlik iqtisodiy rivojlanish xalqaro maqom qadr-qimmatini” sifatida qaraladi.



Ushbu qoida noyobdir, chunki hozirgi paytda milliy manfaatlar sohasidagi "qadr-qimmat" toifasini o'z ichiga oladigan biron bir mamlakat yo'q. O'z davrida Xitoy rahbarlaridan bo'lgan Deng Syaoping Xitoy xalqi o'z milliy qadr-qimmatini va g'urur tuyg'usiga ega ekanligini bir necha bor o'z ma'ruzalarida ta'kidlab o'tgan. Uning mazkur jumalari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yoqotmagan: "mamlakatni sevish va butun kuchimni sotsialistik qurilishga sarflash men uchun katta sharafdir".

Evropada iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha ikkinchi o'rinda turadigan Fransiya davlatida davlat iqtisodiy xavfsizligi tushunchasiga: "mamlakatning hududiy dahlsizligiga, aholini himoya qilishga, millat hayotiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tahdid va xatarlarni bartaraf etishga qaritilgan choralar" sifatida qaraladi.

## **7.2. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning Shimoliy Amerika (AQSH, Kanada) tajribasi**

Pul-kredit siyosati instrumentlarini qo'llash orqali Markaziy bank yalpi talab hajmiga ta'sir etadi va shu orqali iqtisodiyotda inflyasion bosimni pasaytiradi. SHuningdek, Markaziy bank tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar, amalga oshirilayotgan ishlar va mos ravishda kommunikatsion siyosat aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining inflyasion kutilmalarini shakllantiruvchi omil sifatida inflyasion jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi.

Markaziy bankning asosiy foiz stavkasi bo'yicha hamda pul-kredit sharoitlarini belgilash bo'yicha qarorlari banklararo pul bozoridagi foiz stavkalarining shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi, ya'ni ushbu bozordagi qisqa muddatli moliyaviy resurslar narxini belgilaydi.

O'z navbatida, pul bozoridagi foiz stavkalari darajasi tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli pul resurslari, ya'ni jalb qilinadigan depozitlar va beriladigan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining shakllanishiga asos bo'ladi. Depozitlar va kreditlar bo'yicha foiz stavkalari bevosita ishlab chiqarish, iste'mol va investitsion jarayonlarda foydalaniladigan moliyaviy resurslarning narxini belgilab beradi. Ushbu jarayon pul-kredit siyosatining transmissiyasi (o'tkazma kanallari) orqali iqtisodiy agentlarning ishlab chiqarish, jamg'arish va iste'mol bo'yicha qarorlariga ta'sir o'tkazadi.

Bunda, pul-kredit siyosati sohasidagi choratadbirlar asosan iqtisodiyotni qisqa muddatli tartibga solish, mavsumiy va davriy tebranishlarni muvozanatlash hamda iqtisodiy o'sish sur'atlarining mamlakat iqtisodiy salohiyatidan og'ib ketishining oldini olishga qaratilgan bo'lib, umuman olganda qisqa muddatli ta'sirga ega bo'ladi.

Pul-kredit siyosati choralari iqtisodiy jarayonlarga (ko'rsatkichlarga) qarorlar qabul qilingan paytdan ma'lum bir vaqt kechikish va surilishlar bilan ta'sir qiladi. SHu bois Markaziy bank qarorlar qabul qilishda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning joriy dinamikasiga emas, aksariyat hollarda kelgusi davrda kutilayotgan o'zgarishlar

va prognozlarga asoslanadi. Shu sababli samarali va ta'sirchan qarorlar qabul qilish Markaziy bankda kuchli tahliliy va prognozlash salohiyati mavjud bo'lishini taqozo etadi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning keng qamrovli tahlili, prognozlari va kelajakdagi dinamikasi to'g'risida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lish va bu boradagi salohiyatni rivojlantirib borish orqali pul-kredit siyosatida qabul qilinayotgan qarorlardagi xatoliklar kamayib boradi.

Umuman olganda, iqtisodiyotda narxlar barqarorligini ta'minlash, aholi va biznes vakillarining inflyasion kutilmalarini ijobiy shakllantirish orqali Markaziy bank mamlakatdagi iqtisodiy o'sishni qo'llabquvvatlab boradi.

Ta'kidlash joizki, iqtisodiyotning mustahkam rivojlanishi ko'p jihatdan fundamental va tarkibiy islohotlarga bog'liq bo'lib, faqatgina Markaziy bankning pul-kredit siyosati instrumentlarini qo'llash orqali ishlab chiqarish omillari samaradorligini oshirishga yoki texnologik rivojlanishga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilib bo'lmaydi. Shuningdek, ma'lum bir tarmoqlarni faqatgina kreditlar bilan qo'llabquvvatlash va markazlashgan investitsiyalarni yo'naltirish mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun etarli emas.

Iqtisodiyotda raqobat muhitini rivojlantirish, mehnat unumdorligi va energiya iste'moli samaradorligini oshirib borish, ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, biznesni tashkil etish va yuritishni engillashtirishga qaratilgan davomli tarkibiy islohotlar uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy omillar bo'lib hisoblanadi.

## **8.2. Davlatning pul-kredit siyosatini tartibga solishdagi choralari**

Markaziy bankning pul-kredit siyosatining asosiy instrumentlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- a) majburiy zahiralar normasi
- b) valyuta siyosati
- v) diskont (hisob stavkasi) siyosati
- g) ochiq bozordagi operatsiyalar siyosati
- d) Targetirlash va boshqalar.

Yuqorida sanab o‘tilgan asosiy instrumentlarga qisqacha sharh berishga harakat qilamiz.

Majburiy zahiralar siyosati – Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining depozit bazasiga foiz darajasida o‘rnatiladigan majburiy zahiralar yaratish talabidir. Majburiy rezervlar bevosita kreditlash imkoniyalarini chegaralaydi va depozit emissiyasini qisqartiradi. Shu bilan birga majburiy zahiralar ko‘p hollarda ma‘muriy instrument sifatida namoyon bo‘ladi. Moliya bozorining rivojlanishi natijasida undan foydalanish nisbatan qisqardi. Kanada va Lyuksemburgda bu instrumentdan umuman foydalanilmaydi. Ba‘zi mamlakatlarda suiste‘mollikka yo‘l qo‘ymaslik uchun majburiy rezervlarning maksimal hajmi Qonunda aniq belgilab qo‘yilgan. SHu narsani alohida ta‘kidlab o‘tish joizki, majburiy rezervlar bir tomondan, tijorat banklarining likvidligini oshirsa, boshqa tomondan, ularning rentabellik darajalarini, ya‘ni daromadini pasayishiga sabab bo‘ladi. Demak, shundan xulosa qilish mumkinki, majburiy rezervlar ikkiyoqlama rol o‘ynaydi.

Majburiy zaxiralar siyosati Markaziy bank pul-kredit siyosatining asosiy instrumentlaridan biri sanaladi. Majburiy zahiralar siyosati – Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining depozit bazasiga foiz darajasida o‘rnatiladigan majburiy zahiralar yaratish talabi. Majburiy zahiralar siyosatidan quyidagi maqsadlarni amalga oshirish uchun foydalaniladi:

- Pul-kredit siyosatning instrumenti sifatida;
- Investor va omonatchilar manfaatini himoya qilish maqsadlarida;
- Tijorat banklarining likvidligiga ta‘sir qilish uchun;
- Pul massasini kamaytirish maqsadida ushbu instrument qo‘llaniladi.

Markaziy bank tijorat banklari Markaziy bankda ushlab turishga majbur bo‘lgan zahiralarining eng quyi normasini o‘rnatadi va shu vosita yordamida ular kreditlash qobiliyatiga, imkoniyatiga ta‘sir etadi. Bu me‘yor qanchalik yuqori bo‘lsa, ortiqcha zahiralar shunchalik kam va tijorat banklarining kredit berish yo‘li bilan “pullarni barpo etish” qobiliyati past bo‘ladi. Markaziy bankning amaldagi majburiy zaxira fondiga deponentlash normasi iqtisodiyotda pul massasini boshqarish va

banklar likvidligini tartibga solishning muhim vositalaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Diskont (inglizcha Diskount - «chegirma» co'zidan olingan) - bank amaliyotidagi hisob stavkasi hisoblanadi. Diskont siyosati - Markaziy bankning hisob stavkasini o'zgartirish yo'li bilan milliy valyuta kursiga va to'lov balansining holatiga ta'sir etish siyosatidir.

Ochiq bozordagi operatsiyalar – Markaziy bankning ochiq bozordagi operatsiyalari birinchi bo'lib AQSH, Kanada va Buyuk Britaniyada qo'llanila boshlandi. Chunki bu mamlakatlar rivojlangan qimmatli qog'ozlar bozorlariga egadirlar. Keyinchalik bu tartibga solish usulidan qator G'arbiy Evropa mamlakatlari ham foydalana boshladilar.

Ochiq bozor siyosati deganda Markaziy bankning o'z mablag'lari hisobidan ochiq bozordan qimmatbaho qog'ozlarni sotib olishi va sotishi tushuniladi. Bu - pul-kredit siyosatning hozirda ko'p ko'llanilayotgan usuli hisoblanadi. SHuningdek, ushbu usul tijorat banklarining likvidlik darajasiga tezda ta'sir o'tkaza oladigan (moslashuvchan), amaliy va operativ usul sanaladi. Bu usulning boshqalardan farqi shundaki, uni zaruriyatga qarab va xohlagan miqdorda o'tkazish imkoniyati mavjud. Bu mexanizm bozorning rivojlanish tendensiyasiga qarab pul muomalasini barqarorlashtira olishi mumkin.

Ochiq bozorda amalga oshiriladigan operatsiyalarda katta miqdordagi xilma-xil qimmatbaho qog'ozlar ishtirok etadi. Ulardan eng asosiylari sifatida xazina veksellari, foizsiz xazina veksellari, davlat zayomining obligatsiyalari, sanoat obligatsiyalari, Markaziy bank tomonidan belgilangan boshqa qimmatbaho qog'ozlarni ko'rsatish mumkin. Ushbu qimmatbaho qog'ozlarning bir qismi pul bozoriga tegishli bo'lsa, ikkinchi qismi kapital bozoriga tegishlidir. Masalan, xazina veksellari pul bozoriga tegishli bo'lsa, sanoat obligatsiyalari, davlat zayomlari kapital bozorinikidir. Markaziy bankning ochiq bozorda operatsiyalar o'tkazish huquqi, qonunda belgilanganidek, unda oldi-sotdi ob'ekti davlat qimmatbaho qog'ozlari va Markaziy bank o'zi chiqargan qarz majburiyatlari bo'lishi mumkin.

Ochiq bozordagi operatsiyalarni o'tkazishning an'anaviy vositasi bo'lib, Buyuk Britaniya, Germaniya, Gretsiya, Italiya va Fransiya kabi mamlakatlar uchun xarakterli bo'lgan davlat qimmatli qog'ozlaridan ikkilamchi bozorda foydalanish hisoblanadi. Davlat qimmatli qog'ozlari bilan birlamchi bozordagi operatsiyalar Buyuk Britaniyada qat'iy o'rnatilgan tartiblar asosida o'tkaziladi. Angliya Banki uchun ochiq bozordagi operatsiyalar siyosati iqtisodiyotni tartibga solish dastagi hisoblanadi. Qolgan dastaklardan doimiy tarzda foydalanilmaydi. Angliya banki bu siyosatni amalga oshirgan holda ikkita asosiy operatsiyaga e'tibor qaratadi: uzoq muddatga mo'ljallangan siyosatda – davlat zayom obligatsiyalari bilan operatsiyalar, qisqa muddatga mo'ljallangan siyosatda esa – xazina vekselar bilan operatsiyalar o'tkazishga e'tibor qaratiladi.

Ochiq bozordagi operatsiyalar muomaladagi pul massasini boshqarish, bank tizimi likvidligini tartibga solish va foiz stavkalari barqarorligini ta'minlovchi asosiy instrumentlardan biri sifatida Markaziy bank tomonidan muntazam ravishda keng qo'llanilib kelinmoqda.

Markaziy bank ochiq bozorda operatsiyalar amalga oshirish yo'li bilan bank tizimining rezervlariga ikki usul bilan ta'sir qilishi mumkin:

1. Agar Markaziy bank kredit institutlarining ixtiyoridagi pul massasini ko'paytirishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, unda u, ochiq bozorda qimmatbaho qog'ozlarni sotib oluvchi bo'lib qatnashadi. Bunda u qimmatbaho qog'ozlarga qat'iy belgilangan kurs o'rnatishi va kurs o'sha darajaga etishi bilan taklif qilingan barcha qog'ozlarni sotib olish yo'lidan foydalanishi mumkin. Yoki taklif qilingan paytdagi kursidan qat'iy nazar, ma'lum turdagi qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish miqdorini belgilashi mumkin.

2. Agar Markaziy bank bank tizimining rezervlarini kamaytirishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, unda bozorda sotuvchi bo'lib ishtirok etadi. Bunday holatda ham Markaziy bank quyidagi imkoniyatlarga ega:

- Markaziy bank ma'lum kursni e'lon qilishi va qimmatbaho qog'ozlarning kursi o'sha darajaga etishi bilan istalgan miqdordagi qimmatbaho qog'ozlarni sotish majburiyatini olishi mumkin;

- Markaziy bank qo'shimcha tarzda ma'lum miqdordagi qimmatbaho qog'ozlarni taklif qilishi mumkin. Siyosat bunday yo'sinda amalga oshirilganda davlatning qimmatbaho qog'ozlaridan keladigan daromadi ko'payadi. Buning natijasida kredit institutlarining davlat qimmatbaho qog'ozlariga bo'lgan qiziqishi ortadi, oqibatda tijorat banklarining kredit resurslari imkoniyati kamayadi va bank kreditining foiz stavkalari oshadi. Foiz stavkalarining shu yo'sinda o'sishi Markaziy bankni qoniqtirmasa, u yana qimmatbaho qog'ozlarni sotib olishi mumkin.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, moliya bozorlari rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning markaziy banklari davlat qimmatbaho qog'ozlar bozori vositalaridan pul-kredit siyosatini amalga oshirish va o'z milliy valyutalarining barqarorligini ta'minlash uchun foydalanadilar. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar portfelida davlat qisqa muddatli obligatsiyalari katta ulushni tashkil etishi qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanayotganligidan va xususan unda kredit institutlari faol ishtirok etayotganligidan dalolat beradi. Demak, Markaziy bank pul-kredit siyosati ta'sirchanligini oshirish uchun Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalarini rivojlantirish lozim. Buning uchun birinchidan, respublikada qimmatbaho qog'ozlar bozorini rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoit yaratish; ikkinchidan, unga bevosita va bilvosita ta'sir etadigan omil - mulkchilikni (xususiylashtirishni) to'g'ri tashkil qilish kerak; uchinchidan, unda ishtirok etadigan asosiy omma - xalqning daromadlarini oshirish masalasini qayta ko'rib chiqish kerak.

Targetirlash - pul massasi hajmining o'zgarishini o'rnatilgan usullar yordamida chegaralash demakdir. Targetirlashda ma'lum bir davrda pul massasi hajmining taxminiy yuqori va past darajasi belgilab beriladi.

Markaziy bank targetirlashni pul muomalasini muvofiqlashtirishning boshqa vositalari bilan birgalikda olib boradi. Targetirlashning ahamiyati shundaki, ma'lum bir davrda haqiqatda muomalaga chiqarilgan pul massasini taxminiy belgilab berilgan pul massasi bilan solishtirish natijasida pul muomalasidagi ahvol to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish mumkin va oldindan zaruriy choralar ishlab chiqish hamda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin. Bu esa o'z navbatida Markaziy bank pul-kredit siyosatining samaradorligini ta'minlaydi.

Valyuta siyosati deganda Markaziy bankning valyuta munosabatlarini tartibga solish va amalga oshirish sohasidagi tadbirlarining majmui tushuniladi. Markaziy bankning valyuta siyosati pul-kredit siyosatining asosiy klassik instrumentlaridan biri hisoblanadi. Jahon bank amaliyotidan shu narsa ma'lumki, valyuta siyosati, asosan, quyidagi: diskont, deviz siyosati va uning ko'rinishlari – valyuta intervensiyasi, valyuta zahiralari diversifikatsiya qilish, valyutaviy cheklashlar, valyutaning almashuv darajasini boshqarish, valyuta kursining tartibi, devalvatsiya, revalvatsiya kabi shakllarida namoyon bo'ladi. Markaziy ushbu instrumentlar yordamida pul yoki asosan bank depozitlari ko'rinishidagi pul massasiga yoki foiz stavkasiga ta'sir o'tkazadi, taklifini o'zgartiradi va shular orqali pul-kredit muomalasini tartibga solib turadi.

### **8.3. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning pul-kredit siyosati mexanizmi**

Markaziy bank pul-kredit siyosati borasidagi qarorlarini birinchi o'rinda o'rta muddatli istiqboldagi makroiqtisodiy prognozlari va keng qamrovli tahlillar asosida qabul qiladi. Prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda milliy iqtisodiyot rivojlanishi, inflyasiya dinamikasining ichki va tashqi omillari, shu bilan birga, makroiqtisodiy siyosatning shart-sharoitlarini hisobga oladi.

Prognozlash modellari pul-kredit siyosati choralari moliyaviy shartsharoitlarga o'zgartirish kiritish orqali real sektor holati va narxlar dinamikasiga ta'sirini hisobga olish imkonini beradi.

Markaziy bank tomonidan 2020-2022 yillarda iqtisodiyot rivojlanishining asosiy ssenariysi bilan birgalikda muqobil ssenariysi ham ishlab chiqildi. Bu, o'z navbatida, xatarlar sodir bo'lishining ehtimoliy oqibatlarini baholashga va ularning oldini olish choralari ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi.

2020-2022 yillar uchun prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda tarkibiy islohotlarning amalga oshirilishi davomida iqtisodiyotdagi narxlar dinamikasiga ta'sir ko'rsatuvchi fundamental omillarning turlari va ta'sir doirasi o'zgarib borishi inobatga olindi. Xususan, prognozda hisobga olingan sharoitlar tashqi savdoning

erkinlashuvi va soliqqa tortishni takomillashtirish sohasida olib borilayotgan islohotlardan ko‘zlangan maqsadlarning o‘z vaqtida va samarali bajarilishini nazarda tutadi. Shuningdek, tashqi sharoitlar O‘zbekistonning xalqaro savdoda hozirgi mavqeiini saqlab qolishi, xususan, xomashyo (tabiiy gaz, mis, paxta tolasi), tekstil mahsulotlari, oltin, meva va sabzavotlar eksportning asosiy qismini tashkil etishi, transchegaraviy pul o‘tkazmalari dinamikasi, jahon xomashyo bozorlaridagi narxlarning o‘zgarishi hamda asosiy savdo hamkor davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati bilan belgilanadi.

Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirish jarayonlari ma’lum bir davrni talab qilishini hisobga olib, iste’mol tarkibida import ulushi nisbatan yuqori darajada saqlanib qolishi taxmin qilinmoqda. Buning natijasida ichki iste’mol narxlarining tashqi tovar bozorlari kon’yunkturasi hamda almashuv kursiga ta’sirchanligi davom etadi. Shu bilan birga, inflyasiya kutilmalarining pasayib borishi va pul-kredit siyosatiga bo‘lgan ishonchning ortib borishi bilan inflyasiyaning bir martalik omillarga ta’sirchanligi tobora pasayib boradi.

Tarkibiy islohotlarning iqtisodiyotga ijobiy ta’siri asta-sekinlik bilan namoyon bo‘ladi, ularning 2022 yilning oxiriga kelib YAIMning barqaror o‘shishiga hissasi sezila boshlaydi. Shu bilan birga, 2020-2022 yillarda makroiqtisodiy siyosat barqaror va inklyuziv iqtisodiy rivojlanish sharoitlarini yaratishga asos bo‘ladigan narxlar va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga yo‘naltirilishi kutilmoqda, bu esa, o‘z navbatida, ishbilarmonlik muhitidagi noaniqliklarni kamaytirishga yordam beradi.

Qayd etilgan va boshqa omillar makroiqtisodiy prognoz uchun asos bo‘lib, pulkredit siyosati yuritilishining ichki va tashqi shart-sharoitlarini shakllantirdi. Ichki iqtisodiy sharoitlar sifatida, birinchi navbatda, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarning davom ettirilishi, xususan yig‘ma byudjet ijrosi, yoqilg‘i-energetika mahsulotlari narxlarining erkinlashtirilishi, tashqi savdo sharoitlarining yanada tartibga solinishi va boshqalar hisobga olinadi.



Eksportga nisbatan yuqoriroq hajmdagi importga bo'lgan talabning saqlanib qolishi natijasida jahon bozori kon'yunkturasing ichki ishlab chiqarish, daromad, iste'mol va narxlar dinamikasiga ta'siri davom etadi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va eksportni rivojlantirishga yo'naltirilgan choralar samaradorligining oshirilishi hamda erkin shakllanuvchi valyuta kursi rejimining amal qilishi, 2020-2022 yillarda, pul o'tkazmalari hajmining joriy o'sish sur'atlari saqlanib qolishi bilan bir qatorda, mamlakat tashqi savdo balansining muvozanatga kelishini ta'minlaydi. SHu bilan birga, Markaziy bank valyuta kursining o'zgarishiga olib keladigan omillarning tabiatini va ularning inflyasiya dinamikasiga va inflyasion kutilmalarga ta'sirini baholab boradi.

Prognoz davrida milliy iqtisodiyotning o'sish potentsiali ijtimoiy va sanoat infratuzilmalarining holati, mavjud transport infratuzilmalarining bandlik darajasi bilan chegaralanadi. Boshqa tomondan, iqtisodiyotda tashkiliy boshqaruv sifatining pastligi, iqtisodiyotning monopollashuvi darajasi yuqoriligi hamda iqtisodiy faol aholining malakasi bilan bog'liq mehnat unumdorligining pastligi iqtisodiyotning o'sishi va modernizatsiyasiga salbiy ta'sir etuvchi omil bo'lib hisoblanadi.

Xususiy kompaniyalarga yoqilg'i-energiya sohasida faoliyat olib borishiga ruxsat berilishi orqali ishlab chiqarish quvvatlarini va energiya ta'minoti infratuzilmasi tarmog'ini kengaytirish, mavjud avtomobil yo'llari holatini lozim darajada saqlash, davlat-xususiy sherikchilik amaliyotidan foydalangan holda yo'l infratuzilmasini kengaytirish, temiryo'l va havo yo'llari infratuzilmalaridan xususiy transport operatorlariga tijorat asosida foydalanishga ruxsat berish bo'yicha choralar amalga oshirilishi ichki bozorda iste'mol tovarlari tannarxining shakllanishiga va inflyasiyani pasaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, 2020-2030 yillarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasining samarali amalga oshirilishi, jumladan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash quvvatlarining kengaytirilishi hamda ulgurji-taqsimlash markazlari tarmog'i rivojlantirilishi ichki bozorning qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasini oshirishga va narxlarning mavsumiy tebranishini kamaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, energiya

samaradorligining va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlardagi energiya iste'molining xalqaro standartlari va normalarini hamda korxonalarining ish faoliyati samaradorligi ko'rsatkichini (KPI) amaliyotga joriy qilish, inson kapitalini rivojlantirishga sarmoyalar yo'naltirish orqali mehnat resurslarining malakasini oshirish, monopol va davlat korxonalari mahsulotlari narxi shakllantirilishining shaffofligiga erishish kabi omillar yordamida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Bu esa iqtisodiyot sektorlarida boshqaruv sifati va mehnat unumdorligi oshishiga xizmat qiladi.

Xususiy mulk huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish, raqobat bozorlarida davlat ulushini qisqartirish, monopoliyaga qarshi kurashish tartibini takomillashtirish orqali sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish, o'z navbatida, bozor ishtirokchilari sonining ko'payishiga va milliy mahsulot turlarining kengayishiga olib keladi.

Kelgusi uch yillik muddatda milliy iqtisodiyotning tarkibiy xususiyatlari iqtisodiy faoliyat dinamikasini belgilab, pul-kredit siyosatini amalga oshirishga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Iqtisodiy o'sishning potensialini kengaytirish maqsadida tarkibiy islohotlar samaradorligini oshirishga va yuqorida qayd etilgan muammolarni bartaraf etishga, shuningdek, iqtisodiy munosabatlardagi barcha ishtirokchilarning sa'y-harakatlarini faollashtirishga yo'naltirilgan davlat siyosati choralari ko'rish talab etiladi.

Soliq islohotlarining davom ettirilishi va byudjet qoidalaridan foydalangan holda davlat byudjetini konsolidatsiyalash ichki shart-sharoitlarning ikkinchi muhim omili hisoblanadi. Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar, QQS bazasining kengaytirilishi hamda soliq tizimidagi sifat o'zgarishlari o'rta muddatli davrda ma'lum darajada tayyor mahsulot narxlarida o'z aksini topadi.

Raqobat muhitini yaxshilash va soliqqa tortish samaradorligini oshirish maqsadida 2019 yil 1 oktyabrdan boshlab QQS bo'yicha imtiyozlar bekor qilindi, shu bilan birga, QQSning asosiy stavkasi pasaytirildi. Ayrim ijtimoiy ahamiyatga ega oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga, shuningdek, qurilish materiallari va ehtiyot qismlarga berilgan imtiyozlar bekor qilindi. Qisqa muddatda ushbu chora inflyasiyaviy xarakterga ega bo'lishi mumkin, biroq QQSning asosiy stavkasi 20

foizdan 15 foizgacha pasaytirilishi, o'z navbatida, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan inflyasion bosimning oldini oladi. Shu bilan birga, soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish, samaradorligini oshirish va soliq yukini kamaytirish bo'yicha islohotlarning davom ettirilishi ichki bozorda mahsulot tannarxining pasayishiga, bu esa xufyona iqtisodiyotdagi tovar aylanmasining kamayishiga hamda sog'lom raqobatning rivojlanishiga olib keladi va natijada narxlar barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Davlat qarzini moliyalashtirish uchun tashqi manbalarni jalb qilishda yillik me'yor belgilash orqali qarz olishda ehtiyotkorona yondashuvning qo'llanilishi davlat moliyasining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, davlat moliyasini takomillashtirish jarayonida byudjetdan tashqari jamg'armalar hamda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining yagona bir fiskal balans tarkibida konsolidatsiya qilinishi iqtisodiyotga davlat moliyasi tomonidan bo'ladigan ta'sirlarni to'liq baholash va pul-kredit siyosati bilan soliq-byudjet siyosatini o'zaro muvofiq tarzda olib borishga imkon beradi. Qayd etish joizki, imtiyozli kreditlash amaliyotining bozor mexanizmlariga o'tkazilishi kredit bozoridagi nomutanosibliklarni bartaraf qiladi hamda markazlashgan manbalar hisobidan ajratiladigan qarz mablag'laridan samarali foydalanilishiga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan choralarning amalga oshirilishi hamda davlat xizmatchilari ish haqining inflyasiyaning maqsadli darajasidan oshmagan miqdorda indeksatsiya qilib borilishi kelgusi 3 yil davomida byudjet xarajatlari tomonidan qo'shimcha inflyasion bosimni keltirib chiqarmaydi.

Ichki sharoitlarning uchinchi sharti sifatida tartibga solinadigan narxlarni erkinlashtirish jarayonlarining samarali amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Yoqilg'i energetika mahsulotlari narxlari erkinlashtirilishi doirasida tartibga solinadigan narxlar va tariflarning oshishi inflyasion bosim yuzaga kelishining ob'ektiv omilidir. Ushbu narxlarni ishlab chiqarish tannarxi darajasiga moslashtirish sharoitida keyingi yillarda ham energiya resurslari narxlarining inflyasiyaga bosimi saqlanib qoladi.

Ayni paytda narxlarni erkinlashtirish jarayonining kechiktirilishi inflyasion kutilmalarning doimiy yuqori darajada saqlanib qolishiga olib keladi va mazkur

islohot samaradorligini pasaytiradi. O‘z navbatida, inflyasiya darajasi yuqoriligi va milliy valyuta qadrsizlanishining tezlashishi real narxlarning ishlab chiqarish tannarxi darajasiga ko‘tarilishiga to‘sqinlik qiladi, bu esa, o‘z navbatida, ushbu sohalarning potensial sarmoyadorlar uchun jozibadorligini pasaytiradi.

Tabiiy monopoliyalarning narxlari dinamikasi iste‘mol savatidagi aksariyat mahsulot va xizmatlar narxlariga ta‘sir ko‘rsatadi. Bunday vaziyatda, tartibga solinadigan narxlarni tannarx darajasiga tezroq etkazib, kelgusida inflyasiya targetidan oshmagan darajada indeksatsiyalash maqbul echim hisoblanadi. Bunda, o‘rta muddatli istiqbolda iste‘mol narxlari o‘shish sur‘atlari inflyasiyaning maqsadli ko‘rsatkichidan yuqorilab ketmasligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, tartibga solinadigan narxlarni indeksatsiya qilish tartibini me‘yoriy hujjatlar bilan belgilash, inflyasiyaning maqsadli ko‘rsatkichlarini hisobga olgan holda o‘rta muddatli istiqbolda tartibga solinadigan narxlarni oshirish sana va muddatlarining e‘lon qilinishi hamda narxlarni erkinlashtirish islohotining mohiyati, maqsadi va bu borada erishilgan natijalarni tushuntirish bo‘yicha keng ko‘lamli kommunikatsion siyosatning olib borilishi iqtisodiyotda inflyasion kutilmalarni pasaytirishga yordam beradi.

Inflyasion targetlashga o‘tish davrida qat‘iy pul-kredit siyosatining yuritilishi va fiskal balans taqchilligining minimallasuvi jarayonida barqaror iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini ta‘minlashda xususiy va xorijiy investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Prognoz qilinayotgan yillarda ham dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra to‘lov balansi tarkibida joriy hisoblar balansining manfiy saldosi saqlanib qoladi. Xususan, 2020-2022 yillarda joriy hisoblar balansining manfiy saldosi YAIMga nisbatan 6-7 foizni tashkil qilishi kutilmoqda. Ushbu taqchillikning asosan tashqi moliyaviy resurslar (investitsiyalar va qarzlar) hisobidan qoplanishi valyuta kursiga keskin devalvatsion bosim yuzaga keltirmasligi taxmin qilinmoqda.

Tashqi iqtisodiy sharoitlar. O‘rta muddatli istiqbolda jahon iqtisodiyoti o‘shishining sekinlashuvi va xomashyo narxlarining sezilarsiz tebranishlari kutilmoqda. O‘zbekistonning asosiy savdo hamkor davlatlarida iqtisodiy sharoitlar

jahon iqtisodiyoti o‘shish sur‘ati sekinlashishi ta‘sirida shakllanadi. Xususan, Rossiya, Qozog‘iston va Turkiya markaziy banklari o‘z siyosatlarini (4-jadval) narx barqarorligini ta‘minlashga yo‘naltirishi kutilayotgan bo‘lsa, Xitoy milliy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida milliy valyutasini qadrsizlantirishdan foydalanishi mumkin.

Umuman olganda, O‘zbekistonning asosiy savdo hamkorlari atrofidagi hozirgi kundagi geosiyosiy vaziyat tashqi iqtisodiy sharoitlar noaniqligining asosiy manbai bo‘lib qoladi. 2020-2022 yillarda asosiy savdo hamkor davlatlar iqtisodiyotlarida o‘shishning bir oz sekinlashishi taxmin qilinmoqda. Jumladan, prognoz davrida Rossiya iqtisodiyotiga nisbatan xalqaro moliyaviy sanksiyalarning saqlab turilishi iqtisodiy o‘shishning sekinlashtiruvchi omili bo‘lib qolishi kutilmoqda. Ushbu holatda Rossiya iqtisodiyotini rivojlantirishda ichki manbalarga ko‘proq e‘tibor qaratishga harakat qiladi va bu jarayon Rossiyada ichki investitsiyaviy jarayonlarni faollashtiradi, bu, o‘z o‘rnida, mehnat resurslariga qo‘shimcha talabni shakllantiradi.

#### 4-jadval

### Asosiy savdo hamkor davlatlarning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi (YAIM o‘shish sur‘ati va inflyasiya foizda, qolgan barcha ko‘rsatkichlarning YAIMga nisbatan foizdagi ulushi)<sup>12</sup>

Kursatkichlar nomi	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil
<b>Rossiya</b>				
YAIM	1,1	1,9	2,0	2,0
Inflyasiya	4,7	3,5	4,0	4,0
Eksport	30,1	30,5	30,7	30,9
Import	22,1	22,9	23,7	24,3
Tashqi qarz	27,2	26,8	27,0	27,4
<b>Xitoy</b>				
YAIM	6,1	5,8	6,0	5,7
Inflyasiya	2,3	2,4	2,8	2,9
Eksport	17,6	16,9	16,2	15,5
Import	14,5	14,0	13,5	13,0
Tashqi qarz	14,9	14,7	14,4	14,1
<b>Qozog‘iston</b>				
YAIM	3,8	3,9	3,3	3,3

<sup>12</sup> Xalqaro valyuta jamg‘armasi, www.imf.org.

Inflyasiya	5,3	5,2	3,6	4,2
Eksport	36,7	34,5	32,5	30,6
Import	23,9	23,2	22,5	21,5
Tashqi qarz	95,3	95,1	93,3	91,1
<b>Turkiya</b>				
YAIM	0,2	3,0	3,6	3,6
Inflyasiya	15,7	12,6	8,0	8,0
Eksport	5,1	4,6	4,1	4,4
Import	3,8	3,8	3,5	3,6
Tashqi qarz	54,6	54,3	53,6	52,9

Bundan tashqari, Rossiyaning tashqi moliyaviy faoliyati uchun bozor iqtisodiyotiga o‘tuvchi mamlakatlar, xususan, Markaziy Osiyo davlatlarining yoqilg‘i - energetika sohasiga investitsiya kiritish jozibador yo‘nalish bo‘lib qoladi. Shu nuqtai-nazardan, Rossiyadan O‘zbekistonga pul o‘tkazmalari va investitsiyalar oqimi joriy dinamikasining saqlanib qolishi taxmin qilinmoqda. Shu bilan birga, Xitoy iqtisodiyoti rivojlanish dinamikasida AQSH bilan savdo aloqalarining yomonlashishi tufayli investitsiyalarni ichki ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirish va mintaqadagi qo‘shni davlatlar bilan iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishning faollashuvi kuzatilishi mumkin.

O‘zbekiston mahsulotlariga tashqi talab darajasi saqlanib qolishi va eksport hajmining (xususan, xizmatlar sohasida) o‘sib borishi kutilmoqda hamda prognoz davri davomida tashqi savdo munosabatlari tarkibi sezilarli darajada o‘zgarishligi taxmin qilinmoqda. Shu bilan birga, jahon iqtisodiyotida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sur‘atining kutilayotgan pasayishi hamda xalqaro rezerv valyutalarining ehtimoliy qadrsizlanishi qimmatbaho metallar va xomashyo narxlari tebranishlari oshishiga turtki beradi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Iqtisodiy manfaat, tahdid, ichki tahdid, tashqi tahdid, xufyona iqtisodiyot, korrupsiya, soliqdan qochish, xufyona iqtisodiyotning namoyon bo‘lish shakllari, korrupsiyaga qarshi kurash.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Davlatning pul-kredit siyosati mohiyatini tavsiflang?
2. Davlatning pul-kredit siyosati vazifalari nimalardan iborat?
3. Davlatning pul-kredit siyosatini tartibga solishdagi choralari nimalardan iborat?
4. Markaziy bank pul-kredit siyosatining asosiy instrumentlarini tavsiflang?
5. Majburiy zahiralar siyosati o'z ichiga nimalarni oladi?
6. Majburiy zahiralar siyosatining maqsadlarni tavsiflang?
7. Markaziy bank ochiq bozorda operatsiyalar amalga oshirish yo'li bilan bank tizimining rezervlari nechta usulda amalga oshiriladi?
8. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning pul-kredit siyosati mexanizmini tavsiflang?
9. Markaziy bank tomonidan 2020-2022 yillarda iqtisodiyot rivojlanishining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
10. Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha ko'rilayotgan choralarni tavsiflang?

## **IX-BOB. DAVLATNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA FISKAL SIYOSAT**

### **9.1. Davlat fiskal siyosatining maqsad va vazifalari**

Respublikamizda bozor munosabatlariga o'tishning ilk bosqichida ishlab chiqarishning qisqarishi, aholi turmush darajasining pasayishi, pulning qadrsizlanishi va boshqa bir qator ziddiyatli xususiyatlarga ega bo'lgan ijtimoiy – iqtisodiy inqiroz davriga to'g'ri keldi. Ma'lumki, bunday sharoitda asosiy yuk davlat byudjeti zimmasiga tushadi, natijada moliyaviy tartibga solish uchun ob'ektiv tarzda iqtisodiyotga oqilona ravishda davlatning aralashuvi zarur bo'lib qoladi. Islohotlar strategiyasi davlat iqtisodiy siyosatining keng qamrovli dastaklarini o'z ichiga oladi. Mana shunday eng muhim dastaklardan biri davlatning izchil olib borilayotgan moliyaviy siyosatidir. Moliyaviy siyosat qo'yilgan maqsadlarni hayotga tatbiq etish uchun, bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarning ijrosini ta'minlashda asosiy o'rinni egallaydi. Moliyaviy siyosat borasida so'z ketganda, uning nihoyatda ko'p qirrali va murakkab kategoriya ekanligini alohida ta'kidlash lozim.

Bugungi kunda fiskal siyosatga berilgan bir qancha ta'riflar mavjud bo'lib, ular jumlasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin<sup>13</sup>:

- Fiskal siyosat davlat byudjetini soliqqa tortish tizimi orqali shakllantirish va qo'yilgan maqsadlar(ishlab chiqarish hajmini oshirish, bandlik darajasini ko'paytirish, inflyasiya darajasini pasaytirish) uchun davlat byudjeti mablag'larini manipulyasiya qilish;

- Fiskal siyosat – hukumatning daromad va xarajatlarini tartibga solish bo'yicha davlat tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy tartibga solish choralarining majmuidir;

- Fiskal siyosat – davlat xarajatlari, soliqqa tortish va davlat byudjeti holatini o'zgartirish orqali aholining to'liq bandligini, to'lov balansi va YAIMni noinflyasion

---

<sup>13</sup>Белова И.А. «Типы фискального политики государства» Вестник Челябинского государственного университета. 2010. № 6 (187). Экономика. Вып. 26. – с. 69–75.



ishlab chiqarishda iqtisodiy o'sish muvozanatini ta'minlashga yo'naltirilgan hukumatning choratadbirlaridir.

Yuqorida keltirilgan ta'riflarni umumlashtirgan holda fiskal siyosat davlat xarajatlari va soliqqa tortish bo'yicha chora – tadbirlar ko'rish orqali mamlakatdagi ijtimoiy – iqtisodiy muammolarni echishga qaratilgan siyosat ekanligi kelib chiqadi<sup>14</sup>.

Fiskal siyosat mohiyatini aniqlashda fiskal siyosatning maqsadlari muhim ahamiyatga ega va ular quyidagicha:

- Iqtisodiy sikl tebranishlarini yumshatish;
- Iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash;
- Inflyasiyaning o'rtacha sur'atlarida aholi bandligining yuqori darajasiga erishish.

Iqtisodiyotni moliyaviy jihatdan tartibga solishda fiskal siyosatning bir qancha kuchli dastaklaridan foydalaniladi. Shunga muvofiq fiskal siyosatning ikki turdagi: avtomatik va diskretsiyon fiskal siyosat yo'llaridan boriladi. Avtomatik fiskal siyosatda Davlat qonun yo'li bilan shunday tartibni o'rnatadiki, unga binoan moliya normativlari (me'yorlari) joriy etiladi. Bular sharoit o'zgarishiga qarab avtomatik ravishda amal qilaveradi. Bular jumlasiga soliq stavkalarini, ishsizlik nafaqasi miqdori, daromadlarning inflyasiyaga qarab indeksatsiya qilinishi, ijtimoiy yordam ko'rsatish normativlarini kiritish mumkin. Masalan, daromad solig'i daromad miqdoriga nisbatan 15 % qilib belgilansa, daromad ko'payishi bilan uning miqdori ham avtomatik ravishda oshadi. Daromadlarni 20 % indeksatsiyalash tartibi o'rnatilgan bo'lsa, narx oshgan taqdirda shu 20% darajada daromad ham ko'paytiriladi.

Sharoitga qarab yangi normativlarni kiritish yo'lidan borish, bu diskretsiyon fiskal siyosat, deb yuritiladi. Bu siyosat doirasida yangi soliq stavkalari joriy etiladi, yangi soliqlar kiritiladi, byudjet mablag'larini sarflash normativlari o'zgartiriladi. Diskretsiyon siyosat o'zgargan sharoitga moslashish siyosatidir. Iqtisodiyot bir

---

<sup>14</sup> Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: Sharq. 2003. 309-b.

maromda o'sib borayotganda birinchi yo'l, u tanglikka yo'liqib, undan chiqish kerak bo'lganda ikkinchi, ya'ni diskretion yo'l ustuvor bo'ladi<sup>15</sup>.

Iqtisodiyot turg'unlik yoki pasayish davrida bo'lgan vaziyatlarda davlat tomonidan rag'batlantuvchi fiskal siyosat-fiskal ekspansiya olib boriladi. Iqtisodiyotda to'liq bandlik va ortiqcha talab natijasida inflyasiya kelib chiqishi mumkin bo'lgan vaziyatlarda cheklovchi fiskal siyosat - fiskal restriksiya olib boriladi. Cheklovchi fiskal siyosat davlat xarajatlarini kamaytirish yoki soliqlarni oshirish yoki bo'lmasa ikkala tadbirni bir vaqtda olib borish orqali iqtisodiyotning davriy o'sishini chegaralashdan iborat. Ushbu farq fiskal siyosat vositalarini tanlashda muhim rol o'ynaydi. Agar hukumat davlat sektorini kengaytirmoqchi bo'lsa, davriy pasayishni tugatish uchun o'z xarajatlarini oshirishi, inflyasiyani cheklash uchun esa soliqlarni oshirishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu sababli fiskal siyosatni amalga oshirishda mohirlik talab qilinadi. Fiskal siyosatning eng asosiy vazifasi iqtisodiy siyosatni amalga oshirish uchun markazlashgan davlat pul fondlarini tashkil etish va ishlatish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat.

## **9.2. Fiskal siyosatni amalga oshirishning samarali dastaklari**

Iqtisodiy jihatdan to'g'ri fiskal siyosatining mohiyati soliq solish tizimi orqali davlat byudjetining strategik jihatdan to'g'ri shakllanishi va belgilangan maqsadlarga erishish uchun davlat byudjeti mablag'larini to'g'ri sarf qilinganligida o'z aksini topadi. Fiskal siyosatning yana bir xususiyatlaridan biri bu YAIM dinamikasini kerakli yo'nalishga moslashtirishga imkon berishidir. Fiskal siyosatda davlat xarajatlari va soliqlar iqtisodiyotni barqarorlashtirishga yo'naltirilgan, hamda davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning muhim vositalaridan sanaladi. Fiskal siyosat iqtisodiyotni tartibga solishning bevosita va bilvosita usullarini o'z ichiga oladi. Bevosita usullari orqali byudjetni tartibga solish amalga oshirilsa, bilvosita usullarida esa soliq solish tizimi yordamida tartibga solinadi.

Bozor sharoitida soliq funksiyalarining ahamiyati oshadi. Ular iqtisodiy regulyatorlar sifatida maydonga chiqadi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi

---

<sup>15</sup> O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik – T.: TDIU. 2014. 409-bet.

sharoitida soliqlarning muhim funksiyasi ularning fiskal funksiyasi hisoblanadi, uning yordamida pul resurslarining markazlashtirilgan fondi barpo etiladi, unga davlat apparati, armiyani tutib turish, zarur ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajarish uchun mamlakat hukumati egalik qiladi. Eng muhimi umumdavlat vazifalarini hal etish uchun kor-xona va fuqarolar olgan daromadlarining bir qismini soliq to'lovlari sifatida olish yo'li bilan davlat byudjetining daromad qismini shakllantirish soliqlar fiskal funksiyasining eng muhim jihati hisoblanadi.

Soliqlarning qayta taqsimlash funksiyasi yordamida soliqlar tushishidan hosil bo'ladigan pul resurslarining davlat byudjeti orqali olingan daromadlar bir qismini davlat qayta taqsimlaydi. Ularning bir qismini ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastrukturalarni rivojlantirishga, yana bir qismini ustuvor tarmoqlarga, xususan, investitsiyalarga yo'naltiradi. Ko'pgina mamlakatlarda byudjetdan kattagina mablag'lar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirishga ajratiladi.

Soliq solishning qayta taqsimlash funksiyasi noto'g'ri qo'llanilgan hollarda iqtisodiy vaziyatga va byudjetga daromadlar kelib tushishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Chunonchi, agar davlat keyinchalik byudjet orqali iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatish maqsadida o'z qo'lida moliya resurslarining iloji boricha katta hajmini jamlashga intilsa, u soliqlarni oshiradi va bu bilan ularning fiskal funktsiya-sidan faolroq foydalanadi. Biroq daromadning qanchalik ko'p qismini davlat soliq sifatida olib qolsa, daromad yoki foyda olish maqsadida faol ishlash uchun rag'batlar shunchalik kam bo'ladi. Haddan tashqari yuqori soliqlar tadbirkorlar faolligini susaytiradi. Bu esa o'z-o'zidan ular daromadlari pasayishiga va byudjetga soliq to'lovlari sifatida kelib tushadigan mablag'larning qisqari-shiga olib keladi. Bunda davlat soliq solishning, bir tomondan erkin iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishga to'sqinlik qilmay-digan, boshqa tomondan, esa byudjetga mablag'larning iloji boricha ko'p kelib tushishini ta'minlaydigan stavkalarini belgilashdan manfaatdor bo'ladi.

Aytish mumkinki, byudjet siyosati eng avvalo, har bir mamlakatning Konstitutsiyasi va byudjet jarayonida hamda qonun ijodkorligida alohida hokimiyat

organlarining funksiyalarini belgilovchi boshqa qonunlar majmuiga muvofiq aniqlanadi. O'zining hajmi va muhimligi jihatidan eng katta ish bo'lishiga qaramasdan byudjet siyosatini faqat byudjet jarayoniga tegishli deb hisoblash maqsadga muvofiq emas. Qonun byudjet jarayonida hokimiyatning qonunchilik va ijroiya organlari funksiyalarini, mamlakat sub'ektlari funksiyalarini, byudjet federalizmi prinsiplarini, byudjet jarayoni sub'ektlarining huquq va majburiyatlarini aniq belgilashi kerak. Biroq byudjet siyosati shu bilan cheklanmaydi. Byudjet siyosati byudjetda to'planadigan YAIM hissasini aniqlashda, mamlakat yuqori va quyi organlarining o'zaro munosabatlarida, byudjet xarajatlar qismining tarkibiy tuzilishida, turli darajadagi byudjetlar o'rtasida xarajatlarni taqsimlashda, davlat qarzini boshqarishda, byudjet defitsitini qoplash yo'llarini aniqlashda va boshqalarda ifodalanadi. Shuningdek, davlatning byudjet siyosati fiskal siyosatning bir qismi sifatida, asosan daromadlar bilan xarajatlarni balanslashtirishga qaratilgan bo'lib, agar daromadlar kamayishi yuz bersa, muvofiq ravishda xarajatlar ham kamaytiriladi.

Byudjet siyosati iqtisodiy siyosatning yadrosi hisoblanadi hamda o'zida jamiyat institutlari va aholi o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni yaqqol ifodalaydi. Byudjet siyosati, aytish mumkinki, makroiqtisodiy barqarorlikning bosh omilidir. Davlat byudjeti siyosatini yuritishda ikki dastakka ega, bular davlat daromadlari va xarajatlaridir. Bularni bevosita va bilvosita usullar deb atash mumkin.

Byudjet siyosatining bilvosita usullari bo'lib, soliqlar va soliqsiz to'lovlar orqali iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatish kabi tadbirlar hisoblanadi. Soliq stavkalarining o'zgarishi, soliqlar bo'yicha imtiyozlar yaratish yoxud ularni bekor qilish, turli xil to'lovlarni joriy qilish kabi bilvosita usullar orqali mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga ta'sir ko'rsatish mumkin. Bunda soliq to'lovlarining moddiy qiziqishlari byudjet siyosatidagi hal qiluvchi rolni o'ynaydi.

Byudjet siyosatining bevosita usullariga esa byudjetning xarajatlar qismi orqali ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga ta'sir ko'rsatish kiradi. Tarmoqlarni moliyalashtirish xarajatlari miqdorini o'zgartirish, nochor korxonalariga dotatsiyalar ajratish, subvensiyalar berish, byudjet ssudalarini ajratish, ular bo'yicha imtiyozlar joriy

qilish, chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun kafolatlar berish kabi tadbirlar byudjet siyosatining to‘g‘ridan-to‘g‘ri usullari hisoblanadi.

Barqaror byudjet siyosatini yuritish o‘z navbatida byudjet-soliq siyosati yaxlitligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Byudjet-soliq siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish iqtisodiyot oldida turgan muhim vazifalarni hal qilishda asosiy rol o‘ynaydi.

### **9.3. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashda fiskal siyosatning ustuvor yunalishlari**

Fiskal siyosat borasida olib borilayotgan islohotlarning bosh maqsadi byudjet tizimining shaffofligiga erishish, shuningdek, me‘yoriy bazalarning ishonchiligi va oldindan bashorat qila olishlik darajasini oshirish, soliq bazasini kengaytirishda soliq yukini pasaytirish, davlat xarajatlar tarkibini takomillashtirish va samarasiz davlat investitsiyalarini qisqartirishdan iboratdir.

Davlat byudjet-soliq siyosatining strategik vazifasi davlat mablag‘larini tuzilmaviy qayta qurishni, iqtisodiy mustaqillikni va oxir-oqibatda aholi farovonligining oshishini ta‘minlash uchun rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti va uning infratuzilmasiga maqsadli ta‘sir ko‘rsatishga yo‘naltirishdan iborat. Bu erda byudjet siyosat deganda davlatning byudjet daromadlarini optimal shakllantirish va davlat xarajatlarini ratsionalizatsiya qilish uchun soliq olishni takomillashtirish sohasidagi siyosati tushuniladi.

Fiskal siyosat tarkibiy jihatdan quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- mamlakat miqyosida amal qiluvchi soliqlar va soliqsiz to‘lovlarni qonuniy joriy etish;

- amal qilayotgan soliqlarni samarali ishlashini ta‘minlovchi mexanizm shakllantirish va takomillashtirish, soliqqa oid qonunlar va boshqa me‘yoriy hujjatlarni takomillashtirib borish;

- fiskal siyosatni amalga oshiruvchi tegishli vakolatli organlarni tashkil etish va ularni ushbu sohadagi vazifalarini belgilash;

- soliqqa tortish tizimini shakllantirishga qaratilgan chuqur ilmiy tadqiqotni amalga oshirish va ularni joriy etishni tashkil etish.

Ayni paytda byudjet-soliq siyosati ishlab chiqarishni o‘stirishga va uning samaradorligini oshirishga, soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar daromadlarini ko‘paytirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Byudjet-soliq siyosatining xususiyati shundan iboratki, u nafaqat davlatning daromadlar bazasini ta‘minlash va kelib tushgan pul mablag‘larini xarajat qilish, balki jamiyatda makroiqtisodiy barqarorlikni hamda inflyasiyaning past darajasini, aholining optimal bandligini ta‘minlashi zarur.

Byudjet-soliq siyosati keng ma‘noda makroiqtisodiy barqarorlik va mustahkam iqtisodiy o‘shish, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarini ta‘minlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni va bosqichma-bosqich valyuta bozorini erkinlashtirish, aholining barqaror moddiy farovonligini ta‘minlash va aholining ijtimoiy himoyasini oshirish kabi umumdavlat makroiqtisodiy vazifalarni ta‘minlashga yo‘naltirilgan. Byudjet-soliq siyosati amaliyotda amalga oshirish nuqtai nazaridan birlamchi vazifalar o‘rtasida to‘g‘ri muvofiqlikni aniqlash muhim hisoblanadi. Boshqacha aytganda, byudjet-soliq siyosati doirasida umumiy strategiyani ishlab chiqish bilan bir qatorda navbatdagi amalga oshiriladigan aniq chora-tadbirlarga faqat to‘g‘ri urg‘u berish orqali muvaffaqiyatga erishish mumkin.

Bozor munosabatlariga o‘tishning muayyan bosqichi vazifalariga mos ravishda byudjet-soliq siyosati instrumentlari ham o‘zgarib boradi. Milliy iqtisodiyotimizni isloh qilishning bugungi kundagi eng muhim vazifalardan biri davlat byudjeti daromad va xarajatlari muvofiqligini ta‘minlashga qaratilgan. Byudjet-soliq siyosatining strategik vazifasi davlat xarajatlarini tuzilmaviy qayta qurishni, daromadlarning yangi manbalarini izlab topishni, iqtisodiy mustaqillikni va oxir-oqibatda aholi farovonligining oshishini ta‘minlash uchun rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti mexanizmlariga maqsadli ta‘sir ko‘rsatishni yo‘naltirishdan iborat. Bunda byudjet-soliq siyosati davlatning byudjet daromadlarini byudjet xarajatlari tarkibiy tuzilishining o‘zgarishiga qarab shakllantirish, daromadlarni oqilona sarflash mexanizmini ishlab chiqish sohasidagi siyosat tushuniladi.

Davlat byudjeti siyosati davlatning daromadlari va xarajatlarini ratsional shakllantirish, byudjet bo'g'inlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, mahalliy byudjetlar manfaatlarini muvofiqlashtirib turishni ta'minlashi lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida byudjet-soliq siyosatining asosiy vazifalari iqtisodiyotda ishlab chiqarish jarayonining pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik, ya'ni ishlab chiqarishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar ishlab chiqishdan iborat. Buning uchun soliq siyosati sohasida soliq stavkalarini pasaytirish, yangi investitsiyalar uchun soliq imtiyozlarini berish, tezlashtirilgan amortizatsiyani qo'llash kabi tadbirlar amalga oshiriladi.

O'zbekistondagi byudjet-soliq siyosatining xarakterli xususiyatlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

- hukumat ijtimoiy-iqtisodiy va byudjet-soliq siyosatining o'zaro bog'langanligi va bir-birini to'ldirishi;

- byudjet-soliq siyosatining makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy yuksalishni rag'batlantirishga erishish hamda uni mustahkamlashga yo'naltirish;

- soliq yig'imini oqilona usulda tashkil etish va soliqlar-ning rag'batlantiruvchi rolini ta'minlash;

- byudjet xarajatlarini ijtimoiy maqsadlarga yo'naltirish.

Mamlakat hukumati tomonidan o'tkazilayotgan byudjet-soliq siyosati davlat xazinasini bilan soliqlarning rag'batlantiruvchi roli va byudjet xarajatlarining eng maqbul tuzilmasi o'rtasidagi o'zaro nisbatning samaradorligiga erishish imkonini yaratdi. O'z navbatida, daromadlar bo'yicha byudjetning barqaror va to'la qonli ijrosi byudjetda belgilangan barcha tadbirlarni o'z vaqtida va to'la moliyalashtirishni ta'minlaydi. Makroiqtisodiy jihatdan esa davlatning samarali byudjet siyosati investitsiya iqlimini yaxshilash, moliyaviy barqarorlik, pul va moliya bozorlari rivoji, korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish va aholining real daromadlari o'sishiga imkon beradi.

Soliq tadbirlari byudjet tadbirlarini to'ldirib turadi va ular birgalikda talab majmuasini rivojlantirishga, natijada esa ishlab chiqarishni ham rivojlantirishga olib

keladi. Byudjet-soliq siyosati pul-kredit siyosati kabi davlatning yaxlit tadbirlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiy holatni ko‘tarish davrida davlat byudjet-soliq va pul-kredit siyosatida qarama-qarshi tadbirlarni mujassamlashtirib turish siyosatini o‘tkazadi. Ushbu davrdagi byudjet-soliq siyosati soliqlar stavkasining ko‘tarilishi, davlat xarajatlari-ning qisqarishi, amortizatsiya siyosatini o‘tkazish doirasida chegaralanishlar bilan xarakterlanadi.

2. Moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash. Buning uchun, eng avvalo, iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli o‘tkazishning asosi sifatida pul muomalasini barqarorlashtirish bo‘yicha zarur choralar ko‘rish darkor. Faqat barqaror pul tizimi yaratilgan sharoitda xo‘jalik mexanizmining barcha qatnashchilari va tashkiliy qismlar o‘rtasida aloqalar o‘rnatish mumkin.

3. Investitsion faollikni rivojlantirish va uning milliy daromaddagi ulushini ko‘paytirish.

4. Byudjetning davlat dotatsiyalari bo‘yicha alohida moddiy ish-lab chiqarish sohalariga ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish. Xarajatlar orqali byudjet, iqtisodiyotni boshqarish va rivojlantirishning muhim dastagi bo‘lib xizmat qiladi.

5. Byudjetning daromad bazasini, soliqqa tortishni takomillashtirish va soliqlarni to‘liq to‘lanishi bo‘yicha nazoratni kuchaytirish hisobiga barqarorlashtirish. Soliqlar orqali korxonalar faoliyatini rag‘batlantirish raqobatbardoshlikni oshiradi, kapital yig‘ilishi uchun qulay sharoit yaratadi. Bunda turli soliqlardan imtiyozlar berilib, iqtisodiy rivojlanish uchun zamin yaratiladi.

6. Davlat xarajatlarini maqsadli va samarali tashkil qilish bo‘yicha moliyaviy nazorat tizimini shakllantirish.

Moliyaviy munosabatlarning keyingi erkinlashtirish va chuqurlashtirish yo‘lida soliq tizimida zarur izchil o‘zgarishlarni amalga oshirishda soliqlarning rag‘batlantirish funksiyasini kuchaytirish va soliq tizimini takomillashtirishda quyidagi yo‘nalish va chora-tadbirlar uning asosini tashkil etishda:

- soliqlarning sodda, tushunarli va ko‘p yilliligini ta‘minlashda, soliq ma‘murchiligi tizimini takomillashtirish va soliq solish mexanizmini tartibga solish;



- soliq qonunchiligining barqarorligini ta'minlash;
- bir xil faoliyat bilan shug'ullanuvchi, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha soliq to'lovchilarni adolatlilik va tenglik tamoyili asosida soliqqa tortish;
- iqtisodiyotdagi soliq yukini yanada kamaytirish; ikki marta soliqqa tortishni oldini olish.

Hozirgi kundagi eng dolzarb masalalardan biri bu byudjet daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashdan iborat. Bunda asosiy o'rinni byudjet-soliq siyosati yaxlitligiga erishish masalasi egallaydi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillarida izdan chiqqan iqtisodiyotni qaytadan qurish, yangi jamiyat boshqaruv tizimini shakllantirish, aholini «ijtimoiy larzalarsiz» bozor munosabatlariga moslashtirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish juda katta mablag'larni talab etdi. Lekin bu korxonalar zimmasidagi soliq yukining ortib ketishiga, ular iqtisodiy ahvolidan yomonlashuvi-ga olib keldi. Shuning uchun keyingi yillarda asosiy e'tibor byudjet-soliq siyosatining faqat fiskal tomoninigina emas, balki uzoq muddatli istiqbolga erishish maqsadida byudjet xarajatlari tarkibini qaytadan ko'rib chiqish va soliqlarning rag'batlan-tiruvchi funksiyasini oshirishga ham qaratilmoqda.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Iqtisodiy manfaat, tahdid, ichki tahdid, tashqi tahdid, xufyona iqtisodiyot, korrupsiya, soliqdan qochish, xufyona iqtisodiyotning namoyon bo'lish shakllari, korrupsiyaga qarshi kurash.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Davlat fiskal siyosatining maqsadi nimalardan iborat?
2. Davlat fiskal siyosatining vazifalari nimalardan iborat?
3. Fiskal siyosat tushunchasini izohlang?
4. Fiskal siyosat mohiyatini aniqlashda fiskal siyosatning maqsadlari nimalardan iborat?
5. Fiskal siyosatni amalga oshirishning samarali dastaklari nimalardan iborat?
6. Soliqlarning qayta taqsimlash funksiyasini tavsiflang?

7. Byudjet siyosatining bevosita usullariga nimalar kiradi?
8. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda fiskal siyosatning ustuvor yunalishlari nimalardan iborat?
9. Fiskal siyosat tarkibiy yo'nalishlarini tavsiflang?
10. O'zbekistondagi byudjet-soliq siyosatining xarakterli xususiyatlari nimalardan iborat?

## **X-BOB. DAVLATNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT SIYOSATI**

### **10.1. Tashqi iqtisodiy faoliyat va milliy maifaatlar**

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xalqaro mehnat taqsimotida faol qatnashish, fan-texnika sohasida o'zaro manfaatli hamkorlik qilish yo'li bilangina ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyotga erishish mumkin. Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda jahon iqtisodiy tizimidagi raqobatning kuchayishi, o'zaro hisob-kitob va tarsport aloqalarining murakkablashuvi, kerakli tajribaning kamligi, yuqori malakali mutaxassis kadrlarning etishmasligiga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi asosiy vazifa chet el mamlakatlari bilan savdo, ilm-fan, texnika, ta'lim, investitsiya kabi sohalarda o'zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlarni ta'minlash orqali mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdan iboratdir.

- Jahon xo'jalik tizimiga integratsiyalashuv sharoitida mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- eksportning optimal tarkibini shakllantirish. Uning tarkibida tayyor yuqori texnologik, ilmtalab mahsulotlar va yuqori sifatli xizmatlarning ulushini keskin oshirish chora-tadbirlarini ko'rish lozimbo'ladi;

- mamlakatning mavjud raqobat ustunligi imkoniyatlaridan foydalanib, milliy tovar ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini eksport qilishning yangi, istiqbolli bozorlarini o'zlashtirish; ularda muvaffaqiyat qozonish uchun xalqaro marketing strategiyalarini amalga oshirish; ishlab chiqarish kooperatsiyasi, injiniring, lizingni rivojlantirish;

- chet el mamlakatlari, ularning savdo-iqtisodiy tashkilotlari, uyushma va ittifoqlari bilan o'zaro munosabatlarda qulay imtiyozli savdo rejimlarigaerishish;

- -mamlakat korxonalariga eksport va import qiluvchi sifatida xalqaro zamonaviy mashina, texnika va texnologiyalar, asbob-uskunalar, axborot va kapital bozorlariga chiqishlari, transport kommunikatsiyalaridan foydalanishlari uchun sharoitlar yaratishga ko'maklashish;

- kreditor mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar hamda qarzdor davlatlar bilan bo‘ladigan o‘zaro valyuta moliyaviy muammolarni tartibgasolish.

- Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirishda belgilangan huquqiy me‘yor va normalar asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu normalar, o‘z navbatida, tovar va xizmatlar, intellektual mehnat natijalari, shuningdek, jismoniy hamda huquqiy shaxslarning mamlakatlararo harakat yo‘nalishlari, shakllari usullari, shartlarini belgilab beradi.

Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash uchun davlat tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soladi. Davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish mexanizmi iqtisodiy va huquqiy-ma‘muriy usullarni o‘z ichiga oladi.

Iqtisodiy tartibga solish usullari bojxona to‘lovlari, yig‘imlari, qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksizlardan iborat.

Huquqiy-ma‘muriy usullar litsenziyalash, kvotalash, tovar sifatini sertifikatsiyalash, ayrim tovarlar eksporti va importiga davlat monopoliyasini o‘rnatish, shuningdek, bojxona chegaralari orqali tovarlar, kapitallar va xizmatlarning o‘tib turishi bilan bog‘liq tashkiliy-huquqiy va tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Mamlakatning eksport hamda import qilish bilan bog‘liq milliy manfaatlari va xavfsizligini himoya qilish uchun samarali va moslashuvchan eksport nazorati tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Eksport nazorati asosida eksport shartnomalarining xalqaro majburiyatlarga, mamlakat iqtisodiy xavfsizligi talablariga mosligi ta‘minlanadi.

Davlat organlarining bojxona nazorati vazifalarini bajarish uchun xalqaro tajribada ko‘p qo‘llanuvchi quyidagi usullardan foydalaniladi:

- bojxona yig‘imlari miqdorini tartibga solish orqali mamlakatga kirib kelayotgan tovarlar tarkibiga ta‘sir ko‘rsatish. Bunda tovarlarning mamlakat hayot faoliyati uchun qay darajada muhimligi e‘tiborga olinadi. Aholi va mamlakat ehtiyojlari uchun muhim bo‘lgan import mahsulotlariga boj to‘lovlari kamaytiriladi yoki bekor qilinadi. Boshqa tovarlarga esa boj to‘lovlari yuqori darajada belgilanadi;

- mamlakatning hisob va to‘lov balansining holatini hisobga olgan holda tarif qoidalarini tartibga solish;

- milliy iqtisodiyotni jahon bozoridagi mahsulotlar sifat ko'rsatkichlari, ishlab chiqarish xarajatlaridagi farqlar hamda ichki va tashqi bozorlardagi narx qaychisi tufayli yuzaga keladigan salbiy omillar ta'siridan himoya qilish. Ichki va jahon bozorlari narxlarini muvofiqlashtirish uchun bojxona dastaklari va vositalaridan foydalaniladi<sup>16</sup>.

## **10.2. O'zbekistonning jahon iqtisodiy tizimidagi tutgan o'rni va uning manfaatlariga tahdidlar**

Milliy iqtisodiyot, xalqaro mehnat taqsimotiga ko'ra, ixtisoslashuvi, o'zining foydali qazilma boyliklari, geografik joylashuvi, fan-texnika taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, xalqaro savdo, xalqaro iqtisodiy faoliyatining faolligiga muvofiq jahon iqtisodiy tizimida o'ziga xos o'rinni egallaydi. Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish uchun milliy iqtisodiyot xalqaro hamkorlik uchun ochiq bo'lishi, ya'ni ochiq iqtisodiyot tavsifiga ega bo'lishi lozim. Ochiq iqtisodiyotning xususiyatlari va potensial imkoniyatlarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

- o'tish davrini o'z boshidan kechirayotgan mamlakatda bozor mexanizmi va unsurlari raqobat muhiti shakllanishiningjadallashuvi;

- jahon xo'jaligi bilan o'zaro aloqada milliy iqtisodiyot an'anaviy tovar ayirboshlashdan tashqari, kapitalni chetga chiqarish va chetdan kiritish, ilmiy-texnikaning kooperatsiyalashuvi, ishlab chiqarish integratsiyasi kabi shakllarda integrallashadi;

- xalqaro resurslar aylanmasi va uning samaradorligini oshirishga asoslangan holda ichki ishlab chiqarish hajmlariga nisbatan milliy daromadningo'sishi;

- xalqaro ayirboshlash mutanosib iqtisodiy o'sish omili sifatidagi rolining ko'payishi;

- xalqaro resurslar aylanmasi va uning samaradorligini oshirish hisobiga ichki ishlab chiqarish ko'lamiga nisbatan milliy daromadning ko'proqo'sishi.

- O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, xalqaro mehnat taqsimotida

---

<sup>16</sup> Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник М., Изд-во РАГС, 2001.- с.400; Кочергина Е.Т. Экономическая безопасность – Ростов н /Д.: Феникс, 2007., - с. 365-388.

faol ishtirok etish yo‘li bilan ochiq turdagi bozor iqtisodiyotini vujudga keltirmoqda. Mamlakatimizda ochiq iqtisodiyotni shakllantirish va uni rivojlantirish istiqbollari ustun darajada jahon xo‘jaligi tizimiga kirib borishiga bog‘liqdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun respublikamiz tashqi iqtisodiy siyosatining quyidagi tamoyillarga asoslanishi belgilab berilgan:

- mafkuraviy kurashlardan qat’i nazar tashqi munosabatlarda oshkoralik;

- teng huquqli va o‘zaro manfaatli hamkorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

- o‘zining milliy davlat manfaatlarini ustuvorligida o‘zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish;

- to‘la ishonch, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar doirasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish asosida ikki tomonlama va ko‘p tomonlama tashqi aloqalar o‘rnatish hamda ularni rivojlantirish;

- umume’tirof etilgan xalqaro huquq normalariga rioya qilish va xalqaro tartiblarga izchillik bilan o‘tish.

- Iqtisodiyotning ochiqligini ta’minlash va tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi oqibatida mamlakatga xorijiy investitsiyalar kirib kela boshladi, qo‘shma korxonalar ko‘paya bordi, ichki bozor tovarlar bilan to‘la boshladi. Ammo, shu bilan birga, buning mamlakat manfaatlariga zid tomoni ham ko‘zga tashlana boriladi.

- Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi, manfaatlariga tahdidlardan himoyalaniش uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- taklif etilayotgan investitsion loyiha va xorijiy hamkorlar bilan tuzilgan yirik bitimlar, iqtisodiy xavfsizlik talablarini hisobga olgan holda, dastlabki mustaqil ekspertizadano‘tkazish;

- xorijiy kapital uchun ustuvor soha va tarmoqlar bilan bir qatorda, ularning kiritilishi man qilinadigan soha va tarmoqlar ham qonuniy asosda belgilab qo‘yilishi kerak;

- xorijiy investorlar tomonidan ayrim sohalarda aksiyalarni xarid qilish jarayonlarini qat’iylashtirish;

- xorijiy investorlarning strategik tarmoqlarda milliy boyliklarimizning katta qismini qo‘lga kiritishlariga yo‘lqo‘ymaslik;
- mamlakat bank tizimining ishonchini himoyalash;
- tashqi faoliyat bilan shug‘ullanuvchi xo‘jalik sub’ektlaridagi rahbar kadrlarning malakasini oshirish, ularni o‘qitish va qaytatayyorlash;
- ichki bozorni, milliy ishlab chiqaruvchilarni tashqi raqobatchilar tajovuzidan himoya qilish;
- tashqi iqtisodiy aloqalar infratuzilmasinirivojlantirish;
- tashqi bozorlarda milliy eksportchilar va ishlab chiqaruvchilarimizning diskriminatsiya qilinmasligi, kamsitilishidan himoya qilish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi nizo va kelishmovchiliklarni ko‘p tomonlama tartibga solish mexanizmlari teng huquqli shartnomalar tuzish orqali hal qilinishiga intilish lozim bo‘ladi. Bunda asosiy e‘tibor mamlakat tovar ishlab chiqaruvchilari va fuqarolarimizning manfaatlarini himoya qilishga qaratiladi;
- chet ellardagi respublika mulkini himoya qilish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat tashqi savdodan yuqori foyda, iqtisodiy samara olishga intilish bilan bir vaqtda, mamlakatning jahon iqtisodiyoti tizimida o‘ziga mos nufuzli o‘rinni egallashiga intilishi kabilarni amalga oshirish maqsadgamuvofiqdir.
- Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va uning xavfsizligini ta‘minlashda davlat markaziy rol ni o‘ynaydi. Bu boradagi davlatning vazifalari quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:
  - davlatni mikro va makro darajada iqtisodiy tartiblash ko‘lamlarini o‘z ichiga oladigan tik hamda strategik qarorlarni asoslash, qabul qilish uchun dastaklar bilan ta‘minlash;
  - iqtisodiy va ma‘muriy dastak, vosita hamda usullar yordamida iqtisodiy strategiya va joriy dasturlarni amalga oshirish, erishilgan natijalarni tahlil qilish va baholash, mavjud sharoitlarga mos ravishda ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga tuzatishlar kiritish;
  - boshqa mamlakatlar bilan o‘zaro aloqalar tizimida himoyalani shni rag‘batlantirish rejimlarini ko‘zda tutadigan qonunlar va me‘yoriy hujjatlarni hayotga

tatbiq etish orqali mamlakatning iqtisodiy suverenitetini huquqiy va siyosiy himoyalashni ta'minlash;

- iqtisodiyotda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni tezlikda hal qilish uchun davlat boshqaruvi organlari hamda mansabdor shaxslarning huquqlari, vazifalari mas'uliyatini oqilona taqsimlash va ularning o'zaro bir o'lchamdagi faoliyatini uyg'unlashtirish.

Mamlakat xavfsizligini ta'minlashni boshqarish tizimi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- tashkiliy tuzilmalar;
- kommunikatsiya va o'zaro aloqalar tizimi;
- axborotlar;
- har tomonlama tayyorlangan kadrlar.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan boshqaruv ishlari ikki, o'zaro bog'liq yo'nalishda olibboriladi:

- iqtisodiy huquqbuzarliklarning manbalari va ularning sub'ektlariga qarshi kurashish;

- barcha qonun, me'yoriy hujjatlar hamda boshqaruv qarorlarini iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash talablariga mosligini aniqlash uchun ekspertizadan o'tkazish.

- Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim sharti ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishning bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishning samaradorligini oshirish hisoblanadi. Zero mamlakat iqtisodiy xavfsizligi darajasi uning iqtisodiy salohiyati bilan belgilanadi. Bu salohiyat milliy iqtisodiyot resurslari, zaxiralari, amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning samaradorligi, bozor strukturasi, boshqarish tizimi, sanoatni tashkil etish hamda tashqi bozor konyunkturasining o'zgarishlarga moslashuvchanligi boshqa mamlakatlarning qo'llab-quvvatlashi, xalqaro uyushma va tashkilotlarda ishtirok etish bilan ifodalanadi.

- Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun asosiy mahsulotlar bo'yicha importga bog'liqlikka barham berish, tayyor mahsulotlarni eksport qilishni



kuchaytirish lozim bo'ladi. Shuningdek, milliy tovar ishlab chiqaruvchilarning manfaatlarini ichki va tashqi bozorda himoya qilishga qaratilgan oqilona proteksionizm siyosatini amalga oshirish lozim. Bu siyosat quyidagilarni ko'zda tutishi kerak:

- monopolistik faoliyatni cheklash;
- tayyor ishlab beruvchi sanoat mahsulotlarini, asosan, mashina va asbob-uskunalarni eksport qilishni rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlarini, imtiyozli kreditlash usullarini qo'llash;
- turli ishlab chiqarish tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, yangi tashkil topgan xo'jalik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash, ular uchun qulay sharoitlarni yaratish;
- ichki bozorga noqonuniy yo'llar bilan arzon, iste'molchilar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tovarlarni kirib kelishining oldini olish;
- ichki bozorda milliy tovar ishlab chiqaruvchilar manfaatini ko'zlash, ularni tashqi bozorga chiqishlarini qo'llab-quvvatlash;
- yirik ishlab chiqarish birlashmalarini qo'llab quvvatlashning oqilona tizimini yaratish.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun iqtisodiyotning kriminallashtirishiga qarshi kurashish kerak. Jinoiy guruhlarning iqtisodiyotga kirib kelishining oldini olish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- daromadlarni deklaratsiya qilish tizimini takomillashtirish;
- nodavlat xo'jalik sub'ektlarining ayrim faoliyat turlarini qonun yo'li bilan cheklash;
- ro'yxatga olinmasdan turib tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishni manqilish;
- iste'molchilar salomatligiga zarar etkazuvchi mahsulotlarni va litsenziyasiz, sifat sertifikatisiz tovar sotishni manqilish;
- bankrotlik qonuni talablarini hayotga qat'iy tatbiq qilish;
- huquq-tartibot organlarida iqtisodiy qonunbuzarliklarga qarshi kurashish bo'limlari faoliyatini kuchaytirish;

- iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turli nazorat va davlat organlarining tadbirkorlar xo‘jalik faoliyatiga noqonuniy aralashishlarini cheklash va bunga qarshi kurashish;

- iqtisodiyotni tartibga solishning bozor mexanizmlari erkin amal qilishini ta‘minlash bilan bir qatorda, davlat organlarining iqtisodiyotni tartibga solish faoliyati samaradorligi va ta‘sirchanligini oshirish kabilar maqsadga muvofiqdir.

### **10.3. Bojxona siyosatining davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashdagi vazifalari**

Bojxona siyosati - bozor munosabatlari shakllanishi sharoitlarida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy isloxlarni dinamik amalga oshirish maqsadida mamlakat ichida va tashqi iqtisodiy manfaatlarni amalga oshirish va ximoya qilishga qaratilgan bojxona siyosati soxasida qonunchilik, ijroiya va nazorat qilish tusidagi chora-tadbirlar tizimidir. Ushbu ta‘rifni aniqlashtirish uchun davlat ichki va tashqi siyosatining tarkibiy qismi sifatida bojxona siyosatini kurib chiqamiz.

Bojxona siyosati bilan davlatning ichki va tashqi siyosati uzaro bog‘liqligi yakkol kurinib turadi. Birinchidan, bojxona siyosati davlat ichki iqtisodiy siyosatining tarkibiy unsuri xisoblanadi. O‘tish davri sharoitlarida u yangi iqtisodiy ukklad shakllanishining muxim omili, iqtisodiy xayotning bozor munosabatlariga monand ilgor shakllarini barpo qilishning vositasi xisoblanadi va qattik markazlashtirilgan rejali iqtisodiyotning nodinamik, qotib qolgan shakllaridan keskin fark qiladi. U boj tariflari yordamida va tariflarsiz boshqarish vositalaridan foydalanib, ichki iqtisodiy siyosatning quyidagi bir qancha asosiy vazifalarini xal etishga qaratilgan:

- milliy iqtisodiyotning xar tomonlama rivojlantirish;
- ichki bozorni ximoya qilish;
- tarkibiy kayta uzlashtirishlar amalga oshirilishiga kumaklashish;
- byudjetning daromad qismini tuldirish.

Bojxona vositalari - xuquqiy, boj tariflari, tashkiliy, bojxona nazorat va boshqa vositalarning axamiyatini pasaytirib kursatish va ularga bulgan e‘tiborni susaytirish

O'zbekistonning iqtisodiy manfaatlariga jiddiy zarar yetkazishi va siyosiy-iqtisodiy xamda ijtimoiy isloxotlar yulidagi xarakatga tuskinlik qilishi mumkin.

Ikkinchidan, bojxona siyosati ichki siyosatning tarkibiy qismi sifatida uz xususiyatiga kura davlat manfaatlarini, korxonalar, xujalik birlashmalari, tadbirkorlar, fukarolarning xuquqlarini ximoya qiluvchi xuquqni muxofaza qilish organi xisoblanadi. U ichki bozorga tashqaridan buzgunchi unsurlar va yemiruvchi ta'sirlar kirib kelishidan ximoya qilishga da'vat etilgandir.

Bojxona siyosatining xuquqni muxofaza kiluvchi funktsiyasi bojxona nazorati vositalaridan samarali foydalanishga asoslanadi. Bunday vositalarga quyidagilar kiradi:

- bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan bojxona maqsadlari uchun zarur bulgan xujjatlar va ma'lumotlarning tekshirilishi;

- tovarni va transport vositalarini kuzdan kechirish, shaxsiy buyumlarni kuzdan kechirish, xisob va xisobot tizimini tekshirish, vaqtincha yuk saklanadigan omborlar va joylar xududini, bojxona omborlarini kuzdan kechirish va boshqalar;

- bojxona nazoratining tanlab tekshirish printsipini qullash, gayriqonuniy zarar yetkazilishiga yul kuymaslik.

Uchinchidan, bojxona siyosati O'zbekiston tashqi siyosatining ajralmas qismi sifatida davlatimizning tashqi iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash va amalga oshirish maqsadalariga xizmat kiladi, uning tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishning asosiy vositalaridan biridir.

Puxta uylangan va muvozanatli bojxona siyosati milliy iqtisodiyotni jaxon bozorlari kon'yukturasiining keskin uzgarishlaridan ximoya qilishga, uning jaxon xujaligiga kushilishiga faol kumaklashishga da'vat etilgandir. O'zbekistonning bojxona ishi soxasida xamkorlikda qatnashishi ushbu yunalishdagi juda muxim kadam xisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining bojxona siyosati jaxondagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar nisbatan tez uzgarayotganligini xisobga olib, dinamik, xarakatchan, moslashuvchan bo'lishga, ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasi jaxon xujaligiga kushilayotgan bir sharoitda gap iqtisodiy suverenitet, vatan iqtisodiyotini

ragbatlantirish, mamlakatning tub manfaatlariga rioya qilish tugrisida borar ekan, yetarlicha barqaror bo'lishga da'vat etilgandir. Bunga bojxona siyosati uz rivojlanishining ilmiy asoslangan kontseptsiyasiga tayangandagina erishish mumkin.

Bojxona siyosati tamoyili uch unsurga asoslanadi. Iqtisodiyotdagi axvolni taxlil qilish. Oqilona bojxona siyosati ana shundan boshlanadi. Taxlil makrodarajada - mamlakat iqtisodiyotining axvoli, uning byudjeti, tulov balansi va boshqa makroiqtisodiy kursatkichlarni urganish, aniq bozorlar darajasida esa, talab va taklif nisbatini, milliy va xorijiy taklifni, tovarlarning sifat tavsifini, rakobatni va xokazolarni urganish asosida amalga oshiriladi. Taxlil davomida xal etilmagan muammolar aniqlanadi, ularni xal etish, salbiy xodisalarni bartaraf etish yoki bartaraf etmaslikning mukobil okibatleri baxolanadi.

Maqsadlarni taxlil qilish. U barcha imkoniyatlarni aniqlashdan, ya'ni maqsadlarni kataloglashtirishdan boshlanadi, sungra xar bir maqsadning xususiyati aniqlanadi: ushbu maqsadlar dastlabki bavosita yoki pirovard, miqdorli yoki sifatli, kiska muddatli yoki urtacha muddatli maqsadlar bo'ladi. Ayrim maqsadlarga bir vaqtning uzida turlicha tavsiflar berilishi mumkin. Bunday xolda zamonaviy vaziyatdan kelib chiqkan xolda ularning asosiylarini kursatish zarur. Maqsadlar shuningdek ularning xalq xujaligida ijroga ta'sir kursatish qulamllari va xarajatlarning miqdor parametrlari instituttsional, moliyaviy va kadrlar ta'minoti, imkoniyatlari buyicha xam farklanadi. Sungra maqsadlar urtasidagi uzaro munosabatlar aniqlanadi: ular uygun, betaraf yoki nizoli bo'lishi mumkin.

Taxlil yaxlit tizimni barpo etish - maqsadlar ierarxiyasi tizimini barpo etish, ularni darajari buyicha vaqtincha taksimlash va tizim ichida maqsadlarning xarakat qilish istikbollarini shakllantirish bilan yakunlanadi.

Bojxona orqali tartibga solish vositalari qullanishini taxlil qilish. Bojxona siyosati kontseptsiyasini ishlab chiqishda ayrim tartibga soluvchi vositalar qullanilishi shartlarini, ayrim vositalarning birgalikda qullanilishi darajasini, ularning maqsadga muvofiqligini, ularni qullashda kuruladigan kushimcha samaralarni, tartibga solish vositalari samaradorligini va ularni qullash zarurligining yetarlicha asoslanganligini aniqlash muximdir.

Bojxona orqali tartibga solishda bir-birini tuldiruvchi, biroq turlicha asosga ega bulgan vositalar guruxidan - ma'muriy va iqtisodiy vositalardan foydalaniladi. Ma'muriy vositalar xukumat tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga asoslanadi; ular moliyaviy ragbatlantirish chora-tadbirlari, moddiy manfaatdorlik yoki tartibga soluvchi organlarning jazo jarimalari bilan bog'liq bulmaydi, ya'ni ular tovarlar va sarmoya aylanishining iqtisodiy shart-sharoitlarini emas, balki ular xarakatining tashqi imkoniyatini belgilaydi. Tartibga solishning klassik ma'muriy vositalari uch turga bulinadi: takik, ruxsat berish va majburlash. Masalan, davlat organlari u yoki bu tovar (qirol-yarog, alkogol, dori-darmonlar) importni takiklashi, tashqi iqtisodiy faoliyatning qatnashchilarini bojxona nazoratidan o'tishga majbur qilishi mumkin va boshqalar. Takik, ruxsat berish va majbur qilish litsenziya berilishi yoki uni berish rad etilishi, qonunlar va qonunlar asosida xujjatlar qabul qilinishi orqali amalga oshiriladi.

Tartibga solishning tarifsiz usullari uz asosiga kura ma'muriy usullar xisoblanadi. Ularga quyidagilar kiradi:

- tashqi iqtisodiy bitishuvlarni litsenziyalash va kvotalash;
- tovarlarning bojxona tozalashidan o'tishi bilan bog'liq bulgan cheklashlar;
- tovarni sertifikatlash;
- import uchun tulovlar rejimida mustaxkamlangan cheklashlar;
- milliy tarkibiy, texnik va sanitariya talablari okibati xisoblangan cheklashlar;
- davlatning import operatsiyalarida qatnashishi bilan bog'liq cheklashlar va boshqalar.

Bojxona orqali tartibga solishning iqtisodiy vositalariga eng avvalo boj tarifi xamda eksport va import tovarlariga solik solish tegishlidir. Ular bozor munosabatlari shakllanishi sharoitlarida markaziy urinda turadi.

O'zbekiston qonun xujjatlari bilan nazarda tutilgan yangi bojxona tarifi xalqaro yuridik normalarga tulik javob beradi va xalqaro Konventsiya tomonidan joriy etilgan Tovarlarini ta'riflash va kodlashtirishning uygunlashtirilgan tizimiga asoslanadi. Ushbu xujjatning qullanishi O'zbekistonning xalqaro savdo tizimida tula xuquq bilan qatnashishi uchun shart-sharoitlar yaratish imkonini beradi.

Bojxona orqali tartibga solishning maʼmuriy va iqtisodiy vositalari bojxona ittifoqlari va bojxona konventsiyalarida qatnashish, erkin savdo zonalarini tashkil etish, bojxona nazoratining davlat organlari tarmogini barpo etish, bojxona faoliyatining zarur qonunchilik normalarini qabul qilish orqali amalga oshiriladi.

Bojxona siyosati kontseptsiyasi ishlab chiqilishi bojxona orqali tartibga solishning real amaliyotidan oldinda borishi kerak, yaʼni u aniq maqsadlar kuyilishi va ular amalga oshirilishigacha xalq xujaligidagi axvol uzgartirilishining anglagan zaruriyati sifatida shakllantirilishi kerak. Agar kontseptsiya davlat boshqaruv apparatining iqtisodiy-siyosiy eksperimentlari jarayonida shakllansa, kontseptsiya amaliy bojxona siyosatidan orkada kolishi xam mumkin.

Bojxona siyosatini tashkil etuvchi iqtisodiy asoslar. Kuplab mamlakatlarning tadbirkorlari uz milliy bozorlariga xorijiy raqobatchilarni kiritmaslik uchun kuch-gayratlarini ayashmaydi. Ularning kuzlagan manfaati tushunarli - xorijiy rakobat bushashishga imkon bermaydi, ishlab chiqarishni doimiy ravishda yangilashga, chiqimlarni pasaytirishga, tovarlar va xizmatlar sifatini oshirishga majbur qiladi. Isteʼmolchilarni esa kuprok yaxshi arzon mollarga ega boʻlish kiziktiradi; tovarning kelib chiqishi va uni kim ishlab chiqarishi ular uchun u kadar muxim emas.

Ushbu vaziyat - jaxonning kuplab mamlakatlarida iqtisodiy va siyosiy ixtiloflarning doimiy manbai xisoblanadi. Xukumat uz iqtisodiy siyosatini shunday ishlab chiqishi kerakki, mamlakat bozorlarida import tovarlari paydo boʻlishidan ushbu mamlakat yutib chiqishi kerak.

Davlat tovarlar olib kirilishi (olib chiqilishi)ni cheklash yoki, aksincha ragbatlantirishiga bogʻliq ravishda iqtisodiy va bojxona siyosatining turtta asosiy turi farklanadi.

Qisman cheklashlar siyosati ichki bozorga tovarlarning muayyan turlari, masalan, mamlakat mavkurasi va axolining turmush tarziga zid bulgan kino, video maxsulotlari, bosma nashrlar kirib kelishiga yul kuymaslik maqsadida utkaziladi.

Proteksionizm siyosati (lotincha protectio - ximoya ostiga olish, raxnamolik qilish) - ichki bozorni xorijiy rakobatdan ximoya qilish. Odatda, u eksport ishlab chiqarishni u yoki bu darajada importning urnini bosishni ragbatlantirish bilan birga

kushib olib boriladi. Basharti, milliy ishlab chiqarish rakobatga bardoshli bulmasa, tadbirkorlik tuzilmalarining kistovi bilan davlat tomonidan qabul qilinadi. Proteksionizm - vatan tadbirkorlariga aloxida imtiyozli sharoitlar yaratib berishdir, bu esa milliy iqtisodiyotga turlicha okibatlar olib kelishi mumkin.

Bir tomondan, importning cheklanishi iste'molchilarga va umuman mamlakatga zarar yetkazadi, chunki xalqaro mexnat taksimoti afzalliklaridan foydalanilmaydi. Yuqori bojlar solinishi orqali milliy ishlab chiqaruvchilarga vujudga keltiriladigan imtiyozli shartlar texnologik jixatdan eskirgan ishlab chiqarish konsevatsiya qilinishiga olib kelishi mumkin (monopoliya samarasi).

Ikkinchi tomondan, xorijiy rakobatchilarga karshi proteksionistik choralar kurinishidamaxalliy tadbirkorlarni ximoya qilish milliy kompaniyalar va firmalar shakllanishi paytida juda zarurdir. Bu xujalik yuritishning yangi shakllariga uzini saklab kolish, kuch tuplash imkonini beradi.

Misol uchun, Yapon avtomobilsozligining shiddatli muvaffakiyati kup jixatdan xukumat xozir mashxur bulgan «Mazda», «Nissan», «Toyota» firmalari qaror topishi sharoitida utkazgan proteksionizm siyosati bilan izoxlanadi. 1932 yilda xukumat xali uncha uzini tutib olmagan avtokompaniyalarni avtomobil industriyasining amerikalik gigantlaridan ximoya qilish uchun xorijiy mashinalar va extiyot qismlar importiga doir bojlarni keskin oshirdi.

Bu mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy manfaatlari bilan uning fukarolari ayrim guruxlari manfaatlari urtasidagi ziddiyatga klassik misol bula oladi. Agar xalqaro savdodan va xalqaro mexnat taksimotida qatnashishdan butun mamlakat deyarli xamma vaqt yutib chiqsa, uning fukarolarining ayrim guruxlari bundan zarar kurishi mumkin va ular «milliy iqtisodiyot»ni ximoya qilishni talab kiladilar.

Mazkur muammo, agar arzon va sifatli xorijiy maxsulotga eshik ochib kuyiladigan bulsa, kuplab tarmoklar ichki bozorda import tovarlar bilan rakobatlashda olmaydigan MDHda juda keskin bulib turibdi. Bunda kuplab korxonalar sinadi va yopiladi, ularda ishlaganlar esa yashash uchun boshqa imkon kidirishadi. Masalan, 1992 yildayok Estoniyadan import qilingan gusht Rossiyaning maxalliy fermalari maxsulotidan arzon bulgan vaziyat vujudga keldi (ayniqsa

Estoniyaga qushni bulgan Pskov viloyatdagilar uchun). Rossiya shaxarlari axolisi uchun import gushtni iste'mol qilish foydali bulgan bulur edi, biroq u xolda Rossiya chorvachiligi uz tovari sotiladigan bozordan maxrum bulardi va, uz xarajatlarini tezlikda pasaytirish imkoniga ega bulmaganligi sababli (inflyatsiya sur'ati yuqoriligi bois) xonavayron bulardi. Shunga uxshash vaziyat yengil va ozik-ovkat sanoati, maishiy elektrotexnika va boshqa tarmoklar uchun xam realdir. MDH bozori davlat tomonidan tartibga solish, eng avvalo bojlar (tariflar) bilan tartibga solish chora-tadbirlari yordamida import tovarlari keng kirib kelishidan uzoq vaqt kuriklanishi extimoli mavjud.

Proteksionizm siyosati rivojlanayotgan mamlakatlarda ayniksa keng qullaniladi. Undan tarkibiy uzgartirishlarni amalga oshirishda, importning urnini bosish maqsadida milliy sanoatni qullab-kuvvatlashda foydalaniladi.

Erkin savdo siyosati («fritrederlik») - tashqi savdoda cheklashlarni eng oz darajada kamaytirish. Odatda, u bozorda yetakchi mavkega ega bulgan, uz tovarlarining rakobatga bardoshliligidan xavotirda bulmagan mamlakatlar tomonidan utkaziladi.

Bojxona siyosati kup darajada olib kirilayotgan maxsulot ichki ishlab chiqarish bilan rakobatlasha olmaydigan yoki muxim tarmoklar uchun xom ashyo xisoblangan mamlakatlarda xam erkin savdoga yunaltirilgan bo'ladi. Agar import ichki ishlab chiqarish bilan rakobatga kirishmasa, mamlakatning siyosiy kuchlari u xaridorga imkoni boricha arzonrok yetib borishi xaqidagi fikrga kelishadi. Xech bir narsani ximoya qilishning xojati bulmaganda proteksionizm uzini oklamaydi. Shunga uxshash xorijiy ishlab chiqarish bilan rakobatlashayotgan tarmoklarga nisbatan tarmok uchun muxim xom ashyo xisoblangan tovar, garchi bundan istisnolar bulsa xam, odatda bojdan ozod qilinadi (yoki u juda oz bo'ladi).

Taqchil bozorni tuldirish siyosati - «teskari proteksionizm». Xammaga joy topiladigan milliy bozor nixoyatda takchil bulgan takdirdagina samarali bo'ladi. Ushbu strategiya unsurlaridan 80-yillar oxiri - 90-yillar boshlarida O'zbekistonda xorijiy tovarlarni jalb qilish maqsadida foydalanildi. Ishlab chiqaruvchilar urtasidagi eski, rejali aloqalarning barxam topishi, yangi mustaqil davlatlarni tushkunlikka solib



kuygan ishlab chiqarishning pasayishi deyarli barcha tovar bozorlarida takchillikni keltirib chiqaradi. Import bojlarning bekor qilinishi, imtiyozli kredit berish va boshqa choralar 1995 yil urtalariga kelib takchillik muammosi kun tartibidan olib tashlanishiga kumaklashdi.

Biron-bir siyosatni joriy etish shartlari, ular barcha tovarlar va bozorlar buyicha utkazilsa, kattik bo'lishi mumkin. Agar bu ayrim tovarlar va bozorlar buyicha utkazilsa, shart-sharoitlar yumshok bo'lishi mumkin. Yumshoqlik kupchilik davlatlarga uz faoliyatida bir qancha tashqi iqtisodiy strategiyalarni birga kushib olib borish imkonini beradi. Masalan, umumiy bozor mamlakatlari bir-birlari bilan kishlok xujaligi maxsulotlari savdosida proteksionizmni ma'qul kurishadi, aynii vaqtda boshqa kupchilik davlatlarga nisbatan erkin savdo strategiyasi tanlangan. AQSH kuplab tovarlar buyicha Yaponiyaga nisbatan erkin savdo printsiplarini qullaydi, biroq ushbu mamlakatlar urtasida avtomobilsozlikda uzaro proteksionizm mavjuddir, ukupincha «savdo urushlariga»ga olib keladi.

“Savdo urushi” - xalqaro savdo yullaridagi eng oxirgi cheklovdir. U uzida ikki mamlakat xukumatlari tomonidan ularning ichki bozorlariga bir-birlarining tovarlari kirib kelishini uzaro cheklash choralari qabul qilinishini ifodalaydi.

Masalan, 1992 yil sentyabr oyida AQSH va Xitoy mana shunday urush yokasiga kelib koldi. XXPning AQSHdan import qilinadigan tovarlar yuliga tagridan-tugri taqiqlar, kvotalar, litsenziyalar, sifat standartlariga rioya qilishga nisbatan oshirilgan talablar kurinishida belgilanadigan tusiklarni olib tashlashni rad etishi bunga sabab bo'ldi. Agar Xitoyliklar AQSH bilan savdoda sezilarli ustunlikka erishmagan bulganlarida Xitoy ma'murlarining bunday xatti-xarakatiga munosabat bunchalik keskin bulmasligi mumkin edi: 1991 yilda Xitoy tomoni AQSHga uzlari sotib olganga nisbatan 12,7 mlrd. Dollarlik kup tovar sotgan. Aynan mana shu xolat AQSH xukumatining rasmiy vakillaridan birini quyidagicha bayonot berishga majbur kildi: «Xitoy xalqaro savdo tizimida tezlik bilan eng muxim mamlakatga aylanmokda. Biz bunday savdo darajasiga ega bulgan mamlakatga uz qoidalari bilan uynash imkonini bera olmaymiz. Agar ular eksportdan foyda olishmokchi bulsa, importga xam ruxsat berishlari kerak».

Ushbu nuqtai nazarga muvofiq, AQSH Xitoyga ushbu mamlakatdan import qilinadigan tovarlarning keng doirasiga (yiliga salkam 4 milliard dollarlik) shunchalik yuqori bojlar belgilash niyatini eʼlon kildi. Bunga kura, Xitoy tovarlarining narxlari Amerika bozorida ikki baravar oshishi kerak edi. Bunga javoban xitoylik maʼmurlar bunday xolatda ular xam Amerika tovarlariga, shu jumladan kompyuterlar, samolyotlar, avtomashinalar va xokazolarga ana usha miqdorda, yaʼni 4 mlrd. dollarlik jazo tarikasidagi boj tariflari joriy etishlari xaqida bayonot berishdi.

«Savdo urushlari»ning uzoq yillik tajribasi eng rivojlangan mamlakatlarni bunda xar ikkala tomon maglubiyatga uchrayajagi, yaxshisi «jangovor xarakatlar» boshlanib ketishiga yul kuymaslik xaqidagi fikrga olib keldi. Bu xalqaro savdoda eksportni ixtiyoriy cheklashni tugdirdi.

AQSH va Yaponiya arzon yapon avtomobillari eksporti tufayli doimiy ravishda «savdo urushi» yokasida turadi. AQSH iqtisodiyotida avtomobil sanoati anʼanaviy ravishda aloxida urin toʻtishini xisobga olganda buning atrofida xissiyotlar qanchalik kaynashini tasavvur qilish kiyin emas. Yapon avtomobilsozlari uz mashinalarining AQSHga sotilishi tulik takiklanishi xavfining oldini olish uchun uz maxsulotining Amerikaga eksport qilinishiga cheklash joriy qilishga rozi boʻlishdi. Yaponiya xukumati esa Amerika tovarlari importiga cheklashni susaytirdi.

Bojxona siyosatining asosiy vazifalari. Oʻzbekiston Respublikasining oʻz mustaqil bojxona siyosatini amalga oshirishi Bojxona kodeksining 1-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan maqsadlarga erishishga qaratilgan. Xar qanday faoliyat unga aniq va tugri rioya qilish istalgan natijalar berishi mumkin bulgan printsiplarga, yaʼni ushbu faoliyat oldiga oldindan kuyilgan maqsadlarga asoslanadi. Maqsadlarning uzi esa, uz navbatida, vazifalarda aniqlashtiriladi. Bu vazifalar bojxona siyosatining turli-tuman vositalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Bular quyidagi tarzda kiskacha tavsiflanishi mumkin: bojxona siyosati muayyan maqsadlar va vazifalarning uz ichiga oluvchi kontseptsiyaga asoslanadi. Endi bojxona siyosatining vazifalariga batafsil tuxtalamiz. Bojxona siyosatining asosiy vazifalari quyidagilar xisoblanadi:

- milliy iqtisodiyotning tarkibiy kayta kurulishiga kumaklashish;
- mamlakat xalq xujaligining jaxon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi;

- bozorning mavjud bo'lishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- mamlakatning savdo va tulov balansini mustaxkamlash;
- davlat byudjeti daromadlarining usishi;
- davlatning savdo-siyosiy negizlari mustaxkamlanishi;
- xorijiy davlatlar va ular ittifoqligining kamsituvchi xatti-xarakatlariga karshilik kursatish;
- korxonalar, tashkilotlar va tadbirkorlarning tashqi bozorga chiqishini ta'minlash.

Ushbu vazifalarning ayrimlarini, eng avvalo, bojxona siyosatining iqtisodiyotni tarkibiy kayta kurishni ragbatlantirishga yunaltirilganligini kurib chiqamiz.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida tarkibiy kayta kurish rakobat ta'siri ostida yuz berayotgan sarmoya va ishchi kuchining tarmoklararo okimi asosida amalga oshiriladi. Kurgazmali bo'lishi uchun bir muncha sxematik bulgan, biroq bozor ragbatlari ta'siri ostida namoyon buluvchi tarkibiy kayta kurish jarayonini aniq aks ettiruvchi misolni kurib chiqamiz.

Aytaylik, qaysidir milliy iqtisodiyotda ikki tarmok: foyda normasi 8 foizni tashkil etuvchi A tarmogi B tarmogiga qaraganda kam rentabelli, chunki unda ishlab chiqarish chiqimlari yuqori. Mamlakatning ichki bozoriga uz tovarlari bilan kirib keluvchi xorijiy rakobatchilarda esa ishlab chiqarish chiqimlari A tarmoqqa nisbatan past va tegishlicha foyda normasi, deylik, 16 foizdir. Xorijiy rakobatga dosh berolmagan A tarmogi proteksionistik chora-tadbirlar belgilanishi maqsadida davlatga ta'sir kursatishi tushunarli.

Ushbu vaziyatga davlat ta'sirining ikkita mumkin bulgan variantini kurib chiqamiz:

I variant - bojxona ximoyasi mavjud emas; savdoning mutlak erkinligi rejimi amal kiladi. Istalgan investitsiya yechimi foyda normasining eng yuqori bo'lishidan kelib chiqadi. B tarmogi kapital kuyilmalari uchun jozibalirok bo'ladi. A tarmogida reinvestitsiya faoliyati sekinlashadi, ayni vaqtda B tarmogi uziga sarmoyani jalb kila boshlaydi.

Sarmoyaning okishidan keyin ish kuchining A tarmokdan B tarmokka kuchishi yuz beradi. Erkin savdo sharoitlarida ishlab chiqarish resurslaridan samaraliroq foydalaniladi. Mana shu narsa bozor sharoitlarida milliy iqtisodiyotni tarkibiy kayta kurish xisoblanadi. A tarmogi kayta kurila olmas ekan, unda bitta yul koladi: davlatdan importga bojxona cheklovlari joriy etilishini surash.

Bu II variant - bojxona ximoyasi rejimi bo'ladi. Bunday rejim sharoitida savdo erkinligi birmuncha cheklanadi. Bojxona tulovlari, kvotalar va bojxona siyosatining boshqa vositalari yordamida import tovar narxi sun'iy ravishda oshiriladi. Bu esa A tarmogiga, uz navbatida maxsulotga narxlarni oshirish imkonini beradi. Natijada uning rentabelligi, aytaylik, 8 punktga oshadi, bu esa summada 16 foizni tashkil etadi. Bir xil rentabellik samoya va ish kuchining tarmoklararo kuchishi tuxtatilishini anglatadi. Shakllangan iqtisodiy tuzilmaning uziga xos konservatsiyasi yuz beradi. Birmuncha ilgor B tarmogining rivojlanishiga kenglik berish urniga davlat kolok A tarmogini sun'iy ravishda qullab-kuvvatlaydi.

Bojning ishlab chiqarish tuzilmasiga ta'sirining keltirilgan nazariy modeli bozor munosabatlari sharoitlarida tashqi iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirish foydasiga yana bir dalildir. Biroq, amaliyotda xammasi bunday oppa-oson emas: erkin savdoning uzaro foydaliligiga qaramay, xalqaro ayirboshlashni erkinlashtirilgandan kurilgan ijobiy samara xamkorlar urtasida vaqt jixatidan noteng taksimlanadi: dastlab bunday samarani kuchli tomon, sungra kuchsiz tomon oladi. Ushbu vaqtinchalik lag quyidagi xolatlar natijasi xisoblanadi. Kuchli iqtisodiyotda tuzilma, odatda, kup darajada xalqaro mexnat taksimoti talablariga muvofiq keladi, kuchsiz iqtisodiyotda, tabiiyki - kam darajada muvofiq keladi. Mana shuning uchun xam kuchli iqtisodiyot ichki bozor ximoyasi susaytirilishidan darxol foyda oladi. Kuchsiz iqtisodiyot esa kayta kurishning muayyan davrini bosib o'tishi kerak, sarmoya va ishchi kuchining tarmoklararo kuchishi faollashini, tarmok, shuningdek investitsiyalarning takror ishlab chiqarish va texnologik tuzilmalari makbullashishini ko'tishi lozim, bu narsa suzsiz ijtimoiy muammolar keskinlashishi bilan birgalikda yuz beradi.

O'tish iqtisodiyotida, odatda, milliy ishlab chiqaruvchilarning xorijiy ishlab chiqaruvchilar bilan teng xuquqli rakobati uchun zarur shart-sharoitlar mavjud

bulmaydi. Erkin bozor kuchlarining xarakati maxsulot importi bilan rakobatlashuvi milliy ishlab chiqaruvchilarning xonavayron bo'lishiga olib keladi xamda ish bilan ta'minlashni pasaytiradi, maxsulotni pirovard kayta ishlovchi tarmoklarni yemiradi va bu bilan iqtisodiyotning xom ashyoviy yunaltirilganligini konservatsiyalaydi. Bu xolisaniillo aytganda, tarkibiy kayta kurish jarayonlarini bojxona siyosati vositalari bilan davlat tomonidan tartibga solishni takozo etadi.

Proteksionistik chora-tadbirlar milliy sanoatning mustaxkamlanishiga kumaklashadi. Amaliyot o'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarda proteksionistik chora-tadbirlarning vaqtincha joriy etilishi uzini oklashini kursatadi, chunki ular tugilib kelayotgan uz industriyasi tajriba tuplayotgan va ishlab chiqarish chiqimlari tarifga tayanmasdan import maxsulot rakobatiga karshi turish imkonini beruvchi darajagacha pasaygan paytda ushbu vaqt mlbaynida zamonaviy sanoat maxsulotlari importini jilovlab turadi.

Industrlashtirish uzida kushimcha iqtisodiy va ijtimoiy farovonlik olib kelishi mumkin: ya'ni kup darajada iqtisodiy usishga va milliy gururga yunaltirilgan yangicha tafakkur tarzi, aloxida fermalar doirasidan tashqariga chiquvchi texnik bilimlar va kasb-kor maxoratining umumiy usishi.

Jaxonning yangi rivojlangan kupchilik mamlakatlari industrlashtirishni proteksionizmdan boshlashdi va erkin savdoga asta-sekin o'tishdi. Ushbu yulda ular aralash savdo rejimlariga ega bo'lishdi, ya'ni eksport kiluvchilarni eksport kiluvchilarni eksport subsidiyalari orqali ragbatlantirish, maqsadli kreditlar, shuningdek ishlab chiqarish asbob-uskunalari va yarimtayyor maxsulotlar importiningsoliklardan ozod qilinishi. Ayni bir vaqtda ular tayyor sanoat tovarlari importiga 30-70 foiz tariflar belgilashdi. Ushbu mamlakatlar xukumatlari, shuningdek rivojlanishni jadallashtirishga maqsadli va subsidiyali kreditlarni tanlangan tarmoklarga berish, foydaning usishi va ishlab chiqaruvchi sarmoya samarasi maqsadlarida depozitlar va kreditlar buyicha nisbatan past foiz stavkalari belgilash, importning urnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni ximoya qilish, amaliy tadvikotlarga davlat investitsiyalari, eksportga yunaltirilgan tarmoklar va korxonalarini moliyaviy qullab-kuvvatlash va ularga aloxida ustunlik berish, tashqi

bozorlarni urganish buyicha tashkilotlarni rivojlantirish va eksport tovarlarni oldinga siljitish orqali muntazam ravishda aralashib turishdi. Tanlangan tovarlar buyicha eksport bozorlarini egallash strategiyasi sarmoyaning va kunikmalarning yuqori surʼatlarda jamlanishi, resurslardan samarali foydalanish xamda mexnat unumdorligining usishi bilan birga kushib olib borildi.

Tarkibiy qayta kurishni amalga oshirish va yangi tarmoklar rivojlanishini qullab-kuvvatlash zaruriyatidan tashqari, oʻtish iqtisodiyotiga ega bulgan mamlakatlarda importga doir boj tariflarini tartibga solish vositalaridan foydalanishni maqsadga muvofiq kiladigan bir qancha sabablar mavjuddir. Ulardan biri - byudjetni tuldirish buyicha bojxona siyosati oldida turgan vazifadir. Davlat byudjeti daromadi manbai sifatida tarif ximoyasidan foydalanish foyda keltirishi va xatto iqtisodiy siyosatning boshqa vositalariga nisbatan samaralirok vosita boʻlishi mumkin.

Aholining turmush darajasi past bulgan yosh, mustaqil davlat uchun xukumatning ijtimoiy extiyojlarni soliklar yigish xisobiga taʼminlashga kodir emasligi asosiy muammo boʻlishi mumkin. Mavritaniya kabi kambagʻal mamlakat, agar yukumli kasalliklar, kishlok xujalik yerlarining melioratsiyasi, boshlangich taʼlimni rivojlantirish, milliy mudofani mustaxkamlash ustidan nazorat kabi xizmatlar xajmini kupaytirish imkoniga ega bulsa, kuprok ijtimoiy afzalliklarga ega boʻladi. Ayni vaqtda, oʻtish iqtisodiyotidagi kupchilik mamlakatlarning maʼmuriy resurslari daromad soliklarini samarali yigishini taʼminlash uchun yetarlicha emas, ularda umumiy solik madaniyati past.

Ushbu mamlakatlarda amal kiluvchi solik tizimi samaradorligi, modomiki ishlab chiqarish, isteʼmol, daromad va mulkni ishonchli belgilash va nazorat qilish imkoniyati xali yuk ekan, taʼminlanishi mumkin emas.

Bunday xollarda import bojlari vatan ishlab chiqarishini ximoya qilish usulinigina emas, balki davlat daromadlarining goyatda muxim manbaiga xam aylanadi. Savodli solik mutaxassislari nixoyatda yetishmagan bir sharoitda Mavritaniya tomonidan import tarifi joriy etilishi ulkan neʼmat xisoblanadi: asosiy dengiz portlari va chegara punktlari uncha kup bulmagan bojxona xizmatchilari yordamida nazorat qilinishi maxsus solik tizimini barpo etishga katta xarajatlar

sarflashga nisbatan davlat byudjeti daromadlarini tuldirishning ancha arzon usuliga aylandi.

Kup jixatdan xuddi shu sababli milliy daromad darajasi past bulgan mamlakatlar davlat byudjetining  $1/4$  dan  $3/5$  gacha qismi bojlar xisobiga ta'minlanadi. Davlat daromadlari boj tizimiga bog'liqligining ushbu ulushi rivojlangan mamlakatlar yosh davlatlarning iqtisodiy siyosati amalda bayon qilingan qonuniyatdan farqlansa xam, fakt faktligicha koladi: ushbu mamlaklarda tarif iqtisodiy siyosatning mukobil tadbirlariga qaraganda katta ijtimoiy afzalliklarni ta'minlashga kodirdir.

O'tish iqtisodiyotiga yangi bojlar joriy etishning extimol tutilgan okibatlariga baxo berilar ekan, import qiymatining qisqarishi eksport qiymatining xuddi shu taxlit qisqarishiga olib kelishini xisobga olish zarurdir.

Eksport uchun ishlab chiqarishda import qilinadigan maxsulot - xom ashyo, materiallar, extiyot qismlar va boshqalardan foydalaniladi. Import tovarlarga va ularning urnini bosuvchi maxalliy tovarlarga narxlar usishiga olib keluvchi savdo tusiklari eksport tovarlarining ishlab chiqarish chiqimlarini oshiradi. Misol sifatida neft importiga kvotalar joriy etilishi natijasida (1959-1973 yy.) AQSHga olib kelinadigan kimyoviy maxsulotlar narxining usishini, shuningdek pulat import qilinishiga cheklashlar tufayli Amerika avtomobillari narxlari usishi tamoyilini keltirish mumkin. Binobarin, importni cheklash Amerika tovarlarining narxga rakobatbardoshligini muayyan darajada pasaytirishga va ularni jaxon bozoridan sikib chiqarishga olib keladi.

Importga cheklashlar joriy etilganda qolgan mamlakatlar javob choralari kurishlari mumkin. Xukumatlar xamma joyda import tomonidan rakobatdan ximoya qilishni talab kiluvchi ayrim tarmoklarning bosimiga duch keladi. Agar O'zbekiston avtomobillar importiga kattik cheklashlar joriy etar ekan, boshqa mamlakatlar xukumatlariga proteksionistik talablarga, ayniksa respublikadan avtomobillarni eksport qilishga nisbatan, karshi turishkiyinrok bular edi. Javob choralari O'zbekistondan eksportning yanada qisqarishiga olib kelur edi.

O'tish iqtisodiyotiga ega bulgan mamlakatlarda importga nisbatan cheklash siyosati uchun va unga karshi keltirilgan dalillar uz-uzidan nazariy shart-sharoitlarga asoslanadi va aniq miqdoriy baxo bermaydi. Aniq bir mamlakat uchun amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida maxsus iqtisodiy tadkikotlar zarurdir, ular asosida uziga xos shart-sharoitlarni va mazkur milliy xujalik rivojlanishi maqsadlarini xisobga oluvchi bojxona siyosatini kurish mumkin.

Xar qanday xolatda bojxona siyosatining bir kontseptsiyasidan boshqasiga o'tish asta-sekin amalga oshirilishi kerak. Bojlar bilan ximoyalangan tarmoklarda firmalar ular pasaytirilishi tugrisida oldindan ogoxlantirilsa, u xolda kapital kuyilmalar va ish urinlarining qisqarishi xonavayronlikka olib kelmaydi. Asosiy sarmoyaning tabiiy eskirishi, odatdagi (bir tomonlama) ishchi kadrlar kunimsizligi uz-uzidan xorijiy rakobat ta'siri ostida ishlab chiqarishning qisqarishiga olib kelishi mumkin. Boshqa suz bilan aytganda, asta-sekinlik bilan barcha tarkibiy chiqimlarni yukka chiqarishi mumkin.

#### **10.4. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlarda ishtiroki va milliy manfaatlarni himoya qilishi**

Mamlakatimizda ochiq iqtisodiyotning shakllanishi va uning rivojlanish istiqbollari ustuvor darajada jahon xo'jaligi tizimiga kirib borishiga bog'liqdir. Hozirgi davrda O'zbekistonni mustaqil davlat sifatida dunyodagi 150 dan ortiq davlat tan olgan. O'zbekiston xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda ham faol ishtirok eta boshladi. Jumladan, O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining iqtisodiy muassasalari, Umumjahon Bank guruhi, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Osiyo va Islom taraqqiyot bank lari, shanxay Hamkorlik Tashkiloti kabi bir qancha xalqaro moliyaviy iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lgan hamda ko'plab boshqa xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi. shuningdek, O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan birgalikda iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lib kirdi va mazkur tashkilot doirasida dunyo dengiz portlari, mamlakatlararo transport tarmoqlari, jahon tovar va kapital bozorlariga chiqish imkonini beradigan xalqaro yo'llarni qurish loyihalarini ishlab chiqish va



amalga oshirishda faol qatnashmoqda.

O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorligi uzoq va qisqa muddatli muhim vazifalarni uzviy birga qo‘shish nuqtai nazaridan amalga oshirilmoqda. Bu boradagi vazifalarni belgilab berar ekan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “Uchinchidan, ochiqlik, o‘zaro teng va manfaatli hamkorlikka asoslangan tashqi siyosat sohasidagi faoliyatimizni davom ettirish va uning samaradorligini yanada oshirish choralarini ko‘rishimiz zarur”<sup>17</sup>, deb ta’kidlagan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun O‘zbekistonning Jahon savdo tashkiloti va Evroosiyo iqtisodiy ittifoqi faoliyatida ishtirok etishi masalalari ko‘rib chiqilmoqda. Bu borada matbuotda munozaralar davom etmoqda. Mamlakatimizning turli xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorligini amalga oshirishda milliy manfaat larni himoya qilish va iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash bilan bog‘liq masalalar muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. SHuning uchun ham mazkur masalalarni tadqiq qilish zarurati vujudga keladi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etish yo‘li bilan ochiq turdagi bozor iqtisodiyotini vujudga keltirmoqda. Mamlakatimizda ochiq iqtisodiyotni shakllantirish va uni rivojlantirish istiqbollari ustun darajada jahon xo‘jaligi tizimiga kirib borishiga bog‘liqdir. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati respublikaning jahon bozoridagi mavqeini mustahkamlashga, uning to‘lov balansini kuchaytirish va xorijiy investitsiyalar uchun qulay muhitni vujudga keltirishga qaratilgandir.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etish yo‘li bilan ochiq turdagi bozor iqtisodiyotini vujudga keltirmoqda. Mamlakatimizda ochiq iqtisodiyotni shakllantirish va uni rivojlantirish istiqbollari ustun darajada jahon xo‘jaligi tizimiga kirib borishiga bog‘liqdir. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati respublikaning jahon bozoridagi mavqeini mustahkamlashga, uning to‘lov balansini kuchaytirish va xorijiy investitsiyalar uchun qulay muhitni vujudga keltirishga qaratilgandir.

---

<sup>17</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // «Xalq so‘zi» gazetasi, 2018 yil 29 dekabr.

Iqtisodiyotning ochiqligini ta'minlash va tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishga qaratilgan choratadbirlarning amalga oshirilishi oqibatida mamlakatga xorijiy investitsiyalar kirib kela boshladi, qo'shma korxonalar ko'paya bordi, ichki bozor tovarlar bilan to'la boshladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «Xalqaro munosabatlarda ochiq va amaliy, faol tashqi siyosat olib borilayotgani tufayli ishonchli hamkor sifatida mamlakatimizning xalqaro obro'si tobora ortib bormoqda. Barcha qo'shnilarimiz bilan do'stona va o'zaro ishonch ruhidagi munosabatlarni yanada mustahkamlash bizning asosiy vazifalarimizdan biriga aylandi. 2018 yilda 18 ta davlatlararo rasmiy tashriflar amalga oshirildi va 52 milliard dollarlik 1 ming 80 ta loyiha bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Jahon banki, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom va Osiyo taraqqiyot banklari, boshqa xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikdagi investitsiyalar hajmi 8,5 milliard dollarni tashkil etdi. Bugungi kunda yurtimizda, chet el investitsiyalari hisobidan qiymati 23 milliard dollarlik 456 ta loyiha amalga oshirilmoqda»<sup>18</sup>, deb ta'kidlab o'tgan. Shu bilan birga jahon xo'jalik tizimiga integrallashuv yo'lida mamlakat manfaatlariga zid holatlar hamda to'siqlar ham mavjud bo'lib, ular quyidagilarda namoyon bo'ldi:

- respublikaning ilg'or texnologiyalarga ega bo'lishiga cheklovlarning mavjudligi;
- mamlakatga ma'naviy va moddiy eskirgan texnika va texnologiyalarni olib kirishga urinishlar;
- milliy raqobatbardosh mahsulotlarni xorijiy bozorlarga chiqarishga to'sqinlik qilish, ilgari o'zlashtirilgan bozorlardan siqib chiqarishga urinish;
- milliy boylikning bir qismini xorijiy kapital tomonidan qo'lga kiritishga intilish;
- muhim xom ashyo tovarlari va kapitalni chetga chiqarish ustidan nazorat qilish mexanizmining etarli darajada shakllanmaganligi<sup>19</sup>.

Mamlakatimizning jahon xo'jalik tizimiga integrallashuvida xalqaro iqtisodiy

<sup>18</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. // «Xalq so'zi» gazetasi, 2018 yil 29 dekabr.

<sup>19</sup> Abulqosimov H.p., Abulqosimov M.H. Iqtisodiy xavfsizlik: nazariya va amaliyot. O'quv qo'llanma. – T.: «Noshirlik yog'dusi», 2019.

tashkilotlar faoliyatida faol ishtirok etishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, tashqi tovar va xizmatlar hamda kapital, ishchi kuchi bozorlariga kirib borish asnosida yuqorida keltirilgan to'siqlarni bartaraf etib borish imkoniyatlarini kengaytirib boradi. Bu borada Jahon savdo tashkilotiva Evroosiyo iqtisodiy ittifoqiga kirishi muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Jahon savdo tashkiloti faoliyatida 1994 yildan buyon kuzatuvchi maqomida ishtirok etmoqda. Endilikda JSTga a'zo bo'lib kirishga tayyorlanmoqda. O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi mazkur ko'p tomonlama shartnomaga a'zo bo'lgan 130 dan ortiq mamlakatlar bilan savdo to'siqlarisiz past bojxona bojlari to'lagan holda savdosotiq qilish uchun mustahkam huquqiy asoslarga va imtiyozlarga ega bo'lish imkonini beradi. Bunda respublikaning JSTga a'zo bo'lishining ijobiy va salbiy oqibatlarini baholash maqsadga muvofiqdir. chunki mazkur tashkilotga a'zo bo'lib kirish bilan bog'liq ijobiy imkoniyatlar va xavfxatarni to'g'ri baholash lozim bo'ladi. Buning uchun JSTning majburiyatlarini chuqur o'rganish, boshqa mamlakatlar tajribasini tahlil qilish, a'zo bo'lib kirish oqibatlarini baholash uchun yondashuvlarni ishlab chiqish, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarining ta'sirchanligini tahlil qilish va oqibatlarni miqdoriy baholash kerak. Ushbu ishlarni amalga oshirish asosida JST talablariga moslashish bo'yicha takliflar tayyorlanadi.

Evroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo bo'lib kirish natijasida esa Rossiya Federatsiyasi, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Armaniston respublikalari a'zo bo'lgan, dunyoda maydoni bo'yicha birinchi o'rinda, YAIM hajmi bo'yicha esa 12-o'rinda bo'lgan iqtisodiy makonga chiqish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Bugungi kunda mazkur tashkilot bilan dunyoning ko'plab mamlakatlari iqtisodiy hamkorlik qilishga intilmoqdalar. Bunga sabab Evroitifoq iqtisodiy tashkilot maqomiga ega bo'lib, unga a'zo mamlakatlar mustaqilligiga, suverenitetiga hech qanday ta'sir etmaydi, unda hech qanday siyosiy tavsifdagi forum va yig'ilishlar o'tkazilmaydi, davlatlarning biri tomonidan boshqasiga hech qanday tazyiq o'tkazilmasligi, ular o'rtasidagi hamkorlik faqat iqtisodiy sohalarda amalga oshirilishi belgilab

qo'yilgan<sup>20</sup>.

5-jadval

**O'zbekiston Respublikasining Evroosiyo iqtisodiy ittifoqi mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi<sup>21</sup> (mln.AQSH dollarida)**

Mamlakatlar	2014	2015	2016	2017	2018	Ulushi, %
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>5858,5</b>	<b>4455,8</b>	<b>4192,7</b>	<b>4728,7</b>	<b>5729,8</b>	<b>16,9</b>
Eksport	2545,8	1821,1	1794,9	2019,2	2192,9	
Import	3312,7	2634,7	2397,8	2709,5	3536,9	
Saldo	766,9	813,6	602,9	690,3	1344,0	
<b>Qozog'iston</b>	<b>3496,4</b>	<b>2697,1</b>	<b>1898,9</b>	<b>2055,7</b>	<b>3022,2</b>	<b>8,9</b>
Eksport	2487,7	1849,4	945,0	1057,6	1457,7	
Import	1008,7	847,7	953,9	998,2	1564,5	
Saldo	1479,0	1001,7	8,9	59,4	106,9	
<b>Qirg'iziston</b>	<b>225,9</b>	<b>136,0</b>	<b>167,4</b>	<b>253,7</b>	<b>481,0</b>	<b>1,4</b>
Eksport	164,1	99,9	121,5	178,3	348,2	
Import	61,8	36,1	46,0	75,4	132,8	
Saldo	102,2	63,9	75,5	102,9	215,4	
<b>Belarus</b>	<b>177,8</b>	<b>109,1</b>	<b>112,6</b>	<b>182,4</b>	<b>420,0</b>	<b>1,2</b>
Eksport	24,7	20,1	18,2	27,4	43,2	
Import	153,0	89,0	94,4	155,0	376,8	
Saldo	- 128,3	- 68,9	- 76,1	- 127,6	- 336,6	

O'zbekistonning EOIIga a'zo bo'lib kirishi natijasida unga kirgan mamlakatlar bilan savdo aloqalari yanada rivojlanishi mumkin. Biz uchun yanada keng tovarlar, xizmatlar va kapital, ishchi kuchi bozorlariga chiqish imkoniyati yaxshilanadi. Hozirgi davrda ushbu ittifoqqa kirgan mamlakatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 2018 yilda uning umumiy hajmining 28,4%ini, shu jumladan, Rossiya Federatsiyasining ulushi 16,9%ni, Qozog'istonning ulushi 8,9%ni, Qirg'izistonning ulushi 1,4%ni, Belarusniki 1,2%ni tashkil etadi (5-jadval).

Rossiya Federatsiyasi bilan tashqi savdo aylanmasi 2014-2016 yillarda 28,5%ga kamaydi, 2018 yilda esa 2016 yilga nisbatan 36,7%ga oshdi. Qozog'iston,

<sup>20</sup> Санжар Валиев. В ИСМИ не считают, что Евразийский экономический союз политизированная организация. // <https://kun.uz/ru/news/2019/10/11/vismi-ne-schitayut-cto-yevraziyskiy-ekonomicheskisoyuz-politizirovannaya-organizatsiya>; Aktam Hayitov: «EOIIni SSSRga qiyoslash to'g'ri emas». // <https://kun.uz/news/2019/10/21/aktam-hayitovyeoiinissrgaqiyoslashtogriemas>

<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2018 yil yanvar-dekabr. Stat. to'plam. - T., O'z davlat statistika qo'mitasi, 2019. 231, 232, 234-betlar ma'lumotlari asosida tuzildi.

Qirg'iziston va Belarus bilan tashqi savdo aylanmasida ham huddi shunday tendensiya mavjud bo'lib, ular bilan savdo aloqalari 2016 yildan boshlab jonlana boshlandi. Ammo Rossiya, Qozog'iston va Belarus bilan savdo aloqalarida import hajmining o'sish sur'atlari eksport o'sishi sur'atlaridan yuqori bo'lishi oqibatida salbiy (minus) saldo vujudga keldi. Bu esa O'zbekistonning EOIIga kirishi natijasida yanada kuchayib, raqobatlashishda jiddiy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. shuning uchun mazkur mamlakatlar bilan savdo aloqalarida tabiiy resurslar, rangli metallardan tashqari, engil sanoat va to'qimachilik mahsulotlarining, shuningdek, boshqa sanoat sohaslarini modernizatsiya qilish asosida ilmhajmkor mahsulotlarning eksport imkoniyatlarini oshirishga va ijobiy saldogga erishishga harakat qilish lozim bo'ladi. shuningdek, ushbu ittifoq mamlakatlaridan zamonaviy texnika va texnologiyalar importi hajmini oshirish maqsadga muvofiqdir.

EOIIga a'zo bo'lish natijasida mehnat migratsiyasida sezilarli darajada ijobiy holat sodir bo'ladi. O'zbekistonliklarga qulay viza rejimining taqdim etilishi nafaqat ittifoq mamlakatlariga mehnat qilish uchun, balki yashash uchun ham joylashishlariga engilliklarni vujudga keltiradi. Buning natijasida mehnat migrantlarimiz ittifoqqa a'zo mamlakatlarda rasmiy ravishda to'laqonli ishchi-xizmatchi sifatida ishlash va oilalari bilan birga yashash imkoniyatlariga ega bo'ladilar<sup>22</sup>.

Mamlakatimizga kelayotgan turistlarning 70 foizini mazkur ittifoq mamlakatlarining fuqarolari tashkil etadi. Ushbu ittifoqqa a'zo bo'lib kirish natijasida bizning mamlakatimizga turistlar oqimi yanada ko'payishi kutilmoqda. Ilmfan va ta'lim sohasida o'zaro hamkorlik davom etmoqda. Jumladan, bugungi kunda Rossiya Federatsiyasida 25 mingdan ortiq, Qozog'istonda 3,7 ming, Qirg'izistonda 1,8 ming, Belarusda 200 nafardan ortiq yoshlarimiz tahsil olmoqdalar. Mamlakatimizda M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, V.G.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti, I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti kabi bir qancha nufuzli oliygohlarning filiallari faoliyat yuritmoqda.

---

<sup>22</sup> Aktam Hayitov: «EOIIni SSSRga qiyoslash to'g'ri emas». //https://kun.uz/news/2019/10/21/aktam-hayitovyeoiini-sssrqaiyoslashtogriemas

Shuningdek, keyingi yillarda respublikamizdagi bir necha oliygohlarda Rossiya oliygohlari bilan hamkorlikda qo'shma fakultetlar tashkil etilgan. Bulardan kelib chiqib, mazkur ittifoqqa a'zo bo'lib kirish O'zbekiston uchun manfaatli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Oliy Majlis Senatining 20-majlisida Evroosiyo iqtisodiy ittifoqining to'laqonli a'zosi bo'lish ning jihatlari to'g'risidagi fikrlarini bildirdi. Jumladan, mazkur ittifoq doirasidagi savdo-sotiq jarayonlarining optimallashtirish mahalliy tovarlarning xalqaro bozordagi o'rniga salbiy ta'sir etishi qayd etib o'tildi. Shu boisdan, eksport qilinadigan tovarlarning sifatini oshirish, nafaqat ittifoq doirasidagi, balki mahalliy bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlash davlatimiz rahbari tomonidan dolzarb vazifa ekanligi ta'kidlandi.

Endilikda mamlakatimizni xalqaro savdo tizimiga hamda Evroosiyo iqtisodiy ittifoqiga integratsiyalashuvining quyidagi shart-sharoitlarini yaratish lozim bo'ladi:

- iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish, shu jumladan tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish;

- rivojlanish strategiyasini shakllantirish, xalqaro marketingni yo'lga qo'yish;

- tashqi iqtisodiy faoliyatni, shu jumladan xalqaro savdoni tartibga solish va qo'llabquvvatlash;

- xalqaro savdoni moliyalashtirish va infratuzilmani shakllantirish;

- malakali kadrlarni tayyorlash. Fikrimizcha, JST va EOIIga a'zo bo'lish natijasida kutilayotgan salbiy oqibatlar, ya'ni xavfxatarlar ham mavjud bo'lib, ular quyidagilarda namoyon bo'lishi mumkin:

- mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar ortadi, milliy iqtisodiyotning ko'p jihatdan ochiqligi natijasida ayrim tarmoqlarning barqaror rivojlanishi xavf ostida qolishi mumkin;

- tashqi shoklarga nisbatan mamlakat iqtisodiyotining zaifligi ortadi hamda jahon bozoridagi narxlarning tebranishi respublika to'lov balansiga ta'sir etishi mumkin;

- respublikamizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga aynan o'xshash bo'lgan mahsulotlarni nisbatan arzon narxlarda import qilish (tovar intervensiyasi) natijasida sanoat tarmog'ining ayrim bazaviy tarmoqlarida raqobatbardoshlik

pasayishi mumkin;

– muzokaralar jarayonida JST va EOIIga a'zo mamlakatlar bosimi ostida amaliyotga joriy qilinishi lozim bo'lgan bojxona tariflari va bojlarining kamaytirilishi natijasida ilk bosqichlarda davlat byudjetining daromadlar qismi qisqarishi mumkin;

– iqtisodiyotning ayrim strategik tarmoqlarini to'g'ridanto'g'ri qo'llab-quvvatlash bo'yicha hukumat imkoniyatlarining kamayishi;

– transmilliy korporatsiyalar va xorijiy firmalarning mamlakatdagi mavqei oshishi natijasida ular milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini tartibga solish jarayoniga aralashishlari mumkin;

– ichki bozor narxlari, monopoliyalar tariflari, texnik normalar va standartlar, intellektual mulkdan foydalanish qoidalari kabi amaliyotda mavjud bo'lgan tartibga solish usullarini o'zgarmagan holda saqlab qolish imkoniyati ka mayadi.

Mamlakatning jahon xo'jalik tizimiga kirib borishi va xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga, shu jumladan Jahon savdo tashkilotiga va Evroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo bo'lishi jarayonlarida xavfsizlikni ta'minlash uchun vatanimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar raqobatbardoshligini yuksaltirish chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Oxirgi yillarda sanoat tarmog'ining rivojlanish natijalari ko'plab ishlab chiqarish korxonalarining bozor sharoitiga moslashganligi va davlat ko'magi yordamida yuqori samarali ishlab chiqarishni yo'lga qo'yganligini ko'rsatmoqda. shu bilan birga, sanoatda va qishloq xo'jaligida kuzatilayotgan o'sish omillari va manbalarining nobarqaror xarakterini ko'rsatuvchi muammolar ham yuzaga kelgan. Bu hol esa o'zbek tovarlarining jahon bozoriga chiqishiga to'sinlik qilish bilan bir qatorda mamlakatning JST va EOIIga a'zo bo'lishi jarayonida jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkindir<sup>23</sup>. Ushbu muammolarni hal etish va mahsulotlarning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish uchun iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish, boy tabiiy resurslar salohiyatidan foydalanish orqali ustuvor tarmoqlar va ishlab chiqarishni takomillashtirish, uning eksportga yo'naltirilgan tarkibini shakllantirish, mamlakatning eksport salohiyatini rivojlantirish va

---

<sup>23</sup> Kamoliddin Rabbimov. Siyosatshunos: O'zbekistonning YeOIIga qo'shilishidagi 5 salbiy nuqta. //https://kun.uz/news/2019/10/21/siyosatshunosozzbekistonning yeoiiqaqoshilishidagi5salbiynuqta.

mustahkamlash choratadbirlari ko‘riladi.

Jahon xo‘jalik tizimida o‘ziga munosib o‘rinni egallash, iqtisodiy xavfsizlik va yuqori raqobatbardoshlikni ta‘minlash uchun mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish orqali YAIM va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish yillik o‘shish sur‘atlarini yanada oshirish ko‘zda tutilmoqda.

Nazarimizda, O‘zbekistonning JSTga va Evroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a‘zo bo‘lishida milliy manfaatlarni himoya qilish va iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash uchun quyidagilarga erishish maqsadga muvofiqdir:

– JST va EOIIning boshqa a‘zolari bilan savdo qilishda mumkin qadar qulay rejimga ega mamlakat maqomini olish;

– tarif va notarif to‘siqlarning bekor qilinishi natijasida tashqi bozorga, eng avvalo, rivojlangan mamlakatlar bozoriga kirish imkoniyatlarining kengayishi (ayniqsa, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, engil sanoat, teri, to‘qimachilik mahsulotlari, kimyo va ilmhajmkorligi yuqori sanoat mahsulotlariga nisbatan);

– savdo munosabatlarida diskriminatsiyalarga yo‘l qo‘ymaslik, o‘zbek eksportyorlari manfaatlarini xorijda himoya qilish, buning natijasida mamlakat eksporti uchun qulay rejimning barpo bo‘lishiga imkon yaratish;

– xorijiy sarmoyadorlarning ishonchini mustahkamlash, respublika iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalar oqimining ko‘payishi uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, xalqaro kapital bozorida munosib o‘rin egallashga intilish;

– yuklarni JST va EOIIga a‘zo davlatlar hududi orqali erkin tranzit qilish huquqidan samarali foydalanish;

– standartlashtirish va sertifikatsiyalash tizimi asosida savdoda notarif cheklovlardan, shu bilan birga ichki bozorni himoya qilish bo‘yicha tarif choratadbirlari ahamiyatini kamaytirishda sanitar va fitosanitar choratadbirlardan kompensatsion mexanizmlar sifatida keng qamrovli foydalanish;

– savdo sheriklari bilan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tushunmovchilik va bahslarni xalqaro huquq me‘yorlari, JST va EOII tomonidan belgilangan mexanizmlar va qoidalar yordamida hal qilish;

– savdoda vujudga kelgan muammolar yuzasidan JST va EOII a‘zolaridan



maslahatlar olish, tashqi iqtisodiy siyosat hamda hukumatlar va ishtirokchi mamlakatlarning maqsadlari bo'yicha tezkor ma'lumotlarga ega bo'lish. Barqaror iqtisodiy o'sish va xavfsizlikni ta'minlash hamda jahon xo'jalik tizimida mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish uchun quyidagi makroiqtisodiy shart-sharoitlar yaratilishi lozim bo'ladi:

- yillik inflyasiya darajasini bosqichmabosqich 3-4%ga tushirish;
- iqtisodiyotdagi soliq yukini yanada pasaytirishga erishish;
- milliy valyuta barqarorligini ta'minlash;
- bank tizimi va iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishni davom ettirish;
- mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni yanada chuqurlashtirish asosida iqtisodiyotda davlat ulushini oqilona va maqbul darajagacha kamaytirish, xususiylashtirilgan korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishga erishish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish asosida ularning yalpi ichki mahsulotdagi va eksport hajmidagi ulushining yanada o'sishiga erishish;
- erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish, bozor infratuzilmasini jadal rivojlantirish;
- davlatning iqtisodiyotga aralashuvini kamaytirib borish orqali iqtisodiyotni tartibga solishning bozor va davlat mexanizmlarini uyg'unlashtirish;
- institutsional islohotlarni amalga oshirish orqali iqtisodiyotni ma'muriy asosda boshqarishdan voz kechib, uni iqtisodiy vosita va dastaklar orqali tartibga solish mexanizmini yanada takomillashtirish;
- milliy iqtisodiyotning jahon xo'jalik tizimida mustahkam o'rin egalashiga erishish, milliy mahsulotlarning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Jahon xo'jalik tizimi, xalqaro mehnat taqsimoti, tashqi savdo, savdo balansi, to'lov balansi, eksport, import, bojxona, bojxona poshlinalari, bojxona tariflari, tarifli va tarifsiz cheklashlar iqtisodiy raqobatbardoshlik.

## **Takrorlash uchun savollar**

1. Jahon xo'jalik tizimiga integratsiyalashuv sharoitida mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun qanday choralar amalga oshiriladi?
2. Iqtisodiy tartibga solish usullarini sanab o'ting?
3. Davlat organlarining bojxona nazorati vazifalarini bajarishda ko'p qo'llanuvchi xalqaro tajriba usullarini tavsiflang?
4. Ochiq iqtisodiyotning xususiyatlari va potentsial imkoniyatlarini tavsiflang?
5. Respublikamiz tashqi iqtisodiy siyosati qanday tamoyillarga asoslanadi?
6. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi, manfaatlariga tahdidlardan himoyalanih uchun qanday choralarni amalga oshiriladi?
7. Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va uning xavfsizligini ta'minlashda davlatning vazifalari nimalardan iborat?
8. Mamlakat xavfsizligini ta'minlashni boshqarish tizimi o'z ichiga nimalarni oladi?
9. Milliy tovar ishlab chiqaruvchilarning manfaatlarini ichki va tashqi bozorda himoya qilishga qaratilgan oqilona proteksionizm siyosati nimani ko'zga tutgan?
10. Jinoiy guruhlarining iqtisodiyotga kirib kelishining oldini olish choralari tavsiflang?

## **XI-BOB. DAVLATNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA KIBER XAVFSIZLIK**

### **11.1. Axborot texnologiyalarning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rni**

Bugun axborot texnologiyalari kirib bormagan soha qolmadi. Qaysi bir jabhani olmaylik qulaylik, oshkoralik va tezkorlik bobida zamonaviy axborot texnologiyalari yangilanishlarning muhim omiliga aylanib borayotir. Shu bois yurtimizda iqtisodiy xavfsizlik, ijtimoiy farovonlikni ta'minlash, aholi turmush darajasini yanada oshirish uchun barcha jabhaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu borada, eng avvalo, sohaning huquqiy asoslarini shakllantirishga e'tibor qaratilayapti. Xususan, o'tgan davrda "Axborotlashtirish to'g'risida"gi "Telekommunikatsiyalar to'g'risida"gi, "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi, "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi, "Elektron hukumat to'g'risida"gi bir qator qonunlar qabul qilingani buning tasdig'idir.

Axborot texnologiyalarini rivojlantirish va keng qo'llash davlatimizning yaqin hamda uzoq muddatga mo'ljallangan muhim strategik vazifalari qatorida turganini alohida qayd etish joiz. Bunga Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi misolida yana bir bor amin bo'lish mumkin. Unda ta'kidlanganidek, 2030 yilgacha mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini 2 barobardan ziyod oshirishda ilg'or texnologiyalar hamda axborot-kommunikatsiya tizimlarini barcha sohaga yanada faol jalb etish muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, jahon amaliyoti axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining taraqqiyoti mamlakatning raqobatdoshligini oshirish, katta oqimdagi axborotni to'plash va umumlashtirish, boshqaruvni strategik darajada tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratib berishda asosiy omilga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Ayni paytda dunyo bo'yicha yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning o'rtacha 5,5 foizdan ortig'i axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Mutaxassislar fikriga ko'ra, ushbu ko'rsatkich 2020 yilda 9 foizdan oshgan.

Bundan ko‘rinib turibdiki, zamonaviy axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlar daromad bop sohalardan biri sifatida davlat iqtisodiyotini rivojlantirish va iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashda muhim tarmoqlardan biriga aylanib borayotir. Aynan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish davlat idoralari faoliyatining yanada shaffofligini ta‘minlashga, muhim boshqaruv jarayonlarida fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining faol ishtirok etishi uchun sharoit yaratadi. Qolaversa, bugun hayotning o‘zi bizga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish biznes yuritishni yaxshilash, iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish, fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash bilan birga, hayot sifatini oshirishga ham xizmat qilishini ko‘rsatib turibdi.

Shu bois yurtimiz iqtisodiyotida muhim o‘rin tutib borayotgan ushbu tarmoqni jadal sur‘atlar bilan ravnaq toptirish, yalpi ichki mahsulotda uning ulushini muttasil oshirib borish muhim vazifalarimizdan ekanini ko‘rsatadi. Bu jarayonda, davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashda ayniqsa, qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish, amaldagi qonunlarning ijrosini ta‘minlashda parlament nazorati institutini faol qo‘llagan holda aniq mexanizmlarga asoslangan dasturiy chora-tadbirlarni amalga oshirishi davr taqozosidir.

Ma‘lumki, axborot texnologiyalari islohotlar jarayonining ochiqligini ta‘minlash, davlat va jamiyat o‘rtasida samarali axborot almashish mexanizmini o‘rnatishda muhim vosita sanaladi. Ayni paytda Hukumat, vazirlik va idoralar, shuningdek, parlament a‘zolarining aholi bilan samarali muloqot o‘rnatish uchun maxsus virtual qabulxonalari tashkil etilgani, avvalo, jahon amaliyotiga uyg‘un holda sohada qonun hujjatlarini muttasil takomillashtirib borish, yangi qonunlarning mazmun-mohiyatidan keng jamoatchilikni xabardor qilish va ularni amaliyotga samarali tatbiq etishga xizmat qiladi. Bu, ayniqsa, keng jamoatchilik bilan muloqot qilish, istiqboldagi dolzarb masala hamda vazifalarni hayotiy talab va istaklar bilan uyg‘un holda bajarishga yordam beradi.

## 11.2. Axborot texnologiyalarda xavfsizlik tizimlari

Kompyuter tizimlari xavfsizligini aniqlash kriteriyalari (Trusted Computer System Evaluation Criteria yoki Orange book) 1983 yilda chop etilgan bo'lib, hozirgi kungi, 2005 yilda qabul qilingan ISO/IEC 15408 ning analogidir. Ushbu kriteriya zarur yoki maxfiy axborotlarni saqlash, qidirish, kompyuter tizimlarini tanlash, klassifikatsiyalash uchun foydalaniladi. Asosiy maqsadi va vositasi. Xavfsizlik siyosati kompyuter tizimi uchun batafsil bo'lishi, yuqori darajada aniqlanganligi va tegishli bo'lishi shart. Ikki asosiy xavfsizlik siyosati mavjud: mandatga asoslangan xavfsizlik siyosati va diskretsiyon xavfsizlik siyosati. Mandatga asoslangan xavfsizlik siyosatida maxfiy ma'lumotlardan foydalanishda individual yondoshishga asoslanadi. Har bir foydalanuvchiga berilgan ruxsatlar tashkilotdani xavfsizlik siyosatidan kelib chiqadi. Diskretsiyon xavfsizlik siyosatida esa ruxsatni cheklashda va boshqarishda qoidalar to'plamidan foydalaniladi. Bu qoidalar faqat biror kerakli bo'lgan ma'lumotni olishga qaratilgan bo'ladi. Boshqa so'z bilan aytganda har bir ma'lumot uchun foydalanuvchining ruxsatlari turlicha bo'lishi mumkin.

Xavfsizlik siyosatidan bo'lak, individual javobgarlik mavjud bo'lib, ular asosan uchta talabdan iborat:

- autentifikatsiya;
- avtorizatsiya;
- audit.

To'q sariq kitob xavfsiz tizim, ishonchli tizim, xavfsizlik siyosati, kafolatlanganlik darajasi, hisobdorlik, ishonchli hisoblash bazalari, muloqot monitoringi, xavfsizlik yadrosi, xavfsizlik peremetri kabi terminlardan iborat.

Ushbu kriteriya 4 ta: D, C, B va A bo'limlardan iborat bo'lib, xavfsizlik darajasi A da eng yuqori. C, B va A bo'limlar qism bo'limlardan iborat.

D – Eng kichik xavfsizlik talabiga ega bo'lim.

S – Diskretsiyon himoya. S1 – maxfiylikni diskretsiyon ta'minoti bo'lib, foydalanuvchi, ma'lumotlarni bo'limga ajratish va diskretsiyon ruxsatlarni boshqarishdan iborat bo'ladi. S2 – ruxsatlarni boshqarish. Diskretsiyon ruxsatlarni

boshqarishning yuqori aniq bo'lishi, individual foydalanuvchi qayd yozuvi, tizimga ruxsatlarni boshqarish jurnali, resurslarni izotsiyalash.

B – Mandatga asoslangan himoya. B1 – metaxavfsizlikdan foydalanilgan holda himoya. V2 – Tizimlashgan himoya. B3 – Xavfsizlik domeni.

A – sinalgan himoya. A1 – sinalgan dizayn va yuqori A1 qismlaridan iborat.

Umumiy kriteriyalar (Common Criteria for Information Technology Security Evaluation, Common Criteria). Kompyuter xavfsizligi bo'yicha xalqaro standart. Ushbu standart asosiy ikki talabdan iborat: funksional va ishonch talablaridan iborat.

Funksional talablar xavfsizlik maqsadiga ko'ra guruhlanadi. Ummumiy holda 11 ta funksional sinf (3 guruhda), 66 oila va 135 ta komponentdan iborat.

1. Birinchi guruh xavfsizlikning elementar xizmatlarini aniqlaydi.

1. FAU – audit, xavfsizlik.

2. FIA – identifikatsiya, autentifikatsiya. 3. FRU – resurslardan iborat.

2. Elementar xavfsizlik xizmatlaridan xizmatlarni ishlab chiqish.

1. FCO – aloqa (junatuvchi-qabul qiluvchi orasidagi xavfsiz aloqa).

2. FRP – g'ayirilik.

3. FDP – foydalanuvchi ma'lumotlarini himoyalash.

4. FPT – ob'ektni xavfsizligini baholash funksiyasi himoyasi.

3. Uchinchi guruh ob'ektni baholash infratuzilmalari bilan aloqador.

1. FCS – kriptografik himoya.

2. FMT – xavfsizlikni boshqarish.

3. FTA – ob'ektni baholashga ruxsat.

4. FTP – ishonchli kanal.

Xavfsizlik kafolati talablari 10 ta sinf, 44 ta oila va 93 ta komponentdan iborat.

1. Birinchi guruh talablardan tashkil topgan.

1. APE – himoya profilini baholash.

2. AES – xavfsizlik vazifalarini baholash.

2. Ikkinchi guruh ob'ektni attestatsiyalashning hayotiy siklidan iborat. 1. ADV – ob'ektni loyixalash va qurish.

2. ALC – hayotiy siklni qo'llab quvvatlash.

3. ACM – konfiguratsiyani boshqarish.
4. AGD – foydalanuvchi va administratorga.
5. ATE – testlash.
6. AVA – zaifliklarni baholash.
7. ADO – eksplutatsiya va etkazib berishga talablar.
8. AMA – ishonch-talablarini qo‘llab quvvatlash. Avtorizatsiyalash texnologiyalari.

Avtorizatsiyalashda qator texnologiyalardan foydalanilib, ularning asosiylari quyidagilar.

Mandatga asoslangan ruxsatlarni boshqarish (Mandatory Access Control (MAC)). Bu texnologiyaga asosan ob’ekt yoki sub’ektning xavfsizlik bayrog‘iga asosan boshqariladi. Xavfsizlik bayrog‘i xavfsizlik darajasini belgilaydi. Quyidagi 6 (a,b)-jadvalda xavfsizlikni harbiy va savdo sohasida darajalanishi keltirilgan.

### 6 (a)-jadval

#### Harbiy sohada

Klassifikatsiya	Izoh
Klassifikatsiyalanmagan	Axborot maxfiy yoki klassifikatsiyalanmagan emas
Maxfiy ammo klassifikatsiyalanmagan	Axborot ochiq bo‘lsa, unga ziyon etishi mumkin
Konfidensial	Faqat ichki foydalanish uchun ochiq
Maxfiy	Axborot milliy xavfsizlikka jiddiy ta’sir etishi mumkin
Top maxfiy	Axborot milliy xavfsizlikka o‘ta jiddiy ta’sir etishi mumkin

### 6 (b)-jadval

#### Savdo sohasida

Klassifikatsiya	Izoh
Ochiq	Hamma uchun ochiq ma’lumot
Maxfiy	Ma’lumot biznesga ta’sir etishi mumkin
Shaxsiy	Bir shaxsga tegishli ma’lumotlar
Konfidensial	Bu turdagi ma’lumotlar ochilsa tashkilotga jiddiy ta’sir etadi

Bu texnologiyaga asoslangan xavfsizlikni boshqarish modeli bu – Bella-La-Padula modelidir<sup>24</sup>.

Diskretsiyon ruxsatlarni boshqarish. Mandatga asoslangan ruxsatlarni boshqarish tizimi harbiy sohada keng foydalanilsada, diskersion ruxsatlarni boshqarish tizimi o‘zining sodda foydalanilishi bilan ajralib turadi. Bunga ko‘ra ob‘ekt egasi qaysi sub‘ektni nima ish qilishini belgilar beradi. Bu usul mandatga asoslangan usulga qaraganda juda xavfsiz sanalmasada, operatsion tizimlarda keng foydalaniladi. Bunda asosan boshqarish matritsasiidan foydalaniladi<sup>25</sup>.


## 7-jadval

### Ruxsatlar matritsasi

	File 1	File 2	File 3	Program 1
Ann	Own, read, write	Read, write		Execute
Bob	Read		Read, write	
Karl		Read		Execute, read

Rollarga asoslangan ruxsatlarni boshqarish. Bu usulga ko‘ra ruxsatlar sub‘ektlarning rollariga asoslanib beriladi. Bu bir ko‘rinishda guruhlariga ajratishga o‘xshashi mumkin ammo undan farqli ravishda bir foydalanuvchi bir nechta guruhlariga tegishli bo‘lishi mumkin. Ammo umumiy holda, foydalanuvchi yagona rolga ega bo‘ladi. Kapcha.

Kapcha (inglizcha: CAPTCHA — Completely Automated Public Turing test to tell Computers and Humans Apart) - kompyuter èki inson ekanligini aniqlashning ochiq avtomatlashgan Turing testi deb atalib, masofadagi foydalanuvchini inson yoki kompyuter ekanligini aniqlashda foydalaniladi. Bu termin 2000 yilda paydo bo‘lgan bo‘lib, 2013 yilga kelib kuniga o‘rtacha 320 mln. kapcha kiritilgan (5-rasm)<sup>26</sup>.



5-rasm. Kapcha

<sup>24</sup> Stamp Mark. Information security: principles and practice. – p. 271, 276.

<sup>25</sup> Stamp Mark. Information security: principles and practice. – p. 285-286.

<sup>26</sup> Stamp Mark. Information security: principles and practice. – p. 285-286.



Ushbu tizimning asosiy kamchiligi bu har doim ham kapcha yorqin ifodalanmaydi. Gohida uni hattoki inson ham aniqlay olmaydi.

### **11.3. Kiber xavflarning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi tahdidlar**

Bugungi kunda zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida bir vaqtning o'zida ham ma'lumot olish, muloqot qilish, televizor ko'rish, musiqa tinglash, xarid qilish va hatto taomga buyurtma berish imkoniyati bor. Kompyuter va internet bilan qanchalik yaqin do'stlashmaylik, ayrim vaziyatlarda o'ta ehtiyotkorlik zarar qilmaydi. Zero, kompyuterda tanishlar bilan miriqib suhbat qurayotganingizda, kimdir sizga tegishli ma'lumotlarni o'zlashtirib olayotgan bo'lishi mumkin.

“Xaker”mi – “Kraker”mi? Xaker deganda ko'z oldimizga birinchi navbatda kompyuterlarga noqonuniy yo'llar bilan kiradigan, dasturlarni buzib, bank pullarini o'maradigan, viruslar tarqatib, tizimlarni ishdan chiqaradigan kompyuter qaroqchilari keladi. Aslida ham shundaymi? Xakerlar o'zi kimlar, ular qachondan yomon otliq bo'lib qolishdi?

Agar “xaker” so'zining lug'aviy ma'nosiga qarasaq, malakali axborot texnologiyalari mutaxassisi, kompyuter texnologiyalarini puxta o'zlashtirgan shaxs degan tushuncha hosil bo'ladi. Darxaqiqat, bu so'z avvaliga kompyuter dasturlariga oid xatolarni turli usullar bilan tuzatib, muammolarni bartaraf etadigan sohaning eng bilag'on kishilariga nisbatan qo'llanilar edi. Xususan, 1960-yillarda faqatgina eng kuchli va malakali dasturchilarni “xaker” deb ataganlar. O'tgan asrning 70-80-yillarida esa operatsion tizimlarning zaif tomonlarini bartaraf etish maqsadida tizim qaytadan ishlab chiqiladi. Aynan shu davrda kompyuter tarmog'ida avj olgan xufyona o'g'riliklar xakerlarga “buzg'unchi” degan tamg'aning bosilishiga sabab bo'lgan. Lekin, bu xato. Aslida bunday shaxslarni kraker (crack - buzish) deb atagan to'g'riroq bo'lardi.

Jahon miqyosida axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan professional xakerlar soni ham ortib bormoqda. Kompyuter olamidagi 80 foiz foydalanuvchilar xakerlarni o'sha-o'sha jinoyatchilar deb hisoblaydilar. Bungakompyuter tizimida sodiretilayotgan o'g'riliklar sababbo'lmoqda. Kompyuter texnikasi - xavfli qurol!

Aytish joizki, jinoiy maqsadlarni amalga oshirishda kompyuter texnikasi asosiy qurol bo'lib xizmat qilmoqda va undan jinoyat sodir etish vositasi sifatida foydalanilmoqda. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, kompyuter huquqbuzarliklari oqibatida sanoati rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti xar yili milliardlab zarar ko'radi. Kompyuter jinoyatlarining o'ziga xos xavfi hamda uning jahon mamlakatlari sivilizatsiyasiga salbiy ta'sirini hisobga olgan holda, BMT doirasida ushb jinoyatchilikka qarshi kurashishning samarali yo'llarini izlab topish choralari ko'rilmogda. Lekin yaqinda, ushbu yirik tashkilotning o'zi ham xakerlar nishoniga aylandi.

Xakerlarning xujumi oqibatida moliyaviy zarar ko'rish ko'rsatkichi AQSHda taxminan 100 milliard, Britaniyada 4,45 milliard, Evropa Ittifoqi mamlakatlarida 30 milliard AQSH dollarini tashkil qiladi. Aqchamni qaerda saqlay? "Team Poison" xakerlar guruhi o'z Twitter sahifasida BMTning mingdan ziyod xodimlariga tegishli elektron pochta va ularning kalit so'zlarini oshkor qilishganini e'lon qilishdi. BMTni "Global korrupsiya senati" deb atagan xakerlar, tashkilotning ayrim masalalar yuzasidan olib borayotgan siyosatini qoralashgan. Bi-Bi-Si ga intervyu bergan BMT vakili xakerlar chindan ham tashkilot serverini "sindirishgani"ni lekin xavotirga o'rin yo'qligini ma'lum qilgan. Uning aytishicha, o'g'irlangan ma'lumotlar 2007 yilga oid bo'lib, bugun ulardan deyarli foydalanilmaydi.

Kompyuter jinoyatchiligi tarixan bir necha bosqichni bosib o'tgan. Xalqaro ro'yxatga kiritilgan va kompyuter jinoyati deb hisoblangan birinchi voqea 1979 yil Vilnyus shahrida kuzatilgan. O'shanda xakerlar EHM orqali 80 mingga yaqin rublni o'zlashtirib olishgan. Amerika sanoat xavfsizligi jamiyati va "Pricewater house Coopers" kompaniyasi ko'rsatmasiga ko'ra, 1999 yilning o'zida korporatsiyaning 45 milliard AQSH dollariga teng keladigan ma'lumotlarini o'g'irlashga urinishlar bo'lgan. 2000 yilda kompyuter viruslarining tarqalishi oqibatida taxminan 10 milliard AQSH dollari miqdorida moliyaviy zarar ko'rilgan. «LOVE» deb nomlangan 5 milliondan ko'proq kompyuterga tarqalib, hatto Pentagon va Britaniya hukumati kompyuterlariga ham zarar etkazgan. Ma'lumotlarga ko'ra har ikki tashkilot ushbu virus tufayli 8,75 milliard AQSH dollarini yo'qotgan.

Virusning “yubileyi” Dunyodagi birinchi kompyuter virusi – Creeper dasturi yaratilganiga 40 yil to‘ldi. U 1971 yilda AQSH mudofaa vazirligi agentligi tarmog‘i – ARPANET3 ga xizmat ko‘rsatuvchi kompaniya xodimi tomonidan yaratilgan. Amaliy jihatdan Creeper xech qanday zararli virus bo‘lmagan. Muallif Bob Tomas shunchaki kompyuterlar bo‘ylab harakatlanadigan dastur yaratgan xolos. Hozirgi viruslardan farqli o‘laroq Creeper yangi kompyuterga o‘tgach avvalgisidan o‘chib ketavergan. “Virus” atamasi ancha keyin paydo bo‘lgan. 1983 yili kaliforniyalik talaba Fred Koen o‘z-o‘zidan ko‘payuvchi va tarmoqlarga tarqab ketuvchi dastur ustida ish olib borgan, biroq u yaratgan virus ham zararsiz bo‘lib, doimiy nazorat ostida edi. Lekin Koen baribir, kompyuter virusi muallifi sifatida tarixda qoldi. Uning so‘zlariga ko‘ra, bugun global muammo darajasiga etib qolgan viruslarni 100% aniqlab, fosh eta oladigan algoritmi yaratishning iloji yo‘q.

Kasperskiy laboratoriyasining ma‘lumot berishicha, bugungi kunga kelib har kuni xalqaro internet tarmog‘ida 310 mingdan ziyod zararlangan dasturiy viruslar tarqatilmoqda. 2006 yillarda ushbu ko‘rsatkich 1,4 mingtani tashkil qilar edi. Bu esa xalqaro internet tarmog‘idagi kiberhujumlar diapazoni o‘tgan o‘n yil ichida kamida 200 marta oshganidan dalolat beradi. Ayni paytda viruslar orqali amalga oshirilayotgan kiberhujumlar juda xatarli tus olmoqda. Tarqatilayotgan viruslarning aksariyati bank xizmatlarini ko‘rsatadigan jahon axborot tarmog‘ini zaiflashtirish orqali, u erdan moliyaviy ma‘lumotlarni o‘g‘irlashni ko‘zlaydi.

2019 yil tahlillaridan ma‘lum bo‘lishicha, bank-moliya sohasidagi yirik muassasalar, onlayn to‘lov jarayonlarini amalga oshiruvchi tizimlar, savdo majmualari, mehmonxona va savdo terminallari eng ko‘p foydalaniladigan markazlar xakerlarning asosiy diqqat markazida turadi. Misol uchun, Carbanak kiber jinoyatchilik guruhi hamda uning SWIFT nomli xakerlari bank va bir qator moliyaviy institutlardan har yili 1 mln AQSH dollaridan ziyod mablag‘ni o‘g‘irlyadi. Bu turdagi jinoyatlarni amalga oshirish katta mablag‘ keltirgani hamda bu jinoyatlarni fosh etish qiyin bo‘lgani sababli ham, bugun xakerlik jinoyatlari va shunga o‘xshash axborot xurujlari soni ortib bormoqda.

Moliyaviy o'g'irliklar 2019 yilda ko'zlagan fishing hujumlari son va professionallik jihatdan oshmoqda. Xususan, xakerlarning «ko'rinmas qarmog'i» orqali axborot xurujlarini uyushtirish 13,4 foizga oshib, jami moliyaviy kiber hujumlarni ko'zlagan xakerlik jinoyatlarining 47,48 foiz qismini tashkil qilgan. Jumladan, odamlarga bank xizmatlarini ko'rsatishni taklif qilish, soxta bank tizimlarini yaratish orqali zarur axborotlarni o'g'irlash, elektron pochta orqali bank tizimlariga hujum uyushtirish, internet tarmog'ida turli xildagi qiziqarli aksiya va viktorinalarni tashkil etish orqali foydalanuvchilarning ma'lumotlarini o'g'irlash holatlari kuzatilmoqda.

Bank tizimlarini ishdan chiqarishni maqsad qilgan «troyan» viruslari soni 2016 yilda 30,55 foizga oshib, 1088900 taga etgan. Ular orasida ayniqsa «Zbot» eng ko'p tarqalgan, «Gozi», «Nymaim», «Shiotob» ommalashayotgan zararli fayllar oilasi. Bunday virus hujumiga uchragan odamlarning 17,17 foizi tizimlardan korporativ shaklda foydalanuvchilar bo'lishgan. Bunday zararli fayllarni tarqalishi asosan Rossiya, Germaniya, Yaponiya, Vetnam hamda AQSHda ko'p kuzatilgan. Bugun bu kabi viruslar tufayli moliyaviy zarar ko'rayotgan kichik firmalar soni ham ortib bormoqda.

Android tizimi foydalanuvchilariga uyushtirilgan hujumlari soni 2016 yilda 430 foizga oshib, jahon miqyosida 305000 tani tashkil qilmoqda. Jumladan, Rossiya, Avstraliya, Ukraina davlatlarida bu viruslarning keng tarqalgani ma'lum bo'ldi. Xususan, Rossiya hududida «Asacub» hamda «Svpeng» nomli viruslar oilasi ommalashgan. Bu viruslar jamlanmasi ma'lum bir sayt egasi Google saytiga reklama qo'yishga ruxsat berishi evaziga undan pul olishi mumkin bo'lgan Google AdSense xizmati orqali tarqalgan. Bunda Google reklamasi mavjud saytga kirgan Android foydalanuvchisi zararli faylni yuqtirib oladi va xakerlarning «qurboni»ga aylanadi. Shu bois, axborot xavfsizligi sohasi mutaxassislari Android operatsion tizimida faoliyat ko'rsatuvchi devayslar egalariga internetdan foydalanishda ishonchli manbaalarga kirishni maslahat bermoqdalar. Ayniqsa, bank-moliyaviy ilovalari o'rnatilgan mobil qurilmalarga zararli ilovalarni ortirib olish katta yo'qotishlarga sabab bo'lishi mumkin.

So‘nggi yillarda xakerlarning veb-saytlarga uyushtirayotgan hujumlari soni tobora oshib bormoqda. O‘tgan asrning 60-yillarida «xaker» so‘zi kompyuter va axborot texnologiyalarini puxta bilgan insonlarga nisbatan ishlatilgan. Bugungi kunga kelib esa bu so‘z axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida noqonuniy harakatlarni bajaruvchi, axborot tizimlari va dasturlarini buzib kirib, ulardan ruxsatsiz foydalanuvchi, ilova hamda veb-sahifalar muhofazasini buzish va virus tarqatish orqali kiber jinoyatchilik uyushtiradigan shaxsga nisbatan ishlatiladi.

AQSHning Arbor Networks dasturiy ta‘minot ishlab chiqaruvchi kompaniyasi tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalari ma‘lum qilishicha, ishlab chiqarish, kompaniyalar o‘rtasidagi raqobatning kuchayishi ularni virtual dunyoda ham raqibga aylantirgan va kompaniyalar raqiblarining onlayn savdosi yoki tizimlarini ishdan chiqarish maqsadida, xakerlarni yollamoqdalar.

Zamonaviy kiber jinoyatchilik orqali bugun xakerlar ularni yollayotgan muassasalarga xizmatlarini sotishga muvaffaq bo‘lmoqdalar. Ular o‘zlari kirgan tizimlardan ma‘lumotlarni o‘g‘irlab, mijozlariga sotadilar. Yoki yollanma qotillar kabi, boshqa kompaniyaning axborot tizimlarini yo‘q qiladilar. Ushbu xizmatlari uchun xakkerlarga soatiga 2,5 AQSH dollari miqdorida ish haqi to‘lanar ekan. Ayniqsa, bir nechta kompyuterlar tarmog‘ida xizmat ko‘rsatishni rad qiluvchi zararli tizimlarning o‘rnatilishi, ya‘ni DDoS-hujumlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Taxminan har yili 15 mln nafar AQSH fuqarolariga, asosan kompaniya rahbarlariga oid 50 mln AQSH dollari miqdoridagi zararga teng bo‘lgan shaxsiy ma‘lumotlar internet tarmog‘iga uyushtirilgan hujumlar oqibatida o‘g‘irlanadi. Tahlillar bu kabi jinoyatlarning asosan dam olish kunlarida sodir bo‘lishini ko‘rsatadi.

Arbor Networks tahlilchisi Dennis Shvarsning ma‘lum qilishicha, xakerlarning soatiga 2-3 AQSH dollari ishlashlari kutilmagan holat. Boisi, rivojlangan mamlakatlarda xakerlik uchun jinoyatchilar qat‘iy jazoga tortiladilar. Ularning arzimagan mablag‘ evaziga jinoyatga qo‘l urishlari esa achinarli.

2017 yilning 7 fevral kuni Moskva shahrida bo‘lib o‘tgan Kiber xavfsizlik bo‘yicha xalqaro forum (Cyber Security Forum-2017)da kiber jinoyatlar olamida

bugun eng ko‘p tarqalgan uchta xuruj qayd etildi. Ekspertlarning fikricha, birinchidan, fishing orqali ma’lumotlarni o‘g‘irlash, ikkinchidan, maxfiy maqsadga ega mobil ilovalar orqali elektron qurilmalarga kirib borish, uchinchidan, aloqaning himoya qilinmagan kanallarini tomosha qilish orqali bugun ko‘pchilik internet foydalanuvchilari kiber jinoyatlarning qurboniga aylanmoqda.

Bugungi kunda kiber jinoyatchilikda muayyan shaxsning yoki ob’ektning geografik joylashgan nuqtasi to‘g‘risida xabar tarqatish, shaxsiy ma’lumotlar bazasini buzib kirish kabi xizmatlar ommalashgan. Xakkerlar bu kabi ma’lumotlarni internet va ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari tomonidan turli elektron resurslarga ularning foydalanish shartlarini o‘qimasdan turib kirishlari evaziga olishmoqda. Ya’ni, biz ijtimoiy tarmoqda duch keladigan “Necha yil yashaysiz?”, “AQSH prezidenti siz haqingizda nima deydi?”, “Qaysi Gollivud aktyoriga o‘xshaysiz” kabi xizmatlar aslida fishing bo‘lib, siz ulardan foydalanish chog‘ida ularning shartiga rozi bo‘lasiz va o‘zingiz to‘g‘ringizdagi ma’lumotlarni ularga hadya qilgan bo‘lasiz. Bu ma’lumotlar esa maxfiy ravishda tashkil etilgan yirik «qora axborot bozorlari»da katta mablag‘ga sotiladi.

«Kasperskiy laboratoriyasi» asoschisi va rahbari Evgeniy Kasperskiy 2017 yil 27 fevraldan 2 martga qadar Barselonada o‘ttgan Mobile World Congress anjumani chog‘ida zamonaviy texnika, jumladan, internetga ulangan avtomobil va uylarning xavfsizligi bilan bog‘liq muammolarga to‘xtalib o‘tdi. Evgeniy Kasperskiyning ta’kidlashicha, so‘nggi vaqtlarda «aqli uy» va internet buyumlar tizimlariga uyushtirilgan yirik xurujlar aniqlangan. Internetga ulangan har qanday gadjetning IP-manzili orqali «aqli uy»larning holati to‘g‘risida ma’lumotlarni o‘g‘irlash, kompyuterlar tarmog‘i bo‘lgan obonetlarga hujum uyushtirish mumkin.

Xakerlar nafaqat videokameralar, avtomobil, samolyot kompyuterlari, balki bugun ommalashyotgan «aqli chiroq»larni, bundan ham jiddiyroq xavfsizlik tizimlarini masofadan turib ishdan chiqarishadi va ularning ustidan nazoratni qo‘lga olishadi. Natijada, ular yirik avariya, yong‘in va boshqa turdagi baxtsiz hodisalarni sun‘iy ravishda keltirib chiqarishadi. «Kasperskiy laboratoriyasi» tadqiqotlaridan

ma'lum bo'ldiki, internetga ulangan deyarli barcha avtomobillarning raqamli kalitlarini tayyorlash va tizimlarini masofadan boshqarish mumkin.

Xakerlar 2016 yilda Ukraina va Germaniyadagi yirik elektrostansiyalarni virus yordamida o'chirib qo'yishlari bilan bog'liq xurujlar xakerlarning atom stansiyalariga ham uyushtirishi mumkinligi, bu esa fojeali texnogen halokatlarni keltirib chiqarishidan dalolat beradi.

Evgeniy Kasperskiy xakerlarning xurujini inobatga olgan holda, yangi kuchli platforma yaratish g'oyasini ilgari surdi. Uning so'zlariga ko'ra, to'liq himoyalangan tizimni yaratish iloji yo'q, biroq zamonaviy xurujlarga moslasha oladigan turli qurilmalar uchun universal himoya tizimini yaratishning imkoni bor.«Kasperskiy laboratoriyasi» xakerlardan himoya tizimlarini ishlab chiqish bo'yicha tajribali mutaxassislarini ishga oladi. Kasperskiy har qanday tizimni ishlab chiqishda, avvalo, uning xakerlik xurujlariga chidamliligini hisobga olish kerakligini aytdi. Yana bir qiziqarli dalil – Evgeniy Kasperskiy smartfondan foydalanmaydi. Uning Jahon Mobil Kongressi chog'idagi chiqishida tadbir boshlovchisi undan mobil aloqa vositasini ko'rsatishini so'raganida Kasperskiy Sony Ericsson brendidagi eski telefonni qo'liga oldi. Uning so'zlariga ko'ra, “eski telefondan foydalanish uning uchun qulay, bu unga hech qachon pand bermaydi. Eng muhimi, u zamonaviy smartfonlar kabi nozik emas”.

#### **11.4. Kiber xavfsizlikni ta'minlash yo'llari**

“Kasperskiy laboratoriyasi”ning guvohlik berishicha, O'zbekistonda kiber xurujga uchrayotganlarning 1,6 foiziga bank-troyanlari zarar etkazmoqda. Kiber-virus xurujiga uchraganlar orasidan bank-troyanlarining qurboniga aylangan foydalanuvchilar ulushi bo'yicha O'zbekiston jahondagi eng yuqori ko'rsatkichga ega 10 ta mamlakat qatorida 10-o'rinni egallagan. Mobil qurilmalar xavf-xatari geografiyasiga muvofiq, O'zbekistondagi mobil qurilmalarga yilida 1000 tadan 50 mingtagacha zararli virusga ega ilovalar zarar etkazadi.

Bugun tadbirkorlik sohasi rivojlanayotgan, oldi-sotdi munosabatlari raqamli tizimlarga ko'chayotgan bir paytda axborot xavfsizligini ta'minlash masalasining

ahamiyati ham oshib bormoqda. Verizon Data Breach Report tahlilida yozilishicha, barcha kiber xurujlarning 71 foizi kamida 100 nafar xodim ishlaydigan katta kompaniyalarga uyushtiriladi. Bu hujumlar muvaffaqiyatli yakun topsa, “jabrlanuvchi” muassasa kamida 36000 AQSH dollari zarar ko‘radi.

Kompyuter tizimlariga kirishga ruxsat beruvchi parollarni har 6 oyda bir marta yangilash zarurligini jahoning aksariyat kompaniyalari odatlariga aylantirishgan. Aksariyat xakerlar umumiy parollar bilan hujum uyushtiradilar. Shuni alohida ta’kidlash joizki, xodim – xavfsizlikning eng nozik nuqtasi. Fishing-hujumlar foydalanuvchining elektron pochta, ijtimoiy tarmog‘idagi sahifalari orqali axborotlarni o‘g‘irlashga urinishadi. Xaker login va maxfiy so‘zlarni aniqlashga urinib, xodimlarga soxta, asliga aynan o‘xshash saytlarning manzilini yuboradi. Bu kiber jinoyatchilikning oldini olish uchun esa xodim malaka va bilimga muhtoj.

Maxfiy ma’lumotlarning xakerlar qo‘liga tushish holati ko‘proq sobiq xodimlar bilan bog‘lanadi. Shuningdek, zaif veb-saytlar, ayniqsa onlayn to‘lov hamda tizimlar o‘rnatilgan saytlarda kuchli himoyalash choralarini ko‘rish zarur.

Muhim informatsiya doimo shifrlangan shaklda saqlanishi lozim. Ya’ni, ma’lumotlarni shifrlash tizimlarini o‘rnatish maqsadga muvofiq. Mutaxassislarning fikricha, agar har bir internet foydalanuvchisi va xizmat ko‘rsatuvchilar kiber olamda ham hayotdagi kabi ehtiyotkorlikni unutmasalar, aksariyat kiber jinoyatlarning oldi olingan bo‘lar edi. Shuningdek, kiber xurujlardan himoyanishning oddiy usullari ham mavjuddir. Kompyuterni xakerlarxujumi va viruslardanhimoya qilishning 6ta usuli. Kiber o‘g‘rilardan himoyalani uchun quyidagi qoidalarga amal qilish foydadan holi bo‘lmaydi:

Shaxsiy kompyuterdan foydalaniladimi yoki tarmoq kompyuterlarimi, qat’iy nazar 1. Kompyuterda litsenziyali antivirus o‘rnatish va uning bazasini tez-tez yangilab turish; 2. Operatsion tizim va dasturlarni vaqti-vaqti bilan yangilab turish; 3. Disk va papkalarga kirishga ruxsat ochmasdang yoki foydalanib bo‘lgach ularni yana yopib qo‘yish; 4. “Firewall” dan foydalanish va uni yangilab turish. Ushbu dastur kompyuterdagi ma’lumotlarni saqlashga xizmat qiladi; 5. Ishtugagach, agar lokal foydalanuvchi sifatida, virtual serverni o‘chirish; 6. Kalit so‘zlar (parol va kod)ni



faqat so‘z yoki harf emas, balki raqamlar hamda bir necha ramzlardan tuzish. Imkon boricha shaxsiy ma’lumotlarni kompyuterda saqlamaslik lozim. Yuqoridagi qoidalarga amal qilish, o‘z xavfsizligini ta’minlash va axborot texnologiyalari rivojiga hissa qo‘shilgan bo‘ladi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Axborot havfsizligi, kiber havfsizlik, kasperskiy, virus, axborot tizimi, internet, virtual server, kompyuter, antivirus, shaxsiy kompyuter.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishning huquqiy asoslarini tavsiflang?
2. Kompyuter tizimlari xavfsizligini aniqlash kriteriyalari nima maqsadlarda foydalaniladi?
3. Kompyuter tizimlari xavfsizligini aniqlash kriteriyalari asosiy maqsadi nimalardan iborat?
4. Kompyuter tizimlari xavfsizligini aniqlash kriteriyalari vositalari nimalardan iborat?
5. Xavfsizlik siyosatidan bo'lak, individual javobgarlik mavjud bo'lib, ular asosan nechta talabdan iborat?
6. Funktsional talablar xavfsizlik maqsadiga ko'ra nechta guruhga bo'linadi?
7. Xavfsizlikni harbiy va savdo sohasida darajalanishini tavsiflang?
8. Diskretsiyon ruxsatlarni boshqarish tizimini tavsiflang?
9. Xaker tushunchasiga izoh bering?
10. Xakerlarning xujumi oqibatida moliyaviy zarar ko'rish ko'rsatkichini tavsiflang?

## GLOSSARIYLAR

**Afera** – qalloblik, muttahamlik, vijdotsiz harakat yoki ish.

**Barqaror rivojlanish** - hozirgi davrdagi jamiyat taraqqiyotining eng muhim modellaridan biri bo'lib, unga ko'ra eng asosiy vazifa rivojlanishning uzviyligini ta'minlashdir. Barqaror rivojlanish iqtisodiy, ekologik, demografik va boshqa komponentlarni o'z ichiga olgan holda nafaqat bugungi avlodlarning ehtiyojlarini qondirish, balki kelajakdagi avlodlar uchun ehtiyojlarning kafolatlanishini ham maqsad qiladi.

**Byurokratizm** – 1) totalitar davlatga xos boshqarish sistemasi; bu boshqarish sistemasi amaldorlarning (davlat xizmatchilarining), hukmron partiya va militsiya (politsiya) apparatining keng quloch yoygan tarmoqlari va xalq ommasi ustidan hukumronlik qiladigan, totalitar davlat yoki bir xovuch partokratiyaning manfaatini ko'zlab, mehnatkashlarga zulm o'tkazuvchi va ular ustidan zo'ravonlik qiluvchi boshqa rasmiy ma'muriy shaxslar yordamida amalga oshiriladi; 2) quruq rasmiyatchilik, qog'ozbozlik, sansalorlik, masalani ishning mohiyatiga va mehnatkashlarning ehtiyojiga zarar yetkazgan holda yuzaki hal qilish.

**Valyuta siyosati** – davlat va markaziy banklar tomonidan pul va valyuta muomalasi doirasida pulning xarid quvvatiga hamda mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatish maqsadida o'tkaziladigan tadbirlar majmuasi.

**Davlat qarzi** – davlatning o'z fuqarolari, banklar, korxonalar va tashkilotlar, xorijiy mamlakatlardan qarzi. Davlat o'z xarajatlarini daromadi bilan qoplay olmay qarz oladi, qarz hisobidan o'z byudjetining kamomadini vaqtincha qoplaydi. Davlat zayomlar chiqarib, ularni aholiga, korxonalar va tashkilotlarga sotadi.

**Investitsiya** – ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga kapital kiritish (qo'yish). Moliyaviy investitsiya, aktsiya, obligatsiya va boshqa qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish; real investitsiya mamlakat ichkarisida va chet ellarda ishlab chiqarishga kapital kiritish (qo'yish), shuningdek, yosh mustaqil davlatlarga qarz va subsidiyalar berish shakllarida amalga oshiriladi.

**Informatsion xavfsizlik** - shaxs, jamiyat va davlat hayotiy muhim manfaatlarining axborot urushi, intervensiya hamda dezinformatsiya tazyiqlaridan himoyalanganligidir. Informatsion xavfsizlikning mohiyati davlatning informatsion resurslarini saqlash, axborot sohasida shaxs va jamiyatning qonuniy huquqlarini himoyalashdan iboratdir.

**Informatsion xavfsizlik ob'ektlari** – axborot resurslari, ularning shakllanish, tarqalish va foydalanish tizimi, infrastrukturasi, tizim faoliyatini ta'minlovchi tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar.

**Informatsion xavfsizlik resurslari** – davlat va korxonalar, tashkilot va muassasalarning hujjatlar shaklidagi ( kutubxona, arxiv, fond) axborotlar, kompüter dasturlari, bilim va axborot bazalari hamda boshqa tashkilot turlaridan iborat.

**Inflyatsiya** (lot. inflatio – shishish, ko'chish, ko'tarilish) – pulning qadrsizlanishi; muomaladagi pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan ta'minlanmagan pullarning paydo bo'lishi.

**Ishsizlik** – aholi iqtisodiy faol qismining o'ziga ish topa olmasdan qolishi. Mehnatga layoqatli bo'lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta'minlanmagan ishchi kuchi.

**Iqtisodiy jinoyatlar** – milliy iqtisodiyotga, uning tarmoqlari yoki sohalariga, korxonalar, tashkilot va muassasalar hamda fuqarolarga ziyon yetkazadigan yoki ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan, jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik)dir. Bunday jinoyatlarning sodir etilishi natijasida jamiyat, davlat, xo'jalik sub'ektlariga, ayrim fuqarolarga moddiy ziyon yetkaziladi, jamiyatning iqtisodiy negizlariga tajovuz qilinadi. Ularga: 1) o'zgalar mulkini talon-taroj qilish; 2) o'zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar; 3) iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar; 4) xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar kiradi.

**Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar** - mamlakat manfaatlariga xilof ravishda bitimlar tuzish, qalbaki pul yoki qimmatli qog'ozlar yasash, ularni o'tkazish, valyuta bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish, chet el valyutasini yashirish,

soxta tadbirkorlik, soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish, bojxona to'g'risidagi qonunlarni buzish, rangli metallar, ularning parcha va rezgi chiqitlarini tayyorlash, olish, ulardan foydalanish hamda sotish qoidalarini buzish kabilar kiradi.

**Iqtisodiy manfaatlar** – iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari (sub'ektlari)ning o'zlari tomonidan anglangan va ularni faoliyatga undovchi hayotiy ehtiyojlari, iqtisodiy faoliyatni harakatlantiruvchi kuch. Amal qilish darajasiga ko'ra yakka shaxs, guruh yoki korporativ, milliy yoki umumdavlat miqyosidagi iqtisodiy manfaatlar mavjud.

**Iqtisodiy mustaqillik** – milliy iqtisodiyotning chet davlatlarga bog'liqligini kamaytirish va milliy manfaatlariga xizmat qilishi uchun shart-sharoitlarning ta'minlanishi. Uning quyidagi mezonlari mavjud:

**Iqtisodiyotning ochiqligi** – mamlakat iqtisodiyotining chet el tovarlari, kapitali, ishchi kuchi migratsiyasi uchun muayyan darajada ochiq bo'lishini taqozo etadi. Mamlakat chet el bilan iqtisodiy aloqalarini o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda va erkin yuritadi;

**Iqtisodiy siyosat** – mamlakat maqsadlari, vazifalari, manfaatlariga muvofiq holda iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga muayyan yo'nalish berish, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish sohasidagi davlat, hukumat faoliyatining bosh yo'nalishi, tadbirlari tizimi. I.S. agrar, tarkibiy, investitsiya, moliya-kredit, ijtimoiy, tashqi iqtisodiy faoliyat, ilmiy-texnika, soliq, byudjet sohalaridagi siyosatni o'z ichiga oladi.

**Iqtisodiy xavfsizlik** – iqtisodiy kategoriya bo'lib, iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlangan, ijtimoiy ehtiyojlar optimal darajada qondirilgan, ratsional boshqarish amalga oshirilgan, milliy va xalqaro darajalarda iqtisodiy manfaatlarining himoyalangan holatini ifodalaydi. I.X.milliy iqtisodiyot mustaqilligining, uning barqarorligi, mustahkamligi, doimo yangilanishga va o'z-o'zidan takomillashib borishga qodirligini ta'minlovchi shart-sharoitlar va omillar yig'indisidir. I.X.iqtisodiyot va hokimiyat institutlarining shunday holatdagi, bunday holatda mamlakat milliy manfaatlarining kafolatli himoya qilinganligi, mamlakat iqtisodiy rivojlanishining ijtimoiy yo'naltirilganligi, ichki va tashqi jarayonlarining

eng noqulay sharoitlarida ham mudofaa salohiyati yetarli darajada taüminlangan bo'ladi.

**Ichki iqtisodiy xavfsizlik** – tabiiy, texnikaviy, iqtisodiy, infratuzilmaviy, ijtimoiy, mikro va makro iqtisodiy rivojlanishning hamda turli beqarorlikni, tanglikni keltirib chiqaruvchi ichki va tashqi tahdidlar taüsiridan himoya qiluvchi ichki immunitetlar bilan bog'liqdir.

**Iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy ko'rsatkichlari** – iqtisodiyot sohasidagi milliy manfaatlarining miqdor jihatdan ifodalanishi.

**Iqtisodiy razvedka** – xorijiy davlatlarning, raqobatchi korxonalar (firma) larning iqtisodiy salohiyati, iqtisodiy siyosati va iqtisodiy holatiga, doiralari o'ldirishga oid muhim mahfiy ma'lumotlarni yashirincha to'plash.

**Iqtisodiy tahdid** – jamiyat, davlat va ularning sub'ektlari alohida shaxsning normal hayot faoliyatiga, ular manfaatlarini ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiluvchi, ularga ziyon, zarar-zahmat keltiruvchi, xavf-xatar tug'diruvchi omillar, shart-sharoitlar va voqeliklarni ifodalaydi.

**Iqtisodiy shpionaj** – raqibiga zarba berish, raqobat kurashida yengish, xo'jalik faoliyatida o'zib ketish maqsadida tijorat siri hisoblangan ma'lumotlarni yashirincha to'plashga qaratilgan xufyona faoliyat.

**Iqtisodiy qonunbuzarlik** – xo'jalik yuritish amaliyotida belgilangan va qaror topgan qonun-qoidalar va mezonlarga zid xatti-harakat yoki harakatsizlik.

**Kompensatsiya** – ko'rilgan zararni, xarajatlarni qoplash, qarzni qaytarish, o'rnini qoplash, tovon to'lovlari majmui.

**Kontrabanda** (ital. contrabando) – davlat chegarasidan mollar, qimmatbaho buyumlar va boshqa narsalarni qonunga xilof (yashirincha) usullarda o'tkazish, shuningdek, ta'qiqlangan mollarni olib o'tish uchun noqonuniy harakatlar qilish.

**Korxonalar (firmalar)ning iqtisodiy xavfsizligi** – uning hayotiy muhim manfaatlariga xavf soluvchi ichki va tashqi tahdid, tajovuzlardan ma'muriyat va personal tomonidan amalga oshirilgan huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy, injenerlik-texnika tavsifdagi chora- tadbirlar tufayli vujudga keltirilgan himoyalanganlik holatidir.

**Korrupsiya** – mamlakat iqtisodiy resurslariga, davlat mulkini taqsimlash jarayonlarida uning bir qismiga ega bo'lish maqsadida uyushgan jinoiy guruhning shaxsiy boylik orttirish maqsadlarini va urug'-aymoqlarining manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun qo'yuvchi davlat xizmati amaldorlarini o'z domiga ilintirib, ulardan foydalanishi va ular bilan birikib, qo'shilib ketishidir.

**Moddiy zarar** – 1) talofat, katta xarajat, mol-mulk va pul mablag'lardan mahrum bo'lish, to'liq olinmagan foyda; 2) istalmagan o'zgarish va yo'qotishlar, bir sub'ekt faoliyati, harakatlari orqali boshqa sub'ekt, tabiiy atrof-muhitga, odamlarga yetkazilgan zarar. Moddiy zarar korxonaga yoki xo'jalik faoliyatida ishlab chiqarish xarajatlarning daromaddan oshib ketishi natijasida vujudga keladi.

**Narkobiznes** – sof narkotik moddalar va tarkibida shunday moddalar bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish orqali daromad topish.

**Proteksionizm** (fran. protectionisme, lot. protectio – himoya) – davlatning milliy iqtisodiyotining chet el raqobatidan ichki bozorni chet el tovarlarining kirib kelishidan himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosati. Proteksionizm eksportni rag'batlantirish, importni cheklash, import mollaridan boj haqlarini oshirish va shunga o'xshash boshqa tadbirlarida o'z ifodasini topadi.

**Soxta ishbilarmonlik** (tadbirkorlik) – kredit olish, soliqlardan ozod bo'lish, foyda ko'rish yoki taqiqlangan faoliyatni yashirish maqsadida hech qanday ishbilarmonlik yoki bank faoliyatini olib borishni mo'ljallamagan kommertsiya tashkilotini tuzish. Fuqarolarga, tashkilot yoki davlatga katta zarar keltiruvchi iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy faoliyat sohasidagi jinoyatchilik hisoblanadi.

**Strategiya** - korxonaning resurslarini taqsimlash va nazorat qilish orqali belgilangan uzoq muddatli maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan amallarning umumlashtiruvchi majmuidir.

**Tahdid** – jamiyat, davlat va ularning sub'ektlari, alohida shaxsning normal hayot faoliyatiga, ular manfaatlarini ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiladigan, ziyon-zahmat keltiradigan, xavf-xatar tug'diradigan omillar va shart-sharoitlar.

**Ichki tahdidlar** – mamlakat ichida vujudga keladigan tahdidlar.

**Tashqi iqtisodiy sohada xavfsizlik** – mamlakatning jahon bozorlaridagi raqobatga bardoshlilik, milliy valyutaning barqarorligi, davlatning moliyaviy ahvolining barqarorligi bilan tavsiflanadi.

**Siyosiy terrorizm** – siyosiy arboblarga, ular o'tkazayotgan siyosatga, hukumatlarga ta'sir o'tkazish maqsadida amalga oshiriladigan harakatlar.

**Axborot sohasida terrorizm** – jamiyat a'zolarining ruhiyatiga, xulq –atvoriga ta'sir ko'rsatish.

**Iqtisodiy sohadagi terrorizm** – terroristlarning iqtisodiy manfaatga erishish maqsadida raqiblariga, aholining turli qatlamlari va guruhlariga, davlatlar va ularning boshliqlariga ta'sir o'tkazishi.

**Ijtimoiy terrorizm** – jinoyatchilik miqyoslarining kengayishi, kriminal vaziyatning keskinlashuvi, umumiy ijtimoiy beqarorlikning vujudga kelishi.

**Tijorat siri** – ishlab chiqarish va savdo-sotiqning bevosita ishtirokchilarigagina ma'lum bo'lgan va boshqalarga e'lon qilinmaydigan ma'lumotlar. Yangi texnika- texnologiya, ishlab chiqarishni yangichasiga tashkil etish, yangi materiallarni qo'llash, boshqalarda bo'lmagan, hayotiy sikli uzun bo'lgan tovarlarni o'zlashtirish sir tutiladi.

**Xo'jalik faoliyati sohasidagi iqtisodiy jinoyatlar** – sifatsiz mahsulot chiqarish yoki sotish etil spirtli, alkagolli mahsulot va tamaki mahsulotlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish, savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda shug'ullanish, savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish faoliyati bilan litsenziyasiz shug'ullanish, qonunga xilof ravishda axborot to'plash, uni oshkor qilish yoki undan foydalanish, raqobatchilikni obro'sizlantirish kabilardan iborat.

**Xavfsizlik** – har qanday xavf-xatardan o'zini himoyalangan deb hisoblovchi inson ruhining xotirjam holati; insoniyat hayotining turli sohalarida vujudga keladigan xavf-xatar, tahdidlardan himoyalanganlik, kafolatlangan.

**Xavf-xatar** – jamiyat, davlat, xo'jalik sub'ekti, shaxs hayot faoliyatiga, rivojlanishga tahdid soluvchi potentsial yoki real kuch, omil, shart-sharoit, vaziyat.

**Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik** – har bir davlat, ya'ni dunyo hamjamiyati a'zosining o'z ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti strategiyasini erkin tanlash va amalga oshirish imkoniyatlarining ta'minlangandagi holati.

**Xufyona (yashirin) iqtisodiyot** – davlat statistika organlarida hisobga olinmagan, g'ayriqonuniy va iqtisodiy faoliyatga teskari bo'lgan harakatlar yig'indisi. Xufyona iqtisodiyot – bu jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan tovar moddiy boyliklar va xizmatlarning harajati. Alohida fuqarolar va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi davlat boshqaruv organlaridan yashirinadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ham ifodalaydi.

**Yashirish yoki norasmiy iqtisodiyot** – rasmiy hisobotlarda va rasmiy shartnomalarda aks ettirilmaydigan xo'jalik munosabatlari yig'indisi.

**Chayqovchilik** – turli mollarni arzon olib, qimmat sotish bilan daromad topishni ko'zlaydigan faoliyat, man etilgan tijorat ishi; xufyona iqtisodiyotning bir qismi. Chayqovchilik ob'ekti taqchil (defitsit) tovarlardir.

**Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi** – uning hayotiy manfaatlarining, ya'ni yashash va shaxsiy daxlsizlik, erkin mehnat qilish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, mulkdor bo'lish, hayotiy iste'mol ehtiyojlarini qondirish, salomatligini saqlash, bilim olish va kasbga ega bo'lish, qariganda ijtimoiy ta'minot olish huquqlarining himoyalanganligini ifodalaydi.

**Embargo** (isp. ta'qiqlab qo'yish) – 1) Mamlakat tashqarisiga mol, oltin, valyuta va boshqalarni chiqarish yoki kiritishni ta'qiqlab qo'yish, chet mamlakatga qarashli kemalar, yuklar va jihozlarni ushlab qolish; 2) Boshqa mamlakatlarning huquqni buzish harakatlariga javoban hukumat tomonidan boshqa mamlakat yoki o'z kemalarining mamlakat portidan chiqib ketishini talab etishi. Embargo iqtisodiy va siyosiy sabablarga ko'ra hukumat tomonidan joriy etiladi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. Qonunlar va boshqa huquqiy, siyosiy, rasmiy xujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. - T.: O'zbekiston, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi 2017 yil 3 yanvardagi 419-sonli Qonun.
3. O'zbekiston Respublikasining "Mudofaa Doktrinasini to'g'risida"gi 2018 yil 9 yanvardagi O'RQ-458-sonli Qonun.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2017 yil 8 sentyabrdagi PF-5185-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki ob'ektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 17 yanvardagi PF-4933-sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy lashtirilgan korxonalar bilan ishlash samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 18 apreldagi PQ-2895-sonli Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlarning eksport qilinishi va raqobatdoshligini ta'minlashni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 25 maydagi PF-5057-sonli Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 4 sentyabrdagi PQ-3254-sonli Qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiqligini

ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 18 maydagi PF-5995-sonli Farmoni.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi (O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 sentyabrdagi «Xavfsizlik va mudofaa sohasidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-564-son Qonuni) 2020 yil 22 apreldagi PF-5983-sonli Farmoni.
12. “O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida”gi 2018 yil 5 apreldagi O'RQ-471-sonli Qonuni.

## **II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asar va ma’ruzalari**

13. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak: Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muxim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. - T.: “O‘zbekiston”, 2017.
14. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga ko’ramiz: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi // Xalq so'zi, 2016 yil 15 dekabr.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2017 yil 22 dekabr // Xalq so'zi, 2017 yil 23 dekabr.
16. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya erkin va farovon xayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy yettirishning mustaxkam poydevoridir // O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2018 yil 8 dekabr.
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga

murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr // Xalq so'zi, 2018 yil 29 dekabr.

### III. Kitob va risolalar

18. Abduraxmonov Q.X. Inson taraqqiyoti. Darslik. - T.: "Fan va texnologiya", 2013. - 476 b.
19. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot // Darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 4-nashri. - T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyot davlat korxonasi, 2018. - 592 b.
20. Абдурахманов К.Х., Абдуллаев А.М., Дадабаев Ш.Х. Региональная экономика и управление. Учебник // Под ред. Акад. С.С.Гулямова. - Т.: Изд-во "Fan va texnologiya", 2007.
21. Abulqosimov X.P. Iqtisodiy xavfsizlik. O'quv qo'llanma. - T.: Akademiya, 2006. - 224 b.
22. Abulqosimov X.P. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. O'quv qo'llanma. - T.: Akademiya, 2012. – 320 b.
23. Abulqosimov X.P. O'zbekistonda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va kichik tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yo'nalishlari. Monografiya. - T.: Ilmiy-Texnika Axboroti-Press, 2017. - 208 b.
24. Abulqosimov X.P. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. O'quv qo'llanma. - T.: "Noshirlik yog'dusi", 2018. - 520 b.
25. Abulqosimov X.P., Farmonov K.Z., Sodikov A.X. Bojxona va iqtisodiy xavfsizlik. - T.: Iqtisod-Moliya, 2009. – 134 b.
26. Abulqosimov X.P., Rasulov T.S. O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash yo'llari. Risola. - T.: Fan va texnologiya, 2015. – 88 b.
27. Абулкасимов Х.П., Саидахмедова Н.И., Абулкасимов М.Х. Экономическая безопасность предпринимательской деятельности. Учебное пособие. - Т., 2016. – с. 168.
28. Abulqosimov X.P., Rasulov T.S. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning nazariy jixatlari va yo'nalishlari. Monografiya. - T.: Fan va texnologiya, 2017. - 152 b.

29. Абулкасимов Х.П., Расулов Т.С. Особенности научно-технической и инновационной политики стран СНГ, Ближнего и Среднего Востока. Учебное пособие. - Т.: Таш-ГИВ, 2017. – с. 380.
30. Abulqosimov X.P., Abulkosimov M.X. Iqtisodiyotga oid atama va tushunchalarning izohli lug‘ati. - Т.: “AVU MATBUOT-KONSALT”, 2017.
31. Abulqosimov X.P., Rasulov T.S. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi va raqobatbardoshligini ta'minlaingning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. - Т.: LESSON PRESS, 2018.
32. Azizov N.P. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. - Т.: Akademiya, 2018.
33. Авдийский В.Н., Дадалко В.А., Синявский Н.Г. Национальная и региональная экономическая безопасность России. Учебное пособие. - М.: Инфра-М, 2017. – с. 364.
34. Безденежных Т.И. Разработка стратегии обеспечения экономической безопасности на макро-, мезо- и микроуровнях: учебное пособие. СПб.: СПбГЭУ, 2015. – с. 119.
35. Вечканов Г.С. Экономическая безопасность. - СПб: Изд. “Вектор”, 2007.
36. Гафнер В.В., Петров С.В., Забара Л.И. Опасности социального характера и защита от них: учеб. пособие. - М.: Флинта: Наука, 2012. - 320 с.
37. Гордиенко Д.В. Основы экономической безопасности государства. Курс лекций: учеб-метод пособие. - М.: Финансы и статистика, 2012.
38. Гордиенко Д.В. Основы экономической безопасности государств. Аналитический доклад. - М., 2009.
39. Дмитриев Ю.А., Васильева Л.П. Региональная экономика. Учебник. - М.: КноРус, 2016. – с. 262.
40. Елфимова О.С. Основы национальной и экономической безопасности. Учебное пособие. Елфимова О.С. – 2-е изд. – СПб.: Троицкий мост, 2018. – с. 226.
41. Каранина Е.В. Экономическая безопасность. На уровне государства, региона, предприятия. - СПб.: Интермедия, 2017. – с. 412.

42. Кардашова И.Б. Основы теории национальной безопасности. Учебник. - М.: Юрайт, 2018. – с. 302.
43. Кочергина Т.Е. Экономическая безопасность. - Ростов на Дону: Феникс, 2007.
44. Кунцман М.В. Экономическая безопасность: учебное пособие // М.В.Кунцман. - М.: МАДИ, 2016. – с. 152.
45. Литвинов В.А. Основы национальной безопасности России. - М., 2018. – с. 320.
46. Криворотов В.В. Экономическая безопасность государства и регионов. Учебное пособие. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2015. – с. 350.
47. Мельников А.Б., Маханько Г.В. Экономическая безопасность: учебное пособие. - Краснодар КубГУ, 2015. – с. 171.
48. Общая теория национальной безопасности. Учебник. - М.: РАГС, 2013.
49. Садыков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика. – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2005.
50. Экономическая безопасность: учебник для вузов // Под общ.ред. Л.П.Гончаренко. - 2-е изд., перераб.и доп. - М.: Издательство Юрайт, 2018. – с. 340.
51. Экономическая безопасность: учебное пособие для вузов, обучающихся по специальностям экономики и управления // В.А.Богомолов и др.; допр. В.А.Богомолова. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: ЮНИТИДАНА, 2019. – с. 295.
52. Экономическая безопасность России: Общий курс: Учебник // Под ред. В.К.Сенчагова. 2-изд. - М.: Дело, 2005. – с. 895.
53. Экономическая безопасность: теория, методология, практика // Под науч. ред. Никитенко П.Г., Булавко В.Г.; Институт экономики НАН Беларуси. - Минск: Право и экономика, 2009. – с. 394.
54. Экономика и организация безопасности хозяйствующих субъектов, 2-е изд - СПб.: Питер, 2004.
55. Qobilov Sh.R. Milliy xavfsizlikning iqtisodiy muammolari. - Т.: O'zR IIV

Akademiyasi, 2006.

56. Qobilov Sh.R. Globallashuv va xavfsizlik. - T.: O'zR IIV Akademiyasi, 2006.
57. Чувилова О.Н., Романюта И.В., Берсей Д.Д., Ионов Ч.Х.-Б., Рыбина Ю.В. Региональные аспекты экономической безопасности страны в условиях глобализации. - М.: Проспект, 2017. – с. 94.

#### **IV. Jurnal va gazetalar, ilmiy to'plamlardagi makolalar va tezislar**

58. Abduganiev O.A. Mintaqaning oziq-ovqat bilan ta'minlanganligini baholash usullari va mezonlari // Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, 2018. - №3.
59. Abulqosimov X.P., Abulqosimov M.X. O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash omillari // Iqtisod va moliya, 2015. - № 8. 44-51-b.
60. Abulqosimov X.P. O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning ayrim masalalari // O'zbekiston iqtisodiyotini institusional rivojlantirish: yutuqlar, muammolar, yechimlar mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ilmiy maqolalar va ma'ruzalar tezislari to'plami. 1-qism. - T.: Fan va texnologiya, 2016. - 32-35 b.
61. Abulqosimov X.P., Rasulov T.S., Mamaraximov B.E., Sharipov K.B. O'zbekistonda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish istiqbollari // J. Ucheniy XXI veka, 2016. - № 5-4 (18). - 77-83 b.
62. Abulqosimov X.P. Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy xavfsizligiga tahdid va uni bartaraf etish yo'llari // J. "Moliya", 2016. - №4. - 137-142 b.
63. Abulkasimov X.P., Saidaxmedova N.I. Supplying food safety issues in Uzbekistan // J. European journal of economics and management sciences, Austria, Vienna, 2017. - № 1. – p. 17-21.
64. Abulqosimov X.P. Firibgarlik-tadbirkorlik iqtisodiy xavfsizligiga tahdid // J. Iqtisod va moliya // Ekonomika i finansi, 2017. - №3. - 33-37 b.
65. Abulqosimov X.P. Tadbirkorlik faoliyati xavfsizligini ta'minlashning nazariy jixatlari // J. Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar: Ilmiy-metodologik va

- ilmiy-uslubiy jurnal, 2018. - №2. - 25-32 b.
66. Abulqosimov M.D. Bozor iqtisodiyoti sharoitida shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jixatlari va yo'llari // J. Iqtisod va moliya, 2017. - № 5. - 46-53 b.
  67. Abulqosimov X.P. Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yo'nalishlari // J. Biznes-ekspert, 2017. - № 11. - 47-50 b.
  68. Abulqosimov M.X. Shaxs iqtisodiy xavfsizligiga taxdidlar va ularning oldini olish yo'llari // J. Iqtisod va moliya, 2017. - № 12. - 19-25 b.
  69. Abulkosimov X.P. O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish-shaxs iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning muxim sharti // J. Iqtisod va moliya, 2018. - № 4. - 56-61 b.
  70. Алексеев С.Л., Киямов И.К., Сергеева Ю.С., Киямова Л.И., Николаева А.Р. Противодействие коррупции в обеспечении экономически безопасного развития государства на современном этапе // Вестник НЦ БЖД. – 2018. – №2 (36). – с. 55-61.
  71. Борисова Д.И., Тимошенко К.В. Экономическая безопасность в социальной сфере: проблемы или возможности? // Молодой ученый. - 2016. - №6.3. - с. 10-13.
  72. Гуреева М.А. Экономическая безопасность личности в России // Международный научный журнал “Символ науки”, 2016. №4. - с. 57-63.
  73. Дронов Р. Подходы к обеспечению экономической безопасности // Экономист, 2011. - №2.
  74. Значение транспорта в обеспечение национальной экономической безопасности // Transport Busines in Rossia, 2016. - №6. - с. 10-13.
  75. Исажонов А.А. Конкурентоспособность национальной экономики: мировой опыт и современные тенденции развития // Экономический вестник Ўзбекистана, 2014. - №6.
  76. Маглакелидзе Т. Экономическая и экологическая безопасность: взаимосвязь и влияние на экономический рост // Экономист, 2012. - № 6.

77. Макроэкономические и региональные аспекты моделирования устойчивого экономического роста, форум экономистов Узбекистана: [материалы], Ташкент // Под ред. д.э.н. А.М.Садыкова; Ин-т прогнозирования и макроэкономических исследований, Программа Развития ООН.
78. Mamaraximov В.Е. O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va sanoatini rivojlantirish // Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, 2016. - №5.
79. Прохожев А., Корнилов М. О проблеме критериев оценок экономической безопасности // Общество и экономика, 2013. - № 4-5.

#### **V. Xorijiy nashrlardagi kitob va maqolalar**

80. Arcudi G. (англ.) русск.. La securite entre permanence et changement // Relations Internationales (фр.) русск, 2016. - № 125. - с. 97-109.
81. Bilgin P. Individual and Societal Dimensions of Security // International Studies Review (англ.) русск. - 2013. - Vol. 5, № 2. - p. 203-222.
82. Buzan B., Kelstrup M., Lemaitre P., Tromer E., Waever O. (англ.) русск. Identity, Migration and the New Security Agenda in Europe (англ.) русск.. - Pinter, 2013. – p. 221.
83. Buzan B., Waever O. (англ.) русск., Wilde J. de (англ.) русск.. Security: A New Framework for Analysis (англ.) русск.. Boulder, London: Lynne Rienner Publishers (англ.) русск., 2018. – p. 240.
84. Distributed Ledger Technology & Cybersecurity: Improving information security in the financial sector (2016).
85. McSweeney B. (англ.) русск.. Identity and Security: Buzan and the Copenhagen School // Review of International Studies (англ.) русск.. - 2016. - № 22. - p. 81-96.
86. Mc Connell, Brue. Economics. 17th edition. Mcgraw-hill/Irwin, USA, 2014.
87. N. Gregory Mankiw. Principles of Economics, 7th Edition. Amazon, USA 2016.



## **VI. Statistik tuplam va manbalar**

88. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. Statistik to‘plam 2015-2019 yil. - Toshkent, 2020.
89. O‘zbekiston raqamlarda. Statistik to‘plam 2015-2019 yil. - Toshkent, 2020.
90. Экономика Узбекистана: информационно-аналитический бюллетень за 2019 год. - Т., 2020.

## **VII. Internet saytlar**

91. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
92. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
93. <http://parliament.gov.uz>
94. <http://strategy.regulation.gov.uz>
95. <https://www.shs-conferences.org> - System performance indicators of regional economic security
96. <https://dspace.kpfu.ru> - Economic Security Policy of the Russian Federation
97. <https://www.researchgate.net> - Threats to economic security of the region
98. <https://journals.aserspublishing.eu> - Economic Security of Regions